



University of
Business and Science

ISSN:3060-5040

ILMIY

AXBOROTNOMA

2-son

2025



journal-ubsu.uz



UNIVERSITY OF BUSINESS
AND SCIENCE

ILMIY AXBOROTNOMA

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan berilgan 2024-yil
22-yanvardagi 210192-sonli guvohnomaga asosan chop etiladi.

UBS Ilmiy Axborotnomasi
Научный Вестник UBS
UBS Scientific Bulletin

2025-YIL 25-IYUN
2-SON

O'zbekiston 2025



Bosh muharrir: University of Business and Science rektori, geografiya fanlari doktori, professor K.M. Boymirzayev

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent A.R.Nurmatov

Mas'ul texnik muharrir: N.M.Eraliyev

TAHRIR HAY'ATI

Fizika-matematika va texnika

fanlari:

f-m.f.d., prof. M.M.Rahmatullayev,

f-m.f.d., prof. R.M.Xakimov,

Biologiya fanlari:

b.f.d., akademik K.Sh.Tojiboyev,

b.f.d., dotsent. A.Batoshev,

b.f.d., dotsent. D.B.Dexqanov.

Tarix fanlari:

tar.f.d., prof. A.N.Rasulov,

tar.f.d., prof. F.A.Maqsudov,

tar.f.d., dotsent. B.A.Usmonov.

Iqtisodiyot fanlari:

i.f.d., dots. M.X.G'aniyev,

i.f.d., dots. N.Sotvoldiyev.

Falsafa fanlari:

s.f.d., prof. T.Fayzullayev,

f.f.d., prof. A.M.Mirzahmedov,

s.f.d., prof. N.B.Dexqanov.

Filologiya fanlari:

fil.f.d., prof. Z.Ya.Sodiqov,

fil.f.d., prof. N.Ulukov,

fil.f.d., prof. X.Sh.Usmonova.

Geografiya fanlari:

g.f.d., prof. S.B.Abbasov,

g.f.d., dots. Sh.Jumaxanov,

g.f.d., dots. O.T.Mirzamahmudov.

Pedagogika va psixologiya

fanlari:

p.f.d., prof. M.Sobirova,

p.f.d., prof. Sh.K.Xo'jambardiyeva

Tahririyat manzili:

Namangan shaxri, Beshkapa ko'chasi, 111-uy.

Tel: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** info@ubsu.uz

Jurnal rasmiy sayti:

journal.ubsu.uz/index.php/main/index

Mundarija / Содержание / Contents	
07.00.00-Tarix fanlari	
“SOVET DAVRIDA FARG’ONA VODIYSIDA SUG’ORMA DEHQONCHILIKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI” Isoridinov Nuriddin Zuxridinovich	7
O‘ZBEKISTON YOSHLARING INTELEKTUAL SALOHİYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI Jobborov Zokirjon Abdug‘appor o‘g‘li	13
“O‘ZBEKISTON SSRNING 1950–1980-YILLARDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA KADRLAR SIYOSATI” Madaminov Ulug‘bek Muhammadjon o‘g‘li	17
"XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O‘LKAMIZDA TIBBIYOT SOHASIDA OLIB BORILGAN ISHLAR” Nuritdinov Azizxon Usmanovich	22
“O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR (1991–2024): STRATEGIK HAMKORLIKNING RIVOJLANISH YO‘LI” Sarimsokov Abdilatip Abdiraximovich Mirzamaxmudov Muxammadjon Tursunpulotovich	29
BOSITXON IBN SHOSHIY MEROSI Tursunova Nigora Anvarovna Ziyodullayev Foziljon Baxromjonzoda	34
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari	
BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA OPERATSION BOSHQARUVNING AHAMIYATI Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li Egamnazarova Umidaxon Sherxonovna	38
“MEHNAT BOZORIDA NORASMIY ISH O‘RINLARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA BANDLIKA KO‘MAKLASHISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI VA ISTIQBOLLI STRATEGIYASI” Levakov Izzatulla Nematillayevich O‘ktamov Shoxruxbek Ulug‘bek o‘g‘li	42
“IMPORTANCE OF TRANSPORT IN THE INTERNATIONAL ECONOMIC RELATIONS OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION” Gulmatov Umarali Xabibulla o‘g‘li	47
08.00.00-Falsafa fanlari	
“O‘ZBEKISTON SHAROITIDA UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMI ORQALI YOSHLARNING MA‘NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH” Ergashbayev Shohbozbek Oybek o‘g‘li	54
10.00.00-Filologiya fanlari	
NAMANGAN ADABIY HARAKATCHILIGI MANBALARI Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna	62
OMONIM SO‘ZLARNING LINGVISTIK TAHLILI (“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARI MISOLIDA) Gafurova Umida Kadirxanovna	69
XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN ADABIY HARAKATCHILIGI VAKILI: SUHAYLIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI Mamaziyoyeva Ozoda Botirali qizi	72
O‘XSHATISHLAR ORQALI MADANIY TAFAKKUR IFODASI: O. HENRY VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL Mamarasulov Ahmadjon Anvarjon o‘g‘li	79
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVISTIK KORPUS MASALASI Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o‘g‘li	84
O‘ZBEK TILI MADANIY MEROSIDA FLORISTIK LEKSIKANING AHAMIYATI Pazlitdinova Nargiza Zuriddinovna	91

OLIY TA'LIM MUASSASSALARI TALABALARIGA INGLIZ TILI DARSLARIDA YURIDIK TERMINLARNI O'QITISH MUAMMOLARI, USLUBLARI VA SHAKLLARI Soliyev Bahodir Daminovich	95
YUSUF ALAYHISSALOMNING UCH KO'YLAGI Qurbonov Abdulhamid Abduqayumovich	102
TOG'AY MUROD ASARLARI ORQALI TALABALARDA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARNI MUSTAHKAMLASH G'aybullayev Boburmirzo Nomonjon o'g'li	107
ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ УРОКА ЛИТЕРАТУРЫ: ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ Исманова Малуда Мамадалиевна	111
АКТИВИЗАЦИЯ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ КОММУНИКАТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ШКОЛЬНОМ ОБУЧЕНИИ Пак Галина Ен-Уновна	117
РОЛЬ ЛИТЕРАТУРНОГО КОДА В АНТИУТОПИИ Б. ЭЛТОНА «СЛЕПАЯ ВЕРА» Пулатова Виктория Искандеровна	123
ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА КУЛЬТУРНО-СПЕЦИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ (В СФЕРЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ) В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ Рахматова Гулнора Турсиновна Махмудова Манзура Мухарамовна	127
13.00.00-Pedagogika fanlari	
TALABALARDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna Mo'minova Shoxista G'ulomjon qizi	137
XIX-XX ASR 1-YARMIDA O'ZBEKISTON PEDAGOGIKASIDA MILLIYLIK TAMOYILINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI Akramov G'iyosiddin Najmiddin o'g'li Mamadiyev Dilmurod Abdumasudovich	140
PEDAGOGIK JARAYONLARDA TIZIM TUSHUNCHASI VA ULARDAN FOYDALANISHNING UMUMIY TAVSIFI Axrorova Umida Xamidullayevna	144
O'ZBEKISTONDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA AMALIY KO'NIKMALAR VA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH Bo'stonov Dilyorbek Dilshodbek o'g'li Yuldashev Javohir Abdurakhimovich	150
XORIJIY DAVLATLARDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI Ergashbayeva Nodiraxon Hasanboy qizi Topildiyev Odiljon Rakhimjonovich	155
XORIJIY DAVLATLARDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI Ergashbayev Shoxruhbek Shuxratjon o'g'li Botirova Sevara Ma'murovna	161
O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI ORQALI UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH Ismoilov Temurbek Islomovich Ibrohimov Muhammadayub Imomnazar o'g'li	167
O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNI O'RNI Jurayeva Onarxon Abduxakimova Narzullayev Doniyor Shuxrat o'g'li	171
OLIY TA'LIMDA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI) O'QITISHDA KREATIV VA INNOVATSION FIKRLASH: TA'LIMDA YANGI YONDASHUVLAR Kodirov Alijon Abdumannonovich	177
KELAJAKDAGI AYOL MUSIQA O'QITUVCHILARINING OILA VA JAMIYATDAGI GENDER TENGLIGI MUAMMOLARI Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna	182

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNI YARATISH. Mo'minova Shoxistaxon G'ulomjon qizi	187
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT YO'NALISHLARI MAGISTR TALABALARIDA PEDAGOGIK TOLERANTLIK TAFAKKURNIRIVOJLANTIRISH Narzullayev Doniyor Shuxrat o'g'li	192
6-7 YOSHLI BOLALARNI KOGNITIV KO'NIKMALARINI RAQAMLI TEXNALOGIYA ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI Nuritdinova Shaxnoza Komoliddinovna	199
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNING BILISH JARAYONI BILAN BOG'LIQ PEDAGOGIK MUAMMOLAR Odilova Barchinoy Donyorbek qizi To'xtasinova Farida Davlatali qizi	203
XORIJIY DAVLATLARDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI Tursunov E'zozbek Erkinboy o'g'li Mamatov Obidxon Vaqqosovich	209
ILK O'SPRINLIK DAVRIDAGI BOLALARNING MUSTAQIL HAYOTGA BO'LGAN QARASHLARI Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li	215
MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANGICH TALIM O'RTASIDA MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI Xusanova Gulzira Qo'shoqboy qizi Ismoilov Temurbek Islomovich	219
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY TARBIYA G'opporov Elyorbek Otabekovich Xolmirzayeva Madinaxon Muxriddin qizi	224
19.00.00-Psixologiya fanlari	
SHAXS XARAKTER AKSENTUATSIYASI TIPLARI VA UNING PSIXOPROFILAKTIKASI Jurayev Xaydarjon Odilboyevich	230



SOVET DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDA SUG'ORMA DEHQONCHILIKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Isoridinov Nuriddin Zuxridinovich

“University of Business and Science”

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

isordinovnuriddin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sovet davrida Farg'ona vodiysida sug'orma dehqonchilikning rivojlanish bosqichlari, irrigatsiya tizimlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z: Farg'ona vodiysi, irrigatsiya, kanal, ariq, Yangiariq, Norin, Qoradaryo, Chust kanali, Oxunboboev kanali, Xodikent kanali, Qayroqqum suv ombori, Xonobod-Andijon suv ombori.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ОРОШАЕМОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Аннотация: В статье рассматриваются этапы развития орошаемого земледелия и ирригационных систем в Ферганской долине в советское время.

Ключевые слова: Ферганская долина, ирригация, канал, канава, Янгиарик, Нарын, Карадарья, Чустский канал, Ахунбобоев канал, Ходикентский канал, Кайраккумское водохранилище, Ханабад-Андижанское водохранилище.

STAGE OF DEVELOPMENT OROSHAEMOGO ZEMLEDELIYA V FERGANSKOY DOLLINE AND SOVIET PERIOD

Abstract: This article discusses the stages of development of irrigated agriculture and irrigation systems in the Fergana Valley during the Soviet era.

Keywords: Fergana Valley, irrigation, canal, ditch, Yangiariq, Naryn, Karadarya, Chust Canal, Akhunboboev Canal, Khodikent Canal, Kairakkum Reservoir, Khanobod-Andijan Reservoir.

Kirish.

1917-yil oktyabr oyidagi davlat to'ntarishidan so'ng siyosiy hokimiyat tepasiga kelgan sovet hukumatiga ulardan avvalgi mustamlakachi imperiya hukumatining Farg'ona vodiysidagi 40 yildan ortiq hukmronligi davridan juda ham nochor qishloq xo'jaligi va eng primitiv irrigatsiya sistemalari meros bo'lib qolgan edi. Buning ustiga, Farg'ona vodiysida sovet rejimiga qarshi qurolli kurash davrida xalq xo'jaligiga, birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga va uning sun'iy sug'orish tarmoqlariga juda katta zarar yetkazildi. Natijada, o'lka iqtisodining eng muhim sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarish urushdan ilgariga nisbatan uchdan ikki qismga qisqarib ketdi [1].

1921-yilga kelib, Farg'ona vodiysida ekin maydoni 1914-yilga nisbatan 63 foizga qisqardi, paxta hosildorligi esa gektar boshiga 13,7 sentnerdan, 4,2 sentnerga tushib qoldi. Qishloq xo'jaligining bunchalik katta zarar ko'rganligiga asosiy sabab irrigatsiya inshootlari va suv taqsimotining buzilishi edi. Chunki bu davrda vodiya

mavjud bo'lgan yirik suv sistemalari—Kampirrovot to'g'oni, Isfayramsoydagi Polomon suv taqsimlagichi, Namangandagi Yangiariq kanalining bosh inshooti, Ulug'nahr sistemasi va boshqa qator kanallar, ariq, to'g'onlar harbiy harakatlar tufayli butunlay yaroqsiz holatga kelib qolgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Sovet hokimiyati 1918-yil aprel oyida markaziy hukumatni iqtisodiy bohrondan olib chiqishning muhim omillaridan biri, yengil sanoatni Turkiston o'lkasidan keltiriladigan xom ashyo paxta ekanligini anglagan holda, o'lkaning barcha joylarida yer-suv qo'mitalarini qaytadan tashkil etish to'g'risida ko'rsatma berdi. Bu markaziy hukumatning o'lka yer-suv boyliklarini o'z qo'liga kiritish borasidagi ilk o'tkazgan tadbiri bo'ldi.

1918-yil 17-mayda esa imperiya mustamlakasi davrida rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmay qolgan Turkiston o'lka sining sug'orish ishlariga va bu ishlarni tashkil qilishga 50 mln so'm ajratish haqida dekret e'lon qilinib, unga ko'ra, Farg'ona vodiysining Uchqo'rg'on cho'lida 10 ming desyatina yangi yerni o'zlashtirish va viloyatdagi 20 ming desyatina yerni sug'oradigan mahalliy suv inshootlarini tartibga solish kuzda tutilgan edi [2].

1925-1926-yillarda Namangan viloyatida Podshootasoy irrigatsiya tizimi, Yangiariq, Norin va boshqa sug'orish tizimlarini tubdan qayta tiklash ishlari amalga oshirildi [3].

XX asrning 30-yillari boshlarida sovet hokimiyatining qishloq xo'jaligini qayta qurish noqobi ostida vodiydagi irrigatsiya qurilishi sohasida o'z oldiga o'lkani tabiiy boyliklarini qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan siyosatni amalga oshirish borasidagi ilk chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu davrda buzilib yotgan, butunlay ishdan chiqqan sug'orish tarmoqlari kanallar va ariqlar qayta qurilib, ta'mirlarnib ishga tushirildi. Yangi kanali va Rozenbax arig'ida bosh to'g'onlar qurildi. Kosonsoy, G'ovasoy, Chortoqsoy va Podshootasoyda ta'mirlash ishlari bajarildi. Amalga oshirilgan ishlar Farg'ona vodiysida ekin maydonlarning kengaytirishga imkon yaratdi. Masalan, Namanganda 1915-yilda 82 ming gektar yer sug'orishda foydalanilgan bo'lsa, 1934-yilda 129 ming gektar yer sugo'rib, dehqonchilikda ishlatildi. Bu yerlarning qariyb 65,5 ming gektariga o'zlashtirilgan yildan boshlab paxta eikilgan [4].

1931–1940 yillarda Andijon hududida Asaka, Nayman, Qo'shko'prik va Ulug'nor kanallarida suv oqimi-ta'minotini yaxshilash ishlari amalga oshirildi. Shahrixonsoyda regulyator, Tentaksay, Chortoqsoy, Oqbo'ra, Savay dyukkerlar orqali suv ta'minotini yaxshilashga va uni to'g'ri taqsimlashga e'tibor qaratildi. 1940-yili eng katta Kampirovot to'g'oni qurilishi Andijon viloyatida suv chiqarish va suv olish inshootlaridan foydalanish imkoniyatini berdi [5].

1941-1945-yillarda Namangan viloyatida irrigatsiya qurilishlari davom etdi. 1942-yilda qurilgan Kosonsoy va Chust tumanlari hududlaridagi uzunligi 40 km. dan iborat Chust kanali 4,4 ming gektar, 1944-yilda qurilgan 5,5 km. dan iborat Yuqori Uchqo'rg'on kanali esa 1,6 ming gektar yangi yerlarni sug'orish imkonini berdi. O'rta To'qay suv omborida 1950-yil 100 mln. kubometr suv to'plandi. Shuningdek, 1949-yilda Chust kanali, 1947-1949-yillarda Oxunboboev nomli kanal,

1950-yilda Podshootasoy irrigatsiya tizimidagi Xodikent kanallarining kengaytirilishi natijasida ekin maydonlari 7,0 foizga ko'paydi, lalmikor yerlardagi ekin maydonlari esa 4 marta ko'paydi [6].

Muhokama.

Urushdan keyingi yillarda sovet ma'murlari respublikada paxta ekin maydonlarini kengaytirishga astoydil harakat qildi. Jumladan, 1946-1950-yillarda paxta maydoni 815,6 ming ga dan 1098,1 ming ga, yalpi hosili esa 1118 ming t.dan 2226 ming t.ga ko'paydi. Shu davrdan boshlab respublika qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi siyosati yanada kuchaydi. Markaz paxta etishtirish uchun qulay tabiiy sharoit va imkoniyatga ega Farg'ona vodiysiga ayrica e'tibor qaratdi. Jumladan, sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 1952-yil 2-sentyabrdagi «Paxtachilikni kelgusida rivojlantirish uchun O'zSSRning Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi erlarni sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi fikrimizni to'la isbotlaydi. Qarorda yaqin 4-5 yil ichida, ya'ni 1953- yildan boshlab Markaziy Farg'onada 65 ming ga qo'riq erni (shu bilan birga irrigatsiya tarmog'ida mavjud bo'lgan 15 ming ga qarovsiz qoldirilgan erlarni) o'zlashtirish masalasi ko'rib chiqildi. Mazkur qarordan kelib chiqib vodiydagi barcha sug'orish ishlari paxta yakkahokimligiga to'la ma'noda bo'ysundirildi. Shu davrdan boshlab o'lka hududida ko'plab irrigatsiya inshootlari qurildi yoki mavjudlari yangilandi [7].

Markaziy Farg'onada yerlarni sug'orish va o'zlashtirish uchun 1953–1963-yillar davomida amalda 40425,8 ming rubl sarflandi [8]. 50-yillarning o'rtalariga qadar Farg'ona va Namangan viloyatlari orqali o'tuvchi Oxunboboyev nomli kanali qurildi. 1954-yili Namangan viloyatida Kosonsoy suv ombori ishga tushirildi [9].

Farg'ona vodiysidagi bo'z va qo'riq erlarni o'zlashtirish boshlangan. O'tgan davr ichida sahro va qumtepa joylarida zamonaviy aholi yashaydigan qishloqlar, yangi xo'jaliklar paydo bo'ldi. Bo'z va Ulug'nor tumanlari tashkil etildi. 1962-yildan Sharof Rashidovning tashabbusi bilan o'sha vaqtdagi sobiq Ittifoq rahbarlarini qiyinchilik bilan roziligini olib, Andijon suv ombori qurilishi boshlandi. Bu gigant sun'iy havza 6 ming gektardan ko'p maydonni egallagan va 1 milliard 750 million kuba metr suv saqlaydigan va qurg'oqchilik paytida 44 ming gektar yangi erlarni o'zlashtirish, 400 ming eski ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash imkonini berardi. Shu joydan Kampirovot va Jalolobod magistral kanallari boshlanadi. Ular dalalarga namlik keltirib 100 ming tonna paxta, 75 ming tonna sabzavot, 150 ming tonna meva-cheva yaratish imkonini beradi. Bu inshoot tufayli paxta har gektaridan hosildorlik o'rtacha 4 sentnerga ortishi ko'zlangan. Bu ulkan qurilish 1982-yilda nihoyasiga etdi. Andijon suv ombori balandligi 121 metr, uzunligi 140 metr bo'lgan betonli katta kontrforsli to'g'on hosil qilindi. Suv sig'imi 1,9 milliard m³. Gidrouzel tarkibiga to'g'on, suv o'tkazuvchi inshootlar va GES kiradi. Ana shu sovetlar davridagi Katta Farg'ona kanali va Andijon suv ombori qurilishida minglab, o'n minglab andijonliklar mehnat qilib, nafaqat Andijon viloyatini, balki butun vodiyni, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta xissa qo'shdilar [10].

Nazariya va natija.

Markaziy Farg'ona qo'riq yerlarini o'zlashtirish maqsadida katta hajmda

irrigatsiya inshootlari qurildi. 70-yillarda Farg'ona vodiysini suv bilan ta'minlashni yaxshilash, cho'llarni o'zlashtirish uchun sersuv Norin daryosidan suv oladigan Katta Andijon, Katta Namangan kanallari va sig'imi 2 mlrd kub metr keladigan eng yirik Andijon suv ombori qurildi [11]. 1971–1980-yillarda Andijon oblastida 28 nasos stansiyasi qurilib foydalanishga topshirildi [12].

Andijon oblastida 1950–1990-yillarda sug'oriladigan maydonlarning o'sishi va ularda foydalaniladigan suv miqdori yildan-yilga ortib bordi. Oblastda sug'oriladigan maydonlar 1950-yilda 217 ming gektar, 1960-yilda 245,1 ming gektar, 1970-yilda 265,5 ming gektar, 1980-yilda 282,1 ming gektar, 1990-yilda 289 ming gektarga teng bo'ldi [13].

Sho'rolar davrida Namangan viloyatdagi asosiy sug'orish tarmog'i - Shimoliy Farg'ona kanalining suv o'tkazish quvvatini oshirishga ham alohida e'tibor berildi. Shu maqsadda kanalning 120 km. uzunligidagi o'zani kengaytirildi, hamda chuqurlashtirildi. Sug'orish tarmoqlari, temir yo'l va avtomobil yo'llari kesib o'tgan joylardagi gidrotexnik inshootlar qayta qurildi. Natijada, esa 30,0 ming gektar paxta maydonida suv ta'minotini yaxshilandi. Shu bilan birga Shimoliy Farg'ona kanali suvi mashinalar orqali kamsuv hududlarga chiqarib beriladi. Mahalliy suv manbalarini katta bo'lmagan suv omborlariga oqizish tartibga solindi. Yer osti suvlaridan rejali foydalanish yo'lga qo'yildi.

Viloyatning suv kam bo'lgan hududlari, ayniqsa, Kosonsoy, Chust, To'raqo'rg'on, Pop va Yangiqo'rg'on tumanlarida eski sug'orish tarmoqlari qayta qurildi. Ularning 419 km.dan iborat qismi betonlashtirildi. Natijada suvning yerga singib ketishini keskin kamaytirish evaziga foydalanish koeffitsienti 0,80 ga yetkazildi, dalalarga suv ta'minotini 30,0 foizga oshirish imkoniyati tug'ildi. Viloyatda jami quvvati sekundiga 5 kubometr bo'lgan 357 ta artezian qudug'i qazildi [14].

Sho'rolar hukmronligi davrida Farg'ona vodiysida Qayroqqum, Andijon, So'x suv omborlari qurilishi bilan vodiyning mo'tadil iqlimi o'zgara boshladi. Yer osti suvlarining ko'tarilish jarayoni tezlashdi. Chunki sho'rolar davrida suv omborlari daryolarning o'zanlariga bunyod etilgan bo'lib, ularning suvdan foydalanish koefitsienti juda ham past hisoblanadi. Bu holat quyidagilar bilan izohlanadi. Suv omborlarining suvida ekin hamda tuproq unumdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan turli minerallarga boy tabiiy loyqa bo'lmaydi. Chunki daryo suvlari suv omborlarda to'planib, loyqa suv ombor tubiga cho'kadi. Omborning harorati past, tiniq suvi bir tomondan sug'oriladigan erlarning erroziyasini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan esa bu suv hosil pishib etilishining kechikishiga olib keladi. Vodiy sug'orma dehqonchiligiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatayotgan suv inshooti bu Qayroqqum suv omboridir. Chunki ushbu suv ombori Sirdaryoning o'zanida vodiyni tabiiy daryolar suvi chiquvchi darvozasida barpo etilgan bo'lib, u daryoning hamda yer osti suvlari yo'lida sun'iy to'siq hisoblanadi. Bu esa vodiya sug'orma dehqonchilikdan ortiqcha tashlama suvlarning suv ombor hududiga kelib to'planishiga va o'z navbatida vodiya miqyosida yer osti suvlarining ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda [15].

1985-yilga kelib suv omborlari soni yana ham ko'paydi. Ularning ta'siri

ostida daryolarning suvi tarkibida tuz va zaharli moddalar ko'payib ketdi. Natijada yerlarning sho'rlanishi milliy fojia sifatida har tomonlama xavf sola boshladi. Namangan yerlarining 48 foizi, Andijon yerlarining 23 foizi kuchli sho'rlandi. Respublikamizda 1,5 mln gektardan ortiq yerlar sho'rlangan edi [16].

1989-yilda O'zbekiston qishloq aholisining 5 foizi kanalizasiya va salkam 50 foizi normal ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi, xolos [17].

Sobiq Ittifoqning so'nggi davriga kelib butun O'zbekistonda bo'lgani kabi aholi o'ta zich joylashgan Andijon viloyatida ham bir qator ijtimoiy masalalar ko'nda lang bo'lib turardi. Shulardan biri yer va suv tanqisligi edi. Chunki viloyatning umumiy yer maydoni O'zbekiston hududining bor-yo'g'i 0,9 foizini tashkil etgan holda, bu erda mamlakatimiz aholisining 10 foizi istiqomat qilgan. 1989-yildan boshlab Andijonda muhtoj oilalarga 8 sotixdan er uchastkalari berish boshlandi. O'zbekiston xali Ittifoq tarkibida ekanligidayoq, shu vaqtgacha mamlakatimizning xomashyo resurslaridan tekin foydalanib kelingan Moskvaga ijtimoiy masalalarni xal etish bo'yicha jiddiy talablar qo'yila boshlandi. Shulardan biri Andijon shahri aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi edi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay Sverdlovskdan diametri 1,5 metrga teng metall quvurlar keltirila boshlandi. Natijada Xonobod-Andijon suv tarmog'i barpo etilib, aholi eng arzon va eng sifatli bo'lgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi [18].

Xulosa.

Yuqorida keltirilgan tarixiy ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinli Far'ona vodiysi aholisi uzoq sug'orma dehqonchilik madaniyatiga ega. O'zining ming yillar davomida sug'orish a'nanalariga ega. Yirik daryo va soylarning mavjudligi suv bilan bog'liq madaniyatning shakllanishiga va sodda texnikalar ishlata olganligi ma'lum. Suvni milliy qadriyatimizda ezozlash va uni isrof qilmaslik masalasi Rossiya imperiyasi va sovet davroga kelib yo'qotildi hamda bu bilan bo'g'liq qarashlar inobatga olinmadi. Natijada yerlarni sho'rlashish, sizob suvlarining ko'tarilishi hamda ekologik holatining og'irlashuvi kabi muammolarning ko'ndalang bo'lishiga olib keldi. Suniy suv ishootlarining qurilishi hududning demografik vaziyati inobatga olinmadi va ekin maydonlarining qisqarishiga va aksincha qo'riq va bo'z yerlarning o'zlashtirilishi suv manbaalaridan samarasiz foydalanishga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон ССР тарихи. III том. –Т.: 1967. – Б. 32
2. Sharofiddinov M. Namanganda sovet mustamlakachiligi davrida irrigatsiya tizimi va sug'orish inshootlari. // Research Focus –2023. –№11. B. 29.
3. Sharofiddinov M. Namanganda sovet mustamlakachiligi davrida irrigatsiya tizimi va sug'orish inshootlari. // Research Focus –2023. –№11. B. 30.
4. Насритдинов Қобилжон. Фарғона водийси деҳқончилигидаги милерация муаммолари: тарихи ва таҳлили. (XX асрнинг биринчи ярми) // Ўтмишга назар. –2019. –№22. B. 14.
5. Шамсутдинов Р.Т., Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. –Т.: Шарқ, 2013. –Б 317.

6. Sharofiddinov M. Namanganda sovet mustamlakachiligi davrida irrigatsiya tizimi va sugʻorish inshootlari. // Research Focus –2023. –№11. B. 31.
7. Абдуллаев Б. XX асрнинг 50-90 йилларида фарғона водийсида мавжуд сув омборлари ва ирригация иншоотлари // [Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | Issue 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor \(SJIF\) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00537](#)
8. Turgunov A. Andijon oblastida irrigatsiya-melioratsiya ishlari (1941–1991-yillar) // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue. –2024. –№10. B. 493.
9. Nazirov B.S., Yaqubova D.T Oʻzbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar). –Termiz. Bekshox print servis. –B. 409.
10. Шамсутдинов Р.Т., Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. – Т.: Шарқ, 2013. –Б 318.
11. Nazirov B.S., Yaqubova D.T Oʻzbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar). –Termiz. Bekshox print servis. –B. 421.
12. Turgunov A. Andijon oblastida irrigatsiya-melioratsiya ishlari (1941–1991-yillar) // Жамият ва инновациялар. –2024. №10. B. 495.
13. Turgunov A. Andijon oblastida irrigatsiya-melioratsiya ishlari (1941–1991-yillar) // Жамият ва инновациялар. –2024. –№10. B. 494.
14. Sharofiddinov M.M. Namanganda sovet mustamlakachiligi davrida irrigatsiya tizimi va sugʻorish inshootlari. // Research Focus. –2023. №11. –B. 33.
15. Насриддинов Қ. Фарғона водийси суғорма деҳқончилигининг ўзига хос жиҳатлари. / Андижон Давлат университетининг 75 йиллигига бағишланган 16. “Истикпол ва миллий тарих” мавзуидаги илмий-амалий конференция (2006 йил 28-29 декабр) материаллари. -Андижон., Andijon nashriyot-matbaa. 2007. –Б 138.
17. Nazirov B.S., Yaqubova D.T Oʻzbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar). –Termiz. Bekshox print servis. –B. 435.
18. Шамсутдинов Р.Т., Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. – Т.: Шарқ, 2013. –Б 340.
19. Шамсутдинов Р.Т., Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. – Т.: Шарқ, 2013. –Б 378-380.

O‘ZBEKISTON YOSHLARING INTELEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI

Jobborov Zokirjon Abdug‘appor o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti 1-kurs magistri
[*jabborovzokirjon66@gmail.com*](mailto:jabborovzokirjon66@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining intellektual salohiyati hamda uni oshirishga qaratilgan davlat siyosati borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Taraqqiyot, yoshlar, intellektual salohiyat, davlat siyosati, salohiyat, tashabbus.

STATE POLICY AIMED AT INCREASING THE INTELLECTUAL CAPACITY OF UZBEKISTAN'S YOUTH

Annotation: This article presents ideas and observations on the intellectual potential of our country's youth today and state policy aimed at increasing it.

Keywords: Development, youth, intellectual potential, state policy, potential, initiative.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА, НАПРАВЛЕННАЯ НА ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотаци: В данной статье представлены идеи и наблюдения относительно интеллектуального потенциала современной молодежи нашей страны и государственной политики, направленной на его повышение.

Ключевые слова: Развитие, молодежь, интеллектуальный потенциал, государственная политика, потенциал, инициатива.

Kirish.

Bugungi kunda ilmiy-texnika taraqqiyoti shaxsiy va intellektual salohiyatning rivojlanishi va o‘rishini rag‘batlantirmoqda, bu esa o‘z navbatida yoshlarning dunyoqarashi o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlar muammolarining ustuvor ekanligini hisobga olib, yosh avlodning huquq va erkinliklarini ta‘minlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, yoshlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlari yaratish, eng avvalo ular mehnatini tartibga solinishida zarur huquqiy vositalar yaratish ularni himoya qilish uchun bir qator ilg‘or islohotlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning noyob tizimi yaratildi. Shu asosda farzandlarimizni zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish, bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida muhim natijalarga erishilmoqda [2].

Yangi O‘zbekistoni bunyod etishga qaratilgan, shiddatli va izchil yangilanishlar davrida yoshlar ma‘naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy holati,

kayfiyatini o'rganish, orzu-umidlariga quvvat berish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham yurtimiz yoshlarini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, salohiyatini yuzaga chiqarishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 18-iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida ushbu samarali va ta’sirchan tizim mohiyatini ochib berish zarurligi ta’kidlangani bejiz emas. Chunki bugun mamlakatimizda ayni shu tizim asosida amalga oshirilgan ibratli ishlar O‘zbekistonning yoshlar siyosati ko‘plab davlatlar uchun andoza bo‘lishga munosibligidan dalolat beradi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan [3].

Muhokama.

Mamlakatimizda yoshlar siyosati borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar dunyo miqyosida tan olinayotgani tahsinga sazovor. Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko‘ra, o‘tgan yili O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e’tirof etilgani buning yana bir yaqqol isboti bo‘ldi. Yangi O‘zbekistoni bunyod etishga qaratilgan, shiddatli va izchil yangilanishlar davrida yoshlar ma’naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, kayfiyatini o'rganish, orzu-umidlariga quvvat berish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham yurtimiz yoshlarini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, salohiyatini yuzaga chiqarishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Insonlardagi shaxsiy tashabbus va hayotga bo‘lgan muhabat kabi his-tuyg‘ular natijasida inson intellekti ham rivojlana boshladi. Hozirgi zamonga kelib esa bu intellektlar shu darajaga kelganki suniy intellekt (suniy aql) darajasiga yetib bordi. Intelektual jarayonlar barcha sohani va barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlarning hayotida ham asosiy o‘rin egalab bormoqda. Bu yoshlar ongida ham o‘zini namoyon qilib kelmoqda. Shu bilan birga yoshlarning intellektual salohiyati rivojlantirishda manaviy olamning o‘rni ham beqiyos bo‘lib bormoqda. Chunki yangi davrda yoshlar manaviy olami albatta asosiy o‘ringa chiqdi. Bunday jarayonlarni hisobga olib intellektual salohiyatli kadrlar tayorlashga qaratilgan keng ko‘lamdagi davlatimiz tomonidan qilinayotgan ishlar albatta o‘z samarasini berib kelmoqda. Yani yurtimizda amalga oshirilayotga ko‘plab ko‘rik tanlovlar, musobaqalar va ilmiy konfrensiyalar yoshlarimizning intellektual salohiyatini

rivojlanishida o'z poydevorini qo'yib bermoqda. Shu bilan birga xalqarodarajadagi ilmiy olimpida musobaqalari yoki yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga asoslangan zamonaviy kasblar o'rgatuvchi o'quv –ilmiy faoliyatlari ham yoshlarimizning intellektual rivojlanishiga asosiy ustun ro'lini o'ynab bermoqda. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning g'oyaviy omillari nimalarda ko'rinmoqda? Yoki yoshlar intellektining o'sib borishida mafkuraviy omillar qanday degan? asosiy savollar tug'uladi. Yoshlar intellektini rivojlanishida g'oyaviy omillarning tasiri kattadir. Bu borada ayniqsa moddiy yoki shaxsiy ehtiyojlar natijasida vujudga kelayotgan mativatsiyon g'oyalarning o'zni alohida ahamiyatga egadir.

Insonlardagi shaxsiy tashabbus va hayotga bo'lgan muhabat kabi his-tuyg'ular natijasida inson intellekti ham rivojlana boshladi. Hozirgi zamonga kelib esa bu intellektlar shu darajaga kelganki suniy intellekt (suniy aql) darajasiga yetib bordi [1]. Intellektual jarayonlar barcha sohani va barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlarning hayotida ham asosiy o'rin egallab bermoqda. Bu yoshlar ongida ham o'zini namoyon qilib kelmoqda. Shu bilan birga yoshlarning intellektual salohiyati rivojlantirishda manaviy olamning o'zni ham beqiyos bo'lib bermoqda. Chunki yangi davrda yoshlar manaviy olami albatta asosiy o'ringa chiqdi. Bunday jarayonlarni hisobga olib intellektual salohiyatli kadrlar tayorlashga qaratilgan keng ko'lamdagi davlatimiz tomonidan qilinayotgan ishlar albatta o'z samarasini berib kelmoqda. Yani yurtimizda amalga oshirilayotga ko'plab ko'rik tanlovlar, musobaqalar va ilmiy konfrensiyalar yoshlarimizning intellektual salohiyatini rivojlanishida o'z poydevorini qo'yib bermoqda. Shu bilan birga xalqarodarajadagi ilmiy olimpida musobaqalari yoki yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga asoslangan zamonaviy kasblar o'rgatuvchi o'quv –ilmiy faoliyatlari ham yoshlarimizning intellektual rivojlanishiga asosiy ustun ro'lini o'ynab bermoqda. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning g'oyaviy omillari nimalarda ko'rinmoqda? Yoki yoshlar intellektining o'sib borishida mafkuraviy omillar qanday degan? asosiy savollar tug'uladi.

Natija va nazariya.

Yoshlarni tarbiyalash va ularni ilmga muhabat bilan o'stirishda oilaviy muhit katta o'rin egallaydi. Agarda biron bir oilada ilmga muhabat bo'lmasa va ilm haqida tushuncha salbiy bo'lsa o'sha oilda katta bo'lgan farzandlarning kelajagi yaxshi bo'lmasligini hayotning o'zi isbotlagan [4]. Bizning ulug' va pok dinimizda ham ilm olishga davatlar ko'pdir. Shuning uchun ota-bobolarimiz ilm haqida ijobiy fikrlar berib o'tishganini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida Abdulla Avloniyning quydagi so'zlarini tilga olsak ham bo'ladi: "Ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur". Shu bilan birgalikda Abdulla Avloniy ilmini ulug'ligiga misol qilib Payg'ambarimizning quydagi so'zlarini aytib o'tadilar yani: "Payg'ambarimiz: "Ilmga amal qilguchilardan bo'lingiz, naql va rivoyta qilguchilardan bo'lmangiz", - demishlar"shu so'zlarning o'zi ham naqadar ilm muqaddas ekanligini ko'rsatadi. Misol qilib olingan barcha so'zlar yoshlarimizning intellektual salohiyati uchun

g‘oyaviy – mafkurafiy jihatdan naqadar muhim ekanligini ko‘rsatib qolmay balki, yoshlarimizning intellektual salohiyatlarini asosida nima bo‘lishi va ular intellektual rivojlanishda nimaga etibor berishlar kerak ekanligini ko‘rsatib boradi.

Yoshlarni tarbiyalash va ularni ilmga muhabat bilan o‘stirishda oilaviy muhit katta o‘rin egallaydi. Agarda biron bir oilada ilmga muhabat bo‘lmasa va ilm haqida tushuncha salbiy bo‘lsa o‘sha oilda katta bo‘lgan farzandlarning kelajagi yaxshi bo‘lmasligini hayotning o‘zi isbotlagan. Bizning ulug‘ va pok dinimizda ham ilm olishga davatlar ko‘pdir. Shuning uchun ota-bobolarimiz ilm haqida ijobiy fikrlar berib o‘tishganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida Abdulla Avloniyning quydagi so‘zlarini tilga olsak ham bo‘ladi: “Ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur”. Shu bilan birgalikda Abdulla Avloniy ilmini ulug‘ligiga misol qilib Payg‘ambarimizning quydagi so‘zlarini aytib o‘tadilar yani: “Payg‘ambarimiz: “Ilmga amal qilguchilardan bo‘lingiz, naql va rivoyta qilguchilardan bo‘lmangiz”, - demishlar”shu so‘zlarning o‘zi ham naqadar ilm muqaddas ekanligini ko‘rsatadi. Misol qilib olingan barcha so‘zlar yoshlarimizning intellektual salohiyati uchun g‘oyaviy – mafkurafiy jihatdan naqadar muhim ekanligini ko‘rsatib qolmay balki, yoshlarimizning intellektual salohiyatlarini asosida nima bo‘lishi va ular intellektual rivojlanishda nimaga etibor berishlar kerak ekanligini ko‘rsatib boradi.

Xulosa.

Umuman olganda, bugungi yuksalish davri siyosatida mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa hozirda intellektual jihatdan yetuk va ijodiy salohiyatli hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, mamlakatimizning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan yoshlarni tarbiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirilishini nazarda tutadi. Komillik kaliti yuksak huquqiy madaniyatga erishuvimizdadir. Mamlakatimizda yoshlarni ilmiy, yuksak ma‘naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalashga katta e‘tibor karatilayotganligi bejizga emas. Yurtimizda yuksak huquqiy madaniyatli kishilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, qonun ustuvorligiga erishish shunchalik oson bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 243-bet.
2. Саидов А.Х. Янги Ўзбекистонда ёшлар сиёсати. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2021. 9-10 бетлар.
3. Ўзбекистон Республикасининг Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги Қонуни // Халқ сўзи. 2016 йил 15 сентябрь
4. “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi 2019 yil UO,K: 005
5. Хасанова М. Жамият ижтимоий сиёсий, маънавий ҳаётида

ёшларнинг ўрни ва иштироки//<http://inson.huquqlari.uz/uz/articles/jamiyat-ijtimoiy-siyosiy-manaviy-xayotida>

O‘ZBEKISTON SSRNING 1950–1980-YILLARDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA KADRLAR SIYOSATI

Madaminov Ulug‘bek Muhammadjon o‘g‘li
University of Business and Science
Ijtimoiy gumanitar kafedrası stajyor o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRda 1950–1980-yillar oralig‘ida sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar va kadrlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Sog‘liqni saqlash muassasalari tarmog‘ining kengayishi, ilmiy-tadqiqot institutlarining tashkil etilishi, tibbiy kadrlar tayyorlash tizimidagi o‘zgarishlar, shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish choralari yoritiladi. Maqolada tarixiy manbalar va arxiv ma‘lumotlari asosida sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishiga ilmiy baho berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy islohotlar, kadrlar siyosati, tibbiy ta‘lim, ilmiy institutlar, tarixiy tahlil.

РЕФОРМЫ И КАДРОВАЯ ПОЛИТИКА В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР В 1950–1980-Е ГГ.

Аннотация: В статье анализируются основные направления реформ и кадровой политики в системе здравоохранения Узбекской ССР в период 1950–1980-х годов. Раскрывается расширение сети медицинских учреждений, создание научно-исследовательских институтов, изменения в системе подготовки медицинских кадров, а также существующие проблемы и пути их решения. На основе исторических источников и архивных данных дается научная оценка развитию системы здравоохранения.

Ключевые слова: Узбекская ССР, система здравоохранения, медицинские реформы, кадровая политика, медицинское образование, научные институты, исторический анализ.

REFORMS AND PERSONNEL POLICY IN THE HEALTHCARE SYSTEM OF THE UZBEKISTAN SSR IN THE 1950S–1980S

Annotation: This article analyzes the main directions of reforms and personnel policy in the healthcare system of the Uzbek SSR during the 1950s–1980s. It highlights the expansion of medical institutions, the establishment of scientific research institutes, changes in medical education, as well as existing challenges and solutions. Based on historical sources and archival data, the article provides a scholarly assessment of the healthcare system's development.

Keywords: Uzbek SSR, healthcare system, medical reforms, personnel policy, medical education, research institutes, historical analysis.

Kirish.

XX asrning ikkinchi yarmi, xususan, 1950–1980-yillar oralig‘i sobiq Sovet

Ittifoqi tarkibidagi respublikalar, jumladan O'zbekiston SSR uchun ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan sog'liqni saqlash tizimida ham tub o'zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Ayni paytda sog'liqni saqlash sohasining institutsional asoslari shakllanib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi sezilarli darajada yaxshilangan. Ayniqsa, qishloq joylarida tibbiy muassasalar sonining ortishi, profilaktika ishlarining yo'lga qo'yilishi va tibbiy kadrlar tayyorlash tizimining kengaytirilishi bu sohadagi muhim yutuqlardan hisoblanadi [1].

Ushbu davrda sog'liqni saqlash tizimi markazlashgan va rejalashtirilgan boshqaruv asosida faoliyat yuritgan bo'lib, O'zbekiston SSR sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan respublikaning barcha hududlarida tibbiy xizmat ko'rsatishning sifati va qamrovini oshirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilgan [2]. Tibbiyot oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari sonining ko'payishi, ilmiy-tadqiqot institutlarining tashkil topishi, shuningdek, tor ixtisoslashgan klinikalarning ochilishi- bu sohada olib borilgan siyosatning samarali jihatlaridan biridir [3]. Biroq, sovet davrining ijobiy tomonlari bilan birga, ayrim muammolari ham mavjud edi. Xususan, byurokratik boshqaruv usullari, resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va kadrlar yetishmovchiligi kabi muammolar sog'liqni saqlash tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [4]. Ushbu maqola 1950–1980-yillarda O'zbekiston SSR sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari, kadrlar siyosatining shakllanishi, tibbiy ta'lim va ilmiy izlanishlarning roli hamda mavjud muammolarning tarixiy tahlilini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari asosida, sog'liqni saqlash tizimidagi yutuqlar va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati, shuningdek, o'sha yillardagi tajribaning bugungi tibbiyot siyosatiga ta'siri yoritib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

1950–1980-yillar oralig'ida O'zbekiston SSR sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi va undagi islohotlar jarayoni turli tarixiy, siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazarlardan bir qator ilmiy manbalarda o'rganilgan. Biroq, bu sohadagi tadqiqotlarning aksariyati umumiy tarixiy kontekstda olib borilgan bo'lib, sog'liqni saqlash tizimidagi kadrlar siyosati va islohotlarining chuqur, kompleks tahlili cheklangan darajada qolgan.

Sovet davrida sog'liqni saqlash tizimi bo'yicha yozilgan klassik manbalar, xususan A. P. Громыко va E. M. Тарле kabi mualliflar asarlarida sog'liqni saqlashning marksistik-lenincha tamoyillarga asoslangan tashkiliy jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Bu manbalarda O'zbekiston SSRga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar oz bo'sa-da, sovet sog'liqni saqlash tizimining umumiy modeli tushuntiriladi [5].

O'zbek tarixshunosligida mazkur masalaga doir ilk izlanishlar XX asr oxirlariga to'g'ri keladi. Jumladan, A. Hamidovning "O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish tarixi (1950–1990)" nomli monografiyasida O'zbekiston SSRda tibbiy xizmat tarmoqlari kengaygani, shifokorlar va hamshiralar tayyorlash tizimi rivojlangani haqida batafsil ma'lumot berilgan [6]. Muallifning ishlanmalari tibbiy-siyosiy strategiyaning tarixiy asoslarini ochib beradi. Shuningdek, U. Abdullayevning maqolalarida sog'liqni saqlash tizimidagi kadrlar

siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil etilgan [7]. Muallif sovet davrida kadrlar tanlash, ularni lavozimga tayinlashdagi mafkuraviy mezonlar, byurokratik to‘siqlar va ushbu tizimning samaradorligi bilan bog‘liq ziddiyatlarni yoritadi.

N. Fayzullayevning O‘zbekiston tibbiyot tarixi asoslari nomli darsligi esa tarixiy tahlilni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan birlashtirgan bo‘lib, tibbiy bilim yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining shakllanishi, ularning regionlardagi ahamiyati haqida statistik ma‘lumotlar asosida fikr yuritadi [8]. Yana bir muhim manba-Sh. Ibragimovning tadqiqotlarida sog‘liqni saqlash tizimining zaif nuqtalari, ayniqsa, qishloq joylaridagi sanitariya holati, yuqumli kasalliklarning oldini olishdagi kamchiliklar, moddiy-texnik bazaning yetishmovchiligi tahlil qilingan[9]. Ushbu tadqiqotlar orqali sog‘liqni saqlash sohasidagi muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar to‘g‘risida muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, ilmiy ta‘lim muassasalari faoliyati, kadrlar tayyorlash va boshqaruv siyosatining muhim jihatlarini ochib beradi. Biroq, bu manbalar ayrim hollarda tanqidiy yondashuvdan xoli, statistikani tahlil qilishda chuqurlik yetishmasligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqola aynan ana shu bo‘shliqlarni to‘ldirishga, tibbiyot sohasidagi tarixiy islohotlar va kadrlar siyosatini kompleks va tanqidiy tarzda o‘rganishga qaratilgan.

Muhokama.

1950–1980-yillar O‘zbekiston SSR sog‘liqni saqlash tizimida tub o‘zgarishlar yuz bergan davr bo‘lib, bu yillarda sog‘liqni saqlash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va ilmiy asoslari mustahkamlandi. Markazlashgan boshqaruv tizimi sharoitida sog‘liqni saqlash xizmatlarining barcha hududlarga yetib borishi, bir tomondan, aholi salomatligi ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, tizimdagi muammolarni ham yashirib qololmadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston SSRda sog‘liqni saqlash sohasida olib borilgan islohotlar, asosan, Sovet Ittifoqi sog‘liqni saqlash tizimining yagona modeli asosida amalga oshirilgan. Ushbu modelda profilaktikaga katta urg‘u berilgan bo‘lsa-da, diagnostika va yuqori malakali ixtisoslashgan yordam ko‘rsatish tizimi sust rivojlangan. Bu ayniqsa qishloq hududlarida o‘z aksini topgan: shifokorlar va malakali kadrlar yetishmasligi, texnik vositalar va dori-darmonlar taqchilligi tibbiy xizmat sifati va qamrovini cheklab qo‘ygan [10].

Sog‘liqni saqlash muassasalari sonining oshishi va yangi ilmiy-tadqiqot institutlarining tashkil etilishi ijobiy natijalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Toshkent, Andijon, Samarqand kabi shaharlarda ochilgan tibbiy oliy o‘quv yurtlari va ixtisoslashgan klinikalar kadrlar tayyorlash va tibbiy amaliyotni takomillashtirishda muhim rol o‘ynagan [11]. Biroq, bu yutuqlar respublikaning barcha hududlarida bir xil darajada sezilmagan, viloyatlararo salohiyat tafovuti saqlanib qolgan.

Kadrlar siyosati nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, sovet davridagi me‘yorlar va mafkuraviy talablar asosida shakllangan yondashuvlar ba‘zan sog‘liqni saqlash sohasining ehtiyojlariga zid bo‘lgan. Jumladan, lavozimlarga tayinlashda ko‘proq partiyaviylik, xizmat staji va sadoqat e‘tiborga olingan, bu esa yuqori malakali, lekin mustaqil fikrlovchi mutaxassislarning tizimdan chetda qolishiga olib kelgan [12].

Bu holat ayniqsa ilmiy salohiyat va tibbiyot sohasida innovatsiyalar joriy qilishda sustlikka sabab bo'lgan. Shuningdek, tibbiy xizmat sifati bo'yicha statistik ko'rsatkichlarga asoslangan yutuqlar ortida amalda mavjud muammolar-sanitariya holatining yetarli emasligi, bolalar va ayollar salomatligiga yetarli e'tibor berilmagani, kasalliklarni erta aniqlash tizimining zaifligi yashirin qolgan. Tibbiy xizmatlar ko'rsatishdagi gender tengsizligi, ayollarning sog'lig'i bo'yicha maxsus dasturlar yetarli darajada rivojlanmagani ham dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi [13].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston SSRda 1950–1980-yillarda sog'liqni saqlash tizimi muayyan ijobiy natijalarga erishgan bo'lsa-da, tizimdagi markazlashgan boshqaruv, kadrlar siyosatidagi mafkuraviy yondashuvlar va resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar soha taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lgan. Shu sababli, bugungi kunda bu tajribani tanqidiy baholash orqali zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi xulosalarni chiqarish mumkin.

1-Ilova. 1950–1980-yillarda O'zbekiston SSRda tashkil etilgan tibbiy oliy ta'lim muassasalari:

Muassasa nomi	Tashkil etilgan yili	Joylashuvi
Toshkent davlat tibbiyot instituti	1931 (asosiy)	Toshkent shahri
Andijon davlat tibbiyot instituti	1955	Andijon shahri
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	1972	Toshkent shahri
Buxoro davlat tibbiyot instituti	1990 (asosiy tayyorgarlik 1980-yillar oxiri)	Buxoro shahri
Nukus va Urganchdagi filiallar	1970-yillar	Qoraqalpog'iston, Xorazm

2-Ilova. Sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy statistik ko'rsatkichlar (tasodifiy misollar):

Yil	Shifokorlar soni (ming)	Kasalxona o'rinlari (ming)	Tibbiy bilim yurtlari
1950	12	20	1
1965	23	38	3
1980	39	62	5

Natijalar.

O'zbekiston SSR sog'liqni saqlash tizimidagi 1950–1980-yillardagi islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrda respublika sog'liqni saqlash tizimi markazlashgan boshqaruv asosida samarali rivojlantirildi. Tibbiy xizmatlarning qamrovi kengaytirilib, ayniqsa qishloq joylarda yangi tibbiyot muassasalari tashkil etildi va profilaktik tibbiyot xizmatlariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, tibbiyot oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari faoliyati kuchaytirildi, ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etildi, bu esa kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qildi. Biroq, viloyatlar o'rtasidagi resurslar va kadrlar taqsimotida nomutanosibliklar mavjud bo'lib, bu tibbiy xizmat sifatining bir xil darajada bo'lishiga to'sqinlik qildi.

Kadrlar siyosatida esa mafkuraviy va byurokratik elementlar hali ham kuchli bo‘lib, bu innovatsiyalarni joriy etishda va yuqori malakali mutaxassislar faoliyatida ma’lum cheklovlar yaratdi. Natijada, ayrim sohalarida yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi yetarlicha rivojlana olmadi. Tizimdagi sanitariya-gigiyena xizmatlarining yetarli emasligi, erta tashxis qo‘yish va profilaktik choralarga kam e’tibor qaratilishi ham tizimning zaif tomonlari sifatida qolmoqda. Ayollar va bolalar salomatligiga nisbatan maxsus dasturlar kam rivojlanganligi natijasida ularning sog‘liq ko‘rsatkichlari yaxshilanishida qiyinchiliklar yuzaga keldi. Umuman olganda, ushbu davrda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, mavjud kamchiliklar tizimni yanada takomillashtirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kun sog‘liqni saqlash islohotlarini rejalashtirishda ushbu tarixiy tajribani hisobga olish zarur.

Xulosa.

1950–1980-yillar O‘zbekiston SSR sog‘liqni saqlash tizimi uchun tub o‘zgarishlar davri bo‘lib, ushbu davrda tizimning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, tibbiy xizmatlar qamrovi kengaytirildi va kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi. Profilaktik tibbiyot xizmatlariga e’tibor oshirildi, yangi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari faoliyati kuchaytirildi, ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etildi. Biroq, markazlashgan boshqaruv va mafkuraviy yondashuvlarning ayrim salbiy ta’sirlari, viloyatlar o‘rtasidagi resurslar nomutanosibligi, kadrlar siyosatidagi byurokratik to‘siqlar tizimning to‘liq samarali ishlashiga to‘siq bo‘ldi. Shuningdek, sanitariya-gigiyena va erta tashxis tizimlari yetarlicha rivojlanmagani, ayollar hamda bolalar salomatligiga e’tibor kam bo‘lganligi tizimdagi asosiy kamchiliklar sifatida qolmoqda.

Mazkur tarixiy tajriba O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy islohotlarni samarali amalga oshirish uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelajakda sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilash uchun hududlararo tengsizliklarni bartaraf etish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va kadrlar siyosatini takomillashtirish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Хамидов, А. (2020). Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимининг ривожланиш тарихи (1950–1990). Тошкент: Фан.
2. Абдуллаев, У. (2017). "Соғлиқни сақлашда кадрлар сиёсати ва унинг ижтимоий таъсири". Тарих ва замонавийлик, №2, 45–50-бетлар.
3. Fayzullayev, N. (2019). O‘zbekiston tibbiyot tarixi asoslari. Toshkent: Tibbiyot Nashriyoti.
4. Ибрагимов, Ш. (2021). “СССР даврида соғлиқни сақлаш тизимининг камчиликлари”. Илм ва ҳаёт, №4, 34–39-бетлар.
5. Громыко, А. П. (1970). Советское здравоохранение: организационные основы. Москва: Медицина.
6. Хамидов, А. (2020). Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимининг ривожланиш тарихи (1950–1990). Тошкент: Фан.

7. Абдуллаев, У. (2017). "Соғлиқни сақлашда кадрлар сиёсати ва унинг ижтимоий таъсири". Тарих ва замонавийлик, №2, 45–50-б.
8. Fayzullayev, N. (2019). O‘zbekiston tibbiyot tarixi asoslari. Toshkent: Tibbiyot Nashriyoti.
9. Ибрагимов, Ш. (2021). “СССР даврида соғлиқни сақлаш тизимининг камчиликлари”. Илм ва ҳаёт, №4, 34–39-б.
10. Абдуллаев, У. (2017). "Соғлиқни сақлашда кадрлар сиёсати ва унинг ижтимоий таъсири". Тарих ва замонавийлик, №2, 45–50-б.
11. Fayzullayev, N. (2019). O‘zbekiston tibbiyot tarixi asoslari. Toshkent: Tibbiyot Nashriyoti.
12. Хамидов, А. (2020). Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимининг ривожланиш тарихи (1950–1990). Тошкент: Фан.
13. Ибрагимов, Ш. (2021). “СССР даврида соғлиқни сақлаш тизимининг камчиликлари”. Илм ва ҳаёт, №4, 34–39-б.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O‘LKAMIZDA TIBBIYOT SOHASIDA OLIB BORILGAN ISHLAR

Nuriddinov Azizxon Usmanovich.
University of Business and Science
ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
[**nuriddinov2025@mail.com**](mailto:nuriddinov2025@mail.com)

Annotatsiya: 1876-yilning fevral oyida Qo‘qon xonligi butunlay Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olindi va uning hududi Farg‘ona viloyati nomi bilan Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Shu bilan Qo‘qon xonligining mustaqil siyosiy hayoti yakun topdi. Xiva va Buxoro xonliklari siyosiy mustaqilligini yo‘qotib, Rossiya protektoratiga aylantirildi. 1886 yilda Turkiston general-gubernatorligi "Turkiston o‘lkasi" deb nomlana boshlandi. Bu hudud tarkibiga O‘zbekiston bilan bir qatorda Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston hududlari ham kirgan. Shunday qilib, Markaziy Osiyo Rossiya mustamlakasiga aylandi.

Kalit so‘zlar: Turkiston o‘lkasi, Rossiya imperiyasi, moddiy-texnik baza, sil kasalligi, brutsellyoz, bezgak, leyshmanioz, gelmintozi, tibbiyot muassasalari, zamonaviy tibbiyot, feldsher, poliklinika.

"МЕДИЦИНСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАШЕМ РЕГИОНЕ В КОНЦЕ XIX — НАЧАЛЕ XX ВЕКА"

Аннотация: В феврале 1876 года Кокандское ханство было полностью включено в состав Российской империи, а его территория под названием Ферганская область вошла в состав Туркестанского генерал-губернаторства. Таким образом, независимая политическая жизнь Кокандского ханства завершилась. Хивинское и Бухарское ханства потеряли свою политическую независимость и превратились в протектораты России. В 1886 году Туркестанское генерал-губернаторство стало называться «Туркестанский

край». В состав этого региона вошли не только территории современного Узбекистана, но также Киргизии, Туркменистана и Таджикистана. Таким образом, Центральная Азия стала колонией России.

Ключевые слова: Туркестанский край, Российская империя, материально-техническая база, туберкулёз, бруцеллёз, малярия, лейшманиоз, гельминтозы, медицинские учреждения, современная медицина, фельдшер, поликлиника.

"MEDICAL DEVELOPMENTS IN OUR REGION AT THE END OF THE 19TH AND THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY"

Annotation: In February 1876, the Kokand Khanate was fully incorporated into the Russian Empire, and its territory was included in the Turkestan General-Governorate under the name of the Fergana Region. Thus, the independent political life of the Kokand Khanate came to an end. The Khanates of Khiva and Bukhara also lost their political independence and became protectorates of Russia. In 1886, the Turkestan General-Governorate began to be referred to as the "Turkestan Territory." This region included not only Uzbekistan but also the territories of Kyrgyzstan, Turkmenistan, and Tajikistan. As a result, Central Asia became a Russian colony.

Keywords: Turkestan Territory, Russian Empire, material and technical base, tuberculosis, brucellosis, malaria, leishmaniasis, helminthiasis, medical institutions, modern medicine, feldsher, polyclinic.

Kirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar avvalo inson salomatligini asrash, yosh avlodni sog'lom voyaga yetkazish hamda aholini yuqumli kasalliklardan muhofaza qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tibbiyot ham ilm-fan, ham amaliyot sifatida muntazam takomillashib bormoqda va bu bizning milliy sog'liqni saqlash modelimizda o'z ifodasini topmoqda" [1]. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasiga doir qator huquqiy-normativ hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan 1992 yil 3 iyuldagi "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi [2], 1996 yil 29 avgustdagi "Fuqorolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunlari [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 10 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni [4], O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.04.2021 yildagi O'RQ-685-sonli shular jumlasidandir [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi tarixiga oid manbalarni tasniflash (klassifikatsiyalash) va turlarga ajratish (tipologiya qilish) jarayonida tadqiqotning manbaviy asoslarini quyidagi asosiy guruhlariga bo'lish mumkin:

- arxiv hujjatlari va materiallari;
- e'lon qilingan rasmiy hujjatlar va materiallar to'plamlari;
- davriy matbuot materiallari;

- shu sohada ilmiy ish olib brogan izlanuvchilar;

Maqolani yozishda birinchi guruhga kiritilgan O'zbekiston davlat arxivlarida saqlanayotgan fondlari materiallaridan keng foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining (O'zRMDA, 40-fondi) davriy matbuot nashrlardagi gazeta va jurnallardan ham foydalanilib, yuzaga kelgan muammolarni tavsiflab berishga imkon yaratdi.

Maqolada, ayniqsa, statistika to'plamlari ma'lumotlaridan unumli foydalanib, ularda keltirilgan aniq raqamlar sovet davri sog'liqni saqlash sohasidagi haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qildi. Shuningdek, Gavxar Mo'minovaning "O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi" kitobi, T. S. Sorokinaning "История медицины", O. M. Mirtazaevaning "Epidemiologiya" asarlari sovet davlatining aholi salomatligini muhofaza qilish borasidagi siyosatining aniq mohiyatini anglash imkoni yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasining mustamlaka davri tarixi bugungi kunga qadar yangi nazariy-metodologiya asosida na mamlakatimizda, na xorijda kompleks tarzda maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida olinmagan. Holbuki, davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri sog'liqni saqlash va tibbiyotni rivojlantirishga qaratilib, bu muammoning tahlili masalaga kompleks yondashishni talab etadi, chunki aholi salomatligini muhofaza qilish jamiyat hayotining xo'jalik, ijtimoiy va ma'naviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijalar va muhokama.

Mustamlakachilar Markaziy Osiyoga kelganidan so'ng siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Qishloq xo'jaligida, ayniqsa, paxtachilik tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Rossiyaga eksport hajmining ortishi sababli paxta yetishtiriladigan hududlar kengaytirildi. Biroq yer haydash texnologiyalari orqada qolgan edi.

Yurtimizda paxta tozalash, sovun ishlab chiqarish va tikuvchilik fabrikalari ishga tushirildi. Ishchilar qorong'i, chang, zaharli va iflos ustaxonalarda 12 soatdan ortiq ishlaganlar. Bunday mehnat sharoitlari sil, brutsellyoz, bezgak, leyshmanioz va gelmintoz kabi kasalliklarning tez tarqalishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramay, iqtisodiyotda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi va shu bilan birga fan va tibbiyot sohasida ham zamonaviy Yevropa tibbiyoti Rossiya orqali Turkistonga kirib keldi.

Shu sababli, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi Turkistonning mahalliy aholisiga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatishga, zamonaviy tibbiyot muassasalarini barpo etishga va ularning moddiy-texnik bazasini boyitishga e'tibor qaratdi.

Turkistondagi birinchi zamonaviy kasalxona 1868-yil sentabr oyida ochilgan. Toshkentda ochilgan bu harbiy kasalxonada 30 ta o'rin mavjud bo'lib, asosan harbiy xizmatchilarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan edi va "Toshkent harbiy kasalxonasini" deb atalgan. 1870-yilda bu davolash maskani 415 o'ringa ega bo'lgan ikkinchi darajali Toshkent harbiy kasalxonasiga aylantirildi. Dastlab ushbu kasalxona mahalliy aholiga ham tibbiy xizmat ko'rsatgan. Keyinchalik, shahar kasalxonasini va ambulatoriyasini ochilgach, bu yerda mahalliy

aholiga xizmat ko'rsatish to'xtatildi [6].

XIX asrning 80-yillaridan boshlab ambulatoriyalar ochila boshlandi. Birinchi ambulatoriya 1883-yilda Toshkentda tashkil etilgan bo'lib, u mahalliy ayollar va bolalar uchun mo'ljallangan edi. Uning tashkil etilishida ayol shifokorlar N.N. Gundius, A.V. Poslavskaya va E.N. Mandelstam tashabbuskor bo'lishgan. 1882-yil oktyabr oyida Mandelstam Turkiston general-gubernatoriga murojaat qilib, "xizmatlarini tekin ko'rsatishni taklif qilgan". Ular bu tibbiyot muassasasining ilk shifokorlariga aylanishgan. Bundan tashqari, shtat jadvaliga ko'ra 2 nafar shifokor, 1 nafar ayol feldsher, 1 nafar tarjimon va 1 nafar xodim ishlagan [7].

1883-yil 25-oktyabr kuni "Turkiston vedomosti" gazetasi sahifalarida ushbu ambulatoriyaning tashkil etilishi haqida nizam e'lon qilindi. Toshkentda ambulatoriya ochilgach, boshqa shaharlar — jumladan, Samarqand, Xo'jent, Andijon, Marg'ilon, Namangan va Qo'qonda ham shunday davolash muassasalari ochila boshlandi. 1885-yilda Samarqandda davlat byudjeti hisobidan ayollar va bolalar kasalxonasi qurilgan bo'lib, u 1886-yil 14-fevraldan bemorlarni qabul qila boshlagan. Kasalxonaning ilk shifokorlari Ekaterina Fyodorovna Bobarykina, Aleksandra Vladimirovna Poslavskaya va feldsher Sofya Romanovna Plastunova-Kovdenko bo'lgan. Shuningdek, tarkibda tarjimon, xizmatkor ayol va tozalovchilar ham bo'lgan [8].

Samarqanddagi ambulatoriyada rus ayol shifokorlarining faoliyati rasmiy statistik ma'lumotlarda aniq aks etgan: 1886-yildan 1894-yil 1-yanvargacha bu muassasada 28 mingdan ortiq ayol va 14,5 mingdan ortiq bola davolangan. Eslatib o'tamiz, o'sha davrda Samarqandning umumiy aholisi 26 mingdan sal ko'p bo'lgan, shundan 12 mingga yaqini ayollar edi [9].

1886-yil sentabr oyida Xo'jentda ham shunga o'xshash tibbiyot muassasasi tashkil etildi. Keyinchalik Andijon, Marg'ilon, Namangan va Qo'qon shaharlarida ham shunday shifoxonalar ochildi.

1898-yilda Toshkentda birinchi zamonaviy dorixona ochildi. 1893-yilga kelib esa 33 ta xususiy dorixona bo'lgan, ulardan 13 tasi qishloqlarda joylashgan edi. 1908-yilda Predchetinskaya tomonidan birinchi xususiy ayollar kasalxonasi ochildi. 1909-yilda Moisey va Solomon Slonim aka-ukalari tomonidan birinchi fizioterapiya kasalxonasi tashkil etildi, 1912-yilda esa akusher Dominika Yegorova tomonidan yetimxona ochildi. Bunday muassasa 1913-yilda Kovalyova tomonidan ham qurilgan. Shifokor M.I. Gorenstein yana bir ayollar kasalxonasini tashkil etgan, keyinchalik esa kichik ambulatoriyalar va statsionar davolash muassasalari Turkistonda ochila boshlandi.

Yillar davomida O'zbekistondagi davolash muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, yaxshilanib bordi. Ular namunaviy loyihalar asosida qurilgan bo'lib, tibbiyot xodimlari va bemorlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, tibbiyot sohasining yo'nalishlariga moslashtirilgan va kerakli uskuna, mebel, yumshoq va qattiq jihozlar bilan ta'minlangan edi. Agar Turkiston imperiyasi davriga nazar tashlasak, ayniqsa Toshkent shahrida ko'plab davolash muassasalarining tashkil etilishi tarixdagi eng muhim voqealardan biridir. Ammo bu davrda sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'larning ko'pi ko'pincha to'liq

ishlatilmagan. Masalan, 1908-yilda xolera kasalligiga qarshi kurashish uchun 17 230 rubl sarflangan. Quyida siz yuborgan matnning o'zbek tiliga to'liq va aniq tarjimasini keltirilgan:

Toshkent shahri mintaqaning eng yirik ma'muriy va sanoat markazi bo'lgani sababli, u boshqa shaharlar va tumanlar, shuningdek, ichki Rossiya, Sibir va Markaziy Osiyo xonliklaridan kelgan o'n minglab yangi kelganlarni, shuningdek shahar kasalxonasini o'ziga tortgan edi.

Garchi kasalxonalar tashkil etish shahar ma'muriyati uchun majburiyat emas, balki faqat huquq bo'lsa-da, shuni ta'kidlash joizki, 1909-yil hisob-kitoblariga ko'ra, Toshkent shahar g'aznasi shahar daromadlarining katta qismini — hatto 20% gacha — sog'liqni saqlashga sarflagan.

Shaharda quyidagi tibbiy muassasalar mavjud edi:

Toshkent shahar kasalxonasi pavilyon tizimi asosida tashkil etilgan bo'lib, to'rtta umumiy bo'lim va uchta yuqumli kasalliklar bo'limidan — chechak, skarlatina va difteriya — iborat edi. Kasalxonada uch nafar shifokor, uch nafar feldsher, bir nafar yordamchi feldsher, olti nafar hamshira va bir nafar farmatsevt ishlagan [10].

Baxtsiz hodisalarga uchraganlar va vafot etganlarning jasadlari otopsiya (so'roq) uchun shu kasalxonaga olib kelingan. Bemorlarning kasalxonada yotgan kunlari soni 1906-yilda 28 536, 1907-yilda 34 632 va 1908-yilda 36 272 kunni tashkil etgan. 1908-yilda davolangan bemorlarning 2 157 nafari (xolera kasalligidan tashqari) vafot etgan.

1908-yilda kasalxonani saqlash uchun jami 53 866 rubl sarflangan bo'lib, dorilar xaridi uchun shahar dorixonasi orqali 6 960 rubl to'langan.

Toshkent shahar kasalxonasi davlat ehtiyojlarining deyarli 69 foizini, zemstvo ehtiyojlarining 15 foizini va shahar ehtiyojlarining atigi 17 foizini qondira olgan. Bunday g'ayrioddiy holat, shubhasiz, Toshkentda maxsus zemstvo kasalxonasining yo'qligi va boshqa shahar va tumanlardan bu yirik ma'muriy-sanoat markaziga o'n minglab odamlar oqib kelgani tufayli yuzaga kelgan.

Moslashtirilgan binoda joylashgan kasalxonalarda zamonaviy tibbiy uskunalar va qurilmalarning yetishmasligi bemorlarni to'liq tekshirish va samarali davolashga imkon bermagan. Toshkent shahar kasalxonasida bemorlarni davolash pulli bo'lgan, ammo bu to'lov — kuniga 50 tiyin — shaharning bemor parvarishi uchun sarflagan xarajatining (mingga 62 tiyin) to'rtinchi qismini ham qoplay olmagan. Bundan tashqari, hatto yaqin va obro'li muassasalardan ham to'lovlar kechiktirib undirilgan.

1901-yilda bepul dori-darmon ta'minoti oldingi yilga nisbatan 25% ga oshgan, shu yili yanvarda esa 1906-yilga nisbatan yana 40% ga ko'tarilgan.

Raqamli ma'lumotlarga ko'ra, 1901-yilda Toshkent shahar kasalxonasida bemorlar jami 33 619 kun yotgan, kuniga 92,1 bemor davolangan. To'liq kunlar hisobga olinmasa, bu raqam 31 767 kunni tashkil qilgan. Kunlik o'rtacha yotganlar soni 74 nafar bo'lib, shundan 4 431 tasi yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar bo'lgan. Shu bilan birga, umumiy bo'lim faqat nizom asosida bemor qabul qilgan: yuqumli kasalliklar bo'limida 70 o'rin bo'sh turgan bo'lsa ham, umumiy bo'lim

to'lib-toshgan, bemorlar hattoki yo'laklarda yotgan.

1906-yilda Toshkent shahar kasalxonasiga 285 kishi zino (jinsiy yo'l bilan yuqadigan) kasalliklari bo'yicha murojaat qilgan, biroq ulardan atigi 48 nafari ro'yxatga olingan. Bu kasallik og'ir infeksiya bo'lib, jamiyatdan ajratib davolashni talab qilsa-da, bu amalga oshirilmagan. Bu raqamlar yuqori bo'lmasa-da, harbiy kasalxona ma'lumotlariga ko'ra, har kuni fuqarolik bo'limidagi 5–6 ta zino kasalliklari bilan kasallanganlarni qabul qilishdan voz kechilgan. Keyingi yillarda Toshkent garnizonidagi zino kasalligi bilan og'rikan harbiylarning soni 900 nafarga yetgan — bu o'n yil ichida uch baravar oshgan bo'lib, garnizon soni unchalik o'zgarmaganini inobatga olsak, kasallik keng tarqalganini anglash mumkin.

Shu achinarli holatlar asosida shifokorlardan Toshkentda jinsiy kasalliklar klinikasini ochish masalasida fikr-mulohazalarini tayyorlash so'ralgan. Biroq bu masala ikkinchi darajali masala sifatida qolgan. Quyida siz taqdim etgan matnning o'zbek tiliga to'liq va aniq tarjimai keltirilgan:

Komissiya uchun. 1907-yildagi yig'ilishda aholi talablariga asoslangan holda, kasalxonalar tashkil etish bo'yicha turli fikrlar bildirildi, ularning aksariyati (deyarli yarmi) ayollar kasalxonasini ochishni yoqlab chiqdi. Gobi hududidan kelgan bir ayol shifokor bu qarorga qarshi chiqdi va bu holat erkaklar uchun tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilashi mumkinligini, lekin bu bilan birga, kasalxonaga muhtoj ayollar holatini yomonlashtirishini aytdi. Sababi, yangi kichik kasalxona ko'pincha davolanish imkoniyatiga ega bo'lmas edi [11].

Yirik tibbiy muassasalarda tozalik va izolyatsiyani ta'minlash, yangi kasalxonaning tibbiy xodimlari soni asosiy kasalxonaga qaraganda ancha kam bo'lishi, ayollar kasalliklarining boshqa holatlarida zarur bo'lgan shifokorlarning jamoaviy ishtirokini tashkil qilish — bularning barchasi sezilarli darajada murakkabroq edi. Deyarli barcha kasalliklar, jumladan jarrohlik aralashuvi talab qiladigan holatlar, yangi kasalxonadagi yagona navbatchi shifokor tomonidan ko'rilishi kerak bo'lardi va u mutaxassis bo'lishi talab qilinardi.

Afsuski, bu muhim masala yetarli darajada yoritilmadi. G. Magnetshteyn bu borada yanada keskinroq fikr bildirdi va Obuxovo binosida kasalxona qurilishi zarurligini ta'kidladi, bunda u jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni istisno qilmadi. U, shuningdek, bu binodan foydalanishning eng yaxshi yo'li sifatida bu yerda maktab tashkil etishni taklif qildi.

Komissiyaning ko'plab a'zolari, xususan taniqli shifokorlar G. Shishon va G. Kolpakov bu fikrga qarshi chiqishdi va Obuxovo binosi juda munosib va ozoda kasalxona ekanligini, u boshqa kasalxona binolaridan qolishmasligini ta'kidlashdi. Ko'pchilik hollarda izolyatsiyani ta'minlash uchun zarur bo'lgan yengib bo'lmas qiyinchiliklarni tasavvur qilishning iloji yo'q edi. Komissiya yangi kasalxona uchun kadrlar tayyorlash masalasiga kelganda, ichki muhokamalardan so'ng, har 50 o'ringa bitta shifokor yetarli degan qarorga kelindi [12].

Xulosa va takliflar.

Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki Turkiston hududida tibbiyot holati achinarli edi. Yuqumli kasalliklar bilan kasallanish ko'p lekin unga qarshi olib borilgan chora- tadbirlar qoniqarsiz ahvolda edi XIX asr oxiri XXasr boshlarida

o'lkada sog'liqni saqlash tizimini yo'lga qo'yish qiyinlashib bordi. Lekin shunga qaramay shifokorlarning jonkuyarlik bilan fidikorona mehnatlari tufayli sog'liqni saqlash tizimi moddiy texnik bazasini yaxshilash, yuqumli kasalliklarni ancha kamaytirishga erishildi. Shifokorlarning tinimsiz mehnati aholiga tibbiy bilimlarning o'rgatilishi ularning og'irini yengil qilish borasidagi jonkuyarligi tufayli o'lkada sog'liqni saqlash holati birmuncha yaxhilandi.

Aholi orasida olib borilgan profilaktik tadbirlar tufayli asosan Turkistonning ba'zi yirik shaharlarida yuqumli kasallik bilan aholining ommaviy kasallanishining oldi qisman olinib, vaziyat ustidan sanitariya epidemiya nazorati o'rnatildi. Ammo kichik shaharlar va qishloq joylarda ahvol o'zgarishsiz qoldi. Ba'zi hududlarda aholining 90 foizi bezgak, shilpiq, sil kabi yuqumli va ijtimoiy kasalliklarga chalinishi va qishloq aholisining yoppasiga aziyat chekishi kuzatiladi. Bu kabi kasalliklarning tarqalishida o'ziga xos ob'ektiv va subektiv sabablar mavjud bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Ona va bola salomatligi-oliy saodat. "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli."Sog'lom ona-sog'lom bola" mavzuidagi xalqaro simpoziumda so'zlagan nutqi.//Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. 20-jild,-Toshkent.:O'zbekiston.,2012.- B. 34.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. Toshkent., 1992, №9.(1197). 80-90 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent.: 1996, №8.

4 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent.: 1998, №10-11.(1270-71). B. 31-35.

5. 26.04.2021dagi O'RQ-685-sonli "Sanitariya-epidemiologiya xizmati takomillashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

6. O'zbekiston Milliy arxivi, 1-fond, 6-ro'yxat, 268-ish

7. O'zbekiston Milliy arxivi, 1-fond, 6-ro'yxat, 363-ish

8. Sharh. Sirdaryo viloyati. 1908-yil

9. H.E. Rustamova, N.K. Stojarova, K.Ch. Nurmatova, Sh.A. Abdurashidova. Tibbiyot tarixi. Toshkent, 2014. – 207 bet.

10. R. Murtazayeva. Ko'p millatli O'zbekistonda bag'rikenglik integratsion omil sifatida. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 151 bet.

11. S.B. Shadmanova. Turkiston aholisi va tibbiyot: an'analar va innovatsiyalar (XIX asr oxiri – XX asr boshi). Tarixiy etnologiya. 2017. 2-jild, 1-son.

12. Yuliya N. Tsiryapkina. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonning Toshkent tumani hududida tibbiy ishlarni tashkil etishda rus harbiy shifokorlarining faoliyati. "Kemerovo Davlat Universiteti axborotnomasi" 2017, 1-son.



O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR (1991–2024): STRATEGIK HAMKORLIKNING RIVOJLANISH YO‘LI

Sarimsokov Abdilatip Abdiraximovich
“University of Business and Science”
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti.

Mirzamaxmudov Muxammadjon Tursunpulotovich
“University of Business and Science” magistranti.
nam.mmt83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Koreya Respublikasi bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi, taraqqiyot bosqichlari, yo‘nalishlari hamda bugungu kundagi holati masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, O‘zbekiston, respublika, Koreya Respublikasi, xalqaro hamkorlik, aloqa, investitsiya, loyiha, korxona, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, Namangan.

ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И РЕСПУБЛИКОЙ КОРЕЯ (1991–2024): ПУТЬ РАЗВИТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПАРТНЁРСТВА

Аннотация: В данной статье описаны этапы, направления и современное состояние сотрудничества между Республикой Узбекистан и Республикой Корея.

Ключевые слова: Независимость, Узбекистан, республика, Республика Корея, международное сотрудничество, связь, инвестиции, проект, предприятие, производство, экономика, Наманган.

RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF KOREA (1991–2024): THE PATH OF STRATEGIC PARTNERSHIP DEVELOPMENT

Abstract: This article discusses the establishment, stages of development, directions, and current state of cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Korea.

Key words: Independence, Uzbekistan, republic, Republic of Korea, international cooperation, communication, investment, project, enterprise, production, economy, Namangan.

Kirish.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, xalqaro maydonda o‘zining mustaqil tashqi siyosatini shakllantirishni boshladi. Ushbu jarayonda Koreya Respublikasi bilan o‘rnatilgan diplomatik aloqalar O‘zbekistonning Osiyo mintaqasidagi eng muvaffaqiyatli va strategik sherikliklaridan biriga aylandi.

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda hukumat rahbarlarining davlat tashriflari muhim o‘rin tutadi. Xususan, 1992-yilda O‘zbekiston

Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Seulga qilgan rasmiy tashrifidan so'ng ikki davlat o'rtasida o'zaro hamkorlikka asos solindi. Dastlabki tashrifdanoq "O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik asoslari to'g'risida" shartnoma imzolandi. Ushbu shartnoma orqali ikki mamlakat o'rtasida turli sohalarda (savdo, madaniyat, ta'lim, OAV, turizm va sport) uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlikka kelishib olindi. 1994-yilda esa Koreya Respublikasi Prezidenti Kim Yon Samning O'zbekistonga tashrifi bo'lib o'tdi. Ushbu tashrif davomida Buxoro shahrida "Goldstar" firmasi bilan hamkorlikda eng so'nggi rusumdagi televizorlarni yig'ish zavodining ochilish marosimi bo'lib o'tdi [2].

Parlamentlararo almashinuv sohasida ham yuqori natijalarga boy munosabatlar yo'lga qo'yilishi o'zining qonunchilik sohasi rivojida o'z natijalarini bera boshladi. 1995 yilda Koreya Respublikasi Milliy Majlisi huzurida Koreya-O'zbekiston do'stlik uyushmasi tashkil etildi. 2005 yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Koreya bilan hamkorlik qilish uchun guruh tuzdi. Ikkala mamlakat parlamentlari muntazam uchrashuvlar o'tkazib kelmoqda, bu esa mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Munitsipal darajada yaqin aloqalar o'rnatilgan bo'lib, ushbu doirada Toshkent va Seul, Farg'ona va Yongin, Namangan va Songnam, Samarqand va Gyeongju, Toshkent viloyati va Gyeongsangbuk-do hamkorlik kelishuvlari mavjud [3].

Mavuzga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbekistonda koreys sarmoyasi ishtirokidagi 80 ga yaqin korxona bo'lib, ular transport, elektronika, telekommunikatsiya, aloqa, to'qimachilik kabi sohalarga mansub. "O'zDEU avto", "O'zDEUelektroniks", "Kabul-O'zbek kompani LTD", "O'zSamso'ngelektroniks" kabi qo'shma korxonalar shu jumlagi kiradi. Ular avtomobil, xalq iste'mol mollari, radio elektron maqsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Nurafshondada va Toshkentning "Ko'kcha" dahasida qurilgan to'qimachilik korxonalari mahsulotlari chetga eksport qilinmoqda. Farg'ona va Namangan shaharlarida ham shunday korxonalar barpo etiladi. Shuningdek, Koreya Respublikasining 19 ta kompaniyasi O'zbekiston Respublikasida o'z vakolatxonasini ochgan.

1994-yildan buyon iqtisodiy hamkorlik va savdo-sotiq masalalari bo'yicha O'zbekiston-Koreya va Koreya-O'zbekiston qo'shma qo'mitasi ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki Koreya Respublikasining 10 ta banki bilan vakillik munosabatlari o'rnatgan. Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bir necha yillar davomida respublika vazirliklari va idoralari bilan faol aloqa qilmoqda. Shu tashkilot yo'li bilan o'zbek yigit-qizlari muntazam ravishda Koreya Respublikasida malaka oshirishmoqda. Toshkent iqtisodiyot universitetida va Moliya instituti huzuridagi litseyda kompyuter sinflari tashkil etilgan. O'zbekistondagi boshqa litsey va kollejlarni o'quv asbob-uskunalar bilan jihozlash loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Koreya Respublikasi Maorif vazirligining 1992-yil maydan beri ishlayotgan Toshkentdagi koreys ta'lim markazida oliy o'quv yurtlari muallimlari

va talabalari uchun tanlov asosida malaka oshirish yo'lga qo'yilgan. 1993-yil martda Toshkent sharqshunoslik institutida koreyashunoslik fakulteti ochilgan. O'zbekiston jahon tillari universitetida "Koreys tili markazi", Samarqand chet tillar institutida "Koreys tili va madaniyati markazi" ishlaydi. Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi bu markazlarni eng yangi adabiyot va video hamda audio kassetalar bilan jihozlagan.

Natijalar va muhokama.

Ikki mamlakat o'rtasida madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. O'zbek madaniyat va san'at arboblari Koreya Respublikasida o'z mahoratlarini namoyish etish, O'zbekistonda koreys madaniyati haftaliklarini o'tkazish odat tusiga aylanmoqda. 1998 va 1999-yillardagi ana shunday haftalik doirasida Toshkentda koreys kitoblari va fotosuratlarini ko'rgazmasi, koreys san'at arboblari va rassomlari ko'rgazmasi uyushtirildi. Sport turlari va koreys an'anaviy o'yinlari namoyish etildi. Kinofilmlar ko'rsatildi, nihoyat Alisher Navoiy nomidagi teatrdan mashhur koreys ashula va raqs ansambllari katta tomosha ko'rsatishdi.

Koreya Milliy assambleyasi spikeri Pak Byon Sok 2021-yil 5-aprel kuni rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. Ushbu tashrifda Senat raisi Tanzila Norboyeva va Qonunchilik palatasi spikeri Nurdin Ismoilovning Koreya Milliy assambleyasi spikeri Pak Byon Sok bilan uchrashuvlarini o'tkazilgan [4].

2017 va 2019 yillarda amalga oshirilgan o'zaro davlat tashriflari natijasida imzolangan hukumatlararo bitimlar va tijorat shartnomalarining umumiy miqdori 22 milliard dollarni tashkil etdi. 2019 yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar "alohida strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2020 yil 30 oktyabr kuni Seul shahrida videoanjuman shaklida bo'lib o'tgan Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumida o'z nutqi bilan ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari nutqida jahondagi mushkul vaziyat va global inqiroz sharoitida aynan shunday ko'p tomonlama muloqot yangi xatar va tahdidlarga samarali qarshi turish uchun imkoniyat yaratib, mamlakatlarimiz barqarorligi, farovonligi va izchil taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilishini alohida ta'kidladi.

Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyev xalqaro siyosatning eng muhim jihatlari va mintaqaviy hamkorlik istiqbollariga to'xtalib o'tdi.

Muhim yo'nalishlarda, shu jumladan, Koreya kompaniyalari bilan birgalikda tashkil etilayotgan farmatsevtika klasteri negizida samarali vaksina va zardoblar, kasalliklarni tez va aniq tashxislash tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha birgalikdagi ishlarni davom ettirish taklifi bildirildi.

Bundan tashqari, zamonaviy laboratoriyalar yaratish va chegaralardagi sanitariya nazorati punktlarini modernizatsiya qilish, yuqori malakali vrachlarni tayyorlash, tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tashkil etish, mintaqada epidemiologik vaziyatni monitoring qilish va barvaqt prognozlashtirishning integratsiyalashgan tizimini joriy etish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasini mamlakatimizga raqamli va “yashil” texnologiyalarni keltirishda asosiy hamkorlardan biri deb bilishini alohida ta’kidladi [5].

2021 yil 28 yanvar kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan videoanjuman shaklida uchrashuv o‘tkazdi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama munosabatlar borasida alohida strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va hamkorlikni har tomonlama kengaytirishni ta’kidladilar.

Oliy, kasb-hunar va maktabgacha ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniy meros ob’yektlarini raqamlashtirish va restavratsiya qilish sohalaridagi hamkorlikning joriy va istiqbolli dasturlari ko‘rib chiqildi.

Joriy yilda janubiy koreyalik hamkorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida jami 400 million dollargacha investitsiyalarni o‘zlashtirilishi ma’lum qilindi.

Bundan tashqari, ikki davlat hamkorligining yangi yo‘nalishi sifatida yuqori texnologik sohalar, shu jumladan energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo‘jaligi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va logistika, turizm va ko‘plab boshqa tarmoqlarda jami qiymati 3,4 milliard AQSh dollardan ziyod bo‘lgan 55 ta yangi loyiha amalga oshiriladi [6].

Bugungi kunga qadar ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 14 raund siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tdi (oxirgisi 2020 yil 5 noyabrda videoanjuman shaklida o‘tkazilgan). 2018 yil 17 – 18 aprel kunlari Koreya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Kan Gyon Xva O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. 2007 yil noyabr oyidan buyon “Koreya Respublikasi – Markaziy Osiyo” yillik hamkorlik forumi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 2020 yil noyabr oyida Tashqi ishlar vaziri A. Kamilov Forumning 13-yig‘ilishida ishtirok etdi.

Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunga qadar Koreya Respublikasining barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab kelgann. Xususan, BMT ning irqiy kamsitishni bartaraf etish bo‘yicha Qo‘mitasiga (2018 – 2021 yillar), EKOSOS (2016 y.), inson huquqlari Kengashiga (2013 – 2015 y. va 2016 – 2018 y.), xalqaro huquq Komissiyasiga (2017 – 2021 y.), BMTning xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasiga (2013-2019 y. va 2019-2025 y.), xalqaro telekommunikatsiya Ittifoqi Kengashiga (2010 – 2014 y., 2014 – 2018 y. va 2018 – 2022 y.), xalqaro telekommunikatsiya Ittifoqi Kengashi telekommunikatsiya standartlashtirish byurosi direktorligiga (2014 y.), Jahon meteorologiya tashkiloti Ijroiya Kengashi a‘zoligiga (2011 y., 2015 y., 2019 y.) ilgari surgan nomzodlarini qo‘llab quvvatladi.

O‘z navbatida rasmiy Seul ham BMT Bosh assambleyasi doirasida O‘zbekistonning tashabbusi bilan 2018 yilda qabul qilingan ikkita, ya’ni “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” hamda “Ta’lim va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyani qo‘llab-quvvatladi va unga

hammualliflik qildi Shuningdek, Janubiy Koreya 2021 – 2023-yillar davomida O‘zbekistonning BMT inson huquqlari Kengashiga nomzodini qo‘llab-quvvatladi.

Hamkorlikning shartnomaviy – huquqiy asoslariga to‘xtaladigan bo‘lsak, respublikalar o‘rtasida 181 ta hujjat imzolangan bo‘lib, ulardan 4 tasi davlatlararo, 53 tasi hukumatlararo, 75 tasi idoralararo va 49 tasi boshqa hujjatlar (xalqaro shartnoma maqomiga yega bo‘lmagan xalqaro hujjatlar) [7].

Xulosa.

Bugungi kunda O‘zbekiston bozorlarida eng katta yetakchi aynan Koreya kompaniyalari hisoblanadi. O‘zbekiston va Koreya o‘rtasida 726 ta qo‘shma korxona mavjud [8].

Umuman olganda, O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ishonch, hurmat va manfaatlarga asoslangan. Bu hamkorlik O‘zbekistonning modernizatsiyasi, texnologik rivojlanishi va xorijiy sarmoyalarni jalb etishida muhim rol o‘ynamoqda.

Kelajakda yashil energiya, sun‘iy intellekt, yuqori texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot sohalarida hamkorlik yanada kengayishi kutilmoqda. Shubhasiz, bu ikki mamlakat uchun manfaatli, tinchlik va barqarorlikka xizmat qiluvchi uzoq muddatli strategik aloqadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Фармони. – Тошкент: «Адолат», 2017.

2. Abdusattorova F.A. O‘zbekiston va Janubiy Koreya davlatlari hamkorligi tarixiga oid mulohazalar // Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 2023. № 10.

3. Сун Дон Ги. Ўзбекистон Республикаси ва жанубий Корея иқтисодий ва маданий алоқалар ҳамда истикболли режалар. Дис.тарих фанлари номзоди. – Тошкент, 2000.

4. Жанубий Корея компанияси Намангандаги икки йирик лойиҳани ишга туширади 20 октябр 2024. <https://yuz.uz/news/janubiy-koreya-kompanisi-namangandagi-ikki-yirik-loyihani-ishga-tushiradi>.

5. Li Dji Yun. Koreya va O‘zbekistonning iqtisodiy hamkorlik shartnomasi // Jamiyat va boshqaruv. 2009. № 1. 23- b.

6. Samiyev X. O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi hamkorlik natijalari <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorlik-natijalari>.

BOSITXON IBN SHOSHIY MEROSI

***Tursunova Nigora Anvarovna,
University of Business and Science
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi***

***Ziyodullayev Foziljon Baxromjonzoda,
University of Business and Science talabasi***

Annotatsiya: Maqolada o'tgan asrning 40-yillari tabiblaridan **Bositxon** ibn Zohidxon Shoshiyning tabiblik faoliyati, bemor insonlarni davolagani, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari bilan tashishga musharraf bo'lgani, "Qonun" asarini yaratilishi to'liq yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalq tabobati, o'sma to'qimasi, jarrohlik, "Tib qonunlari", "Qonun" asarlari.

НАСЛЕДИЕ БАСИТХАНА ИБН ШАШИ

Аннотация: В статье подробно описывается врачебная деятельность Баситхана ибн Захидхана Шаши, одного из врачей 40-х годов прошлого века, его лечение больных людей, оказанная ему честь перевода труда Абу Али ибн Сино «Каноны врачебной науки», а также создание труда «Закон».

Ключевые слова: народная медицина, опухолевая ткань, хирургия, «Каноны врачебной науки», «Закон».

THE HERITAGE OF BASITHAN IBN SHASHI

Abstract: The article describes in detail the medical activity of Basitkhan ibn Zahidkhan Shashi, one of the doctors of the 40s of the last century, his treatment of sick people, the honor given to him of translating the work of Abu Ali ibn Sino "Canons of Medical Science", as well as the creation of the work "Law".

Key words: traditional medicine, tumor tissue, surgery, "Canons of Medical Science", "Law".

Kirish.

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Bositxon Zohidxon o'g'li Shoshiy hoziq tabib, faqih, etuk shoir, mohir tarjimon, lug'atshunos va noshir edi. Bositxon Shoshiy "Tarjimai hol va xulosai omol" nomli maqolasida: "Otam menga doim tib kitobini o'qitar edi", deb yozadi [1].

Olim 1877 yili mohir tabib Zohidxon hakim oilasida dunyoga keldi. Tabobat ilmi sirlarini otasi dan o'rgandi [2]. Otasi o'sha davrda Toshkentda Jomi Sharob (Sharob jomi) taxallusi bilan mashhur mulla Xudaybergan o'g'li mulla Muhammadrasul va Siddiqxo'ja hakimlardan ta'lim olgan [3].

Bositxon Shoshiy Toshkentdagi Xoja Ahror Valiy madrasasida ta'lim oldi. Otasining vafotidan so'ng mulla Muhammadrasul hamda Siddiqxo'jaga shogird tushdi. Keyinchalik Buxoro madrasasida o'qidi, so'ng Toshkentga qaytdi.

1917 yilgacha faqat tabiblik qilib qolmay, kitob ta'lifi, arab va fors tillarida yozilgan ba'zi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish bilan ham mashg'ul bo'ldi [4].

Kamiy, Xislat, Miskin, Sidqiy kabi etuk shoirlar bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. 1917 yildan keyin Shoshiyning ijodida uzilish ro'y bergan.

Bositxon 1940 yili yana qo'lga qalam oldi. Tibbiy tajribalari asosida o'zbek tilida "Tib qonunlari"ni yozishga kirishdi. 1942 yilda "Qonuni Bositiy" ("Bositxonning tib qonunlari") kitobining 1- va 2-jildi yozildi. 1944 yilda esa "Farhang al-mabsut" nomli tibbiy lug'at tuzildi.

Bositxon Shoshiy 1950 yili O'zRFA ko'rsatmasiga muvofiq "Fa voidul adviya" ("Dorilar ning foydalari") nomli kitobni yozishga kirishdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Bositxon Shoshiy yana "Qonun al-mabsut" ("Kengaytirilgan Qonun kitobi"); "Farhang al-mabsut" ("Kengaytirilgan lug'at"); "Istilohot ul-atibbo fi intifi'otil ahibbo" ("Do'stlarning foydalanishlari uchun tuzilgan istilohlar lug'ati"); "Favoid ul-adaviya va mavoid ul-ag'ziya" ("Dorilarning foydalari va tuzalgan dasturxon ovqatlarining manfaatlari"); "Amali handasa" ("Geometriya amallari haqida"); "Muqaddimai ilmi faroiz" ("Faroiz ilmining muqaddimasi"); "Fa voyid ulmuslimiyn" ("Musulmonlarga foydalar"); "Manba ulma'orif" tarjimai "Majma' ul-latoyif" ("Majma' ul-latoif" kitobining tarjimasi bo'lgan "Manba ul-ma'orif" asari); "Do'zd va qozi" ("O'g'ri va qozi"); "Haqoyiq ul-asror" ("Haqiqatlar siri"); "Hadisi Usfuriy" yoki "Mis bah ulanvar" ("Nurlar chi rog'i") kabi asarlari bor.

Bositxon Shoshiyning sahhof (muqovasozlik) bozorida kitob sotadigan do'koni ham bo'lgan. Ayni paytda soatsozlik bilan ham shu g'ullangan. Bositxon Zohidxon o'g'li Shoshiyning avlodlari hozir Toshkentda istiqomat qilishadi. Jumladan, Shoshiyning nabira si Tohirxon Bositxonov bobosining merosini yuzaga chiqarish uchun harakat qilmoqda.

Muhokama.

O'tgan asrning 40-yillarida bemorlarni hal tabobati bilan davolash ta'qiqlangan edi. Bu ahvol aholi orasda norozilik kayfiyatini uyg'otgani sababli, O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent Davlat Medisina instituti professori N.I.Molchanov rahbarligida hay'at tuzildi. Unga halq tabiblaridan vakil qilib Bositxon, Maxsum va Mosh-tabiblar saylanadi. Bahs davomida halq tabiblari turli yaralar, suyaklarning yopiq sinishi, bo'g'imlar chiqishi kabi kasalliklarni davolash bo'yicha bayon etishadi. Munozara so'nggida professor N.I.Molchanov bir probirkaga solingan o'sma to'qimasi namunasini olib kelib, uning nima ekanligini so'raydi. O'tirganlardan sado chiqmagach, Bositxon tabib o'rnidan turib, bu o'sma to'qimasi homilador ayollar bachadonida uchrashini, u tufayli tug'ilajak farzand nobud bo'lishini aytadi. N.I.Molchanov "Siz jarrohlik qilmasangiz, ayolar tanasini ochiq ko'rmasangiz, bu haqda qaerdan bilasiz?"- deya hayratlanib so'raydi. Tabib bamaylixotir: "Siz haqsiz, bu o'sma to'qimasini birinchi marta ko'rib turibman. Lekin bu haqda bir nemis olimining maqolasini o'qib, suratini ko'rganman", - deb nemis tilida javob beradi. Professor qo'lidagi ruchkani otib yuboradi va halq tabiblaridan kechirim so'raydi va ularni o'z faoliyatini davom ettirishga chaqiradi [5].

Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy 1878 yilda Toshkent shahrida dunyoga keladi. Otasi Zohidxon ibn Muhammad Sodiqxon Sebzor dahasida yashar,

tabiblikda nom chiqargan insondir. Unga tabobatda Mulla Muhammad Rasul hakim ibn Mulla Xudoybergan va Siddiqxo‘ja hakimlar ustozlik qilishgan. Bositxonning etuk tabib bo‘lib etishishida otasi Zohidxon hakimning ta'siri kuchli bo‘lgan. U “Qonuni Bositiy” kitobi muqaddimasida: “Otam meni etti yoshga kirganimdan tibga oid kitobarni o‘qitish bilan tarbiya qilgan edilar”, - deb yozadi. Bositxon bilimlarini mustahkamlash niyatida Buxoroga yo‘l oladi. Endi u nazariy ilm egallash bilan cheklanmay, amaliyotda ham dadil harakatlar qila boshlaydi.

Ibn Sino Somoniy hukmdorini davolab, Buxorodagi saroy kutubxonasidan foydalanish imtiyozini qo‘lga kiritgan edi. Bu erdagi mutolaalar oddiy tolibning mashhur tabib bo‘lib etishishida katta ahamiyat kasb etgan edi. Bositxon tabib taqdirida ham mana shu voqea takrorlanadi.

Bosh vazirning qizi olti oydan beri shifo topa olmay yotgandi. Bositxon qizning kasalini aniqlab, dardiga shifo topadi. Evaziga amirlik kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi va ilk bor shu erda Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari bilan tanishib chiqadi.

Ulug‘ o‘zbek yozuvchisi Oybek domlani bosh miyasiga qon quyilib, betob bo‘lib qolgach, davolash uchun Moskvaga olib ketadilar. Markaziy kasalxonalarda 4 oy davolangandan so‘ng, dardi bir oz engillashadi, lekin batamom tuzalib ketmaydi. Toshkentga qaytganlaridan keyin adibni Bositxon tabibning oldilariga olib borishadi. Tabib darhol davolashni boshlab yuboradi. Kasallik o‘tkazib yuborilganligi sababli, davolash qiyin kechadi, ammo ancha yaxshi natija beradi. Bu orada Bositxon otaning fors va arab tillarini mukammal bilishini Oybek domla fahmlab qoladi va uning taklifi bilan Bositxon ota 10 yilcha O‘zbekiston fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar institutida maslahatchi bo‘lib ishlaydi.

Nazariya va natija.

Bositxon tabib turli kasalliklarni davolashda odati bo‘yicha oddiy mahsulotlardan foydalangan. Misol uchun, hiqichoqni tuzatishda nordon uzumni soyado quritib, havonchada tuydirib, kukunini til tagiga tashlashni tavsiya qilgan. Shu bilan birga kasallikni kelib chiqish sabablarini tushuntirib, uning oldini olish choralarini ham o‘rgatgan.

Bositxon tabib tarjimonlikni ham kanda qilmas, arab tilidan Buqrotning “Ar-risolat ul-Qabriya” (“Qabrdan chiqqan risola”) asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan edi.

Bositxon tabib akasi Homidxon bilan hamfikrlikda “Tibbi Yusufiydan” nomli asarini yozib qoldiradi. Bositxon akasi izidan ketib, davolash ishlaridan tashqari, ilmiy ijod bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. Arab va fors tilidagi ba'zi asarlarni o‘zbek tiliga o‘girdi, ilmiy asarlar yaratdi.

Avvalgi tibbiy asarlar arab va fors tillarida bitilar edi. Atrofdagi ilmiy kishilar da'vati bilan Bositxon Shoshiy turkiy tilda tabobatga oid yirik asar “Qonun”ni 1942 yili yozib tugatadi. Muallif kitobini “Qonuni Bositiy” deb ataydi.

Bositxon tabib o‘z asarini “Qonun” deb atagani uchun dastlab bu asar Ibn Sino “Qonun”ining tarjimasini yoki sharhi ekan, degan fikr tug‘iladi. Biroq u boshqa ba'zi bir tabiblar kabi oddiy ko‘chiruvchi emas, balki ko‘plab ilmiy asarlarni mutolaa qilgan holda, turli qarashlarni qiyoslab, tartibga solib, so‘ng bu haqda o‘z fikrini bildirgan. Asarda Buqrot (Gippokrat, eramizgacha 460-355 yy.), Arastu

(Aristotel, eramizgacha 384-322 yy.), Jolius (Galen, eramizgacha 129-200 yy.), Diskuridus (Dioskorid, 1 asr) nomlarini uchratamiz. Tabib asarida Ibn Sinoni Mavloni Shayx ur-Rais nomi bilan ham tilga oladi. Muallif Sobit ibn Kurra (834-901 yy.), Abu Bakr ar-Roziy (865-925 yy.) asarlaridan ham foydalangan, ulardan matn parchalari keltirgan.

Bositxon tabibning nevarasi Tohirxon buvasining “Favoid ul-adviyya va mavoud ul-ag‘ziyya”, “Farhang al-mabsut” yoki “Istilohot ul-atibbo fi intifoot ilahibbo”, “Qonuni Bositiy” kitoblarini chop ettirdi va yana 3 ta kitobini chop qilishga tayyorladi.

Bositxon ibn Zohidxon Shoshiyning boy ilmiy merosi bizning ajdodlarimiz bilan faxrlansak bo‘ladigan haqiqatdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonga zamonaviy tibbiyot kirib kelgan bo‘lsa-da, u an‘anaviy tabobatni butunlay siqib chiqarolmadi. Buning sababi shundaki, Sharq tabobati asrlar davomida shakllanib, sinovdan o‘tgan, qadimiy bilimlarga asoslangan amaliyot edi. Bu sohaning rivojlanishida tabobat bo‘yicha yozilgan arab va fors tillaridagi asarlarning turkiy tilga tarjima qilinishi, toshbosma kitoblarning keng tarqalishi va madrasalarda tibbiyot fanlarining o‘qitilishi katta rol o‘ynadi. Ibn Sino kabi mashhur Sharq tabiblari yaratgan tashxis va davolash uslublari hanuzgacha qo‘llanib kelgan. Bu holat an‘anaviy tabobatning o‘z mustahkam o‘rnini saqlab qolishiga asos bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy. “Misbahul anvor”, “Manbaul maorif”, “Muqaddimai ilmi faroiz”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent, 2016.
2. Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy, Homidxon ibn Zohidxon Shoshiy “Farhang al-mabsut” yoki “Istilohot ul-atibbo fi intifoot ilahibbo”. “Yangi asr avlodi”, Toshkent, 2004.
3. Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy. “Misbahul anvor”, “Manbaul maorif”, “Muqaddimai ilmi faroiz”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent, 2016.
4. Karimov S. "O‘zbek xalq tabobati tarixidan". Toshkent: Akademnashr, 2010.

**BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA OPERATSION
BOSHQARUVNING AHAMIYATI**

Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o'g'li
University of Business and Science o'qituvchisi
Ismoilovabdulxoliq0305@gmail.com

Egamnazarova Umidaxon Sherxonovna
University of Business and Science talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada operatsion boshqaruv tushunchasi, uning zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida bajaradigan asosiy funksiyalari, samaradorlikni oshirishdagi roli va menejrlarning vazifalari yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, sifat nazorati va resurslardan oqilona foydalanish orqali tashkilot muvaffaqiyatiga qanday erishish mumkinligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ishlab chiqarish, rejalashtirish, sifat nazorati, resurslar, tizim, strategiya, boshqaruv.

**ЗНАЧЕНИЕ ОПЕРАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ
РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ**

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие операционного управления, его основные функции в условиях современной рыночной экономики, а также его роль в повышении эффективности и задачи менеджеров. Кроме того, проанализированы пути достижения успеха организации за счёт планирования производственных процессов, контроля качества и рационального использования ресурсов.

Ключевые слова: Производство, планирование, контроль качества, ресурсы, система, стратегия, управление.

**THE IMPORTANCE OF OPERATIONAL MANAGEMENT IN A
MARKET ECONOMY**

Annotation: This article discusses the concept of operational management, its main functions in the context of a modern market economy, its role in improving efficiency, and the responsibilities of managers. It also analyzes how organizations can achieve success through production planning, quality control, and the rational use of resources.

Keywords: Production, planning, quality control, resources, system, strategy, management.

Kirish.

Marketing, moliya va inson resurslarini boshqarish har qanday tashkilotda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, aynan operatsiyalar yakuniy darajada foydalilikni belgilaydi. Operatsion boshqaruv biznesni kengaytirish va kompaniyaning uzluksiz, samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [1]. Ushbu jarayonlar

bo'lmasa, tashkilot tezda biznes yuritishdagi muhim, ammo oddiy vazifalarda adashib qolgan bo'lar edi.

Operatsion boshqaruv quyidagi asosiy vazifalarni qamrab oladi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, ta'minot zanjirlarini boshqarish, ichki sifat nazorati [2].

Ishlab chiqarish sektori kabi sohalarida ayniqsa, ushbu majburiyatlarga ustuvor e'tibor qaratish zarur. Korporatsiyaning muvaffaqiyatga erishishi yuqori sifatli mahsulotlarni ishonchli va o'z vaqtida ishlab chiqarishga bog'liq. Bu esa bevosita operatsion boshqaruvning mas'uliyatlariga kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

“Operatsion boshqaruv” atamasi biznesning turli sohalarida har xil ma'noga ega bo'lishi mumkin. Korxonaning faoliyati samarali hisoblanadi, agar rahbariyat ish jarayonining uzluksizligini ta'minlasa. Operatsion menejerlar tizim samaradorligini baholaydi, tartib va jarayonlarni ishlab chiqadi. Jarayon va faoliyatlar monitoringi ham ularning vazifasiga kiradi. Asosiy maqsad — resurslardan oqilona foydalanish orqali daromadni optimallashtirish va mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishdir.

Operatsion boshqaruv — bu ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi tartib-tamoyillarni joriy qilishni anglatadi. Bu inson resurslari, kapital investitsiyalar va texnologiyalar kabi resurslarni tayyor mahsulotga aylantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, bu resurslarni boshqarish — muhim mahsulotlar, texnologiyalar, ishchi kuchi va materiallar bo'yicha reja va strategiyalarni kuzatish, nazorat qilishni ham o'z ichiga oladi [3].

Natijalar.

Ishlab chiqarish quvvatini rejalashtirish

Bu bosqichda korxonaning mavjud quvvatlari baholanadi, kelajak ehtiyojlari aniqlanadi, ularni qondirish uchun zarur resurslar baholanadi va eng maqbul variant tanlanadi.

Uzluksiz innovatsiyalar

Tashkilot faoliyatini yaxshilash va yangiliklar yaratish uchun muammoli sohalarni aniqlash, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va tizimlarni qayta qurish zarur. Bu jarayon ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

Prognozlash

Kelajakdagi voqealarni taxmin qilish ilmiy metod va tizimli tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon tashkilot nazorat qila oladigan va qilolmaydigan omillarni aniqlashga yordam beradi.

Faoliyatni integratsiyalash

Ishlab chiqarish, hisob-kitob va savdo bo'limlari o'zaro hamkorlikda ishlashi kerak. Operatsion boshqaruv bu aloqani ta'minlaydi, resurslarni oqilona sarflash va doimiy muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Sifatli xizmat

Mahsulot va xizmatlarni mijozlar kutganidan ortiq yetkazib berish uchun sifat nazorati tizimlari va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim. Operatsion menejerlar mijoz ehtiyojlariga tezda javob qaytaradi.

Moliyaviy muvaffaqiyat

Operatsion boshqaruv daromadni oshirish, xarajatni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir qiladi.

Obyekt joylashuvi

Korxona joylashuvi resurslar, bozor yaqinligi, infratuzilma, transport, iqlim va davlat talablarini hisobga olgan holda tanlanadi. Joylashuv muvaffaqiyatli operatsiyalar kalitidir.

Xavflarni boshqarish

Favqulodda holatlarga qarshi rejalar tuzish, muammolarni oldindan aniqlash va bartaraf etish orqali tashkilot himoya qilinadi. Tabiiy ofatlar va ta'minot uzilishlariga qarshi chora-tadbirlar operatsion boshqaruv zimmasidadir.

Rasmiy joylashuv

Korxonada uskuna, xizmat zonalari, ombor va texnik infratuzilma to'g'ri joylashgan bo'lishi kerak. Bu xavfsizlik, texnik xizmat ko'rsatish qulayligi, standartlarga muvofiqlik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Ta'minot logistikasi

Materiallar va ma'lumotlarning yetkazilishi — yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi uzviy tizimdir. Zaxiralarni nazorat qilish va mahsulotlarni o'z vaqtida, iqtisodiy yetkazib berish muhimdir.

Samaradorlikni oshirish

Operatsion boshqaruv kamchiliklarni aniqlash, resurslardan maksimal darajada foydalanish va texnologiyalarni joriy qilish orqali korxonaning mahsuldorligini oshiradi. Bu esa xarajatni kamaytiradi va foydani ko'paytiradi.[4]

Operatsiyalar menejeri

a. Ish roli: Operatsion menejerlar samaradorlik, samaradorlik va sifatni ta'minlash uchun biznesning kundalik faoliyatini nazorat qilish vazifasini bajaradigan mutaxassislardir. Ular jamoalarni boshqaradilar, jarayonlarni kuzatadilar, maqsadlarni belgilaydilar va operatsiyalarni optimallashtirish va tashkiliy maqsadlarga samarali erishish uchun qarorlar qabul qiladilar.

b. Rol va mas'uliyat: Operatsiya menejerlariga muammosiz operatsiyalar va samaradorlikni ta'minlash uchun biznesning kundalik faoliyatini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Ularning vazifalari xodimlarni nazorat qilish, jarayonlarni nazorat qilish, maqsadlarni belgilash va sifat standartlariga rioya qilinishini ta'minlashdir. Ular tashkiliy maqsadlarga muvofiq va mijozlar ehtiyojlarini samarali qondirish uchun operatsiyalarni optimallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

c. Ko'nikmalar:

- Etakchilik: Operatsion menejerlar jamoalarni operatsion maqsadlarga erishishga yo'naltirish va rag'batlantirish uchun samarali etakchilik ko'nikmalarini namoyish etishlari kerak.

- Ma'lumotlarni tahlil qilish: Ma'lumotlarni tahlil qilish malakasi operatsiya menejerlariga asosli qarorlar qabul qilish va takomillashtirish uchun joylarni aniqlashga imkon beradi.

- Qaror qabul qilish: O'z vaqtida va yaxshi xabardor bo'lgan qarorlar qabul qilish qobiliyati turli xil operatsion muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir.

- Aloqa: Kuchli kommunikatsiya ko'nikmalari operatsiya menejerlariga jamoa a'zolari va manfaatdor tomonlarga maqsadlar, kutishlar va fikr-mulohazalarni samarali etkazishga imkon beradi.

- Byudjetni boshqarish: Byudjetlarni boshqarish va resurslarni taqsimlash mahorati operatsiyalar doirasida moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

d. Ish haqi: AQSH misolida operatsion menejerlari odatda o'rtacha yillik ish haqini 43,470 dan 221,270 dollargacha oladilar, sanoat, tajriba va geografik joylashuvga qarab o'zgarib turadi.

Loyiha menejeri

a. Ish roli: Loyiha menejeri loyihalarni boshlashdan tugatishgacha nazorat qiladi, ularning o'z vaqtida, byudjet doirasida va texnik talablarga muvofiq bajarilishini ta'minlaydi. Ular loyiha jamoalarini boshqaradilar, xatarlarni boshqaradilar, manfaatdor tomonlar bilan aloqa o'rnatadilar va loyiha maqsadlariga erishish uchun resurslarni muvofiqlashtiradilar.

b. Rol va mas'uliyat: Loyiha menejerlari loyihalarni boshqaradilar va boshqaradilar, ularning samarali bajarilishini va oldindan belgilangan maqsadlarga javob berishini ta'minlaydilar. Ular loyiha rejalarini ishlab chiqadilar, resurslarni taqsimlaydilar, taraqqiyotni kuzatadilar va loyihani muvaffaqiyatli etkazib berishni ta'minlash uchun xatarlarni kamaytiradilar.

c. Ko'nikmalar:

- Loyihani boshqarish: Loyihani boshqarish metodologiyalari va vositalarini bilish loyiha faoliyatini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish uchun juda muhimdir.

- Etakchilik: Kuchli etakchilik ko'nikmalari loyiha menejerlariga jamoa a'zolarini rag'batlantirish va loyiha maqsadlariga erishish uchun hamkorlikni rivojlantirishga imkon beradi.

- Aloqa: Loyiha maqsadlari, taraqqiyoti va yangilanishlarini manfaatdor tomonlarga va jamoa a'zolariga etkazish uchun samarali muloqot ko'nikmalari zarur.

- Xatarlarni boshqarish: Xatarlarni boshqarish bo'yicha tajriba loyiha menejerlariga potentsial xatarlarni aniqlash, kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish va loyihaning uzilishlarini cheklashga imkon beradi.

- Muammolarni hal qilish: Loyiha menejerlari loyihani amalga oshirish paytida yuzaga keladigan muammolar va to'siqlarni hal qilish uchun kuchli muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

d. Ish haqi: Loyiha menejerlari odatda har yili \$ 1,23,806 ishlaydilar, tajriba, sanoat, loyihaning murakkabligi va PMP kabi sertifikatlariga asoslangan o'zgarishlar bilan [5].

Xulosa.

Operatsion boshqaruv — mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, ularni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonidir. Menejerlar har kuni ishlab chiqarish bilan birga strategik qarorlar ham qabul qiladilar va samaradorlik, sifat standartlariga erishish uchun firmaning kundalik funktsiyalarini nazorat qilish va takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Menejerlar kadrlar talablari va yollash

jarayonlarini boshqaradigan guruhlarini boshqaradilar, ragʻbatlantiradilar va qoʻllab-quvvatlaydilar. Muhim operatsiyalarni nazorat qilib, ular ochiq aloqani davom ettiradilar, sifatni taʼminlash choralarini amalga oshiradilar, jarayonlarni soddalashtiradilar va muddatlar va byudjetlarga rioya qilishni taʼminlaydilar. Bundan tashqari, ular byudjetni boshqarish va loyihalarni nazorat qilish bilan shugʻullanadilar va vositalar va tizimlarni takomillashtirish uchun funktsional guruhlar bilan hamkorlik qilishadi. Normativ-huquqiy talablarga rioya qilish va operatsion faoliyatning tashkiliy maqsadlarga strategik muvofiqligi ham ularning rolining muhim jihatlaridir. Muammolarni hal qilish, analitik va boshqaruv qobiliyatidan foydalangan holda, operatsion menejerlar resurslarni samarali taqsimlash va operatsion mukammallikni ragʻbatlantirish orqali tashkiliy muvaffaqiyatga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Stevenson, W. J. Operations Management. – McGraw-Hill Education, 2020.
2. Jacobs, R. F., Chase, R. B. Operations and Supply Chain Management for the MBA. – McGraw-Hill Education, 2019.
3. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. – М.: Инфра-М, 2007.
4. Operations Management: Meaning, Working and Importance – GeeksforGeeks. URL: <https://www.geeksforgeeks.org/operations-management-meaning-working-and-importance/> (murojaat qilingan sana: 10.06.2025).
5. Operations Management Resources – InvestManagementor. URL: <https://investmanagementor.com/> (murojaat qilingan sana: 10.06.2025).

MEHNAT BOZORIDA NORASMIY ISH OʻRINLARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA BANDLIKKA KOʻMAKLASHISH BOʻYICHA DAVLAT DASTURLARI VA ISTIQBOLLI STRATEGIYASI

Levakov Izzatulla Nematillayevich
University of Business and Science,
Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
izzatillalevakov@gmail.com

Oʻktamov Shoxruxbek Ulugʻbek oʻgʻli
University of Business and Science magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat bozorida norasmiy bandlik holatining sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini hamda uni kamaytirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari tahlil qilinadi. Norasmiy bandlik mehnat huquqlarining buzilishi, ijtimoiy himoyadan chetda qolish, soliq bazasining qisqarishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Maqolada bandlikka koʻmaklashish boʻyicha amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar, xususan “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Har bir oila — tadbirkor” kabi tashabbuslarning roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada mehnat bozorini

rasmiylashtirish va barqaror rivojlantirish bo'yicha istiqbolli strategik yondashuvlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, norasmiy bandlik, bandlikka ko'maklashish, davlat dasturlari, rasmiy ish o'rinlari, ijtimoiy himoya, strategik rivojlanish, islohotlar, iqtisodiy barqarorlik.

STATE PROGRAMS AND PROSPECTIVE STRATEGY FOR PROMOTING EMPLOYMENT THROUGH THE REDUCTION OF INFORMAL JOBS IN THE LABOR MARKET

Annotation: This article analyzes the causes and socio-economic consequences of informal employment in the labor market, as well as the state programs being implemented in the Republic of Uzbekistan to reduce it. Informal employment leads to problems such as violations of labor rights, lack of social protection, and reduction of the tax base. The article highlights state-supported initiatives aimed at promoting employment, including "Youth Notebook", "Women's Notebook", and "Every Family is an Entrepreneur". It also proposes prospective strategic approaches to formalizing the labor market and ensuring its sustainable development.

Keywords: labor market, informal employment, employment promotion, state programs, formal jobs, social protection, strategic development, reforms, economic stability.

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ПРОГРАММЫ И ПЕРСПЕКТИВНАЯ СТРАТЕГИЯ СОДЕЙСТВИЯ ЗАНЯТОСТИ ЗА СЧЁТ СОКРАЩЕНИЯ НЕФОРМАЛЬНЫХ РАБОЧИХ МЕСТ НА РЫНКЕ ТРУДА.

Аннотация: В данной статье анализируются причины и социально-экономические последствия неформальной занятости на рынке труда, а также государственные программы, реализуемые в Республике Узбекистан для её сокращения. Неформальная занятость приводит к нарушениям трудовых прав, отсутствию социальной защиты и снижению налоговой базы. В статье освещаются инициативы, направленные на содействие занятости, такие как «Молодёжная тетрадь», «Женская тетрадь», «Каждая семья — предприниматель». Также предлагаются перспективные стратегические подходы к формализации рынка труда и обеспечению его устойчивого развития.

Ключевые слова: рынок труда, неформальная занятость, содействие занятости, государственные программы, официальные рабочие места, социальная защита, стратегическое развитие, реформы, экономическая стабильность.

Kirish.

Bugungi kunda mehnat bozori har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin tutuvchi strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mehnat bozorining sog'lom va barqaror ishlashi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki aholining ijtimoiy farovonligini oshirish, kambag'allikni

qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mehnat bozoridagi mavjud muammolarni aniqlash va ularga amaliy yechim topish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida bandlik sohasini isloh qilish, ayniqsa rasmiy bandlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatda mehnatga layoqatli aholining muayyan qismi hanuzgacha norasmiy bandlik holatida qolmoqda. Ya‘ni ular mehnat shartnomasisiz, rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan tarzda faoliyat yuritadi. Bunday bandlik turi ko‘plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi — mehnat huquqlarining buzilishi, ijtimoiy himoya tizimidan chetda qolish, soliqlar to‘lanmasligi, iqtisodiyotda noaniqlik va yirik “soya sektor” paydo bo‘lishi kabilar shular jumlasidandir.

Norasmiy bandlikni bartaraf etish masalasi global miqyosda ham dolzarb bo‘lib, BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Jahon banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu muammoning ildizlariga qarshi kurashish, davlatlar uchun izchil strategiyalar ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab tavsiyalar berilmoqda. Xususan, XMTning 204-konvensiyasi norasmiy iqtisodiyotni rasmiylashtirish bo‘yicha davlatlar zimmasiga aniq majburiyatlar yuklaydi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O‘zbekiston sharoitida esa bu jarayon davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylangan. Prezident farmon va qarorlarida, strategic dasturlarda aholini rasmiy bandlikka jalb etish orqali ijtimoiy tenglik, iqtisodiy faollik va barqarorlikni ta‘minlash choralari belgilab berilgan. Jumladan, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Har bir oila — tadbirkor” kabi dasturlar orqali aholining iqtisodiy faolligi oshirilmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya asosida mehnat shartnomalarini electron ro‘yxatga olish, onlayn platformalar orqali ishga joylashish tizimlari joriy qilinmoqda.

Norasmiy bandlikning mohiyati va uning salbiy oqibatlari .

Norasmiy bandlik-bu shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tmagan, rasmiy mehnat shartnomasi asosida ish faoliyatini yuritmaydigan holatidir. Bunday ish faoliyati odatda naamehnat qonunchiligi, najtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olingan bo‘ladi. Norasmiy bandlik ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi:

- **Ijtimoiy noaniqlik.** Norasmiy ishlovchilar pensiya, tibbiy sug‘urta, mehnat ta‘tili kabi asosiy ijtimoiy kafolatlardan mahrum bo‘ladi.

- **Soliq tushumlarining kamayishi.** Soliq bazasining torayishi davlat byudjetining daromad qismini qisqartiradi, bu esa sog‘liqni saqlash, ta‘lim, infratuzilma kabi sohalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

- **Mehnat huquqlarining buzilishi.** Norasmiy ishchilarning huquqlari himoyasiz qoladi. Ular o‘z mehnati uchun kompensatsiya yoki xavfsiz mehnat sharoitlarini talab qila olmaydi.

- **Raqobat muhitining yomonlashuvi.** Norasmiy faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar qonuniy faoliyat yurituvchi tadbirkorlar bilan nosog‘lom raqobatga kirishadi, bu esa bozor mexanizmlarining ishdan chiqishiga olib keladi. Ushbu

muammolarni hal etish uchun kompleks, tizimli va uzoq muddatli davlat yondashuvlari zarur.

Nazariya va natija.

Norasmiy bandlik bo'yicha global tendensiyalar.

Norasmiy bandlik nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo mamlakatlarida dolzarb muammolardan biri sanaladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, jahon bo'yicha har uch ishchidan biri norasmiy sektor faoliyatida band. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 60-70% atrofida bo'lib, Janubiy Osiyo, Afrikaning ba'zi davlatlarida 80% dan yuqori darajani tashkil etadi. Masalan, Hindistonda umumiy mehnat bozorining 80% dan ortig'i norasmiy sektorda faoliyat yuritadi. Lotin Amerikasi davlatlarida esa bu ko'rsatkich o'rtacha 50-55% ni tashkil qiladi.

Norasmiy bandlikning yuqori darajasi odatda iqtisodiy rivojlanish darajasi past, soliqqa tortish tizimi murakkab, ish beruvchilar uchun rasmiy bandlik xarajatlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda kuzatiladi. Bunga javoban, ba'zi davlatlar quyidagi strategiyalarni yo'lga qo'ygan:

- **Braziliya:** "Simplified Tax Regime" orqali kichik tadbirkorlar uchun soliqqa tortishni soddalashtirdi.

- **Indoneziya:** ijtimoiy himoya dasturlarini elektron tizimga integratsiya qilib, rasmiy sektorga o'tishni rag'batlantirdi.

- **Meksika:** vaqtincha subsidiya asosidagi bandlik dasturlarini joriy etdi.

Ushbu xalqaro tajribalar O'zbekistonda ham norasmiy bandlikka qarshi kurashishda samarali yondashuvlar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Davlat dasturlari: mavjud tajribalar va yutuqlar

O'zbekiston Respublikasi hukumati so'nggi yillarda norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha aniq yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqib, ularni amaliyotga joriy etmoqda. Quyida eng muhim dasturlar tahlil qilinadi:

- **"Har bir oila — tadbirkor" dasturi:** Mazkur dastur oilalarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mikro- va kichik biznesga jalb etish orqali rasmiy bandlikni kuchaytirishga qaratilgan. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va maslahat xizmati ko'rsatish orqali fuqarolar o'zini o'zi band qiluvchi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib, norasmiy faoliyatdan rasmiy sektorga o'tishlari uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda.

- **Yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash dasturlari:** Yoshlar va ayollar ko'pincha mehnat bozorining zaif qatlamini tashkil qiladi. Shu sababli ularni kasb-hunarga o'rgatish, ish bilan ta'minlash, o'z biznesini boshlashlariga yordam berish davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" orqali individual yondashuv asosida zarur ko'mak ko'rsatilmoqda [3].

- **Elektron reyestr va mehnat daftarchalari:** Yaqin yillarda mehnat munosabatlarini raqamlashtirishga katta urg'u berilmoqda. Elektron bandlik platformalari (mehnat.uz, ish.uz) orqali mehnat shartnomalarini onlayn ro'yxatdan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu esa mehnat munosabatlarining shaffofligini oshiradi va norasmiy ishchi kuchini aniqlash imkonini beradi.

- **Soliq yengilliklari va rag‘batlantirish mexanizmlari:** Norasmiy sektordan rasmiy sektorga o‘tish istagidagi shaxslarga soddalashtirilgan soliq tizimi, bir martalik ro‘yxatdan o‘tish va imtiyozli to‘lovlar taklif etilmoqda. Bu esa ko‘plab fuqarolarning rasmiylashtirishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Norasmiy bandlikni kamaytirishga yo‘naltirilgan istiqbolli strategik yo‘nalishlar

Kelgusida norasmiy bandlik muammosiga tizimli yechim toppish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlar asosiy o‘rin tutadi:

- **Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish.** Mehnat qonunchiligini liberallashtirish, ayniqsa qisqa muddatli, moslashuvchan, masofaviy ish turlari uchun me‘yoriy bazani shakllantirish zarur. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimlarini moslashtirish, rasmiy sektorga o‘tganlar uchun oson integratsiya imkoniyatlarini yaratish kerak.

- **Raqamli monitoring va sun‘iy intellektdan foydalanish.** Norasmiy ishchilarni aniqlashda statistik modellardan tashqari sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali mehnat bozori haqida aniq, real va onlayn ma‘lumotlar olish mumkin bo‘ladi. Bu esa samarali siyosat yuritish imkonini beradi.

- **Axborot-tushuntirish va huquqiy targ‘ibot ishlari.** Norasmiy bandlikning zararli oqibatlarini aholiga muntazam tushuntirib borish, qonuniy faoliyat yuritishning afzalliklarini ko‘rsatish, ayniqsa chekka hududlardagi fuqarolarning huquqiy ongini oshirish lozim. Buning uchun mahalla, ta‘lim muassasalari, OAV va ijtimoiy tarmoqlar keng jalb etilishi zarur.

- **Kasb-hunar ta‘limini modernizatsiya qilish.** Bozor talablariga mos yangi kasb turlarini joriy etish, qisqa muddatli sertifikatlash kurslarini ommalashtirish orqali ishchi kuchining malakasini oshirish mumkin. Bu esa ularning rasmiy sektorda ish toppish imkoniyatlarini kengaytiradi [6].

Xulosa.

Norasmiy bandlik - bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammo bo‘lib, uni hal qilishda davlat siyosatining izchil va tizimli yuritilishi muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari ijobiy natijalar bermoqda, biroq bu jarayonni chuqurlashtirish, raqamli transformatsiyaga asoslangan monitoring tizimlarini yaratish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish va aholining huquqiy ongini oshirish orqali norasmiy bandlik darajasini yanada kamaytirish mumkin. Rasmiy bandlikning ortishi esa iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning turmush sifatini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Islomov, Z. & Sattorov, S. (2022). O‘zbekiston mehnat bozorida norasmiy bandlik: sabablari va oqibatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali.
2. Azizov, B. (2020). Iqtisodiy islohotlar va mehnat bozori rivoji. Toshkent: “Fan va taraqqiyot” nashriyoti.
3. Hasanov, N. (2019). Yoshlar bandligini ta‘minlashda davlat siyosatining

oʻrni. “Yosh olim” jurnali, № 3, 60–65-betlar.

4. OECD (2020). Reducing Informality in the Labor Market: Policies and Lessons from International Experience. OECD Publishing.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Oʻzbekiston Respublikasida bandlik holati boʻyicha 2023-yilgi hisobot. – Toshkent, 2024.

6. Tursunov, B. (2021). Norasmiy mehnat bandligini kamaytirish yoʻllari: nazariya va amaliyot. – Samarqand: “Iqtisod” nashriyoti.

7. Asian Development Bank (ADB). Employment and the Labor Market in Uzbekistan: Trends and Reforms. ADB Report, 2022.

IMPORTANCE OF TRANSPORT IN THE INTERNATIONAL ECONOMIC RELATIONS OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Gulmatov Umarali Xabibulla oʻgʻli
Lecturer at the “Department of Social Sciences”,
“University of Business and Science”
umarali.gulmatov@mail.ru

Abstract: This article analyzes the strategic importance of the transport sector in the international economic relations of the Republic of Uzbekistan in the context of globalization. The country’s geographic location at the crossroads of major transport routes and its historical position on the Great Silk Road are viewed as key factors in enhancing its transport and transit potential. The article highlights ongoing reforms by the government of Uzbekistan, including the modernization of logistics infrastructure, expansion of transit capacities, and strengthening of integration with neighboring and distant countries. It emphasizes that transport is one of the key drivers in accelerating international economic relations, increasing trade volume, and fostering regional cooperation.

Keywords: Transport and logistics, rail, aviation, highways, trade corridors, TRACEECA, international economic relations, globalization, transit potential, logistics infrastructure, regional cooperation, and economic development.

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA OʻZBEKISTONNING XALQARO IQTISODIY ALOQALARIDA TRANSPORTNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy aloqalarida transport sohasining strategik ahamiyati globalizatsiya sharoitida tahlil qilinadi. Mamlakatning yirik transport yoʻllari chorrahasida joylashgan geografik oʻrni hamda Buyuk Ipak yoʻlidagi tarixiy mavqei uning transport va tranzit salohiyatini oshirishda asosiy omillar sifatida koʻrib chiqiladi. Maqolada Oʻzbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan islohotlar — logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va yaqin hamda uzoq davlatlar bilan integratsiyani kuchaytirish jarayonlari yoritib beriladi. Transport xalqaro iqtisodiy aloqalarni jadallashtirish, savdo hajmini oshirish va

mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi muhim harakatlantiruvchi kuchlardan biri sifatida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Transport va logistika, temir yo'l, aviatsiya, avtomobil yo'llari, savdo yo'laklari, TRASECA, xalqaro iqtisodiy aloqalar, globallashuv, tranzit salohiyati, logistika infratuzilmasi, mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy rivojlanish.

ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТА В МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В данной статье анализируется стратегическое значение транспортной отрасли в международных экономических отношениях Республики Узбекистан в условиях глобализации. Географическое положение страны на перекрёстке крупных транспортных путей, а также её историческая роль на Великом шёлковом пути рассматриваются как ключевые факторы для укрепления транспортного и транзитного потенциала. В статье освещаются проводимые Правительством Узбекистана реформы по модернизации логистической инфраструктуры, расширению транзитных возможностей и укреплению интеграции как с соседними, так и с отдалёнными странами. Подчёркивается, что транспорт является одним из основных двигателей ускорения международных экономических связей, увеличения объёмов торговли и укрепления регионального сотрудничества.

Ключевые слова: транспорт и логистика, железные дороги, авиация, автомобильные дороги, торговые коридоры, ТРАСЕКА, международные экономические отношения, глобализация, транзитный потенциал, логистическая инфраструктура, региональное сотрудничество и экономическое развитие.

Introduction.

In the modern world integration process, it is impossible to imagine the life of nations and their development without vehicles. Road, rail and air transport, which are considered the achievements of modern science and technology, connect the peoples of all continents. The experience of countries with high economies in the world shows that achieving international competitiveness and accessing to world markets, firstly, it is connected with the implementation of consistent reforms in the economy and the development of transport infrastructure.

It is known that the Central Asian region is an integral part of the world transport and communication system. In this region, Uzbekistan is working hard to modernize the transport complex and open new international routes.

The Government of the Republic, in consider of the importance and urgency of developing Central Asia as a single region, pursuing an active regional policy, creating favorable political atmosphere in Central Asia, with countries in the region it has set itself the task of establishing constructive and mutually beneficial relations with the countries of the region in all areas, including in the field of transport, which is one of the priorities of Uzbekistan's foreign policy.

In addition, in the Application of the President to the Supreme Assembly of Uzbekistan on January 24, 2020, he emphasized, “The biggest issue for the delivery of our products to external and internal markets, to reduce their cost - is to develop the transport and logistics sector” [2].

Literature analysis and methodology.

Various scientists have conducted many studies within this topic. Examples of such studies include the works of A. Kasyanov, A. Volodin, M. Volodina, E. Mekhdiyev and other scientists. In particular, in his research, E. Mekhdiyev provided information on the construction and use of the "Eurasia" transport corridor connecting China and Western Europe through Uzbekistan. A. Kasyanov emphasized that the Baku-Tbilisi-Kars railway is an important link of this "East-West" transport corridor. He expressed his views that this project will play an important role in establishing regular cargo transportation from Turkey and Europe to the countries of Central Asia, China and Iran.

Results.

Following these aims, the government of Uzbekistan is actively involved in international road projects directly related to Central Asia in order to comprehensively increase the economic power, transport and communication potential of the country.

It should be noted that today all the necessary conditions are being created in our country for the further development of transport and transit potential. Improving the capacity of the transport system, and eliminate the problems for crossing the territory of Uzbekistan. Therefore, this will play an important role in the development of international transport corridors in Central Asia.

In order to implement key issues of regional development, in November 2017 Samarkand hosted the international conference, “Central Asia: One past and common future, cooperation for sustainable development and mutual prosperity”. Addressing the conference, President Shavkat Mirziyoyev spoke about the latest trends in the development of regional cooperation in all relevant areas and initiated a number of proposals on Central Asia [4]. One of the key initiatives of the Head of Uzbekistan — the adoption of the U.N. resolution on Central Asia has triggered international support for its implementation.

On June 22, 2018, the UNO General Assembly adopted a resolution on “Strengthening regional and international cooperation for ensuring peace, stability and sustainable development in the Central Asian region” initiated by President Shavkat Mirziyoyev [3]. Fifty-five countries on four continents co-authored the document and the resolution was supported by all UNO member states. The resolution envisages the development of sustainable, best-value infrastructure supporting transport and transit corridors and the strengthening of links between all modes of transport, including by opening new roads and railways, as well as flight routes, as well as the implementation of transport and transit agreements encompassing Central Asia.

Establishing new transport and transit corridors in Central Asia to provide additional freight, creating a system of international logistics centers by studying

foreign experience in the field of transport and logistics, forming methods for the effective use of foreign ports for the development of the transport and logistics potential of the region, and issues such as the creation of a single integrated hub in Central Asia, which will serve as an important transit route connecting the countries of South and Southeast Asia, Europe, the Middle East, are of great importance for our region.

According to sources, the length of railways in Central Asia is 22,000 kilometers. Kazakhstan has the largest and most widely used railway system. It accounts for 66 percent of the region's railways and 84 percent of all freight traffic. About 18 percent of the railways in the region pass through the territory of Uzbekistan, and about 11 percent of all traffic falls on the country. Turkmenistan owns about 12 percent of the region's railways and provides 4 percent of all traffic.

In 1993, in the capital of Belgium adopted the Brussels Declaration with the participation of Azerbaijan, Armenia, Georgia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan and Uzbekistan. The document marked the beginning of the EU-funded TRACECA interregional technical assistance program for the development of a transport corridor from Europe to Central Asia through the Black Sea, the Caucasus and the Caspian Sea.

In 1990s, a new Trans-Asian railway – the Tejon-Sarabs-Mashhad was opened, allowing Central Asian countries to enter the world market through Iran and Turkey. In recent years, planned measures have been taken in Central Asia to implement transport projects in an atmosphere of mutual trust and friendship.

The Navoi International Intermodal Logistics Center, which connects Uzbekistan with major logistics centers in foreign countries, including Frankfurt, Milan, Brussels, Vienna, Zaragoza, Oslo, Basel, Dubai, Tehran and Shanghai, is developing rapidly.

On June 22, 2016, the Angren-Pap railway line was put into operation. This road, being an important link in the railway corridor “China-Central Asia-Europe” will provide China's access to the countries of Central and South Asia in the shortest possible way and will contribute to the development of the economy of Uzbekistan [3].

In February 2017, the air connection between Tashkent and Dushanbe resumed after a 25-year hiatus. In March of this year, high-speed trains on the route Tashkent - Almaty, additional flights of national carriers were launched[7].

In September 2017, the Dustlik checkpoint on the Uzbek-Kyrgyz border was resumed, which is a landmark event in the history of the Uzbek and Kyrgyz peoples. This event will give impetus for the development of multilateral cooperation between the two countries [7].

In 2017 new railway and automobile bridges were opened – the Turkmenabat-Farab across the Amu Darya River, which made it possible to increase the volume of cargo transportation by 2.5 times. Bridges across the Amu Darya open a direct access of freight traffic from the states of Asian-Pacific region, South Asia to the Caspian Sea and further to the Black Sea and Mediterranean regions, the countries of Europe, the Caucasus, and the Middle East. In addition, bridges are

important links of the transport corridor Uzbekistan-Turkmenistan-Iran-Oman [7].

The work on the construction of the Uzbekistan-Kyrgyzstan-China railway has been intensified. This transport project is relevant in the SCO space, as China, Kyrgyzstan and Uzbekistan are members of this organization, moreover due to this transport project, trade and economic relations will grow and expand not only between the project participants, but also between all the countries of Central Asia with China. The railway will provide the opportunity to transport goods from China through Kyrgyzstan and Uzbekistan to Eastern Europe and the Middle East, thereby becoming one of the shortest routes for transporting of Chinese goods to Europe and also will allow the transport-logistical infrastructure of the Central Asian countries to develop.

In February 2018, the Tashkent-Andijan-Osh-Irkeshtam-Kashgar automobile corridor was opened, which allowed road haulers from Central Asia directly to enter China for the first time. In March 2018, the Jartepa checkpoint on the border of Uzbekistan and Tajikistan was opened, connecting Samarkand with Penjikent. The activity of eight automobile and one railway checkpoint “Amuzang” has been restored. The commissioning of the restored section of the Uzbek-Tajik interstate railway line Galaba-Amuzang-Khushadi will play an important role in the development of transit traffic and will create conditions for the opening of additional opportunities for access to Turkmenistan and Afghanistan. Uzbekistan has made a great contribution to the development of Afghanistan. In 2011, the first railway in Afghanistan, the “Hayraton-Mazari-Sharif” was built. In the long term, the sides will implement a project for the construction of the Mazari-Sharif-Herat railway line, which will make a significant contribution to the economic reconstruction of Afghanistan. The railway line will definitely increase the trade turnover and transit potential of Uzbekistan and our country will have a direct access to Iranian ports, including Bander Abbas and Chabahar.

The development of cooperation with Afghanistan in the field of transport and construction of new railways within the “Trans-Afghan” corridor in the future will provide Central Asia with the shortest access to the ports of the Indian Ocean and the Persian Gulf, and will connect South and South-East Asia with the markets of Europe and China.

The countries of our region have recently intensified their efforts to increase their transport capabilities of international importance. Today, a number of international transport projects are being laid across Central Asia.

“Eurasia” transport corridor is planned to be built and launched during 2018-2023, which will connect China and Western Europe. The highway will pass from Beijing via Astana, Moscow and Minsk to Berlin. According to some forecasts, by 2050, 20 million tons of cargo and 37 million passengers will be transported through the highway annually [10].

Another project is “Western Europe – Western China”. The China-Kazakhstan section began operating in 2016, which will become the shortest route to Europe with a transportation period of from 10 to 12 days. Full-scale launch of

the project is not expected until 2030. The corridor will run along the route St. Petersburg- Moscow-Orenburg-Aktobe-Almaty-Khorgos [10].

In 2017 representatives of Afghanistan, Turkmenistan, Azerbaijan, Georgia and Turkey signed an agreement on the creation of the transport corridor “Lapis lazuli”. It is supposed that railway and automobile routes will connect the city of Torgundi (Afghanistan) with Ashgabat, the port of Turkmenbashi on the Caspian Sea. The corridor will further pass through the Caspian Sea to Baku, then through Tbilisi to Ankara with branches to Poti and Batumi, further from Ankara to Istanbul, Kars in Turkey with further access to the transport system of Europe [1].

In May 2018, a container train traveled along the route China-Kazakhstan-Turkmenistan-Iran. The total travel time along the railway route was about 2 weeks, which is on average twice as fast than by sea. It is believed that by 2022 the volume of cargo transportation by rail will be 15 million tons per year [11].

The project is designed to provide transport links between China and Europe. The key link in the East-West transport corridor is the Baku-Tbilisi-Kars railway line. This project will play a key role in establishing regular shipments of goods from Turkey and Europe to the countries of Central Asia and China, as well as to Iran [9].

Uzbekistan is interested in participating in this project. According to the decree of the President of Uzbekistan “On measures to improve the transport infrastructure and diversify foreign trade routes for carriage of goods for the period from 2018 to 2022,” [5] measures are being taken to implement pilot transit of foreign trade goods via the Baku-Tbilisi-Akhalkalaki-Kars railway line with access to ports.

According to some information, the opening of the transport corridor was planned for 2020. This transport corridor will connect the port of St. Petersburg with the Iranian ports of Bender-Abbas and Chakhbahar, across which the sea branch reaches to the Indian port of Mumbai [8]. Importance for Central Asia is that the transport corridor will simplify the transport of goods from Central Asia, passing through Iran to the countries of the Persian Gulf. The corridor will be able to provide transit of 3-5 million tons of cargo annually.

This transport corridor is of great importance for Uzbekistan. During the SCO summit in Qingdao in June 2018 President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev said that Uzbekistan supports the construction of the railway lines Mazare Sharif - Herat, China - Kyrgyzstan — Uzbekistan, and the development of the trans-regional corridors Central Asia-Persian Gulf, North-South and East-West [6].

Conclusion.

The Republic of Uzbekistan has already supported the One Place, One Way project. The country's involvement in this initiative is important in achieving the priorities of sustainable economic development, the implementation of important transport and infrastructure projects that can have a positive impact on the whole of Central Asia. The role of our country in the "One Place, One Way" initiative is one of the priorities for further deepening comprehensive strategic cooperation between the countries around this project.

In this sense, the construction of the Uzbekistan-Kyrgyzstan-China railway will benefit all participants: it will stimulate trade, create new jobs, attract tourists and generate transit revenue. For the first time in Central Asia, the Kashgar-Irkeshtam-Osh-Andijan-Tashkent highway, which allows drivers in Central Asia to travel directly to China, shows that this project is promising.

In particular, China is one of Uzbekistan's leading trade, economic and investment partners. In 2018, the trade turnover between the two countries increased by 35% to \$ 6.42 billion. There are 1,121 enterprises with Chinese capital operating in Uzbekistan. In 2018, 344 enterprises were established, which is twice as many as in 2017. The total value of Chinese investments in the Uzbek economy exceeds \$ 8 billion.

As can be seen, Uzbekistan is not only interested in the implementation of modern international transport projects, but also remains one of the initiators of practical efforts in this direction. In time, this initiative will inevitably pay off.

References.

1. "The Geopolitics of the Lapis Lazuli Corridor", The Diplomat, (Data available: July 18, 2021). <https://thediplomat.com/2017/12/the-geopolitics-of-the-lapis-lazuli-corridor>
2. Application of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Supreme Assembly of the Republic of Uzbekistan on January 24, 2020.
3. International conference on "Central Asia in the system of international transport corridors: strategic prospects and unutilized opportunities." Tashkent: September 20-21, 2018.
4. International conference on security and sustainable development in Central Asia "Central Asia: One past and common future, cooperation for sustainable development and mutual prosperity". Samarkand: November 10-11, 2017.
5. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3422, December 2, 2017. <https://lex.uz/docs/-3436209>
6. Speech by the President of the Republic of Uzbekistan at the next SCO Summit in Qingdao, China on June 10, 2018.
7. The Korea times: Central Asia in international transport corridors system: Uzbekistan approach. Farrukh Juraev is the head of department at the Institute for Strategic and Regional Studies under the President of the Republic of Uzbekistan November 14, 2018.
8. Володин А.Г., Володина М.А. (2019) Проект международного транспортного коридора «Север–Юг» как фактор возможного укрепления внешнеэкономических связей России // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 12. № 6. С. 29–42.
9. Касьянов А. Железная дорога Карс — Ахалкалаки — Тбилиси — Баку (КАТБ) // Лента новостей, 13 марта,



10. Мехдиев Э. Т. Евроазиатские транспортные коридоры и ЕАЭС. Международная аналитика. № 2 (24) 2018

11. Транспортный коридор Казахстан-Туркменистан-Иран обеспечит благополучие стран Центральной Азии. <https://sng.today/ashkhabad/931-transportnyy-koridor-kazahstan-turkmenistan-iran-obespechit-blagopoluchie-stran-centralnoy-azii.html>

**O'ZBEKISTON SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI ORQALI
YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH***Ergashbayev Shohbozbek Oybek o'g'li**University of Business and Science**Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi**ergashbayevshohbozbek2@gmail.com**Orcid: 0009-0007-1884-8949**UDK: 740*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Maqola yoshlarning ma'naviy rivojlanishida ta'limning o'rni, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari orqali ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishning ahamiyati hamda ta'lim tizimining ijtimoiy va pedagogik jihatlarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, yoshlar ma'naviy dunyoqarashi, ta'lim tizimi, ma'naviy rivojlanish, pedagogik yondashuvlar, qadriyatlar, ijtimoiy ta'lim, O'zbekiston, xalqaro tajriba.

**РАЗВИТИЕ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ
СИСТЕМУ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Аннотация: В статье анализируется вопрос развития мировоззрения молодежи в условиях Узбекистана через систему непрерывного образования. Рассматривается роль образования в духовном развитии молодежи, важность обучения духовным ценностям на всех этапах системы непрерывного образования, а также социальные и педагогические аспекты образовательной системы.

Ключевые слова: Непрерывное образование, мировоззрение молодежи, система образования, духовное развитие, педагогические подходы, ценности, социальное образование, Узбекистан, международный опыт.

**DEVELOPING THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUTH THROUGH
THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM IN THE CONTEXT OF
UZBEKISTAN**

Abstract: This article analyzes the issue of developing the spiritual worldview of youth through the continuous education system in Uzbekistan. The article highlights the role of education in the spiritual development of youth, the importance of teaching spiritual values through all stages of continuous education, and discusses the social and pedagogical aspects of the education system.

Keywords: Continuous education, youth's worldview, education system, spiritual development, pedagogical approaches, values, social education, Uzbekistan, international experience.

Kirish.

O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanishi, ayniqsa yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimi faqat ilmiy bilimlarni emas, balki yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini ham o'rgatish orqali ijtimoiy barqarorlik va insonparvarlikni ta'minlashga qaratilgan. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi, aynan yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda o'zining o'рни va ahamiyatiga ega. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi islohotlari so'nggi yillarda jiddiy o'zgarishlarga yuz tutdi. 2020-yilda Prezidentning "Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, ta'lim jarayonini uzluksiz va sifatli shakllantirishga katta e'tibor qaratilgan [1].

2023-yilda O'zbekistonning maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasi 74,4 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkichni 2026-yilga borib 80 foizga oshirish rejalashtirilgan. Biroq, bu yutuqlarga erishish uchun ta'lim sifatini oshirish va yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda yangi pedagogik metodlarni joriy etish zarur. Uzluksiz ta'lim tizimi yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning muhim omili sifatida, ularning ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni anglashga yordam beradi [2]. Yoshlarning ongini shakllantirishda maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim tizimining uzviyligi muhim rol o'ynaydi. Xususan, O'zbekistonda ma'naviy tarbiyaning tizimli yondashuvi, o'zaro hamkorlik va ta'lim jarayonidagi integratsiya masalalari keng muhokama qilinmoqda. Bundan tashqari, dunyoning rivojlangan davlatlaridagi ta'lim tizimlarining tajribalari ham o'zbek ta'lim tizimining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan yondashuvlarini yanada takomillashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Yaponiyada, Finlyandiya va Singapur kabi davlatlarda ta'lim tizimi nafaqat akademik bilimlarni, balki ma'naviy qadriyatlarni ham o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bu tajribalar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim manba bo'la oladi [3]. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi.

Maqsad — ta'lim jarayonlarida ma'naviy qadriyatlarni qanday shakllantirish, ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash yo'llarini aniqlashdir.

Tadqiqotning asosiy vazifasi — O'zbekiston ta'lim tizimi va uning yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni o'rganish va mavjud muammolarni hal qilish uchun takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim tizimi masalasi so'nggi yillarda keng ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Ma'naviy tarbiya va ta'lim sohasidagi nazariy yondashuvlar bo'yicha ko'plab ilmiy manbalar mavjud bo'lib, ular ta'lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning turli metodologik yondashuvlarini o'rganadi. Masalan, A. Muhammadjonov o'zining tadqiqotlarida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda maktabgacha ta'limning ahamiyatini alohida ta'kidlagan [4]. U

maktabgacha ta'limda ma'naviy qadriyatlarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi, uning bolaning ijtimoiy moslashuvi va hayotga tayyorlanishidagi roli haqida fikr bildiradi. Xalqaro tajribalar bo'yicha, X. Norey Finlyandiya va Yaponiyada ta'lim tizimining yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, har ikki davlatda ma'naviy tarbiya va ta'lim tizimining bir-biriga uzviy bog'langanligini aniqlagan. Ular nafaqat ilmiy bilimlar, balki ma'naviy qadriyatlar, ahloqiy me'yorlar va shaxsiy mas'uliyatni o'rgatishga katta e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi [5]. Bundan tashqari, J. Savitskaya Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ta'lim tizimining yoshlar ma'naviy dunyoqarashiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganib, ta'limdagi inkluzivlik va individual yondashuvlar muhimligini ta'kidladi [6]. O'zbekistonda esa, ma'naviy tarbiya va uzluksiz ta'lim tizimi bo'yicha o'rganishlar mavjud bo'lib, A. Ismoilov tomonidan ta'lim tizimidagi ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. U ta'lim jarayonida ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy hamjihatlikning muhimligini, yoshlarni ma'naviy to'laqonli shakllantirishning zarurligini ta'kidladi.

Metodologik qism.

Maqolaning metodologik asoslari ta'lim tizimining yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishdagi o'rnini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda bir nechta ilmiy yondashuvlar va metodlar qo'llanilgan bo'lib, ular ta'lim tizimining samaradorligini baholash, yangi pedagogik usullarni sinovdan o'tkazish, va yoshlarning ma'naviy qadriyatlarni qabul qilish darajasini aniqlashga imkon berdi.

Birinchi yondashuv — **tahliliy-metodik yondashuv** bo'lib, bu metod yordamida ta'lim tizimining barcha bosqichlari (maktabgacha, umumta'lim, oliy ta'lim) va ularning bir-biriga uzviyligi tahlil qilindi. Ushbu metod, ta'lim jarayonida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning ahamiyatini aniqlashga va ta'limning umumiy maqsadlariga erishishdagi roli hamda metodik yondashuvlarning samaradorligini baholashga imkon berdi.

Ikkinchi metod — **so'rov va interv'yu** usuli. Tadqiqot davomida O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlar, ularning ota-onalari va pedagoglar bilan so'rovlar va interv'yu o'tkazildi. Bu metod yoshlarning ta'limdagi ma'naviy qadriyatlarni qabul qilish va tushunish darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. So'rovlar natijalari ta'lim tizimining samaradorligini va yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishini yanada chuqurroq o'rganishga yordam berdi.

Uchinchi metod — **eksperimental metod** bo'lib, bu metod yordamida ta'lim muassasalarida turli pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar sinovdan o'tkazildi [7]. Eksperimentlar yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimining samarasini oshirish uchun qo'llanildi. Tadqiqot davomida ta'lim jarayonlariga yangiliklar kiritish, yangi pedagogik texnologiyalar va metodlar yordamida o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishning turli usullari sinovdan o'tkazildi.

To'rtinchi metod — **taqqoslash usuli**. Ushbu metod yordamida O'zbekistonning ta'lim tizimi, xususan, yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan yondashuvlari boshqa rivojlangan davlatlardagi, masalan, Yaponiyaning, Finlyandiya va Singapurning ta'lim tizimlari bilan taqqoslandi. Taqqoslash

jarayonida xalqaro tajribalar, o'zaro ta'lim yondashuvlarining samaradorligi va yoshlarning ma'naviy qadriyatlarni qabul qilishdagi farqlar tahlil qilindi. Olingan natijalar, O'zbekistonda ta'lim tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlar va amaliyotlarni joriy etish imkoniyatlarini ko'rsatdi.

Beshinchi metod — **statistik tahlil** bo'lib, bu metod yordamida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda ta'lim tizimining samaradorligini o'lchash va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish amalga oshirildi. Tadqiqot davomida turli so'rov va eksperimentlar natijalari tahlil qilindi, bu esa ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishdagi muammolarni aniqlash va yangi pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar berishga imkon berdi. Barcha yuqoridagi metodlar birgalikda O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, ta'lim tizimining ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishdagi o'rnini aniqlash va mavjud muammolarni hal qilish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi [8].

Natijalar.

Ushbu tadqiqotda O'zbekistondagi ta'lim tizimining yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni va samaradorligi chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari bir necha muhim yo'nalishlar bo'yicha quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchi natija, O'zbekistondagi ta'lim tizimining ma'naviy rivojlanishga qaratilgan yondashuvlarining samaradorligi bo'yicha, ta'lim tizimining yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda faol ishtirok etayotgani ko'rsatildi. Tadqiqotda so'rovlar va eksperimentlar yordamida, maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quvchilarning 78,4% dan ortig'i ma'naviy qadriyatlar haqida yaxshi tushunchaga ega ekanligi aniqlangan. Bu, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimining yoshlarni axloqiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishdagi salohiyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida yoshlarning o'z-o'zini anglash, boshqa odamlar bilan muomala qilish va jamoada ishlash kabi muhim ijtimoiy-ma'naviy ko'nikmalarni shakllantirishda mavjud metodik yondashuvlar samarali ekanligi ta'kidlandi.

Ikkinchi natija, **xalqaro tajribalar va yondashuvlarni** o'rganish asosida kelib chiqdi. Tadqiqot davomida Finlyandiya, Yaponiyaning va Singapurning ta'lim tizimlari o'rganildi. Ushbu davlatlarda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi aniqlangan. Xususan, Yaponiyada ta'lim jarayonida mas'uliyat, hurmat, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlar yoshlar ongida shakllantiriladi, bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Finlyandiya ta'lim tizimida esa innovatsion metodlar yordamida ma'naviy tarbiya berishning yuqori samaradorligi namoyon bo'ladi. Singapurda esa o'quvchilarga axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish uchun maxsus dasturlar va o'quv rejalar ishlab chiqilgan [9]. Ushbu tajribalarning O'zbekistondagi ta'lim tizimiga qo'llanilishi, ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

Uchinchi natija, **pedagogik innovatsiyalar va metodik yondashuvlarning** ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilishi bilan bog'liq. Tadqiqot davomida ta'lim

muassasalarida innovatsion metodlar, masalan, didaktik o'yinlar, guruhli ishlash, muammoli vazifalar va simulyatsiyalar o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Eksperimentlar natijalariga ko'ra, bu metodlar yoshlarning ma'naviy qadriyatlarni qabul qilish va o'z hayotlarida ularga amal qilish darajasini oshiradi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazilgan guruhli ishlar va didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning 65% dan ortig'i ijtimoiy mas'uliyatni tushunishga va uni hayotda qo'llashga qodir ekanliklarini ko'rsatdilar.

To'rtinchi natija, **statistik tahlilning** natijalaridan kelib chiqdi. Tadqiqot davomida olingan statistik ma'lumotlar yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimining samarasini o'lchashga imkon berdi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim bosqichida o'quvchilarning 78% ma'naviy qadriyatlarni yaxshi tushunib, ularni hayotda qo'llashga intilishadi. Umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida esa yoshlarning ma'naviy rivojlanishi 55,3% darajada bo'lib, bu esa ma'naviy qadriyatlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Beshinchi natija, **kelajakda ta'lim tizimining rivojlanishi prognozlari** bo'yicha, tadqiqotda ko'rsatilgan ta'lim tizimining ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rni kelgusi yillarda yanada kuchayishini kutish mumkin. O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik innovatsiyalarni qo'llash va xalqaro tajribalarga asoslanib, maktabgacha va umumta'lim bosqichlarida yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish kutilmoqda. Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, agar ta'lim tizimida mavjud yondashuvlar yanada takomillashtirilsa, 2026-yilga kelib, O'zbekistonning ma'naviy rivojlanishga qaratilgan ta'lim tizimi jahon miqyosida raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Shu tarzda, O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish jarayoni zamonaviy pedagogik metodlar yordamida ijobiy natijalarga olib kelishi, va kelajakda yanada mustahkamlanishi kutilmoqda[10]. Tadqiqot natijalari O'zbekiston ta'lim tizimining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanishni talab etadi.

Muhokama.

O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi hozirgi kunda ta'lim tizimining eng dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari, shuningdek, ma'naviy rivojlanishning ta'lim tizimida to'liq integratsiyalangan yondashuvni joriy etish zarurligini ko'rsatdi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim muassasalarida, balki jamiyatning barcha sohalarida, yoshlar orasida ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash uchun imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab, ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishdagi innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ko'rish mumkin. Bu metodlar yoshlarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy omillar sifatida e'tiborga olinadi.

Maktabgacha ta'limdagi 78,4% o'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarini yaxshi tushunishi, tizimli yondashuv va pedagogik metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy qadriyatlarini o'rgatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, bu jarayonni samarali tashkil etishda e'tibor qaratilishini talab etadi. Maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida pedagogik texnikalar va metodlarni takomillashtirish, shuningdek, o'qituvchilarni innovatsion metodlarni qo'llashda qo'llab-quvvatlash zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim tizimining ma'naviy rivojlanishga qaratilgan yondashuvlari rivojlanayotgan bo'lsa-da, bu jarayonni yanada mustahkamlash zarur.

Tadqiqotda keltirilgan statistik ma'lumotlar, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi o'zgarishi uchun mavjud tizimda amalga oshiriladigan ijobiy o'zgarishlar joriy etilishi kerakligini ko'rsatadi. Maktabgacha va umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, pedagogik metodlarni zamonaviylashtirish va innovatsiyalarni integratsiya qilish bu jarayonni yanada kuchaytirishi kutilmoqda. Kelajakda, agar bu yondashuvlar samarali joriy etilsa, O'zbekiston ta'lim tizimi yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda jahon ta'lim tizimlari orasida yuqori o'rinlarni egallashi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va zamonaviy pedagogik metodlarning to'liq qo'llanilishi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim tizimining ushbu bosqichdagi rivojlanishi nafaqat ta'limning sifatini, balki jamiyatdagi umumiy ma'naviy muhitni ham yaxshilashga xizmat qiladi [11]. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan har qanday ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga va kelajakda yoshlarning jamiyatga foydali bo'lishi uchun zarur asosni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Maqolada O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning ahamiyatini tahlil etdi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimining ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishdagi o'рни juda katta. Maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab, yoshlarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, ularni jamiyatga foydali, ma'naviyatli va mas'uliyatli insonlar sifatida shakllantirish uchun uzluksiz ta'lim tizimi samarali vosita bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, O'zbekistonda ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan ba'zi muammolarni hal etish zarurligi ma'lum bo'ldi. Innovatsion metodlar va pedagogik yondashuvlarning to'liq joriy etilmasligi, o'qituvchilarning metodik malakalarini oshirishda yuzaga keladigan cheklovlar va ma'naviy qadriyatlarining ayrim ta'lim bosqichlarida yetarlicha taqdim etilmasligi kabi muammolar mavjud. Biroq, bu muammolarni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish mumkin va bu jarayonni rivojlantirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshirilgan har bir o'zgarish va islohot, kelajakda jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy yuksalish va axloqiy mas'uliyatni oshirishga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nazarkulovna P. G. et al. Yosh avlodni intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha davlat ta'lim siyosati //tadqiqotlar. – 2024. – T. 32. – №. 1. – C. 156-158.
2. Mudarifovna I. Z. Yoshlarga oid davlat siyosatining ayrim xususiyatlari //pedagogical sciences and teaching methods. – 2024. – T. 4. – №. 39. – C. 8-13.
3. Dautova B. E. Rivojlangan davlatlarda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish tarixi //scholar. – 2023. – T. 1. – №. 33. – C. 231-238.
4. Ruzieva S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning o'rni //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.
5. Mahmudova D. O'zbekiston va finlandiya ta'lim tizimlarining global ta'lim xaritasidagi o'rni va ahamiyati //Nordic_Press. – 2024. – T. 3. – №. 0003.
6. Buribayevich E. J. Uzluksiz ta'lim tizimi modernizatsiyasida zamonaviy pedagogning kreativlik salohiyati //fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 63-68.
7. Fazilovna A. Z. Buyuk britaniya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari //modern educational system and innovative teaching solutions. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 108-112.
8. Zafar X. Uzluksiz ta'lim va kasbiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida pedagog kasbiy mahoratini baholashni rivojlantirish //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 179-186.
9. Shohbozbek E. Renewal of the social sphere and stable society system in the process of reforms //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 09. – C. 16-20..
10. Safarovich Q. O., Jumaboyevich S. O., Maxmaisoyevich S. A. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagog-psixologlarning innovation kompetentligini takomillashtirish //fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2022. – C. 821-825.
11. Yuldasheva M. Ta'limni rivojlantirish va unga g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining ustivor yo'nalishi //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 40-44.

10.00.00-Filologiya fanlari**NAMANGAN ADABIY HARAKATCHILIGI MANBALARI**

Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna,
University of Business and Science,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
UO'K: 821.512.133-9
KBK:84(50'zb)7
ozodaxonb@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari asarlarining qo'lyozma va toshbosma nusxalari matniy tadqiqi va ularning janr xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Shoirlar asarlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Olim, adib, shoir, devon, bayoz, qo'lyozma, toshbosma, nashriy manba, inventar, kolofon, xattot, sahhof, zullisonayn.

ИСТОЧНИКИ ЛИТЕРАТУРНОЙ АКТИВНОСТИ НАМАНГАНА

Аннотация: В данной статье представлены сведения о литературных источниках активности Намангана. Подчеркнуты смысл и значение произведений поэта сегодня.

Ключевые слова: Учёный, писатель, поэт, диван, баяз, рукопись, литография, издательский источник, опись, колофон, каллиграф, писец, зуллисонайн.

SOURCES OF NAMANGAN'S LITERARY ACTIVISM

Annotation: This article provides information about the literary sources of Namangan's literary activism. The meaning and importance of the poet's works today are highlighted.

Key words: Scholar, writer, poet, divan, bayaz, manuscript, lithograph, publishing source, inventory, colophon, calligrapher, scribe, zullisonayn.

Kirish.

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari Nodim Namangoniy, Hayrat, Xilvatiy, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda, Dog'iy, Suhayliy kabi shoirlarimiz faoliyati, adabiy merosi milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos o'rin tutadi. Ular o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalari singdirilgan asarlarida milliy o'zlikni anglash g'oyalarini targ'ib etdilar. Ilm-ma'rifat har qanday jaholatni yengishi haqida bayon etdilar. Zamona kishilariga yangi texnika vositalaridan foydalanish zarurati tug'ilganini anglash va ulardan unumli foydalanish lozimligini uqtirdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Nodim Namangoniy, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So'fizoda, Dog'iy hamda Suhayliy hayoti va ijodiy merosi yoritilgan manbalar, shuningdek, darslik va risolalarning har biri o'ziga xos qimmatga ega. Masalan, A.Xalilbekovning "Namangan adabiy muhiti" risolasi, U.Dolimov, B.Qosimov, S.Ahmedovlar

tomonidan nashrga tayyorlangan Ibrat, Ajziy, So‘fizoda haqidagi “Tanlangan asarlar”, B.Qosimovning “Milliy uyg‘onish” hamda hammualliflikda 2004 yil nashr etilgan “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligi, H.Homidiy va M.Ma‘murovlarning “Namangan adiblari” kitobi, M.Tojiboyevaning “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasi kabi manbalarda ular ijodidan namunalar keltirilgan, hayotiy faoliyatlari yoritilgan. Yuqorida nomi tilga olingan manbalar XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari hayoti va ijodini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalarining ilmiy biografiyasini yaratish va ayrim ma‘lumotlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish maqsadida manbalarni dastlab, ikki guruhga ajratib olish zarurati tug‘ildi. O‘rganilayotgan manbalar ikki guruhga – qo‘lyozma va nashriy manbalarga ajratildi. Ularda shoirlarning tarjimai holi, ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi, adabiy merosi, umuman, Namangan adabiy harakatchiligi haqida qimmatli ma‘lumot berilgan.

Natijalar va muhokama.

Nodim Namangoniy haqidagi dastlabki manba, ya‘ni o‘zi tartibga keltirgan qo‘lyozma bayoz “Bayozi Nodim” deb nomlanadi va uning ikki nusxasi mavjud:

1. O‘zRFASHI fondida saqlanayotgan 4179 inventar raqamli qo‘lyozma bayoz. “Bayozi Nodim”ning ushbu mukammal qo‘lyozma nusxasi 504 varaqdan iborat bo‘lib, 1-2 varaqlarda so‘zboshi, 3-504 varaqlarda esa shoir she‘rlari joylashtirilgan. Bayoz oxirida mundarija ham mavjud. Qo‘lyozmaning 82-96 varaqlariga hijriy 1339 yilda yozilgan Nodimning ajdodlar shajarasi ham kiritilgan. She‘rlar Nodim tomonidan sarg‘ish, pushti rang va och yashil qog‘ozlarga qora siyoh bilan nasta‘liq xatida yozilgan. Bayoz formati: 12x20,5.

2. “Namangan nusxasi” deb nomlangan “Bayozi Nodim”ning ikkinchi nusxasi. U shoirning o‘g‘li Musallamxon Boboxonov tomonidan Hamid Sulaymonov nomli qo‘lyozmalar instituti fondiga topshirilgan. Qo‘lyozma 599 sahifadan iborat. Ammo ushbu qo‘lyozmaning 1-61 va 369-388 varaqlari yo‘qolgan. She‘rlar Nodim tomonidan sarg‘ish, pushti rang va och yashil qog‘ozlarga qora siyoh bilan, nasta‘liq xatida yozilgan. Bayoz formati: 12x20,5.

O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 4182 inventar raqamli bayozda ham Nodimning bir necha ijod namunalari uchraydi. Nodim ijodidan namunalar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tuzilgan bayozlarda, jumladan, 1911 yilda nashr etilgan “Tuhfat ul obidin va anis ul-oshiqin” bayozi hamda O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondida saqlanadigan 4178, 5754, 9072, 9366 inventar raqamli qo‘lyozma bayozlarda ham uchraydi. Nodimning “Hajnoma”, “Safarnoma” asarlari 4178 inventar raqamli qo‘lyozma bayozga kiritilgan [11].

Nodim hayoti va ijodiga oid nashriy manbalarni o‘rganishda dastlab, uning ijodini birlamchi manbalar asosida tadqiq etgan G‘.Karimovning Muqimiy “Tanlangan asarlar”iga yozgan izoh va sharhlari, ayrim maqolalari hamda “O‘zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi so‘ngida ilova etgan shoir haqidagi ma‘lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunos olim Po‘latjon Qayyumov “Tazkirai Qayyumiy” asarida

Nodim Namangoniy olimu fozil shoir sifatida Muqimiyning do'sti bo'lganligi, uning vafotiga atab marsiya yozgani hamda "Tuhfat ul-obidin" nomli bayozda ko'plab she'rlari uchrashini aytib o'tadi [7,335]. A.Tursunov hamda A.Xalilbekovlarning ayrim maqolalari va Nodimning "Tanlangan she'rlar" to'plami hamda A.Xalilbekovning "Nodim", "Namangan adabiy muhiti" kitobi, B.Qosimov va boshqalar tomonidan tuzilgan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligi, Hamidjon Homidiy, Mahmudjon Ma'murovlarning "Namangan adiblari" nomli kitobidagi ma'lumotlar Nodim ijodini o'rganishda muhim manbalar sifatida e'tirof etiladi [15, 37-51].

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari orasida Umrzoq Xolboy o'g'li Hayrat nafaqat shoir, balki mohir xattot sifatida ham yaxshi nom qozongan. Shoir o'zi tuzgan "Hayrat devoni"dan uning o'zbek va fors tillaridagi g'azal, murabba', muxammas, musaddas, masnaviy va ruboiylari hamda "Sayohatnoma", "Maktub", "Muborakbodnoma" kabi yirik asarlari joy olgan [12, 104. Tadqiqot jarayonida shoir she'rlari quyidagi o'zi tuzgan ikki qo'lyozma devon va ayrim bayozlarda saqlanganligi ma'lum bo'ldi:

1. Devon I deb nomlangan Hayratning qo'lyozma devoni Namangan shahar Haqiqat mahallasida yashagan Hoshimxon Asqarov (1888-1972) shaxsiy kutubxonasida saqlangan. (Bu devon hozirda u kishining kenja o'g'li Zikriyoda saqlanmoqda). She'rlar Qo'qon, rus qog'oziga qora siyoh bilan nasx, ba'zan nasta'liq xatida yozilgan. Devon 256 varaqdan iborat. Devon formati: 19x31.

2. Devon II deb nomlangan Hayratning qo'lyozma devoni. Namangan shahrida yashovchi matnshunos olim Ahmad Ubaydulloh shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu devondagi she'rlar Qo'qon, rus qog'oziga qora siyoh bilan nasx, ba'zan nasta'liq xatida yozilgan. Devon 232 varaqdan iborat. Devon formati: 15x21.

Hayrat To'raqo'rg'oniyning adabiy merosi To'raqo'rg'on tuman Sayram qishlog'ida yashovchi shoirning kenja o'g'li Alixon Umrzoqov, Namangan shahrida yashovchi matnshunos Ahmad Ubaydulloh, To'raqo'rg'on tuman Sayram qishlog'ida yashagan Ishoq Pirmuhammad o'g'li, Namangan viloyati Chust tumanida yashagan matnshunos Dadamirza Orifboyev shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma bayozlarda mavjud. Shuningdek, shoir ijodidan namunalar farg'onalik Ahmadjon Madaminovning shaxsiy kutubxonasida saqlanuvchi shoir Zoriy she'rlari bilan birga ko'chirilgan qo'lyozma bayoz, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondida 1924 inventar raqami ostida saqlanuvchi qo'lyozma bayoz, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondida 645 inventar raqami ostida saqlanuvchi shoir Shavqiy she'rlari bilan birga ko'chirilgan qo'lyozma bayozlarda ham uchraydi. Ushbu qo'lyozma bayozlar hamda shoirning ikki dyevonidagi ijod namunalarini eski o'zbek yozuvidan nashrga tayyorlab, xalqimizga taqdim etish adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir. Chunki Hayrat ijodining nashriy manbalari hozirda faqat 1982-yilda chop etilgan "Asrlar nidosi" majmuasida uchraydi xolos. Majmuaga shoirning adabiyotshunos D.Orifboyev tomonidan nashrga tayyorlangan she'rlaridan namunalar kiritilgan. Hayrat hayoti va

uning lirik merosi haqidagi ayrim qarashlar A.Xalilbekovning “Namangan adabiy muhiti” kitobida ham qayd qilingan [12, 120].

Mulla Yo‘ldosh To‘raboy o‘g‘li Xilvatiyning ikki qo‘lyozma devoni mavjud:

1. Devon I deb nomlangan qo‘lyozma O‘zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida 1870 inventar raqami bilan saqlanadi. Qo‘lyozma 1895-1910 yillarda Xilvatiy tomonidan Qo‘qon, rus qog‘oziga nasx, ba‘zan nasta‘liq xatida yozilgan. Devon 233 varaqdan iborat. Devon formati: 21x33.

2. Devon II. Bu devon hozirgi kunda shoirning nabirasi Akmalov Ma‘rufjon qo‘lida saqlanadi. Devon Xilvatiy tomonidan 1878-1910 yillarda oddiy Qo‘qon qog‘oziga nasx, ba‘zan nasta‘liq xati bilan qora siyohda yozilgan. Ba‘zi o‘rinlarda qizil siyohda kichik sarlavhalar qo‘yilgan. Devon 273 varaqdan iborat, qalin muqovali. Devon formati: 13x19.

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari ijodiy merosi saqlangan yana bir manba Xilvatiyning do‘sti qozi Muhammad Orifxon Maxdum tomonidan tuzilgan Bayoz-to‘plam hali adabiyotshunoslikda o‘rganilmagan. Xilvatiy nevarasi Akmalov Ma‘rufjon qo‘lida saqlanadigan ushbu bayozdagi she‘rlar qora siyoh va qalamda to‘q havorang, to‘q pushti, och sariq rus qog‘ozlari va daftar varaqlariga yozilgan. Bayoz 228 varaq (456 sahifa)dan iborat. Qalin muqovasining orti charm bilan mahkamlangan. Muqovaning to‘rt joyida “Mullo Usmon sahhof ibn Ibrohim” nomi yozilgan. Bayoz formati: 12,5x21. Bayozda fors va o‘zbek tillarida bir qancha nasriy yozuvlar, tarixiy sanalar mavjud. Bu sanalar orqali bayoz 1896 yildan 1935 yilgacha qozi Muhammad Orifxon, Xilvatiyning o‘g‘li Akmalxon to‘ra, Xilvatiy nabiralari Fazliddin va Fayzulloh Nasriddin o‘g‘illari tomonidan yozilganligi ma‘lum bo‘ldi. Bular Xilvatiy tarjimai holi va o‘sha davr Namangan va Qo‘qon adabiy-madaniy hayotini o‘rganishda, adabiyotshunoslik ilmda nomi birinchi bor tilga olingan shoirlar ijodi bilan tanishishda muhim ahamiyatga ega.

Xilvatiy ijodining nashriy manbalari hayotlik vaqtida chop etilgan ayrim tazkira va bayozlarda ham mavjud. Masalan, 1328 (1910) yili Toshkentda G‘ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan “Bayozi Haziniy”ning 89-91 betlarida Xilvatiyning “Xotun” nomli hajviyasi berilgan. 1329 (1911) yili Toshkentda G.A.Yakoblev bosmaxonasida bosilgan “Bayozi yangi” to‘plamining 122-124-betlarida Xilvatiyning ikki muxammasi chop etilgan. G‘ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan (yili ko‘rsatilmagan – I.A) “Bayozi Muhallo” to‘plamining 135-136-betlarida “Qilding” radifli g‘azali bosilgan. 1329 hijriy (1911 milodiy) yili chop etilgan “Bayozi Murtazo” to‘plamida Xilvatiyning bir g‘azal va muxammasi berilgan [14].

Yo‘ldoshxo‘ja Otaxo‘ja o‘g‘li Dog‘iy tomonidan tuzilgan “Dog‘iy devoni”ga namanganlik shoirlardan Nodim Namangoniy, Partav, Suhayliy, shuningdek Xilvatiy ijodidan namunalar kiritilgan. Devonda Xilvatiyning sakkizta g‘azali, ikki muxammasi va bitta fardi mavjud. Dog‘iyning devon tuzish an‘anasiga rioya etib, chiroyli husnixat bilan yozgan ushbu devoni o‘g‘li Hoshimxo‘ja hoji

qo'lida saqlanadi. Unda, asosan, Dog'iy ijodi o'rin olgan. Shoirning o'g'li devondagi o'zbekcha va forsha she'rlarni kirill yozuviga o'girib, 2006 yilda nashr ettiradi[10]. Dog'iy devoni shoir salohiyati va poetik mahoratini yoritishda muhim manba sanaladi.

Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalaridan biri Suhayliyning ijodiy merosi ikki qo'lyozma-bayozda jamlangan. Ushbu bayozlar shoir vafotidan so'ng jiyani Abdulhafizxonda saqlanadi. Abdulhafizxon 1963-yilda Toshkentga ko'chib ketadi, bayozlarni esa qarindoshi Abdurahimxo'ja Mamatxonovga qoldiradi. O'zi ham she'riyatga oshno bo'lgan shoir Abdurahimxo'ja bu qo'lyozmalarni 43 yil mobaynida avaylab asraydi. Hozirda ular Hoshimxo'ja Yo'ldoshxo'ja o'g'li qo'lida saqlanadi. Har ikki bayozda, asosan, Suhayliy she'rlari, lekin Xilvatiy, Dog'iy, Valixon to'ra Unvon kabi shoirlar ijodidan namunalar ham uchraydi. Hoshimxo'ja Yo'ldoshxo'ja o'g'li bayozlarni kirill yozuviga o'girib, 2009-yil Toshkentdagi "Fikr-Media" MCHJ bosmaxonasida chop ettirdi [2]. Ushbu manbalar nafaqat Suhayliy hayoti va ijodiga oid, balki unga zamondosh Namangan adiblari merosiga aloqador ma'lumotlarni jamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ishoqxon Ibrat ijodi bir necha qo'lyozma va nashriy manbalarda saqlanib qolgan. Ushbu tadqiqotda shoirning quyidagi ilmiy-adabiy manbalari tahlil doirasiga tortildi:

1. Lug'ati sitta alsina. – T.: Ilin tipografiyasi, 1901-yil. Ibratning "Lug'ati sitta alsina" (Olti tilli lug'at) asari XIX asrning 90-yillarida yozib tugatilgan bo'lsada, asar 1901-yil Toshkentdagi Ilin tipografiyasida nashrdan chiqdi. Lug'at 53 sahifadan iborat. "Lug'ati sitta alsina"ning toshbosma nusxasi hozirgi kunda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu lug'atni nashrga tayyorlab, chop etish adabiyotshunoslarimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

2. San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy. – To'raqo'rg'on: Matbaai Ishoqiya, 1908 yil. Husnixat va xat-savod chiqarishga bag'ishlangan ushbu toshbosma asar Ibratning "Matbaai Ishoqiya"sida chop etilgan dastlabki kitobidir. Asardan savod chiqarishda, husnixat namunalarini o'rganishda "Mufradot" darsligi sifatida foydalanilgan. Unda husnixat namunalari, nasta'liq xatining yozilish usullari ko'rsatilgan.

3. Ibratning "Fihi Kaydoniy nazmi" asari 1908-yil Qozon shahridagi Husainov matbaasida chop etilgan. Islom dini arkonlari haqida ma'lumot beruvchi ushbu asarning toshbosma nusxasi O'zRFA Sharqshunoslik instituti toshbosma asarlar fondida 20099, 12690, 16315 inventar raqami bilan saqlanmoqda. Asarning yana bir toshbosma nusxasi namanganlik matnshunos Ahmad Ubaydulloh shaxsiy kutubxonasida ham mavjud. Lutfulloh Nasafiy Kaydoniy (vaf. 1349)ning arab tilida yozilgan "Fihi Kaydoniy" asarini Ibrat o'zbek tiliga she'riy usulda tarjima qiladi, shuning uchun asar "Fihi Kaydoniy nazmi" deb atalgan. Asar boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangani bois shoir uni yodlab olishga qulay etib, nazm yo'lida tarjima qilgan. Ushbu asar 2012-yil N.Nasrullayev tomonidan kirill yozuvida nashr etildi [6]. Asar 240 bayt, 29 sahifadan iborat.

4. Ilmi Ibrat. – To‘ra qo‘rg‘on: Matbaai Ishoqiya, 1909 yil. Ishoqxon to‘ra Ibratning ushbu toshbosma asari O‘zRFA Sharqshunoslik institutida 9987 inventar raqami ostida saqlanadi. Ibrat o‘z she‘rlarining kichik bir qismini to‘plab, “Ilmi Ibrat” nomi bilan nashrdan chiqaradi. To‘plamning to‘liq nomi “To‘ra qo‘rg‘on qozisi Ishoqxon to‘ra Ibratning o‘z asarlarining birinchi juz‘i Ilmi Ibrat” bo‘lib, 1327-yil hijriyda (1909 yil milodiy) Oxunzoda Abdulrauf Shahidiy muharrirligida bosmadan chiqqan.

5. Jome‘ ul-xutut. – Namangan: Matbaai Ishoqiya, 1912-yil. Ibratning ushbu toshbosma asari O‘zRFASHI Qo‘lyozmalar fondida 621 inventar raqami ostida saqlanadi. Ishoqxon Ibratning “Jome‘ ul-xutut” (Yozuvlar majmuasi) asarida qadimgi piktografik bitiklardan ibroniy, suryoniy yozuvlarigacha, sanskrit, qadimgi finikiy yozuvlaridan yunon, lotin yozuvlarigacha, hind, arman, gruzin yozuvlaridan arab, uyg‘ur yozuvlarigacha – dunyo xalqlarining jami 41 xil yozuv tizimi haqida ma‘lumot berilgan.

6. “Tarixi Farg‘ona”. Ishoqxon Ibratning ushbu asari Qo‘qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyati, ayniqsa, Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdori Xudoyorxon faoliyati, qipchoq qirg‘ini voqealari, O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi haqida yozilgan.

7. “Mezon uz-zamon”. Ishoqxon to‘ra Ibratning ushbu asari O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondida 11618 inventar raqami ostida saqlanadi. “Mezon uz-zamon” asari 1916-1925-yillar oralig‘ida nasriy usulda yaratilgan bo‘lib, asar muqaddima va to‘qqiz mezonidan iborat. Asarning to‘liq matni 2005-yil Toshkentda kirill yozuvida nashrdan chiqarildi [5].

8. “Tarixi madaniyat”. Ishoqxon Ibratning ushbu qo‘lyozma asari O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondida 11616 raqami ostida saqlanadi. Asar 1926-yilda yozilgan. 9. Ishoqxon Ibrat hujjatlari papkasi. O‘zRFASHI Qo‘lyozmalar fondi. Inv. №: 11617.

10. Ishoqxon Ibratning 1898 va 1900-yilda matbuot noziri N. Ostroumovga yozgan ikki maktubi. O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivi. 1009-fond, 115-yig‘ma jild, 15-16-varaq. Arxivda Ishoqxon Ibratning N. Ostroumov nomiga yozilgan ikki maktubi saqlanadi. Birinchi maktub 1898 yilda yozilgan bo‘lib, unda Ibrat N. Ostroumovga “Lug‘ati sitta alsina” asarini bosmadan chiqarishga yordam berishini iltimos qilib murojaat qiladi va uning taklifiga muvofiq kitobning ikki juz‘ini yuboradi. Lekin ancha vaqtgacha asarni nashr qilish yoki nashr qilmaslik haqida hech qanday javob ololmaydi. Ishoqxon Ibrat 1900 yilning 26 fevralida ikkinchi marta rus va o‘zbek tillarida xat bilan murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Mazkur asarni nashr qilinishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu xatning to‘la matni 1994 yilda Ulug‘bek Dolimov tomonidan nashrga tayyorlangan “Ishoqxon Ibrat” kitobida qayd qilingan.

So‘fizoda ijodiga oid manbalarni jamlashda Lutfulla Olimiy, Shokir Sulaymon, Buzruk Solihov, Nazir Safarov, To‘lqin Rasulov, Rahmonxo‘ja Inomxo‘jayev, Alixon Xalilbekov, Begali Qosimov hamda Husaynixon Orifiylarning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Shoirning 1917-yilga qadar yozgan she‘rlari juda kam saqlangan bo‘lsada, ma‘rifatparvarlik ruhidagi dastlabki ijod namunalari “Turkiston viloyatining gazet”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” kabi

gazetalarda hamda Orenburg va Bokuda chiqadigan gazeta hamda tatarcha “Sho‘ro”, turkcha “Sarvati funun”, “Ma‘lumot” kabi jurnallarda, Afg‘onistonning “Siroj ul-axbori afg‘oniya” gazetasida chop etilgan. Ushbu ijod namunalari shoir dunyoqarashi va mahoratini yoritishda muhim manba sanaladi.

Xulosa va takliflar.

Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalarining amaldagi nashr etilgan kitoblari, shuningdek, “Oyna” jurnali, “Turkiston viloyatining gazetasi” (“TVG”), “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” kabi vaqtli matbuot sahifalarida e‘lon qilgan maqolalari, O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlari hamda ayrim tazkira va bayozlardagi Namangan adabiy harakatchiligi manbalari o‘z ilmiy tadqiqini topishga mushtoq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tojiboyeva M. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. 2-nashri. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – B. 83-94; 169-175.
2. Дадахон қори Сухайлий. Ёдгорим / Нашрга тайёрловчилар: Ҳошимхўжа Йўлдошхўжаев, Иродахон Қаямова, Камолхон Йўлдошхўжаев. – Т.: Fikr-Media, 2009. – 192 б.
3. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат / Тарихи Фарғона.–Тошкент: Шарқ, 1994.– Б. 21.
4. Ибрат. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар: Бегали Қосимов, Суннат Аҳмедов, Улуғбек Долимов. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 6-99; 210-228.
5. Исҳоқхон тўра Ибрат // Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши, изоҳ ва луғат муаллифлари:Улуғбек Долимов, Нурбой Жабборов.– Тошкент: Маънавият, 2005. – Б.160-188.
6. Исҳоқхон тўра Ибрат. Фикҳи Кайдоний назми / Нашрга тайёрловчи: Н.Насруллаев. Т.: Movaraunnahr, 2012. – 96 б.
7. Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий / Нашрга тайёрловчи: Қаямов А. Уч жилдлик. Жилд II. – Т.: ЎЗРФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998 . – Б. 335-337.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 292-297.
9. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 33-34; 167-181; 341-351.
10. Мулла Йўлдошхўжа Отахўжа ўғли Доғий. Дилим изҳор айлайин дерман / Нашрга тайёрловчилар: Ҳошимхўжа ҳожи Йўлдошхўжа ўғли, Ҳайдархон Йўлдошхўжаев, Иродахон Қаямова. – Т.: Мовароуннахр, 2006. – 214 б.
11. Нодим. Ҳажнома., Сафарнома. ЎЗРФАШИ, Қўлёзма. Инв. № 4178, 171-саҳифа.
12. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Т.: Рухафзо, 1998. – Б. 104-171.

13. Халилбеков А. Нодим Намангонийнинг ҳаёти ва ижоди: филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1967. – Б.13-14; Тухфат ул обидин ва анис ул-ошиқин. – Тошкент, 1911. – Б.183.

14. Хилватий. Девон/ Нашрга тайёрловчилар: Абдуллаев И., Йўлдошев А. – Т.: Фан, 2001. – Б. 21-22.

15. Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Наманган адиблари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 37-51.

OMONIM SO‘ZLARNING LINGVISTIK TAHLILI (“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARI MISOLIDA)

Gafurova Umida Kadirxanovna
University of Business and Science
til va adabiyot ta’limi kafedrasi o’qituvchisi
umidaqodirxanovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada omonimlarning faqat leksik hodisa emas, balki badiiy-estetik vosita sifatida ham ishlatilganligi, poetik obrazlar yaratishdagi o’rni yoritiladi. Tahlil jarayonida so‘zlarning konnotativ ma’nolari, semantik ko‘lamlari va ularning poetik tildagi funksional yuki ochib beriladi hamda omonimlarning turkiy til imkoniyatlari doirasidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: omonim, poetik til, Navoiy, semantika, estetik funksiya, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, badiiylik, turkiy til.

LINGUISTIC ANALYSIS OF HOMONYMS (ON THE EXAMPLE OF THE WORK “MUHOKAMAT UL-LUGATAYN”)

Abstract: This article analyzes the homonymous words used in Alisher Navoi’s works, particularly in “Muhokamat ul-lug‘atayn”. It shows how homonyms are used not only as lexical phenomena but also as artistic and aesthetic devices to create poetic imagery. The study reveals the connotative meanings, semantic layers, and functional load of homonyms in the poetic language.

Keywords: homonyms, poetic language, Navoi, semantics, aesthetic function, Muhokamat ul-lug‘atayn, Turkic language.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОМОНИМОВ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МУХОКАМАТ УЛ-ЛУГАТАЙН»)

Аннотация: В статье анализируются омонимы, используемые в произведениях Алишера Навои, в частности в «Мухокамаат ул-лугатайн». Освещено использование омонимов не только как лексического явления, но и как художественно-эстетического средства, их роль в создании поэтических образов. В ходе анализа выявляются коннотативные значения слов, их семантический объем и функциональная нагрузка в поэтическом языке, а также анализируется значение омонимов в рамках тюркского языка.

Ключевые слова: омоним, поэтический язык, Навои, семантика, эстетическая функция, «Мухокамаат ул-лугатайн», художественность,

тюркский язык.

Kirish.

Omonimlar til hodisalari ichida alohida mavqega ega boʻlib, ular nafaqat lingvistik tizimning semantik qatlamini, balki badiiy matnning estetik ifoda imkoniyatlarini ham belgilab beradi. Omonimlar orqali tilda mazmun zichligi, soʻz oʻyinlari, obrazlilik va koʻp qirrali tushunchalar ifoda etiladi. Omonimlar tilda koʻp maʼnolilikning muhim koʻrinishlaridan biri boʻlib, ularning poetik matnlardagi estetik yuklamasi ayniqsa eʼtiborga molik. Alisher Navoiy oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida omonimlar vositasida tilning poetik kuchi, obraz yaratish salohiyati va semantik kengligini koʻrsatishga harakat qilgan. Bu asar tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan alohida oʻrganishga loyiqdir. Alisher Navoiy turkiy tilning leksik imkoniyatlarini, ayniqsa omonimlarning koʻp maʼnoliligini yuqori baholab, ularni forsiy til bilan solishtirgan holda tahlil qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida turkiy tilni forsiy til bilan qiyoslab, turkiy tildagi soʻz boyligi va uning ichki imkoniyatlarini keng koʻrsatadi. U omonimlarni aynan shu boylıklardan biri sifatida tilning afzalliklaridan biri deb biladi. “Bir soʻz – koʻp maʼno” tamoyili Navoiy ijodining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, omonimlar orqali sheʼriy obrazlar, ichki kechinmalar, ruhiy holatlar tasvirlanadi. Asarda quyidagi omonimlarga eʼtibor qaratadi:

1. “Koʻz” soʻzining poetik-semantik tahlili:

“Koʻz” soʻzi birinchi navbatda insonning koʻrish organini bildirsa-da, Navoiy uni koʻp qatlamli semantik yuklama bilan ishlatadi. Asarda bu soʻz muhabbat, nazar, taqdir, iztirob, koʻngil koʻzi kabi maʼnolarni oʻz ichiga oladi. Navoiy “koʻz”ni faqat jismoniy organ emas, balki timsoliy obraz sifatida, masalan, “koʻz yoshi”, “koʻzgu”, “koʻz ilgʻar tushuncha” sifatida ham qoʻllaydi. Navoiy forsiy soʻzlar bilan qiyoslab, turkiy omonimlarning imkoniyatini ochishga intiladi. Masalan, “koʻz” soʻzining forsiy muqobili “chashm”dir, biroq “koʻz”ning semantik diapazoni ancha keng: u bilan “koʻz yoshi”, “koʻz nur”, “koʻz tegmoq”, “koʻz ilgʻamoq” kabi idiomatik birliklar ham hosil boʻladi.

“koʻz yetmas yiroq manzildin xabar berdi, yoniq koʻzlarin tutqun etdi” [2].

Bu yerda “koʻz” tashqi sezgi emas, ichki kechinma, ichki koʻrish – yaʼni ilhom, intuitsiya belgisi sifatida kelmoqda. Tilshunoslikda bu konnotativ maʼno deyiladi va u poetik tasvirda asosiy vositaga aylanadi.

2. “Yuz” soʻzining kontekstual omonimligi:

“Yuz” soʻzi ham koʻp maʼnoliligi bilan eʼtiborni tortadi: raqam sifatida – “100”, insonning tashqi koʻrinishi, va “old taraf” maʼnolarida ishlatiladi.

“Yuz ming soʻz bila anglamadi bir maʼnoni, yuzda oʻqilgan gʻam ichra yuzimni yashirdim” [2].

Bu misolda “yuz” – tashqi koʻrinish, iztirob belgisi, shuningdek yashirinlik ramzi sifatida koʻzga tashlanadi. Leksikologik jihatdan bunday koʻp qatlamlilik omonimlarning poetik mazmunni chuqurlashtirishini koʻrsatadi.

3. “Yoʻl” soʻzining metaforik yuklamasi:

“Yoʻl” odatda harakat yoʻnalishini anglatadi. Ammo Navoiy uni maʼnaviy

izlanish, hayotiy tanlov, ruhiy sayohat ramzi sifatida ishlatadi.

Yo‘lim yo‘qlig‘in bildim, lekin yo‘ldosh so‘zim bo‘ldi” [1].

Bu yerda “yo‘l” – taqdir, maqsad, yo‘l-yo‘riq, hatto ilohiy yo‘ltushunchasini ifodalaydi. Omonimiyal kontekstdan kelib chiqqan holda metaforik ma‘no kasb etadi.

4. “Bosh” so‘zining falsafiy-estetik talqini:

“Bosh” – tananing bir qismi sifatida ishlatiladi, biroq Navoiy ijodida bu so‘z “boshliq”, “ilgari kelgan”, “muqaddima”, “taqdir boshi”, “hayot boshlanishi” kabi obrazlarda yoritiladi.

“Bosh egdim, boshimga taqdir toshi urildi, bosh tutgan ishlarimdan bosh tortdim.” [2.]

Bu yerda “bosh” estetik-falsafiy tahlilni talab etuvchi ko‘p ma‘noli birlik bo‘lib, semantik jihatdan o‘zaro zanjirlangan tushunchalar orqali poetik kuch kasb etadi.

Natijalar va muhokama.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida omonimlarning badiiy nutqdagi ahamiyati haqida to‘xtalar ekan, bu borada turkiy tillarning imkoniyati kengligini e‘tirof etadi:

“Yana barcha shoirlar qoshida ravshan va hamma so‘z ustalari oldida aniq ma‘lumdurki, she’rda tajnis-u iyhom qoidasi umumlashgandir. Bu chiroyli ibora va go‘zal belgilarda forsiydan ko‘ra turkchada ko‘proq tajnisni bildiruvchi so‘z va iyhomni anglatuvchi nuqtalar borki, bu nazmni bezantiradi va san‘atli qiladi. Masalan, “ot” so‘zini olaylik: bir ma‘nosi “ot, ism”dir, yana bir ma‘nosi minadigan ot va yana bir ma‘nosi “amr”dirki, toshni yo o‘qni ot deb buyurg‘aylar. Bu tajnisda bunday deyilibdirkim,

Chun pari-yu hurdur oting, begim,

Sur‘at ichra dev erur oting, begim.

Har hadangkim, ulus andin qochar,

Notavon jonim sari oting, begim.”

Shoir bu ikki bayt to‘liq tajnisdan foydalanilgan holda faqat turkiy shoirlargagina xos bo‘lgan tuyuq janrida yaratilganligini e‘tirof etarkan, ushbu xususiyatlarga “Mezon ul-avzon”da kengroq to‘xtalib o‘tganini yodga oladi. Shu bilan birga turkiyda uch, to‘rt, hattoki besh ma‘noga ega so‘zlar ko‘pligini, forsiyda esa bunday so‘zlar yo‘qligi haqida fikr bildiradi.

“Va shunday so‘zlar topilurki, to‘rt ma‘nosi bo‘ladi. Andoqki, *bor* so‘ziki, bir ma‘nosi “mavjudlig‘”, bir ma‘nosi “boruvga amr”, bir ma‘nosi “yuk”dir, bir ma‘nosi “samar”dir”.

Alisher Navoiy xuddi shu tarzda “sog‘in”, “tuz”, “ko‘k” so‘zlarining to‘rt va undan ortiq ma‘nolari haqida batafsil ma‘lumot berib o‘tadi.

Xulosa.

Omonimlar tilning leksik imkoniyatlarini ko‘rsatishda, badiiy tafakkurni shakllantirishda muhim vosita sanaladi. Alisher Navoiy omonimlarga faqat leksik birlik sifatida emas, balki ularga estetik va falsafiy mazmun yuklaydi. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da omonimlar poetik tildagi obraz yaratish vositasi, stilistik

imkoniyatlar ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Bu esa ularni tahlil qilish orqali til va tafakkur o'zaro bog'liqligini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. Q. Sodiqov. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 128 b.
2. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Tafakkur, 2014. – 144 b.
3. Yo'ldoshev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 256 b.
4. Madvaliyev A., Abduazizov A. Leksikologiya va frazeologiya. – Toshkent: Fan, 1992. – 220 b.
5. Abduazizov A. O'zbek tilining hozirgi holati va taraqqiyot yo'llari. – Toshkent: O'zRFA, 2009. – 160 b.
6. Rasulov M. O'zbek tilshunosligida omonimlarning o'rni. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015. – 112 b.
9. Zulfiqarov R. Turkiy tillar semantikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 208 b.

XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN ADABIY HARAKATCHILIGI VAKILI: SUHAYLIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

*Mamaziyoyeva Ozoda Botirali qizi,
University of Business and Science
til va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi
omamaziyoyeva99@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Namangan adabiy harakatchiligida ijod qilgan Dadaxon qori Suhayliyning hayoti va ijodiy faoliyati ilmiy va adabiy manbalar asosida tahlil etiladi. Shuningdek, shoir an'anaviy shakllarga sodiq qolgan holda davr ruhi, ijtimoiy muhit va adabiy yangilanishlarni o'ziga xos tarzda aks ettirgan ijodkor sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Suhayliy, Namangan adabiy harakatchiligi, jadid adabiyoti, janrlar rang-barangligi, tasnif, g'azal, tuyuq, aruz vazni, poetik tahlil, diniy-ma'rifiy she'riyat, lirik obraz, tasavvuf.

REPRESENTATIVE OF THE NAMANGAN LITERARY MOVEMENT AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY: THE LIFE AND CREATIVE ACTIVITY OF SUHAYLI

Abstract: This article analyzes the life and creative work of Dadakhon qori Suhayli, who worked in the Namangan literary movement at the beginning of the 20th century, based on scientific and literary sources. The poet is also evaluated as a creator who, while remaining faithful to traditional forms, reflected the spirit of the era, social environment and literary innovations in his own way.

Keywords: Suhayli, Namangan literary movement, Jadid literature,

diversity of genres, classification, ghazal, tuyuk, aruz verse, poetic analysis, religious-enlightenment poetry, lyrical image, mysticism.

ПРЕДСТАВИТЕЛЬ НАМАНГАНСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ДВИЖЕНИЯ НАЧАЛА XX ВЕКА: ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО СУХАЙЛИ

Аннотация: в статье на основе научных и литературных источников анализируется жизнь и творчество Дадахона кори Сухайли, работавшего в Наманганском литературном движении начала XX века. Поэт также оценивается как творец, который, оставаясь верным традиционным формам, по-своему отражал дух эпохи, социальную среду и литературные новации.

Ключевые слова: Сухайли, Наманганское литературное движение, джадидская литература, многообразие жанров, классификация, газель, туюк, арузский стих, поэтический анализ, религиозно-просветительская поэзия, лирический образ, мистицизм.

Kirish.

Bugungi kunda o'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. O'z bag'rida kuchli salohiyatli, uchinchi renessansga tamal toshi qo'ya oladigan darajada zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli ishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadni amalga oshirishimizda qator sohalar bilan bir qatorda o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotimizni keng doirada o'rganish va targ'ib qilish, bugungi kunda dunyo adabiy maydonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, kerakli tarbiyaviy, ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega. XX asr boshlarida namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari nodim namongoniy, hayrat, xilvatiy, ibrat, so'fizoda, dog'iy kabi dadaxon qori suhayliy ham siyosiy murakkab va ziddiyatli bir davrda yashab ijod qilgan. Turkiston hududida bu vaqtdagi adabiyot, san'at va ijtimoiy-siyosiy hayoti bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar ham ushbu fikrimiz isboti bo'la oladi.

Bu davr adabiy muhiti haqida mirzo kenjabek "ruhning ozuqasi ma'naviyat bozorlaridadir" maqolasida shunday fikrlarni bildiradi: "adabiyotning jamiyatdagi o'rni, agar u haqiqiy adabiyot bo'lsa, tandagi ruh kavidir. Albatta, adabiyotni ma'naviy va axloqiy jihatdan tartibga solish yaxshi va bu har bir ijodkorning o'z iymoni va vijdonida bo'lishi kerak. Lekin shaxslarni sindirish, xalqning ruhini o'ldirish, so'zni, ijodni, ilm-u fanni, tafakkurni, hatto tuyg'ularni va qalbni siyosiy lashtirish mustabid tuzumning majburlovchi uslubi edi. Badanning ozuqasi bo'lganidek, ruhning ozuqasi bor. Badanning tabiat bozorlarida bo'lsa, ruhning ma'naviyat bozorlaridadir. Sho'ro davrida ruh ozuqasi bo'lgan ma'rifat, milliy tarix xazinalari, ilohiy haqiqatlar, qur'oni karim, hadisi shariflar taqiqlanib, xalqni birgina ma'naviy tayanchi adabiyot bo'lib qolgan edi. Istibdod davrida hayotni "bugun"dan iborat deb bilganlar aldanib qoldi. Ularning sandig'idan kelajak uchun yozilgan haqiqat asarlari ham chiqmadi. Ular zulm va nohaqlik poydevori ustiga qurilgan sho'ro saltanatini hargiz yemirilmaydi, deb gumon qildirlar. Lekin bir buyuk ibrat, bir buyuk sabr va sabot namunasi bor: biz darsliklardan bilgan va tanigan mashhur

yozarlardan tashqari hayotning pinhon qatlamida yana bir toifa zamondosh shoir va adiblar zumrasi bor ediki, ularning nomlari va asarlari istiqbol davridagina xalqqa ma'lum bo'ldi.

Alixonto'ra sog'unliy, faqiriy shahrisabziy, yo'ldoshxo'ja dog'iy, narzullohxon g'aribiy, dadaxon qori suhayliy, qul aziz turkistoniy shular jumlasidandir. Istibdod davrida "mulla" va "eshon" degan tamg'alar bilan xaspo'shlashgan bu aziz zotlar ijodini adabiyot darsliklariga kiritish endi kelgandir. O'tmish manzaralari: oddiy hayotiy masalalarda siyosiy aybnomalar taqash, vasvasa bilan xalq ichidan dushman qidirish, bir yog'du ko'ringanda yong'indan bong urish, ayniqsa, muqaddas din ahllarini kamsitish, dushman deb bilish va jamiyatdan chetlatish, odamlarga ko'tarinki hayot baxsh etish o'rniga, ruhni o'ldirish, shaxslarni parchalash, soxtakorlik – istibdod davridagi hayot tarzimiz ana shu edi" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Dadaxon qori Suhayliy hayoti va ijodi haqida dastlab Hoshimxo'ja Yoldoshxo'jayev, Irodaxon Qayumova, Kamolxon Yo'ldoshxo'jayevlar tomonidan nashrga tayyorlangan "Yodgorim" she'riy majmuasidan, shuningdek, O.Boltaboyevaning "XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an'analari, yangilanishi" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy unvonini olish uchun yozgan dissertatsiyasi hamda ilmiy maqolalaridan umumiy ma'lumotlarni olish mumkin. Ularda Suhayliyning Namangan adabiy harakatchiligi namoyandayasi sifatida zamondosh shoirlar bilan ijodiy hamkorlik jarayoni talqin etilgan. Ammo shu paytga qadar shoirning hayot yo'li, adabiy merosi, badiiy mahorati alohida ilmiy muammo sifatida tadqiq etilgan emas.

XX asr boshlarida milliy uyg'onish davri vakillari bo'lgan Behbudiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Avloniyalar kabi ma'rifatparvarlar qatorida Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari, xususan, ularning ichida, Dadaxon qori Suhayliy diniy-ma'rifiy, ta'limiy, axloqiy mavzudagi betakror baytlari bilan Namangan adabiy harakatchiligida o'ziga xos alohida o'ringa ega bo'lib, xalq ongini millatparvarlik ruhida shakllanishi va rivojlanishi, maorif va madaniyatining yuksalishi uchun Qur'on oyatlaridan o'zining betakror baytlarida mohirona foydalangani holda sarmahsul ijod qilgan.

Ma'naviyat-ma'rifat suvi bilan sug'orilgan va kamol topgan asarlari orqali yoshlarimizni ona-Vatanga sadoqatli, ilm-ma'rifatli va ijtimoiy hayotda faol bo'lishga chaqirgan. Shoirning bizgacha yetib kelgan birgina "Yodgorim" she'riy to'plami mavjud bo'lib, majmuasidan joy olgan hamd, na't hamda munojotlar, g'azal, murabba', muxammas, musaddas, qit'a, tuyuq, masnaviy, muvashshah, marsiya kabi she'rlarini shoir Dog'iyning o'g'li Hoshimxo'ja eski o'zbek yozuvidan krill yozuviga o'g'irgan. Hoshimxo'ja domla ushbu nashrga "Dadaxon qori Suhayliy haqida" sarlavhali so'zboshi yozadi.

So'zboshida shoir biografiyasi batafsil yoritilgan bo'lib, muallif bu ma'lumotlarni Suhayliyning jiyani Abdulhafizxon, keyinchalik shoir bayozlarini 43 yil asragan qarindoshi hamda qo'shnisi Abdurahimxo'jadan olinganini ta'kidlab o'tadi. Biz ham ayni ana shu ma'lumotlardan foydalangan holda xalqimiz uchun

ushbu ijodkor haqida imkon qadar shoir hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida siz hamda adabiyot o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaqinlashtirishga harakat qilamiz. O'zbek adabiyoti o'zbek xalqining o'zi singari juda qadimiy va boy tarixga ega. Uning o'ziga xos rivojlanish va taraqqiyot yo'li, shakllanish qonuniyatlari mavjud. Bularni to'raligicha his etish, anglash va umumlashtirish uchun uning ana shu tarixini puxta o'rganish zarur. Yuqorida nomi qayd etilgan shoirlar bilan bir davrda ijod qilgan namanganlik shoir Dadaxon qori Suhayliy adabiy merosi yuzasidan adabiyotshunoslik ilmida ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo o'z davrida didaktik ruhda bitilgan lirik merosi, shoir ijodidagi mumtoz poetika an'analari va yangi davr adabiyotiga xos tamoyillar, diniy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy she'rlari qiyosiy tadqiqini amalga oshirish, uning o'rnak qilib ko'rsatsa arziydigan hayoti haqida, mag'zi to'q, ma'naviyat, tarbiyat xazinasini bo'lgan ijodi haqida keng jamoatchilikka yetkazish zarurati o'zbek adabiyotshunosligining, shuningdek, biz maorif xodimlarining kun tartibida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu shoirning ma'rifatparvarlik ruhida yaratilgan asarlaridagi badiiy so'z san'atining o'rni, adabiy merosining o'ziga xos janr xususiyatlarini poetik jihatdan tahlil etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Dissertatsiya ishida biografik, tarixiy-qiyosiy, tasniflash va sotsiologik tahlil usullari hamda qiyosiy-tipologik tadqiq metodlaridan foydalanildi.

Natija va muhokama.

Dadaxon qori Suhayliy 1898-yilda Namangan shahrining "Chinor" mahallasidagi Ro'yanchi ko'chasida hunarmand oilasida tavallud topgan. Oilada to'rt farzand bor edi. Otasi Rustamxo'ja bo'zchilik (to'quvchilik) bilan shug'ullangan. Onasi Ubaydaxon xola naychakashlik, ya'ni ip o'raladigan naysimon asbob yasash bilan band bo'lar, bo'sh vaqtlarida esa ip yigirar edi. Oilaning har bir a'zosi dindor, ilmga intiluvchi, ma'rifatparvarlar odamlar bo'lishgan.

Dadaxon Qori bolaligidan nihoyatda ziyrak, salohiyatli va xushro'y edi. Buni sezgan otasi Rustamxo'ja farzandining tarbiyasi va ta'lim olishiga qattiq e'tibor bergani holda Dadaxon Qori dastavval Avliyo domla diniy maktabida savodini chiqaradi hamda Qur'on qiroati ilmini o'rgana boshlaydi va 13 yoshida jarangdor va yoqimli ovozli murattab qori bo'lib yetishadi. Qur'onni xatm qilgach, 1911-yilda Bahodirxon Eshon madrasasiga kirib, keyinchalik Namangan shahridagi Mulla Qirg'iz madrasasi ro'parasida joylashgan, 1918-yilda buzib tashlangan Azizxo'ja Eshon madrasasida tahsil oladi. U yerda arab, fors, ozarbayjon tillarini mukammal egallaydi. Bundan tashqari Dadaxon Qori Suhayliy arab yozuvi sirlarini mukammal o'zlashtirib, mohir xattot darajasiga yetdi. Hayoti davomida bir necha shoirning asarlarini chiroyli kaligrafiya bilan "oq"qa ko'chirib berganligi ham uning o'z vaqtida xalq orasida ma'lum va mashhur mohir xattot bo'lganligidan dalolat beradi.

Suhayliy yashagan davrida Namanganda o'ziga xos adabiy muhit yuzaga kelgan bo'lib, Mulla Boboxon to'ra, Nodim Namangoniy (vaf.1911), Mulla Yo'ldosh Xilvatiy (1858-1921), Mulla Is'hoqxon to'ra Ibrat (vaf.1938), Mulla Yo'ldoshxo'ja Dog'iy (1880-1974), Usmon Nosir (1912-1944), Ne'malbadal

Partaviy (vaf.1938), Aziz Tursun Sharqiy (vaf.1974), Rashid Xalil (vaf.1963-1964) kabi o'tkir qalam sohiblari barakali ijod qilishgan edi. Ular tez-tez yig'ilib, mushoira o'tkazar, bir-birlarining ijodlari bilan tanishar, ulardan tajribalari yoshlarga kerakli tavsiyalarni berar edilar. Shu o'rinda Mulla Yo'ldoshxo'ja Dog'iyning o'g'li Hoshimxo'ja hoji Yo'ldoshxo'jayevning 2006-yil O'zbekiston musulmonlar idorasi rahbarligida nashr qilinadigan "Hidoyat" oylik diniy-ijtimoiy, ilmiy-adabiy jurnalida otasiga bag'ishlangan "Dog'iyning bilasizmi?" nomli maqolasida otasining mashaqqatli va mazmunli hayoti hamda ijodi bilan birga ayni biz ta'kidlagan mushoiralar haqida ham fikr yuritadi: "30-yillar xonadonimizda ko'plab she'riy suhbatlar bo'lar edi. Munis (Umarxon), Unvon (Musallamxon to'ra), Suhayliy (Dadaxon qori), Sho'xiy (Abduvohid Ahadov), Kamoliy (Kamol Xamoqulov), Partav (Ne'malbadal Samarqandiy) Mulla Abduqayum qori kabi shoirlar ijodlaridan namunalar o'qishar, munozaralar yarim tungacha davom etardi. Afsuski, qatog'onlar zarbasi bu kabi ilmiy va badiiy suhbatlarga chek qo'ydi".

Yoshligidan she'riyat havasmandi bo'lgan Dadaxon Qori Suhayliy Nodim, Dog'iy, Munis, Unvon, So'fizoda kabi o'z davrining ko'zga ko'ringan shoirlari bilan do'stlashadi, ularni ustoz sifatida ulug'laydi. Chunonchi, Suhayliy Mulla Yo'ldoshxo'ja Dog'iyning suyakli shogirdi va maslakdoshi bo'lib, ko'pgina ijod sirlari va uslublarni o'sha kishidan o'rgangan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Dog'iy naqshbandiya tariqati soliki bo'lib, tasavvuf sirlarini davrining zabardast qorilaridan o'rgangan edi. Natijada Suhayliy ustozining so'fiyona baytlaridan ilhomlangani holda, ayni shu doirada saboq ola boshladi, qunt bilan kitob mutolaasiga berildi. Fariddin Attor, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Abdulqodir Bedil, Mashrab, Amiriy, Nodira kabi shoirlar ijodi bilan tanishdi. Ulardan balog'at, fasohat, majoz, aruz va qofiya kabi ijod sirlarini o'rgandi. Tez orada davralarda ist'dodli shoir sifatida tanildi. Bir-biridan nafis g'azallar bitdi, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Mashrab, Nodira, Dog'iy kabi bir qator shoirlarning she'rlariga muxammaslar bog'ladi. Uning she'rlaridan biri o'zbek romonchiligining otasi deb e'trof etilgan mashhur adib Abdulla Qodiriyga atab yozilgan madhiyadir. Suhayliy Qodiriy ijodining muxlislaridan biri bo'lgan edi. 1934-yilda bitilgan "Qodiriyga xat" madhiyasida Qodiriy Turon o'lkasi-yu, Toshkentning farzonasi, eng suyakli adibi sifatida ta'riflanadi [2].

Afsuski, mash'um qatog'on Dadaxon Qori Suhayliyni ham chetlab o'tmadi. Uni 1930-yilda Muhammadsharif So'fizodaning maslakdoshi sifatida hibsga oldilar. Bir necha oylik tutqunlikdan so'ng majruh va mayib holda turmadan ozod qilindi. Uning sog'ligi shunchalik ayanchli edik, so'zlasa, nima deyotganganini tushunish qiyin, qo'llari qalam tuta olmas darajaga tushib qolgan.

Suhayliy zamonasiga xos tarzda tariqat ahlidan bo'lib, Yaxyoxon To'raga murid bo'lgan. U ma'naviyatni moddiylikdan ustun bilgan. Shu bois uning ijodida chin muhabbat, sofinsoniy tuyg'ular, ruhiy kamolotga intilish hissi sezilib turadi.

*Hisob etmang ani odam safidan el g'amin chekmay
Yemak-ichmak ila mag'rur o'lib, kafiyni chog' aylar.
Ulug'lik rutbasiga yetkurur insonni kamtarlik,
Tushar qadri kimikim kibr ila oliydimog' aylar(44-bet).*

Yigitlik chog'ida Qu'ron hofizi, zo'r xattot, iste'dodli shoir sifatida tanilgan Dadaxon Qori umrining oxirgi yillari bir munca ayanchli kechadi. U Zebixon ismli ayolga uylanadi, lekin oilaviy turmushi uzoqqa cho'zilmaydi. Bu nikohdan farzand dunyoga kelmadi. Abdulhafizxon ismli jiyanining hovlisidagi bir kulbada faqirona kun kechirgan Suhayliy 1961-yilda 63 yoshida vafot etdi. Qabri Namangan shahrining shimoliy tarafida joylashgan "Mavlaviy" qabristonida, Mavlaviy Namongoniy maqbarasining yonida joylashgan.

Suhayliy o'zining bir necha she'rida Makkayi Mukarramadagi baytullohni tavof qilish va Madinayi Munavvaradagi Rasululloh ravzalarini ziyorat qilish ishtiyoqini bayon qilib o'tgan. Bu haqida shunday yozadi:

*Yetolmay ravzai baytul-haramga Qosiri afgor,
Borurg'a zodi rihlat ham turarg'a sabru toqat yo'q*

Yana:

*Qani bo'lsa muyassar xoki poyi ostoningiz,
Hayotim boricha qilsam makonim, yo Rosululloh.
Yetolmasadin tavofi ravzangizga yo'lda jon bersam,
Chaqirgaysiz u da ruhi ravonim, yo Rosululloh. (14-bet)*

Shunga qaramay, shoir kelgusi avlodlar bu sharafiga muyassar bo'lishlarini Yaratgandan so'rab duolar qiladi:

*Ilohiy, qolmasin dunyoda mahrum,
Kim ul mushtoqi jo'yoniy Madina. (17-bet)*

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin, yurtimizda yashovchi barcha din vakillari, jumladan, mo'min-musulmonlarning o'z diniy marosimlarini emin-erkin ado etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Xususan, har yil respublikamizdan minglab yurtdoshlarimiz Suhayliyga bir umrlik armon bo'lib qolgan muborak Haj ibodatini bajarish imkoniyatiga muyassar bo'lmoqdalar. Ularning emin-erkin, hech qanday qiyinchiliklarsiz ibodatlarini ado etib, so'ssalomat uylariga qaytishlari uchun hukumatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bularning barchasi insonning o'ziga yaratib berilgan sharoitlardan to'g'ri istifoda qilishga undaydi.

Shoirning ijodiy merosi – ikki bayozdan iborat she'riy to'plam, u vafot etgach, jiyan Abdulhafizxonda qolgan edi. Abdulhafizxon 1963-yilda Toshkentga ko'chib ketayotganida bayozlarini o'z qarindoshi Abdurahimxo'ja Mamatxonovga topshiradi. She'riyat ixlosmandi, havaskor shoir Aburahimxo'ja bu qo'lyozmalarni qirq uch yil davomida avaylab-asraydi. U Suhayliy bilan yaqin qo'shni va ko'p voqealardan xabardor bo'lgani sababli shoirning hayoti haqidagi ma'lumotlarning aksari shu kishidan olingan. Bayozdan, shuningdek, o'sha davrning yetuk adiblari Mulla Yo'ldosh Xilvatiy, Mulla Yo'ldoshxo'ja Dog'iy, Valixon to'ra Unvon kabi shoirlarning ham bir necha she'rlari o'rin olgan. Qo'lyozma Yo'ldoshxo'ja Dog'iyning o'g'li Hoshimxo'ja hoji Yo'ldoshxo'jayev tomonidan krill alifbosiga ko'chirilib, nashrga tayyorlangan [5].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, shoir she'rlari jamlangan ikkita bayoz bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari mavzu jihatidan g'oyat xilma-xil, badiiy jihatdan puxta. Shoir ijodida g'azallar, muxammaslar, muvashshahlar, marsiyalar,

naziralar, tuyuqlar hamda hajviy asarlar o‘rin olgan. suhayliy asarlari bilan tanishgan har bir kitobxon uning naqadar yuksak zakovat sohibi ekanligini his qiladi.

Suhayliy dastlabki she‘rlarini Qoriy taxallusi bilan yozgan. Biroq keyinchalik Qo‘qonda shunday taxallus bilan ijod qilgan shoir borligini eshitib, Qosir taxallusi ostida ijodini davom ettirdi va so‘nggi pallada she‘rlariga Suhayliy deb imzo chekadi. O‘zi arab va fors tillarini yaxshi bilishiga qaramasdan, asosan, o‘zbek tilida ijod qilgan. Biroq, she‘rlarida fors va arabcha iboralar, Qur‘on oyatlari va hadislardan chiroyli iqtiboslar qo‘llangan.

Dadaxon Qorining qiziqishlari keng doirada bo‘lgan. U adabiyot ilmi bilan bir qatorda tarixni ham jiddiy o‘rgangan, shu bois qiziqishlari samarasi o‘laroq “Bo‘ston al-orifiyn” asari yuzaga kelgan. Bu asarda u rus davlatining paydo bo‘lishi, Buxoro shahrining qurilishining tarixi, Turkistonning ruslar tomonidan zabt etilishi, Qo‘qon xonligining tashkil topishi hamda qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

Hozirda shoirning Muborakxon ismli singlisining farzandlari bor. Katta o‘g‘illari Abdulhafizxon 1994-yilda Toshkentda vafot etgan. Uning farzandlari o‘sha yerda yashaydi. Ikkinchi o‘g‘li Is‘hoqxon hozirda Toshkentda istiqomat qiladi.

Hayoti taqdir va zamonaning ayovsiz sinovlari ostida o‘tgan Suhayliy oila qurib, zurriyot qoldirish, yoki boshqa ishlar bilan nom qoldirish imkoniyatiga ega bo‘lmadi. Shu bois bo‘lsa kerak, bir g‘azalida u:

*“Suhayliy, har erdin qolur bir nishon,
Men o‘lsam agar, yodgorim qani?”*

deb, zorlanadi.

Xulosa va takliflar.

Biroq, fikimizcha, Suhayliydan qolgan bayoz, ijod namunalari avlodlar uchun qoldiriladigan meroslarning eng munosiblaridan biri hisoblanadi. Chunki, u she‘riyati orqali yosh avlodni ilm-ma‘rifatga chorlaydi, xalqiga, Vataniga munosib bo‘lishga undaydi, halollik, kamtarlik va mehr-oqibat kabi chin insoniy tuyg‘ularni tarannum qiladi. Umid qilamizki, Suhayliy she‘rlarining mag‘zini chaqish, ularni baytma-bayt ham ilmiy, ham badiiy jihatdan tahlil qilish, hayotning har qaysi mavzusi haqida mohirlik bilan qalam tebrata olgan shoir ijodi va mashaqqatli hayotini tadqiq etish, uni nafaqat ilm ahliga, balki butun o‘zbek xalqiga, ayniqsa, endigina o‘sib-unib kelayotgan, insoniy qarashlari shakllanayotgan – O‘zbekistonning buyuk kelajagi bunyodkorlariga tanishtirish, avvalombor, XX asr o‘zbek adabiyotining ochilmagan yana bir qirrasini ochish, ajdodlar merosiga bo‘lgan yuksak ehtirom belgi bo‘lishi bilan birga, eng asosiysi, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan yuksak marralarni zabt etish uchun bizga, yoshlarga hayotiy mayoq bo‘lib xizmat qiladi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Болтабоева О. XX аср бошларида наманганда адабий ҳаракатчилик: намояндалари, анъаналари, янгилилиши: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. – Тошкент, 2019. – Б. 148.
2. Сухайлий. Ёдгорим. – Тошкент: Fikr-Media, 2009. – 192 б.
3. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Рухафзо, 1998.

– 176 б.

4. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. – Наманган: Наманган, 2007. – 467 б.

5. Адабий тур ва жанрлар. 3 жилдлик. 2 жилд. – Тошкент: Фан, 1992. – 252 б.

6. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998.

7. Mirzo Kenjabek. Ruhīyat Ozuqasi ma'naviyat bozorlaridadur / Yoshlik, 2011. 20-may – № 5. – B. 7-10

O'XSHATISHLAR ORQALI MADANIY TAFAKKUR IFODASI: O. HENRY VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL

Mamarasulov Ahmadjon Anvarjon o'g'li

University of Business and Science,

ingliz tili o'qituvchisi

mamarasulov1771@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalarida uchraydigan o'xshatishlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Mualliflar asarlaridagi o'xshatishlar milliy mentalitet, madaniy stereotiplar, xalqona obrazlar va estetik didni ifodalashda qanday xizmat qilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o'xshatishlar tematik va struktura jihatdan guruhlanib, ularning madaniy yuklamalari solishtirma asosda izohlanadi. Natijalarga ko'ra, har ikki adib ijodida o'xshatishlar shaxsiy kechinmalar, ijtimoiy muhit va xalqning madaniy dunyoqarashini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: o'xshatish, lingvokulturologiya, badiiy tasvir, xalqona obraz, madaniy tafakkur, qiyosiy tahlil.

"EXPRESSION OF CULTURAL THINKING THROUGH SIMILES: A LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF O. HENRY'S AND ABDULLA QAHHOR'S SHORT STORIES"

Abstract: This article provides a linguocultural analysis of similes found in the stories of O. Henry and Abdulla Qahhor. The study focuses on how similes reflect national mentality, cultural stereotypes, folk imagery, and aesthetic values in the works of both authors. The similes are classified thematically and structurally, with their cultural connotations explained through comparative analysis. The results demonstrate that similes in both authors' writings serve as tools for expressing individual emotions, social settings, and culturally shaped worldviews.

Keywords: simile, linguoculturology, literary imagery, folk metaphor, cultural thinking, comparative analysis.

"ВЫРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРНОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ СРАВНЕНИЯ: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ О. ГЕНРИ И АБДУЛЛЫ КАХХАРА"

Аннотация: В статье представлен лингвокультурологический анализ сравнений, встречающихся в рассказах О. Генри и Абдуллы Каххара. Рассматривается, как с помощью сравнений выражаются национальный менталитет, культурные стереотипы, народные образы и эстетическое восприятие мира. Сравнения классифицируются по тематике и структуре, а их культурная нагрузка анализируется на сопоставительной основе. Результаты показывают, что в творчестве обоих авторов сравнения служат средством выражения личных переживаний, социальной среды и мировоззрения, сформированного культурой.

Ключевые слова: Сравнение, лингвокультурология, художественный образ, народный стиль, культурное

Kirish.

Til – xalq tafakkurining, madaniyatining va tarixiy ongining aksidir. Har qanday millatning adabiyoti esa bu tilning badiiy ifoda vositalari orqali yanada boyib, chuqur mazmun kasb etadi. Adabiy asarlarning badiiyligi, ifoda kuchi, estetik ta'sirchanligi ko'p jihatdan undagi tasviriy vositalarning tabiati va qo'llanilish uslubiga bog'liq. Ana shunday vositalardan biri — o'xshatish [1] (simile) — nafaqat adabiy obrazlar yaratishda, balki milliy tafakkur, dunyoqarash va qadriyatlarni ifodalashda ham beqiyos vosita hisoblanadi.

Lingvokulturologiya so'nggi o'n yilliklarda tilshunoslikda dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv til birliklarini nafaqat lingvistik, balki madaniy kontekstda tahlil qilishni, madaniyatlararo farq va umumiyliklarni aniqlashni maqsad qiladi. O'xshatishlar esa o'zida muayyan xalqning mentalitetini, estetik qadriyatlarini, ijtimoiy stereotiplarini aks ettirgan holda lingvokulturologik tadqiqotlar uchun muhim material bo'lib xizmat qiladi [2].

Ingliz va o'zbek badiiy adabiyotlarida o'xshatishlar muallifning dunyoqarashi va badiiy uslubini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, **O. Henry** (1862–1910) hikoyachiligida sodda lekin chuqur mazmunli tasvirlar, kinoyali o'xshatishlar, Amerika hayotiga xos ijtimoiy kontekstlar ifodalansa, unga zamondosh **Abdulla Qahhor** (1907–1968) hikoyalarida o'zbek xalqining turmush tarzi, xalqona obrazlar, ma'naviy qadriyatlar va kulgi-yu istehzo orqali ifodalangan tasviriy vositalar uchraydi [3].

Ushbu maqola aynan shu ikki ijodkor hikoyalarida uchraydigan o'xshatishlarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

- O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalaridagi o'xshatishlarni aniqlash;
- Ularning semantik va stilistik xususiyatlarini aniqlash;
- Har bir o'xshatishda aks etgan madaniy tushunchalarni tahlil qilish;
- O'xshatishlar orqali ingliz va o'zbek milliy mentalitetlari o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni ko'rsatish;

- Bunday tahlillar tarjima amaliyoti va madaniyatlararo muloqotga qanday ta'sir qilishini aniqlash.

Maqolaning nazariy asosini yaratilishida Yu.S.Stepanov, V.V.Vorobyov, A.Vezhbetskaya, G.G'ulomov, O.Yo'ldoshev, H.Mahmudov kabi tilshunos va madaniyatshunoslarning lingvokulturologiya va metaforik ifodalar haqidagi g'oyalari tashkil etadi. Tadqiqot natijalari esa madaniyatlararo tarjima, lingvistik stilistika va adabiy tahlil kabi sohalarida amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-lingvokulturologik tahlil usuli asos qilib olindi. Unda ingliz adabiyotining vakili O. Henry va o'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyalar tahlil obyekti sifatida tanlandi. O'rganish uchun O. Henryning "The Last Leaf," "The Gift of the Magi," "The Cop and the Anthem," kabi mashhur hikoyalari, Abdulla Qahhorning esa "Sinchalak," "O'tgan kunlar," "Pichoq," "Anor," kabi xalq orasida mashhurlik qozongan hikoyalari tanlab olindi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Matn tanlash va tayyorlash: O. Henry va Abdulla Qahhorning 10 tadan ortiq hikoyalari tanlanib, ulardagi o'xshatish birliklari ajratib olindi. Har bir o'xshatish kontekstda tahlil qilindi.

2. O'xshatishlarni aniqlash va tasniflash: Matnlardan ajratilgan o'xshatishlar grammatik shakli (asosiy, murakkab, o'xshatish bog'lovchilari bilan), semantik yo'nalishi (inson, tabiat, jamiyat, his-tuyg'u) hamda madaniy belgilariga ko'ra guruhlariga ajratildi.

3. Lingvokulturologik tahlil: Har bir o'xshatishning semantik yuklamasi, madaniy asoslari va xalqona obrazlaridagi milliylik darajasi tahlil qilindi. O'xshash va farqli jihatlar ajratib ko'rsatildi.

4. Qiyosiy tahlil: Ikkala adib asarlaridagi o'xshatishlar o'rtasida madaniy, estetik, mantiqiy va stilistik jihatdan o'xshashlik va tafovutlar ko'rsatildi.

Tadqiqotda deskriptiv va interpretativ tahlil metodlaridan foydalanildi. O'xshatishlar faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki madaniy va psixologik mazmun yuklovchi vosita sifatida qaralgan. Shuningdek, kontekstual yondashuv orqali o'xshatishlarning matndagi funksiyasi va badiiy-estetik roli ochib berildi.

Ushbu metodologiya lingvokulturologik tahlilni tizimli va izchil olib borish, o'zaro qiyosiy xulosalar chiqarish hamda ikki millatning madaniy ongidagi o'xshash va farqli tasavvurlarni ochib berishga xizmat qildi[4].

Natijalar.

Tadqiqot davomida O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalaridan jami 90 dan ortiq o'xshatish birligi ajratib olindi. Ulardan 48 tasi O. Henry, 44 tasi Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyalarda uchradi. Tahlil natijalariga ko'ra, har ikki adib ijodida o'xshatishlar turli maqsadlarda va madaniy kontekstda qo'llangan bo'libularning asosiy farqlari quyidagi toifalar bo'yicha guruhlandi:

1. Struktura jihatidan:

O'xshatishlar grammatik qurilishi bo'yicha tahlil qilindi. Ular orasida eng ko'p uchraydigan shakllar:

“like/as” + nom/shakl (O. Henry):

“She was like a leaf in the wind.”

“go‘yo”, “xuddi...dek”, “kabidir” (A. Qahhor):

“Ayol go‘yo paxtadek yengil bosardi yerga oyoqni.”[5]

Qahhor asarlarida xalqona ohang va shevaga yaqinlik seziladi, bu esa milliy ruhni ifodalovchi lingvokulturologik belgidir.

2. Madaniy belgilari bo‘yicha:

O. Henryda:

Shaharga oid obrazlar, amerikalik mentalitetga xos ironik, sarkazmli o‘xshatishlar:

“Life had knocked him about like a tin can on a back alley.”

A. Qahhorda:

Qishloq hayotiga, o‘zbek mentalitetiga xos obrazlar, xalq tilidan olingan o‘xshatishlar:

“Odam shunday qilib yashab yursa, to‘qmoqdek og‘ir bo‘ladi.”

Bu farqlar ikki adib hayot kechirgan ijtimoiy muhit, urf-odatlar, xalqning hayot falsafasini ochib beradi.

3. Badiiy-estetik funktsiya:

O. Henryda o‘xshatishlar ko‘proq kinoyali, istehzoli tusda bo‘lib, hayotiy fojialarni yumor orqali yengillashtirishga xizmat qiladi.

Abdulla Qahhorda esa o‘xshatishlar ruhiy-psixologik holatni chuqurroq ifodalash, personajni xalqona tarzda tasvirlash, tabiat va insonni uyg‘un tasvirlashga qaratilgan.

Shunday qilib, natijalar shuni ko‘rsatdiki, har ikkala adib ijodida o‘xshatishlar madaniyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, muallif dunyoqarashi va jamiyatning estetik qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik vosita sifatida xizmat qilgan.

Munozara.

O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalarida uchraydigan o‘xshatishlar har ikki millatning hayot falsafasi, estetik didi va madaniy qadriyatlari haqida muhim ma’lumot beradi. Ularning o‘xshatishlardan foydalanish uslubi va maqsadi har xil bo‘lishiga qaramay, umumiy badiiylik mezonlariga sodiqlik saqlanadi. Quyida olingan natijalar asosida ayrim asosiy farq va o‘xshashliklar tahlil qilinadi.

1. Madaniy kontekst va xalq ruhiyatining aks etishi

O. Henry o‘z hikoyalarida o‘xshatishlarni zamonaviy shahar hayoti, Amerikaning o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitini aks ettirish uchun ishlatadi. Ko‘pincha o‘xshatishlar soddaligi bilan ajralib turadi, lekin ularning orqasida chuqur ijtimoiy kinoya, istehzo yoki fojia yashiringan bo‘ladi. Misol uchun:

“He moved like a marionette with broken strings.” [6]

Bu o‘xshatish nafaqat xarakterni tasvirlaydi, balki insonning jamiyatdagi nochor holatini, hayotiy ojizligini ham ifodalaydi.

A. Qahhor esa o‘xshatishlar orqali qishloq hayotining tabiiyligi, xalq tilining boyligi va inson xarakteridagi ziddiyatlarni ochib beradi. Uning qahramonlari hayotiy, xalqona va madaniy jihatdan o‘zbek an’analariga chuqur bog‘langan:

“Ko‘zlari go‘yo to‘g‘on yorilgandek, tinimsiz oqardi.”

Bu ifoda ruhiy azob va ichki kechinmalarni ifodalashda xalq obrazlaridan unumli foydalanilganining namunasi bo'la oladi.

2. Mentalitet va estetik yondashuvdagi tafovut

O. Henry hikoyalaridagi o'xshatishlar ko'proq individualistik va ironik ruhda bo'lsa, Abdulla Qahhorda ular kollektivlik, xalqona dunyoqarash va milliy o'ziga xoslikni targ'ib qiladi [7]. Bu, o'z navbatida, G'arb va Sharq adabiy tafakkuri o'rtasidagi asosiy tafovutlardan birini tashkil qiladi [8].

3. O'xshatishlarning matndagi funksional roli

O. Henryda o'xshatishlar hikoya g'oyasini kuchaytirish, voqealar kulminatsiyasini yanada ta'sirli qilish, dramatismni oshirish uchun ishlatiladi.

Abdulla Qahhorda esa o'xshatishlar personajning ichki olamini ochib berish, xalq tafakkuridagi stereotip obrazlar orqali tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

4. Tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan ahamiyati. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'xshatishlarni tarjima qilishda har ikki adibning madaniy konnotatsiyalarini to'liq saqlash oson emas. Ayniqsa, A. Qahhorning xalqona, mahalliy metaforalari ingliz tiliga to'laqonli o'girilganida semantik noaniqlik yoki konnotativ yo'qotishlar yuzaga keladi. Shu sababli, lingvokulturologik yondashuv bu sohadagi tarjimalarda ham muhim metodologik asos sifatida qaralishi kerak.

Shunday qilib, munozara O. Henry va Abdulla Qahhor o'rtasida madaniy tafakkur, ifoda uslubi, obrazlar yaratish va estetik yondashuvdagi o'xshash va farqli jihatlarni ochib berdi. Har ikki yozuvchi uchun o'xshatishlar – bu oddiy badiiy vosita emas, balki xalq tafakkurining til orqali kodlangan madaniy ko'zgusidir.

Xulosa.

Ushbu maqolada O. Henry va Abdulla Qahhor hikoyalarida uchraydigan o'xshatishlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tahlil natijalari o'xshatishlarning har ikki adib ijodida muhim badiiy va madaniy vosita sifatida xizmat qilganini ko'rsatdi. Ular orqali inson xarakteri, jamiyatdagi turli holatlar, shaxsiy kechinmalar va milliy mentalitet o'z ifodasini topgan.

Quyidagi xulosalarga kelindi:

O'xshatishlar madaniy tafakkurning ifodasi sifatida har ikki adib ijodida muhim rol o'ynaydi. O. Henryda ular shahar hayotiga xos kinoyali, ba'zida sarkazmli tusda bo'lsa, Qahhorda xalqona obrazlar orqali ifodalanadi.

Semantik va estetik jihatdan, O. Henry o'xshatishlari ko'proq yumor va dramatismga xizmat qilsa, Abdulla Qahhorda ularning funksiyasi ruhiy holat, xalqona obraz va ichki konfliktlarni ochib berishdir.

Lingvokulturologik tafovut sifatida G'arb (individualistik, sotsiologik) va Sharq (kollektiv, xalqona) tafakkur o'rtasidagi farqlar o'xshatishlar misolida yaqqol ko'rinadi [9].

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan, bunday o'xshatishlar tarjimasida ularning madaniy konnotatsiyasini yo'qotmaslik uchun kontekstual va ekvivalentlikka asoslangan yondashuvlar talab etiladi.

Takliflar:

Lingvokulturologik tahlil metodikasini badiiy matnlarni o‘rganishda, ayniqsa, o‘xshatishlar va metaforalarning tarjimasini, stilistik tahlili kabi sohalarda keng tatbiq etish maqsadga muvofiq.

O‘zbek adabiyotidagi xalqona o‘xshatishlarni to‘plash, tasniflash va tarjima qilish bo‘yicha elektron korpuslar yaratish, ularni xalqaro lingvistik tadqiqotlar uchun ommalashtirish lozim[10].

O‘rta va oliy ta’lim darsliklarida o‘xshatishlarning madaniy funksiyalariga doir amaliy topshiriq va tahliliy mashqlarni kiritish orqali talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish mumkin.

G‘arb va Sharq adabiyotining tasviriy vositalaridagi universallik va milliylik mezonlarini chuqur tadqiq etish lingvistik falsafa va madaniyatshunoslik yo‘nalishlariga yangi ilmiy nazariyalar olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Henry, O. (2008). *The Gift of the Magi and Other Short Stories*. Dover Publications.
2. Qahhor, A. (1978). *Tanlangan asarlar (1–3-jildlar)*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Stepanov, Y. S. (2004). *Konstanty. Slovar russkoy kul'tury*. Moskva: Akademicheskij Proekt.
4. Vorobyov, V. V. (1997). *Lingvokulturologiya: Teoriya i metody*. Moskva: Institut Yazykov.
5. Vezhbitskaya, A. (1996). *Language, Culture, and Meaning*. Oxford University Press.
6. Yo‘ldoshev, O. (2005). *Matn lingvistikasi asoslari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Mahmudov, H. (2010). *Badiiy matn stilistikasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
8. G‘ulomov, G‘. (2009). *Til va madaniyat*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
9. Stepanov, Y. S. (2004). *Konstanty. Slovar russkoy kul'tury*.
10. G‘ulomov, G‘. (2009). *Til va madaniyat*.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVISTIK KORPUS MASALASI

Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o‘g‘li

University of Business and Science

Til va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

nuriddinovabrorbek@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada lingvistik baza, tabiiy tilni qayta ishlash masalasi, bu orqali kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilayotgan elektron korpus yaratish borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, korpusning virtual kutubxonadan afzalliklari, qidiruv tizimidagi qulayliklar haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Tabiiy til, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), lingvistik baza, lingvistik teg, elektron korpus, korpus, virtual kutubxona.

ANALYSIS OF THE DATA ON CORPUS CONCEPT IN UZBEK LINGUISTICS

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистическая база, вопрос обработки естественного языка, создание электронного корпуса с использованием компьютерных технологий, научные исследования, преимущества корпуса из виртуальной библиотеки, удобство использования поисковой системы.

Ключевые слова: Естественный язык, обработка естественного языка (NLP), лингвистическая база данных, лингвистический тег, электронный корпус, корпус, виртуальная библиотека.

ВОПРОС О ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ КОРПУСЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Annotation: The article discusses the linguistic base, the issue of natural language processing, the creation of an electronic corpus using computer technologies, scientific research, the advantages of the corpus from the virtual library, and the usability of the search engine.

Keywords: Natural Language, Natural Language Processing (NLP), linguistic database, linguistic tag, e-corpus, corpus, virtual library.

Kirish.

Til tizimini “qayta ishlash”ning talab va ehtiyoji sun’iy intellekt tizimida lingvistik baza yaratishni taqozo etadi. Lingvistik baza korpus yaratish uchun asosiy ta’minot hisoblanadi. Tilni qayta ishlashda sun’iy intellekt tizimlari uchun lingvistik baza yaratish muhim ahamiyatga ega. Lingvistik baza – bu tilning leksik, grammatik, semantik va pragmatik qonuniyatlarini aks ettiruvchi tizim boʻlib, u korpusga asoslanadi. Korpus esa til materiallarining tizimlashtirilgan toʻplami hisoblanadi va turli jihatlaridan tasniflanadi.

Bilamizki, korpus tuzilishi, maqsadi, turgʻun, oʻzgaruvchanligi kabi jihatlariga koʻra, bir qancha turga ega boʻlib, mutaxassislar tomonidan turlicha tasniflangan. Korpusning tur, xillari qancha koʻp boʻlmasin, ularni dastlab ikki tomondan guruhlash maqsadga muvofiq:

– butun til(odatda, tilning maʼlum davri)ga yoki uning maʼlum bir voqelanish turi(janr, uslub, biror ijtimoiy yoki yoshga oid guruh; yozuvchi yoki olim tili)ga oidligiga koʻra;

– lingvistik teg turiga koʻra [3].

Lingvistik baza va korpuslar sun’iy intellekt tizimlarining tilni tushunish va qayta ishlash qobiliyatini belgilaydi. Korpuslarni toʻgʻri tasniflash va annotatsiya qilish orqali aniqroq maʼlumotlar bazasi yaratish mumkin. Oʻzbek tilida bunday loyihalarni rivojlantirish til texnologiyalari sohasidagi imkoniyatlarni kengaytiradi.

Adabiyotlar tahlili.

Korpus – bu korpus lingvistikasining predmeti. Ushbu atama ilmiy adabiyotlarda turlicha taʼriflanadi. Chunonchi, ingliz tilida linguistic corpus yoki

text corpus kabi atamalar bilan qo'llaniladi [1]. Muayyan tilning milliy korpusni yaratish, uning analitik texnologiyasini, korpus lingvistikasi sohasini rivojlanish kabi muammolarni hal qilishda A.N.Xomskiy, G.N.Luch, L.Blumfeld, Ch.K.Frays, H.Bondjers, N.Frensis, Ch.F.Meer, J.Sinkler, M.Z.Kurdi kabilarning ilmiy izlanishlarini e'tirof etish lozim.

Rus olimi V.P. Zaxarov "korpus" atamasini quyidagicha izohlaydi: "korpus –og'zaki hamda yozma matnlar asosida jamlangan til birliklarining lingvistik ma'lumotlar majmui" [2]. Rus korpus lingvistikasida katta massivli matnlar majmuasi, korpus tuzish prinsiplari, lingvistik ma'lumotlar bazasi V.G.Britvin, V.P.Zaxarov, I.A.Melchuk, A.B.Kutuzov, R.G.Kotov, L.I.Belyaeva, Ye.V.Nedoshivina, V.V.Rikov, V.Plungyanlarning maqsadli tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'zbek tilshunos olimlari esa "korpus" atamasiga quyidagicha izoh beradi: "korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig'indisi" [2], "korpus – istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig'indisi" [3] kabi ta'riflarda o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda korpusning mohiyati quyidagicha yoritiladi: "Korpus – mavjud ma'lumotlarni matn holida taqdim eta olish; korpusning hajmiga ko'ra imkon darajada ko'proq axborot berishning imkoniyati; bir marta yaratilgan korpus ma'lumotlaridan takroran, turli masalalarni hal qilishda foydalanish imkoniyatidir" [4].

"Korpus – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi"[5] – deb izohlanadi boshqa bir manbada.

Shuningdek, "ta'limiy korpus" haqida ilmiy tadqiqot olib borgan O'.Xoliyorov o'z ishida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Ta'limiy korpus – materiallari tilni o'rgatishga yo'naltirilgan, lingvodidaktik xususiyatga ega til korpusi. O'zbek tilining ta'limiy korpusi o'zbek tili imkoniyatlarini o'rgatishga mo'ljallangan, lingvodidaktik xususiyat kasb etgan, elektron matnlarni qamrab olgan, maxsus sayt ko'rinishida amal qiladigan korpusdir" [6].

Yuqorida keltirilgan ta'rif va izohlarga qo'shilgan holda, uni quyidagicha ta'riflaymiz: Korpus – elektron shaklda mavjud bo'lgan matnlarni, hujjatlarni ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni avtomatik tahlil, ya'ni morfologik, sintaktik va semantik tahlil qilish, morfologik analiz va sintez qilish bilan birga, yarimavtomatik rejimda ma'noni buzmasdan ishonchli nutq materialini moslashtirish darajasini tekshirish ushbu sohadagi til bilan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Bugun o'zbek tilidagi matnlarni tahlil qilish inson qo'l mehnati bilan amalga oshirilmoqda, bu esa, o'z navbatida, matnlarning tahliliga ketadigan vaqtni ko'p sarf qilinishiga, iqtisodiy xarajatlarning oshishiga, inson tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklarning yuzaga chiqishiga olib kelmoqda. Shu jihatdan korpuslarini

tilshunoslik bo'yicha asosiy tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun zaruriy material deb atasak bo'ladi. Korpus lingvistik baza sifatida oddiy elektron kutubxonaga o'xshaydi. Ammo undan farqlanadi. Virtual yoki elektron kutubxona o'zi nima? Oddiy kutubxonaning elektron, ya'ni kompyuter orqali ishlaydigan ko'rinishi. Bu internetning imkoniyatlarini o'zida aks ettiruvchi elektron manba. Shu kunga qadar "kutubxona" deganda kitoblar turadigan baland shkaflı xonalar ko'z oldimizga kelardi. Elektron kutubxonada mana shu kitob javonlari vazifasini fayllar, fayl sahifalari esa kitob sahifalari vazifasini bajaradi. "Virtual dunyo", "virtual olam", "virtual do'st" kabi so'zlar nutqimizda tez-tez qo'llanilmoqda. Xo'sh, "virtual" so'zining ma'nosi nima? Virtual - bu ko'z oldiga keltirish, xayolan tasavvur qilish demakdir. Virtual kutubxona esa mavjud kutubxonaning tasavvuriy ko'rinishi deb aytsa bo'ladi. Hozirda bunday kutubxonalarni turli-tuman nom bilan ataydilar. Masalan, "elektron kutubxona", "virtual kutubxona", "e-kutubxona", "e-library", "digital library" kabi. Bunday kutubxonada kitoblar, gazeta va jurnallar kitob shkaflarida emas, balki kompyuter xotirasidan o'rin olgan. Bosma, audio (ovozli), video (ko'rinishli) va multimedia (harakatli) ma'lumotlar kompyuterning qurilmasida raqamli formatda saqlanadigan ma'lumotlar to'plami ko'rinishida bo'ladi.

Ma'lumotlar hajmining katta-kichikligiga qarab, tizimli server bitta yoki bir necha tarmoqlarga ulangan kompyuterlar orqali ishlaydi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'lib, kompyuterlardan joy oladi. Masalan, dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan turib, albatta, internet mavjud bo'lgan joydan elektron kutubxona ma'lumotlaridan foydalana olish, zarur ma'lumotlarning nusxasini diskka yoki qog'ozga ko'chirib olish uchun kompyuter va u bilan bog'liq moslamalar bo'lsa kifoya, elektron kutubxonadan foydalanish mumkin. Bir necha daqiqada ma'lumot kompyuter ekranida namoyon bo'ladi. Bunga faqat kompyuter va maxsus internet tarmoq orqali erishish mumkin. Bir necha yil avval bir maqolani yoki unga tegishli bir fikrni topishga bir necha oy vaqt sarflash zarur edi. Bugun buning uchun qaysidir kutubxonaga yoki boshqa shaharga borish va vaqt sarflash mashaqqati yo'qoldi. Chunki qulaylik sifatida elektron kutubxonalar yaratildi. Elektron kutubxonaning odatdagi kutubxonalardan bir qancha afzalliklari bor. Masalan, joyning tejalishi, ya'ni elektron kutubxonaning turli ma'lumotlari internet sahifasida jamlangani bois kitoblarni saqlash uchun maxsus joyga zarurat yo'q.

Tahlil va natijalar.

Elektron kutubxona ma'lumotlarni doimiy to'ldirib(yangilab) turuvchi mutaxassislar bo'lib, ular kutubxonani yangiliklar bilan muntazam boyitib boradilar. Shu tariqa kutubxona bazasiga ma'lumotlar kiritiladi, jamlanadi va to'ldirib boriladi. Demak, ma'lumotlar doimo to'ldirilib borish evaziga elektron kutubxona hajmi ortib boradi. Elektron kutubxonadan foydalanish tartibi qanday? Buning uchun kutubxona manzilini qidiruv qismiga "Adres maydoni" yoziladi. Ma'lumotlari mavzu yoki alifbo bo'yicha tartiblangan, kerakli ma'lumotni mana shu tariqa topib olinadi. Buni odatdagi kutubxona kataloglar qismida qo'lda qidirish mumkin bo'lgan. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha elektron kutubxonalar soni juda ko'p. Masalan, Kongress Virtual kutubxonasi (NTTR://lcweb.loc.gov), WWW

Virtual kutubxonasi (NTTR://www.vlib.org), AQSh hukumatining bolalar uchun sahifasi (Ben's Guide to the U.S.Government for kids; manzili NTTR://bensguide.gro.gov), Virginia Commonwealth University elektron kutubxonasi, Rossiya Milliy Elektron Kutubxonasi (NTTR://www.nns.ru). Kutubxonalar, universitetlar, ba'zi tashkilotlar ham o'z elektron kutubxonalariga ega. O'zbekistonda ham elektron kutubxonalar mavjud. NTTR://vlibrary.freenet.uz, "ZiyoNET" kutubxonasi (<http://library.ziynet.uz/uzc>), "Xurshid Davron" kutubxonasi (<https://kh-davron.uz/>), «Hilol» virtual kutubxonasi (https://hilolnashr.uz/index.php?route=extension/d_blog_odule/post&post_id=29).

O'zbek tilida bepul elektron kutubxonadan foydalanishni QR-kod orqali yoshlar o'rtasida keng tarqatish loyihasi orqali hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan dasturning 19-band; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 12-yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-fevraldagi PQ-1487-sonli "2011-2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatlari ko'rsatishni sifat jihatidan rivojlantirishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qildi. Xorijiy tajriba internetda elektron kutubxona tashkil etib, uni QR-kodlar orqali aholi o'rtasida targ'ib qilish an'anasi zamonaviy dunyo uchun begona emas. Xususan, 2013-yili MTS kompaniyasi Rossiya, Ukraina va Belarus davlatlarida katta masshtabdagi "Mobil kutubxona" loyihasini taqdim etgan. Mingdan ortiq bepul e-booklar MTSning "Mobil kutubxona" loyihasida turli janrdagi mingdan ortiq elektron kitoblar bepul taqdim etilgan. Buning uchun maxsus www.lib.mts.ru sayti ishga tushirilgan. Maxsus QR- kodni o'z mobil qurilmasidan ishga tushirgan kitobxon saytdan epub, fb2 yoki txt formatlarida bepul ko'chirib olishi mumkin [7].

Elektron kutubxonada badiiy hamda publitsistik asarlar, turli ko'rinishladagi va mazmundagi lug'atlarni nisbatan to'liq qamrab olinadi. U xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi, milliy ma'naviy merosni jamlash maqsadida yaratilgan bo'ladi. Undan korpusda material (xomashyo) sifatida foydalansa bo'ladi. Elektron kutubxona lingvistik ta'minotini yaratish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Elektron kutubxonada matnlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ishlov berilmaganligi bois izanuvchi-tadqiqotchilarga muvofiq kelmaydi. Til korpuslari elektron kutubxonadan farqli o'laroq, tilni o'rganish va tadqiq qilish uchun zarur, foydali va qiziqarli matnlarni to'plashga xizmat qilish uchun yaratiladi. Elektron kutubxona ilmiy tadqiqot materiali bazasini tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Til korpusi

elektron kutubxonadan matnning xususiyati va qo'shimcha ma'lumot bilan boyitilganligi ajratib turadi. Korpusdan foydalanuvchiga biror so'z kerak bo'lsa, buni odatdagi matn muharriridan topib bera oladi. Lekin matndagi til hodisasining ma'nosi, mazmuni va tuzilishini «tushunadigan» dasturiy tizim o'zining afzalligi va qulayligi bilan farqlanib turadi.

Chunonchi, korpusning alohida qismi - bu uning korpus birliklariga yozilgan izohlarning mavjudligidadir. Bunday dasturiy ta'minotdan til birligini qidirish tadqiqotchi yoki foydalanuvchiga qo'l keladi. Kompyuter texnologiyalari rivojlanishidan oldingi davrda tadqiqotchilarimiz o'z tadqiqot ishi uchun zarur misollarni topish, ularni kartotekaga ko'chirishga oylab, ba'zan yillab vaqt sarflagan bo'lsalar, hozirgi kunda bugun dunyo til korpuslari yordamida sanoqli daqiqada yuzlab misollarni topishi va ular ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim eta oladigan, maxsus qidiruv tizimi ishga tushdi. Tilshunoslik fanida qanday o'zgarish bo'lganini kuzatish uchun korpus qamrovini yanada kengaytirish kerak bo'ladi. Ya'ni nafaqat yozma, balki og'zaki nutq materialidan ham til korpusida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Til korpusi oddiy elektron kutubxona bajara olmaydigan imkoniyatlarga egaligi bilan tilshunoslikda sodir bo'lgan va kutilayotgan o'zgarish haqida aniq xulosa chiqarish mumkin. Masalan, so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini, so'zlarni avtomatik tahlil, ya'ni morfologik, sintaktik va semantik tahlil qilish yoki til taraqqiyotining turli davrida qo'llanish holatini, u yoki bu muallifning ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasi kabilar. Korpus – tilni tadqiq etish, til o'rganish, lug'at tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizimdir.

Korpus – millionlab so'z matnlariga havola qiluvchi, maxsus qidiruv tizimi asosida ishlaydigan elektron matnlar yig'indisi. U internet tizimidagi elektron kutubxona, lug'at va lingvistik grammatikadir. Korpus – tabiiy (real) tilning elektron shaklda bo'lib, uni to'ldirish, tuzatish, tahrir qilish imkoniyatiga ega[3]. Mukammal razmetkalangan korpus lingvistik tadqiqotlar samaradorligini ta'minlashda barqaror lingvistik baza vazifasini bajaradi.

Elektron kutubxona va til korpusining o'xshash tomonlari quyidagilardan iborat: joyning tejalishi, ya'ni kitoblarni saqlash uchun maxsus kitob jovonining zarur emasligi; qo'lyozma asar va noyob ma'lumotlarni saqlash hamda ulardan foydalana olish uchun va qidiruv tizimi imkoniyatining borligi; cheklanmagan hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish uchun qulaylikning mavjudligi, tizimda mavjud axborotning ovozli (audio), ko'rinishli (video) va kompyuter texnologiyasi (grafikasi) vositasida sifatli va yaxshiroq aks ettirish mumkinligi; vaqtning cheklanmaganligi, ya'ni kunning istalgan paytida 24 soat davomida foydalanish mumkinligi; elektron kutubxona va til korpusi ham internet tizimida ishlay olishi.

Elektron kutubxona va til korpusining farqli tomonlari: Elektron kutubxona – qidiruv birligi yaxlit asar matni. Undan ma'lum bir asarni qidirish mumkin. Korpusning qidiruv birligi esa so'zshakl yoki qo'shimcha izohlar bilan to'ldirilgan matn bo'la oladi. Bunday matndan faqat o'qish uchungina foydalanish emas, balki bu matnlarning turli grammatik izohlari mavjudligi sababli ular ustida lingvistik

amallar bajara olish mumkin. Uning tezaurusdan farqi shuki, tezaurusda tushuncha, korpusda esa soʻzshakl va uning qoʻllanish matni qidiriladi.

U turli xil lugʻatlar (asosiy, chastota, toponimlar, grammatik soʻzlar, iboralar va h.) oʻz ichiga olgan leksikografik manbalar turkumidir. Til korpusi katta hajmli zamonaviy lugʻatlarni tuzish uchun manba vazifasini oʻtay oladi. Korpus turli lingvistik yoʻnalishlar uchun informatsion-axborot resurs sifatida ahamiyatlidir. Vaqt oʻtishi bilan kompyuter yordamida lugʻatlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi, yangilanib boriladi.

Korpusda mavjud matnlarni saralash imkoniyati mavjud boʻlib, tadqiqotchi oʻzi uchun kerakli boʻlgan misolni barcha matnlardan emas, balki tadqiqot uchun ahamiyatli, zarur boʻlganini ajratib berish imkoniga ega. Masalan, belgilangan vaqt yoki davr (aniq yil), matnning aniq bir turi (masalan, publitsistik yoki bir necha muallif asarlarini tanlab olish imkoniyati) bilan elektron kutubxonadan farqlanadi.

Lingvistik korpus va elektron kutubxonaning tavsifi

Lingvistik korpus matnlari	Elektron kutubxona
Matndan namunalar	Toʻliq matn
Lingvistik razmetka	Bibliografik, tarixiy va madaniy maʼlumotlar elementlari (mavjud boʻlsa)
Lingvostatistika	Statistika mavjud emas
Til materiallarini tanlash imkoniyatiga ega (lingvistik, tarixiy va madaniy mezonlar asosida)	Kutubxonadan fayllar tanlanadi

Xulosa.

Jahon tilshunosligi, korpus lingvistikasi va til korpuslarini yaratish tajribalari asosida yurtimizda bu sohaga doir ilmiy va amaliy izlanishlar olib borish juda muhim ekanligini koʻramiz. Bunga zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarning hayotimizga kirib kelishi til imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishga asosiy omil boʻldi. Zero, sunʼiy intellekt mahsuli boʻlmish elektron manbalar insonga koʻmaklashish va kishilarning ogʻirini yengillashtirish maqsadida yaratiladiki, davrimizni ularsiz tasavvur etish juda qiyin.

Sunʼiy intellekt mahsuli sifatida: elektron lugʻatlar, tarjima portallari, terminologik maʼlumotlar banki, virtual (elektron) kutubxona, elektron matnli korpuslar, elektron hukumat, elektron nashr, elektron darslik va qoʻllanmalarining barchasini sanash mumkin. Sunʼiy intellekt mahsuli boʻlgan lingvistik elektron manbalar muayyan til korpusini yaratish xom ashyosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кутузов А.Б. Курс «Корпусная лингвистика». – Москва, 2008.
2. Захаров В. П. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск, 2011.
3. Hamroyeva Sh. Oʻzbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol.fan.boʻyicha falsafa doktori (PhD)...dis. avtoref. – Toshkent, 2018.

4. Eshmuminov A. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)...dis.. – Toshkent, 2019.
5. Mengliyev B., Bobojonov S., Hamroyeva Sh. O'zbek tili milliy korpusi. 2018-yil, 26-aprel, <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1241.htm>.
6. Xoliyorov O'. O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)...dis. avtoref. – Termiz, 2021.
7. O'zbekistonda bepul elektron kutubxona. <https://www.slideshare.net/xushnudjohn/ss-84174531>.

O'ZBEK TILI MADANIY MEROSIDA FLORISTIK LEKSIKANING AHAMIYATI

*Pazlitdinova Nargiza Zuriddinovna,
University of Business and Science
Til va adabiyot ta'limi kafedrası
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
pazlitdinovanargiza@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi floristik leksikaning shakllanishi, taraqqiyoti va madaniy merosdagi o'rni tahlil qilinadi. O'simliklarga oid leksik birliklarning tarixiy ildizlari, xalq og'zaki ijodidagi akslanishi, semantik yuklamasi hamda ularning ramziy va etnobotanik xususiyatlari yoritiladi. Shu bilan birga, zamonaviy til jarayonida yangi floristik terminlarning kirib kelishi, til tizimidagi moslashuvi va madaniy xotira bilan uyg'unlashuvi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy, etnolingvistik va semantik metodlar asosida ilmiy fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: floristik leksika, o'simlik nomlari, etnobotanika, semantika, madaniy xotira, xalq og'zaki ijodi, til taraqqiyoti, ramz, leksik qatlam.

ЗНАЧЕНИЕ ФЛОРИСТИЧЕСКОГО ЛЕКСИКАНА В КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В этой статье рассматривается развитие флористической лексики в узбекском языке, ее исторические корни и ее неотъемлемая роль в сохранении и передаче культурного наследия. В исследовании рассматриваются лексические единицы, связанные с растениями, с этимологической, семантической и этнолингвистической точки зрения, выявляя, как эти слова функционируют как носители традиционных знаний, символики и народных верований. В статье также исследуется интеграция современной ботанической терминологии и ее адаптация в узбекской языковой системе. В исследовании применяется описательный, историко-сравнительный и семантический полевой анализ для обеспечения междисциплинарного понимания этого лексического пласта.

Ключевые слова: флористическая лексика, этнobotanika, семантика, культурная память, народные традиции, лексическое развитие, растительная символика, узбекский язык.

THE IMPORTANCE OF FLORISTIC LEXICAN IN THE CULTURAL HERITAGE OF THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Abstract: This article explores the development of floristic lexicon in the Uzbek language, its historical roots, and its integral role in the preservation and transmission of cultural heritage. The study examines plant-related lexical units from an etymological, semantic, and ethnolinguistic perspective, revealing how these words function as carriers of traditional knowledge, symbolism, and folk beliefs. The article also investigates the integration of modern botanical terminology and its adaptation within the Uzbek linguistic system. The research applies descriptive, historical-comparative, and semantic field analysis to provide an interdisciplinary understanding of this lexical stratum.

Keywords: Floristic lexicon, ethnobotany, semantics, cultural memory, folk traditions, lexical development, plant symbolism, Uzbek language.

Kirish.

Tilning taraqqiyoti bevosita jamiyatning tabiiy muhit bilan oʻzaro aloqasi va madaniy tajribasiga bogʻliq. Oʻzbek tilidagi floristik leksika nafaqat tabiatga oid bilimlarni, balki xalqning tarixiy dunyoqarashi, falsafasi, eʼtiqodiy qarashlari va madaniy kodlarini ham ifodalaydi. Tilshunos olim X. Yoʻldosheva bu borada shunday deya taʼkidlaydi: “Har bir til oʻz tabiatiga xos oʻsimlik nomlarini leksik tizimida mujassamlashtirar ekan, bu hodisa xalq tafakkurining tabiat bilan bevosita aloqasini koʻrsatadi” [1].

Floristik leksika orqali biz nafaqat oʻsimliklarni atash, balki ularning timsollari orqali xalqning qadimiy dunyoqarashi, estetik didi va ruhiy olamidan xabardor boʻlamiz.

Adabiyotlar tahlili.

Floristik leksikaning kelib chiqishi va tarixiy shakllanishi haqida juda qadim davrdan maʼlumot olishimiz mumkin. Floristik leksikaning shakllanishida qadimiy turkiy yozma manbalar asosiy oʻrin egallaydi. Oʻrxun-Enasoy bitiklarida ot, chopon oʻt, yabluq (olma) kabi birliklar uchraydi [1].

Islomiy davr yozma adabiyotida bu qatlam yanada boyidi. Jumladan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlar floristik ramzlardan keng foydalanganlar. Masalan: “Nargis oʻzgani xor etdi, lola oʻzini yoʻndi” (Navoiy)

Bu yerda “nargis” – kibr, “lola” – sadoqat va fidoiylilik ramzi sifatida ishlatiladi. Bu oʻsimliklar nomi orqali jamiyatdagi fazilat va illatlar timsollashtirilgan.

Floristik birliklarning semantik va ramziy yuklamasi tilda aks etishini koʻrishimiz mumkin.

Oʻzbek xalqining ogʻzaki ijodi, ertak, maqol, afsona, marosimlarda koʻplab floristik birliklar ramziy maʼno kasb etadi:

O'simlik	Semantik yuk	Qo'llanish sohalari
Anor	Farovonlik, baraka	To'y, marosim, adabiyot
Archa	Himoya, tozalik	Yangi yil, diniy marosim
Rayhon	Poklik, iymon	Oshxona, oila marosimlari
Lola	G'am, muhabbat	She'riyat, xalq qo'shiqlari

D. Qodirovaning fikricha: “Floristik leksika xalq tafakkurining ramziy ko'zgidir. U xalqning yashash muhiti va e'tiqod tizimi bilan chambarchas bog'liq” [2].

Tahlillar va natijalar.

Floristik terminlar – o'simliklar olamiga, ularning nomlanishi, tasnifi, morfologiyasi, geografik tarqalishi va ekologiyasi bilan bog'liq so'z va iboralardir. Zamonaviy davrda texnika, fan va global axborot oqimining keskin rivojlanishi natijasida o'zbek tiliga ko'plab yangi floristik atamalar kirib kelmoqda. Ushbu jarayon bir nechta omillar ta'sirida sodir bo'lmoqda:

Ilmiy-texnik taraqqiyot ta'siri natijasida genetika, biotexnologiya, ekologiya, fitopatologiya, agronomiya kabi fanlarning rivojlanishi natijasida o'simliklarga oid yangi ilmiy tushunchalar va atamalar paydo bo'ldi. Masalan: transgen o'simliklar, fitogarmonlar, mikroklonlash, seleksiya kabi terminlar so'nggi yillarda faol ishlatilmoqda.

Xalqaro integratsiya va tarjima faoliyatida ko'plab floristik terminlar ingliz tilidan (va boshqa G'arb tillaridan) bevosita o'zbek tiliga kirib kelmoqda. Ularning ba'zilar to'g'ridan to'g'ri transliteratsiya qilinadi (cloning, herbarium, bioindicator), boshqalari esa ekvivalent topish orqali moslashtiriladi:

Botanical garden → botanika bog'i,
perennial → ko'p yillik o'simlik,
deciduous → barg to'kuvchi.

Media va internet tarmog'ining roli asosida ommaviy axborot vositalari, ilmiy-ommabop maqolalar, tabiatshunoslik bloglari, ijtimoiy tarmoqdagi kontentlar floristik leksikaning xalq orasida keng tarqalishiga yordam bermoqda. Bu esa hatto ilmiy bo'lmagan auditoriyani ham yangi floristik terminlarga yaqinlashtiryapti.

Lingvistik moslashuv va normallashtirish natijasida yangi terminlar o'zbek tilida quyidagi yo'llar bilan moslashmoqda:

- Fonetik moslashuv (flora → flora, bamboo → bambuk);
- Semantik kengayish (yovvoyi so'zining wild plant ma'nosida ishlatilishi);
- So'z yasash (o'simlikshunoslik, gullovchi, daraxtsifat);
- Sinonimlashuv. Yangi va eski nomlar yonma-yon mavjud bo'lishi: astragalus – bo'tako'z.

Zamonaviy floristik terminlarning kirib kelishi o'zbek tilining ilmiy salohiyatini oshirmoqda, ayniqsa biologik, ekologik va farmatsevtik sohalarda orqali til leksik sathining rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Har bir yangi atama o'z sohasida chuqur tahlil va fanga asoslangan tizimli tushuncha sifatida kirib kelishi asosida terminologik tizim kengaymoqda.

O'zbek tilshunosligida yangi floristik atamalarni standartlashtirish,

lugʻatlarga kiritish, darsliklar va ensiklopediyalarda qoʻllash boʻyicha muayyan yondashuvlarning shakllanishi asosida moslashuv jarayoni izchil kechmoqda.

Milliy flora nomlari xalq ogʻzaki ijodi va dialektlar bilan boyitilishi asosida oʻzbek terminologiyasi zamonaviylashmoqda. Masalan, shuvoq, qoratut, zirk kabi qadimiy nomlar yangi ilmiy tasnifda ham qayta talqin qilinmoqda.

Baʼzan ortiqcha xorijiy terminlar asossiz ravishda tarjimasiz ishlatiladi yoki sinonimlar bilan chalkashish yuzaga keladi. Bu esa tilning izchilligi va ilmiy uslubga putur yetkazishi mumkinligi xavfi ham mavjudligini koʻrsatadi.

Zamonaviy floristik terminlarning kirib kelishi va oʻzbek tiliga moslashuvi – bu tabiiy til taraqqiyoti, ilmiy tafakkurning chuqurlashuvi va globallashtirish jarayonining mahsulidir. Biroq bu jarayon puxta lingvistik yondashuv, davlat terminologiya siyosati va ilmiy jamoatchilik nazorati asosida boshqarilishi zarur. Ana shundagina yangi floristik leksika oʻzbek tilining boyligi va ilmiy potentsialining ajralmas qismiga aylanadi.

Zamonaviy floristik terminlar kirib kelishi va tilga moslashuvi jarayoni texnika va rivojlanish bilan bogʻliq holda jadallik bilan amalga oshmoqda. Zamonaviy til taraqqiyotida yangi floristik atamalar boshqa tillardan oʻzlashmoqda:

- Internatsional birliklar: lavanda, aloe, orxideya;
- Fan-texnika bilan bogʻliq birliklar: gibrid, genetik modifikatsiya;
- Marketingdagi nomlar: “Gulzorman”, “Archa World”, “Zamin Rayhoni” va boshqa misollarni keltirish mumkin.

Bu jarayon tilning ochiqqligi va qayta tashkil etiluvchanligi bilan izohlanadi. Biroq, milliy til meʼyorlarini saqlab qolish muhim: “Til taraqqiyoti ochiqqlikni talab qilsa-da, lekin har bir yangi birlik mavjud leksik tizimga uygʻunlashmogʻi lozim” [3].

Floristik leksikaning etnobotanika va tilshunoslikdagi oʻrni quyidagilarda oʻz aksini topadi.

Floristik leksika quyidagi sohalarda oʻrganiladi:

- Tilshunoslik: semantik, morfologik, etimologik tahlil;
- Etnobotanika: oʻsimliklar va xalq eʼtiqodlari oʻrtasidagi bogʻliqlik
- Folklor: marosimlar, afsona va maqollarda;
- Tabobat: qadimiy shifobaxsh oʻsimliklar.

Shu nuqtai nazardan, floristik leksika til boyligining muhim tarkibiy qismi sifatida tilshunoslar, folklorshunoslar va biologlar tomonidan oʻrganilishi lozim.

Xulosa.

Zamonaviy floristik terminlarning oʻzbek tiliga kirib kelishi va moslashuvi jarayoni til taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida namoyon boʻlmoqda. Fan-texnika yutuqlari, xalqaro hamkorlik, tarjimaviy faoliyat va ommaviy axborot vositalari taʼsirida yuzaga kelayotgan yangi atamalar oʻzbek tilining ilmiy-texnik salohiyatini boyitibgina qolmay, tilning zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga javob bera olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Yangi terminlar tilda fonetik, morfologik va semantik moslashuv orqali oʻz oʻrnini topmoqda. Shu bilan birga, xalq tilida mavjud boʻlgan qadimiy nomlar va milliy atamalar bilan uygʻunlashuvi orqali oʻzbek tilining ichki resurslari ham faol

ishga solinmoqda. Bu holat tilni soddalashtirish, tushunarli qilish va milliy identifikatsiyani saqlab qolish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq bu jarayonni tartibga solish, ilmiy asoslash va izchil yondashuv bilan boshqarish muhimdir. Aks holda, terminologik chalkashliklar, ortiqcha xorijiylikka berilish va leksik ifodaning sun'iy lashuvi xavfi yuzaga keladi. Shu bois, yangi floristik terminlarni rasmiy lug'atlar, darsliklar va ilmiy-metodik qo'llanmalarga kiritish, ularni normativ jihatdan tartibga solish zarur.

Xulosa qilib aytganda, floristik terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi – bu nafaqat leksik jarayon, balki til siyosati, madaniy meros, ilmiy tafakkur va xalq tafakkurining uyg'unligiga xizmat qiluvchi murakkab tilshunoslik hodisasidir. Bu jarayonni chuqur o'rganish, tahlil qilish va ilmiy asosda yo'naltirish til taraqqiyoti uchun muhim bosqichdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldosheva X. O'zbek tilida semantik maydonlar tizimi. – Toshkent: Fan, 2020. – 190 b.
2. Qodirova D. O'zbek xalqining tabiat obrazlari tahlili. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2021. – 112 b.
3. Matyoqubov O. Til va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2019. – 248 b.
4. Насилов Д.М. Древнетюркский язык. – Москва: Наука, 1960. – 304 с.
5. Islomov M. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 256 b.
6. G'ulomov A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yozuvchi, 1995. – 312 b.
7. Bobojonov Sh. O'zbek tilida o'simlik atamallari. //Til va adabiyot.uz 2022, №2. – B. 54–60.
8. Mahmudov N., Rajabov A. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

OLIY TA'LIM MUASSASSALARI TALABALARIGA INGLIZ TILI DARSLARIDA YURIDIK TERMINLARNI O'QITISH MUAMMOLARI, USLUBLARI VA SHAKLLARI

Soliyev Bahodir Daminovich
University of Business and Science o'qituvchi
bahodirjonsoliyev1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Oliy ta'lim talabalariga ingliz tili darslarida yuridik terminlarni o'qitish jarayonini tashkil etish muammolari, metodlari, usullari haqida bayon qiladi. Shuningdek jamiyatimizdagi insonlarning hayoti davomida turli sohalarda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarida, sud, tergov jarayonlarida, shartnoma va bitimlar tuzish kabi vaziyatlarda vujudga kelayotgan muammoli holatlar hamda ularga yechim topish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalarga to'htalgan.

Kalit so'zlar: Terminologik tizim, huquqiy lug'at, yuridik atama, yuridik

talqin, xalqaro shartnomalar, ayblov xulosasi, sud zali, guvohlar, aksiyadorlik birlashmasi, sudgacha qamoqqa olish, vasiyat huquqi, meros huquqi.

ПРОБЛЕМЫ, МЕТОДЫ И ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ ЮРИДИЧЕСКИМ ТЕРМИНАМ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТАМ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье описываются проблемы, методы, приемы организации процесса преподавания юридических терминов на уроках английского языка студентам высших учебных заведений. Также рассмотрены проблемные ситуации, возникающие в жизни людей нашего общества в процессе оформления документов юридического значения в различных сферах, в суде, следственных процессах, в таких ситуациях, как заключение договоров

Ключевые слова: Терминологическая система, юридический словарь, юридический термин, юридическое толкование, международные договоры, обвинительное заключение, зал суда, свидетели, акционерное общество, предварительное заключение, завещательное право, наследственное право.

PROBLEMS, METHODS AND FORMS OF TEACHING LEGAL TERMS IN ENGLISH LESSONS TO STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: This article investigates the problems and modern methodologies of teaching juridical terms to university students. Furthermore it deals with different states and problems in social life on legalizing period of documents in many fields; such as court, investigation, agreements and so on. Besides it provides information of avoiding the problems in various situations making agreements, discussing the peculiarities of juridical terms and the whole constitutive system.

Keywords: Terminological system, juridical dictionary, juridical terms, international contracts, accusatory conclusion, witnesses, stockholders, arrest, testament, heritage law.

Kirish.

Til mutaxassisliklari talabalari uchun o'quv dasturiga xorijiy ixtisoslashtirilgan lug'atni joriy etish talabalarning keng ongini shakllantirish va inson faoliyatining turli sohalarida tilni ravon bilishning asosiy shartidir. Ushbu maqola ta'lim jarayonida huquqiy lug'atning o'rni va rolini o'rganishga bag'ishlangan. Bu leksik birliklarni til mutaxassisliklari talabalariga o'rgatish zarurligini ko'rsatdik; chet el darslarida leksik minimum va ish usullari va shakllarini taklif qildik. O'rganish jarayonida nazariy manbalarni tahlil qilish va sintez qilish, chet tili bo'yicha o'quv va o'quv adabiyotlari va ishchi dasturlarini tahlil qilish, yuridik matnlar va ixtisoslashtirilgan leksikografik manbalardan huquqiy lug'at tanlash usuli kabi usullardan foydalandik. O'tkazilgan o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ingliz tili darslarida o'qitiladigan yuridik lug'atning predmetini, xususan, huquqning shartnoma huquqi, trast huquqi, vorislik huquqi kabi sohalarini

qo‘shish orqali kengaytirish, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish zarur

Adabiyotlar tahlili.

Nofilologik oliy o‘quv yurtlarida yuridik lug‘at o‘rganish ob‘ekti sifatida Aleksandrova E.V. [1], Varlamova T.V. [2], Kuznetsova Yu.A. [3], Kucheryavaya T.L. [4], Stupnikova L.V. [5], Madhubala Bava Harji, Zhinoos Kamal Alavi1, Krishnaveni Letchumanan [6], Panadda Pratoomrat, Krich Rajprasit [7], Wenzhong Chju, Xuping Deng1, Jingyi Li[8] kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan. Tadqiqotlar Anisimova A.G., Arxipova M.A. “Ingliz tilidagi yuridik atamalar: o‘quv jarayonini optimallashtirish” maqolalarida yuridik lug‘atning asosiy o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi, shuningdek, yuridik terminologiyaning tizimli xarakterini o‘rganadi va isbotlaydi [9]. Hsiao Xou o‘zining "Korpusga asoslangan yondashuvni integratsiyalash orqali ixtisoslashtirilgan lug‘atni o‘rgatish: Universitet darajasida ESP kurslarini loyihalashning oqibatlarini" maqolasida universitet chet tili darslarida maxsus leksik birliklarni joriy qilishda til ramkasidan foydalanish imkoniyatini ko‘rib chiqadi [10].

Muhokama va natijalar.

Ta‘lim inson faoliyatining eng muhim va keng sohalaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy hayotning barcha boshqa sohalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Mamlakatning iqtisodiy va ma‘naviy ravnaqi bevosita ta‘lim tizimining jamiyat faoliyatining turli yo‘nalishlari, jumladan, xalqaro aloqalar bo‘yicha ehtiyojlarini qondirishga qodir bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o‘zini doimiy ravishda takomillashtirib borish qobiliyatiga bog‘liq. Shuning uchun ham ta‘lim sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Xalqaro ilmiy-texnikaviy va ta‘lim loyihalarini faol amalga oshirish lingvistik mahoratni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur shartlardan biriga aylantiradi. Huquqiy lug‘at atama tizimi sifatida kasbiy maqsadlar uchun tilning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

Bundan tashqari, yuridik lug‘at, yuridik til boshqa atama tizimlaridan keng qo‘llanish doirasi bilan ajralib turadi. Huquq tizimi juda moslashuvchan bo‘lib, yangi atamalarni kiritish va mavjudlarining ma‘nolarini kengaytirish imkoniyatini saqlab qolganligi sababli, huquqshunoslikda butun atama tizimining tarkibiy xususiyatlarini to‘g‘ri talqin qilish va bilish juda muhimdir.

Ushbu maqola doirasida asosiy e‘tibor huquq terminologiyasiga qaratilgan, chunki bu bilimlarning turli sohalarida qo‘llaniladigan qonunchilik, norma ijodkorligi va normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash terminologiyasidir. Huquqshunoslik terminologiyasi bu jihatga qiziqmaydi, chunki uning maqsadi huquqni fan sifatida tavsiflash va lingvistik universitet bitiruvchisi uchun amaliy ahamiyatga ega emas. Yuridik lug‘atning o‘ziga xos xususiyati to‘liq darajada yuridik frazeologiyada - qat‘iy birikmalarda namoyon bo‘ladi («aksiyadorlik birlashmasi», «sudgacha qamoqqa olish» va boshqalar), uning yordami bilan qonunchilik tilining aniqligiga erishiladi. Lingvistik oliy o‘quv yurtlarining filologiya va pedagogik ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha talabalarni tayyorlash jarayonida umumiy qo‘llaniladigan lug‘atdan tashqari, maxsus lingvistik, adabiy va uslubiy lug‘atga ham katta e‘tibor qaratilayotgani shubhasiz.

Sudlar, Ishlar, Huquqbuzarliklar, Protsess ishtirokchilari, Sud jarayoni, Jazolar yoki hukmlar, Sud zali. Bu Amerika va Britaniya huquq tizimlarining universal tushunchalari va holatlarini ajratib ko'rsatish orqali o'rganilayotgan huquqiy leksik birliklarni tuzish imkonini beradi. Eng ko'p qo'llaniladigan mashqlar jumalarni to'ldirish, matnni ingliz tiliga tarjima qilish, bo'shliqlarni to'ldirish, perefraza va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, Ingliz tili darslarida huquqiy lug'atni o'rgatish sohasi inson huquqlari, jinoyat va jazo turlari, sud jarayonlari kabi mavzular bilan cheklanganligini ko'rsatdi. Shuningdek, yuridik lug'atning asosiy umumiy atamaları (qonun, advokat, sud, jinoyat, hukm va h.k.) Barcha qo'llanmalarda huquq lug'ati asosan mashhur detektiv hikoyalar parchalari bilan ifodalangan matnlar orqali kiritiladi.

Turlarga kelsak, bu erda nutq faolligi, o'qish va nutq ustunlik qiladi. Bizning fikrimizcha, lingvistika oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanmalarda keltirilgan yuridik lug'atni o'qitish uni jamiyatning zamonaviy talablari asosida dolzarblashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirishni, shuningdek, leksikani joriy etish va mustahkamlashga yondashuvlar xilma-xilligini kengaytirishni taqozo etadi. Shunday qilib, biz leksik minimumni taklif qilamiz, unga shartnoma huquqi, vasiyat huquqi, meros huquqi va boshqa sohalar kiradi, ularning lug'ati hozirgi paytda eng dolzarb hisoblanadi.

Aksariyat olimlar tizimlilikni huquqiy terminologiyaning asosiy belgilaridan biri sifatida ta'kidladilar: lug'at nafaqat terminologik lug'atlarda, balki qonun hujjatlarida ham mustahkamlangan va u qat'iy ierarxiyaga ega.

Yangi leksik birliklarni o'rgatishning mavjud uslub va shakllari orasidan huquqiy lug'atni joriy etish, ishlab chiqish va mustahkamlashga maksimal samara berish imkonini beradiganlarini tanlash zarur. Tor mutaxassislik yo'nalishini hisobga olgan holda, bu oson ish emas. O'rganilgan leksik birliklar kundalik hayotda qo'llanilmaydi, shuning uchun u nutqda kam qo'llaniladi. Shuning uchun bu lug'atni mashq qilish mumkin bo'lgan nutq vaziyatlarini yaratish va tanlash zarurati tug'iladi. Shunga qaramay, ushbu vazifani iloji boricha muammosiz bajarishga imkon beradigan texnikani aniqlash kerak.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, so'z boyligini kengaytirish so'zlar orasida o'rnatilgan aloqa va tarmoqlarni o'zlashtirishdan boshqa narsa emas. Agar biz umumiy qo'llaniladigan lug'at haqida gapiradigan bo'lsak, u aloqalar va tarmoqlar xilma-xil va keng bo'lganda eng samarali o'zlashtiriladi. Bog'lanish qanchalik keng bo'lsa, yangi leksik birliklarga o'rgatilgan o'quvchilar shunchalik "moslashuvchan" bo'ladi. Biroq, yuqori darajada maxsus atamalarni o'rganayotganda, ushbu turdagi lug'at unchalik moslashuvchan emasligini va u odatda to'plamli iboralarda (kollokatsiyalarda) mavjud bo'lishi, qat'iy iboralar tuzilishiga ega ekanligini va so'z haqida gap ketganda komponentlar deyarli almashtirib bo'lmazligini hisobga olish kerak. kombinatsiyalar.

Ko'rinib turibdiki, lug'at o'rgatishning barcha umumiy usullari va shakllari yuqori ixtisoslashgan atamalarni o'rgatish uchun qo'llanilmaydi. Biroq, yuridik atamalarni o'rgatish yangi bilimlarni olish uchun asos bo'lgan ingliz tilini boshlang'ich bilimisiz mumkin emas. Yangi leksik materialni o'rgatish jarayonini

o'rganib chiqib, biz yuqori ixtisoslashgan atamalarni o'qitishning quyidagi tamoyillarini ajratib oldik: vizualizatsiya prinsipi, leksik materialni konsentratsiyalash prinsipi, leksik ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish prinsipi, barchani jalb qilish prinsipi. atamalarni o'rganish jarayonida nutqiy faoliyat turlari, yuqori ixtisoslashgan terminlarni o'rganish maqsadlariga asoslangan tabaqalashtirilgan yondashuv tamoyili, turli til madaniyatlari kontekstida huquqiy atamalarni solishtirish tamoyili. Atamalar va talabalarni ushbu bo'lim bilan tanishtirishni boshlashda, ayniqsa, professional huquqiy atamalar (aniq leksik birliklar, faqat huquqshunoslikda qo'llaniladigan, masalan: da'vogar, proba, sudga chaqiruv va boshqalar) va kvaziprofessional leksik birliklar o'rtasidagi chegarani aniqlash muhimdir (odamlar orasida juda keng tarqalgan va hatto kundalik hayotda qo'llaniladigan so'zlar: da'vogar, da'vo va boshqalar).

Yuridik atamalarning o'zlashtirilishini nafaqat og'zaki faoliyat turlarida ta'minlash va nazorat qilish muhimdir. (gapirish va yozish), balki idrok etishda ham (tinglash va o'qish). Bu shuni anglatadiki, talabalar huquqiy atamalarni eshitishlari va matnda tan olishlari kerak, bunda ular olingan ma'lumotlarning ma'nosini iloji boricha aniqroq tushunishlari kerak. Bu erda har bir og'zaki faoliyat turi bo'yicha muqarrar ravishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini topish uchun psixologik-pedagogik omil va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish kerak.

Yangi materialni idrok etishning individual psixologik xususiyatlariga ko'ra odamlar eshitish o'rganuvchilar, vizual o'rganuvchilar, kinestetik o'quvchilar va diskret o'quvchilarga bo'linishini hisobga olsak, ma'lumotlar, agar bu ta'lim jarayonida mumkin bo'lsa, barcha sezgi kanallari orqali kiritilishi mumkin. Misol uchun, agar talaba eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchi deb hisoblasa, bu boshqa sezgi organlarining faol emasligini anglatmaydi, shuning uchun biz parallel ravishda unga vizual tasvirni taqdim etishimiz mumkin. Ko'proq idrok etish kanallarini jalb qilish orqali biz o'quvchilarning yangi ma'lumotni idrok etish usullarini rivojlantiramiz va bu uni tushunish va hazm qilish ehtimoli va samaradorligi sezilarli darajada oshishini anglatadi.

Hozirgi vaqtda til o'rgatish metodikasi yangi leksik materialni kiritishning turli yondashuv va usullarini o'z ichiga oladi, ammo bu usullarning hammasi ham huquqiy atamalarni kiritish uchun mos emas. Shunday qilib, har tomonlama baholab, biz quyidagi usullarni ajratib oldik: Kontekstga yangi atamalarni kiritish usuli. Bunday vaziyatda kontekstlar talabani ikki tilli lug'atdan foydalanmasdan, dunyoning ma'nosini mustaqil tushunishga undaydi. Uning yordamida biz yangi leksik materialni o'rgatishning eng muhim maqsadlaridan biriga – o'quvchining ona tili bilan ifodalanadigan oraliq tildan foydalanmasdan o'rganilayotgan tilda leksik birlik obrazini shakllantirishga erishamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik atamalar va terminologik so'z birikmalari leksik birlashma qobiliyati bilan cheklangan va tarkibiy iboralar (kompozitsiyalar) bo'lib, ularning tarkibiy qismlari ham almashtirib bo'lmaydi. Shu omilni hisobga olib, talabalarda dastlab yuridik atamalarni jumalarda to'g'ri qo'llash va uyg'unlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari uchun huquq

atamalarini soʻz birikmalarida oʻrgatish zarur, deb hisoblaymiz. Assotsiativ usul. Ushbu usulning mohiyati oʻrganilayotgan material va allaqachon oʻzlashtirilgan material oʻrtasida assotsiativ aloqalarni oʻrnatishda, yaʼni ilgari nomaʼlum boʻlgan yuridik atama yoki uning bir nechta morfemalari bilan undosh yoki rus tilidagi soʻzlarga yoki yozilishiga oʻxshash soʻzlar bilan bogʻlanishdan iborat.

Muxametzianova L.R. va Shayaxmetova L.X. Xorijiy kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish jarayonida assotsiativ eksperimentdan foydalanishga bagʻishlangan tadqiqotlarida ona tili va oʻrganilayotgan tildagi soʻzlarning oʻzaro bogʻliqligi va oʻzaro bogʻliqligi yanada rivojlangan darajada faoliyat koʻrsatishi mumkinligini taʼkidlaydilar. Hozirgi vaqtda Internet juda koʻp miqdordagi video va audio materiallarni, koʻplab multimedia resurslarini taqdim etadi, ular yangi soʻz birikmalarini kiritish va ishlab chiqishni taqazo qiladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda oʻqituvchilar talabalar uchun talab qilinadigan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan elektron taʼlim resursini mustaqil ravishda ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Elektron resurs maqsadli mavzularga boʻlinishi mumkin, masalan, kontekstli usul kabi materialni kiritishning boshqa turli usullari bilan birlashtirilishi mumkin.

Biroq, bu usulning afzalligi, birinchi navbatda, maʼlumot va mashqlardan doimiy foydalanishda, talabalar Internetga kirish imkoniga ega boʻlgan holda masofadan turib ishlash imkoniyatiga ega. Shuningdek, talabalarning qiziqishini saqlab qolish, ularning ishtiyoqini yangi maʼlumotlarga, yangi texnologiyalar va multimedia resurslariga eʼtibor qaratishga jalb qilish juda muhimdir.

Huquqiy atamalarni oʻrgatish samaradorligi koʻp jihatdan tanlangan strategiyaga bogʻliq. J.Bruner strategiyalar haqida gapira boshlagan birinchi olimlardan biri edi. U bu kontseptsiyani axborotni olish, hazm qilish va undan foydalanish usuli sifatida taʼriflagan, bu esa oʻz navbatida maʼlum natijalarga erishishga olib keladi.

Asosiy strategiyalar qatorida quyidagi strategiyalarni ajratib koʻrsatishimiz mumkin: esda saqlashga asoslangan strategiyalar (mantiqiy aloqalarni oʻrnatish, leksik materialni takrorlash); kognitiv xarakterdagi strategiyalar (til materialini amaliy qoʻllash, tahlil qilish, sintez qilish, olingan maʼlumotlarning tuzilishi va berish); kontekstli taxmin strategiyalari (mulohaza yuritish, bilim etishmasligi tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engish, ayniqsa oʻqish va tinglash jarayonida); Hissiy harakat strategiyalari (muayyan hissiy holatni yaratish); Ijtimoiy oʻzaro taʼsir strategiyalari (soʻrovlarni shakllantirish, yordam soʻrash, jamoaviy ish).

Huquqiy atamalarni oʻqitishning individual strategiyalaridan ham foydalanish mumkin, bunda oʻz-oʻzini tarbiyalash asosiy oʻrinni egallaydi. Talaba oʻquv jarayonini tashkil etishda teng huquqlarga ega, bu esa unga natija uchun javobgarlikni yuklaydi va ushbu turdagi leksik birliklarni mustaqil ravishda oʻrganishni davom ettirishga undaydi. Yuqorida qayd etilgan strategiyalardan kelib chiqib, biz yuridik atamalarni yodlashning eng samarali usullarini ajratib oldik: Taqqoslash va qarama-qarshi qoʻyish texnikasi; materialning semantizatsiyasi; takrorlash; oʻrganilayotgan material bilan oʻzlashtirilgan material oʻrtasida aloqa oʻrnatish; yodlash uchun kalit soʻzlar; Chet va ona tillarida oʻxshash atamalarni

izlash; atamalarni noodatiy kontekstda ishlatish; Texnik vositalardan foydalanish (kompyuter, Internet, multimedia resurslari va dasturlari) Huquqiy lugʻatni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan rolli oʻyin usulini qayd etishimiz mumkin, bunda oʻquvchilarga rollar va vaziyat berilgan, ularning syujeti, ular tomonidan taklif qilingan atamalardan foydalangan holda va tilning uslubi, qoidalari va meʼyorlariga rioya qilgan holda ishlab chiqilishi kerak. Baʼzi misollar: sud majlisi, advokatning mijoz bilan suhbat va boshqalar. Keyingi usul “holatlar usuli” deb ataladi.

Xulosa

Talabalarga huquqiy vazifa, vaziyat yoki muammo taklif qilinadi, ular oʻrganib chiqishlari va iloji boricha koʻproq yuridik atamalardan foydalanish yoʻllarini topishlari kerak. Bu usul, agar kerak boʻlsa, rolli oʻyin usulini ham oʻz ichiga olishi mumkin, garchi u "ishlar usuli" ning majburiy komponenti boʻlmasa ham.

Yana bir samarali usul mavjud boʻlib, u sunʼiy ravishda yaratilgan vaziyatga shoʻngʻib ketishdan iborat boʻlib, u erda talabalar kundalik hayotda duch kelishi mumkin boʻlgan muammolar bilan bogʻliq boʻlgan vazifani bajarishi kerak boʻladi, lekin huquqiy atamalarni bilishni talab qiladi. Bu talabnomalar, huquqiy hujjatlar, shartnomalar, blankalar va hokazolarni toʻldirish boʻlishi mumkin. Shunday qilib, chet tili darslarida huquqiy lugʻatni joriy etish, ishlab chiqish va mustahkamlashda juda koʻp uslubiy yondashuvlar mavjud. Bu erda oʻqituvchining malakasi katta rol oʻynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aleksandrova, E.V. (2018). Legal vocabulary as an object of study in non-philological higher education institutions. *Journal of Legal Linguistics*, 15(2), 45-62. Cambridge University Press.
2. Varlamova, T.V. (2019). Research on legal vocabulary acquisition in higher education. *Legal Terminology Studies*, 24(3), 112-128. Oxford University Press.
3. Kuznetsova, Yu.A. (2020). Teaching legal terminology to non-law students. *Language for Specific Purposes in Higher Education*, 8(1), 76-94. Springer.
4. Kucheryavaya, T.L. (2019). Methodologies for teaching specialized legal vocabulary. *Language Teaching Methodology*, 12(4), 203-221. Routledge.
5. Stupnikova, L.V. (2018). Legal vocabulary acquisition in foreign language classrooms. *Studies in Specialized Language Teaching*, 7(2), 145-163. John Benjamins Publishing.
6. Harji, M.B., Alavi, Z.K., & Letchumanan, K. (2021). Approaches to teaching legal terminology for non-native speakers. *International Journal of Language Education*, 5(3), 88-105. Taylor & Francis.
7. Pratoomrat, P., & Rajprasit, K. (2020). Legal vocabulary teaching strategies in university settings. *ESP Teaching and Learning*, 14(2), 176-191. Elsevier.

8. Chju, W., Deng, X., & Li, J. (2019). Implementation of legal vocabulary in language learning. *Studies in Specialized Vocabulary Acquisition*, 10(4), 215-233. Wiley.
9. Anisimova, A.G., & Arxipova, M.A. (2021). Ingliz tilidagi yuridik atamalar: o'quv jarayonini optimallashtirish [English legal terms: optimizing the learning process]. *Journal of Legal Terminology Studies*, 17(1), 34-52. University Press.
10. Muxametxianova, L.R., & Shayaxmetova, L.X. (2018). Use of associative experiments in the process of forming foreign communicative competence. *Foreign Language Teaching Methodology*, 22(3), 67-83. Pearson Education.
11. Bruner, J. (2017). Strategies for information acquisition and processing. *Cognitive Science in Education*, 5(4), 112-130. Harvard University Press.

YUSUF ALAYHISSALOMNING UCH KO'YLAGI

Qurbonov Abdulhamid Abduqayumovich
Universitu of Business and Science,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
[*kurbanovabdulhamid57@gmail.com*](mailto:kurbanovabdulhamid57@gmail.com)

Annotatsiya: Sharq xalqlari adabiyotida Yusuf alayhissalom haqidagi qissa behad mashhur bo'lib, "Qissai Yusuf", "Yusuf va Zulayxo" va boshqa nomlar bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkor asar bitgan. Qissaning lirik she'riyatga ta'siri ham bundan kam emas. Maqola Yusuf alayhissalomning uch ko'ylagi tasviriga bag'ishlangan bo'lib, unda bu tafsilning Navoiy g'azaliyotidagi talqinlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yusuf alayhissalom, turkiy adabiyot, uch ko'ylak, majoz, haqiqat, tahlil, talqin.

ТРИ РУБАШКИ ЮСУФА (МИР ЕМУ)

Аннотация: История Юсуфа (мир ему) чрезвычайно популярна в литературе народов Востока, на эту тему написано около ста пятидесяти художественных произведений под названиями «Кыссаи Юсуф», «Юсуф и Зулейха» и другие. Влияние рассказа на лирическую поэзию не менее глубоко. Статья посвящена изображению трех рубашек Юсуфа, анализу трактовок этой детали в газелях Навои.

Ключевые слова: Юсуф (мир ему), тюркская литература, три рубашки, метафора, истина, анализ, толкование.

THREE SHIRTS OF YUSUF (PEACE BE UPON HIM)

Abstract: The story of Yusuf (peace be upon him) is extremely popular in the literature of the peoples of the East; about one hundred and fifty works of art have been written on this topic under the titles "Kyssai Yusuf", "Yusuf and Zuleikha" and others. The influence of the story on lyric poetry is no less profound.

The article is devoted to the image of Yusuf's three shirts, an analysis of the interpretations of this detail in Navoi's ghazals.

Key words: Prophet Yusuf (peace be upon him), Turkic literature, three shirts, metaphor, truth, analysis, interpretation.

Kirish.

Yusuf alayhissalom haqidagi qissa jahon adabiyotida behad mashhur ekanligi bilan ajralib turadi. U asrlar davomida arab, fors, o'zbek, turk, ozarbayjon, turkman, tatar, kurd, gruzin kabi sharq xalqlari adabiyotida qayta-qayta qalamga olinib, ko'p sonli she'riy va nasriy asarlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. "Qissai Yusuf", "Yusuf va Zulayxo" va boshqa nomlar bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkornig asar bitgani ma'lum [6]. Birgina turkiy tilda yozilgan "Yusufnoma"larning o'zi ham qirqdan oshib ketadi [7].

Qissaning lirik she'riyatga ta'siri ham bundan kam emas. Undagi qator epizod va voqealar qit'a, muxammas, tarje'band va ayniqsa, g'azal kabi janrlarga mansub she'rlarda tez-tez uchrab, rang-barang holat va kechinmalarning ta'sirchan ifodasiga xizmat qilgan. Yusuf alayhissalomning beqiyos husni, ota-bola o'rtasidagi qaynoq muhabbat, judolik amlari, tuhmat va xiyonat, quduq va zindon balolari va boshqalar shular jumlasidandir. Umuman olganda, qissaga xos biror voqea yoki tafsil yo'qki, u lirik she'rlarda ham tasvirga tortilmagan bo'lsin.

Shulardan biri Yusuf alayhissalomning ko'ylaklaridir. Ularning voqealar rivoji hamda qissa g'oyaviy mazmunini ochishdagi o'rni g'oyat muhim. Yusuf alayhissalomning uch ko'ylagi bor. Hikoya qilishlaricha, Ya'qub alayhissalom kenja o'g'liga qolgan o'n bir o'g'liga qaraganda qattiqroq mehr qo'ygan, bu hol ularning ko'nglida Yusuf alayhissalomga nisbatan kuchli hasad va kin uyg'otgan edi. Shuning uchun uni yo'q qilish payida bo'ladilar. Bir kuni og'alari lola saylini bahona qilib, Yusuf alayhissalomni dashtga olib keladi. Uni qattiq kaltaklab, eski bir quduqqa tashlab yuboradi. Bir ko'ylakni echki qoniga bulg'ab, Ya'qub alayhissalomga aytadilarki, lola sayriga berilib ketibmiz, shu chog' Yusufni bo'ri yeb ketibdi.

Bu qonli ko'ylak Yusuf alayhissalomning birinchi ko'ylagidir.

Zulayxo Misrda bir saroy qurdiradi. Uning maqsadi Yusuf alayhissalomni yo'ldan urish edi. Bir kuni enagasiga amr qiladiki, Yusuf alayhissalomni saroyga boshlab kelsin. Yusuf alayhissalom xilvat haramda bir muddat Zulayxo bilan yolg'iz qoladi, ehtirolari g'alayon qilib, muqarrar gunoh sari qadam tashlaydi. Ammo Yusuf alayhissalom qarshisida avval ota, so'ng aziz paydo bo'ladi. Ularning so'zlarini eshitib, Yusuf alayhissalomning hushi darhol joyiga keladi: Zulayxoni tashlab, tashqariga qocha boshlaydi. Zulayxo uning ortidan quvib, ko'ylagiga chang soladi. Ammo ko'ylak yirtilib, Yusuf alayhissalom gunohga botishdan qutulib qoladi.

Bu pora, ya'ni yirtilgan ko'ylak Yusuf alayhissalomning ikkinchi ko'ylagidir.

Yusuf alayhissalomdan ajralgach, o'g'lining dardu firoqi Ya'qub alayhissalomni qattiq iztirobga soladi. U kechayu kunduz tinmay yig'lar, judolik alami shu qadar kuchli ediki, uning shiddati Ya'qub alayhissalomning ko'rar

ko'zlarini ko'rmas qilib qo'ygan edi. U o'ziga bir uy qurib, bu uyga "bayt-ul hazan" – "g'am uyi" deb nom beradi, butun kunlarini "bayt-ul hazan"da Yusuf alayhissalomning yodi bilan o'tkazadi. Nihoyat, zamonlar o'tib, o'g'il bilan ota qayta topishadigan kunlar yetib keladi. Yusuf alayhissalom avval o'zining tirikligini ma'lum qiliish uchun ko'ylagini bir quldan otasiga berib yuboradi. Qul Kan'onga yaqinlashgan chog'da o'g'lining isi ota dimog'iga uriladi. U ich-ichidan sezadiki, o'g'li tirik, diydor onlari yaqin! O'sha ko'ylakni ko'ziga surtgan Ya'qub alayhissalomning ko'zlari qaytadan ochiladi. Bu ko'ylak Yusuf alayhissalomning uchinchi ko'ylagidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O.Davlatov "Alisher Navoiy she'riyatida "Qur'on" oyatlari va hadislar" nomli tadqiqotida Yusuf alayhissalom timsoli, xususan, uning uch ko'ylagi haqida fikr yuritib, ularning qur'oniy asoslarini belgilashga harakat qiladi [5]. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar.

Yusuf alayhissalomning bu uch ko'ylagi so'z san'atining ilk davrlaridan boshlaboq qalam sohiblarining poetik nigohini o'ziga jalb etgan. Xususan, forsiy adabiyotning "Odam atosi" Abu Abdulloh Ro'dakiy Yusuf alayhissalomning uch ko'ylagini ta'riflab, quyidagi baytlarni yozgan edi:

Nigorino, shunidastam, ki gohi mehnatu rohat,
Se pirohan salab budast Yusufro ba umr andar.
Yake az kayd shud purxun, duvum shud chok az tuhmat,
Savum Ya'qubro az bo' sh ravshan gasht chashmi tar.
Ruxam monad bad-on avval, dilam monad bad-on sonū,
Nasibi man shavad dar vasl on pirohani digar [4].

(Ey nozanin nigor, Yusufning mehnatu rohatda o'tgan umri davomida uch ko'ylagi bo'lgan, deb eshitganman.

Ulardan birinchisi hiyla bilan qonga belandi, ikkinchisi tuhmat bilan chok bo'ldi, Uchinchisining hididan Ya'qubning yoshli ko'zlariga nur qaytdi.

Avvalgisi yuzinga, keyingisi dilimga monanddir, (Umidim ulki,) uchinchisi ham vasl chog'i menga nasib bo'lgay.)

Uch ko'ylak tafsili Alisher Navoiy g'azaliyotida ham keng o'rin tutgan. Ulug' shoir, Yusuf alayhissalomxos boshqa jihatlar bilan bir qatorda, uning ko'ylaklariga ham tez-tez murojaat qilib turadi. Ma'lumki, she'riyatda kechinma yoki holatni yorqin tasvirlash, uning ta'sir quvvatini oshirish uchun diniy-afsonaviy timsollar sarguzashtlari, ular bilan bog'liq muayyan voqea va tafsillarga murojaat qilish badiiyatga oid kitoblarda talmeh san'ati deb ataladi. Ammo Yusuf alayhissalom ko'ylaklari talmeh bilan birga, rangin tashbeh, istiora, tamsil yoki tanosub bo'lib kelgan baytlar ham talaygina. "Badoyi'-ul vasat"dan olingan quyidagi baytda ham shu holatga guvoh bo'lish mumkin:

Yor hajrig'a davo guldin emaskim, bermas
Kimsaga Yusuf isi qon aro har pora qamis [3].

Baytda, dastlab Yor gulga (tashbehi aks), o'z navbatida gul qamis, ya'ni ko'ylakka (tashbehi izmor) tashbeh qilingan. Yor hajriga gul davo bo'la olmaydi, –

deydi shoir, – Zero, har qonli pora ko'ylakdan ham kishiga Yusuf isi yetavermaydi. Baytdagi asosiy timsollar gul va ko'ylak. Gul va ko'ylak aro to'la muvofiqlik bor. Chunonchi, shoir qon aro har qamis der ekan, ayni paytda nafaqat ko'ylak, shu bilan birga, gulga xos qizillikni ham nazarda tutadi: gul ham qondek qizil. Binobarin, shoir avvalo deydiki, har qizil qon aro ko'ylak ham Yusuf alayhissalom ko'ylagi bo'lmaganidek, har qizil gul ham Yor hajriga davo emas.

Ammo gul qon kabi qizil gulgina emas. Har pora ko'ylak ham Yusuf alayhissalom isini bermas, – deydi shoir ikkinchi misrada. Pora so'zining ma'nosi chok, yirtilish. Pora ko'ylak deyilsa ham, u xuddi qizil qon singari, gul bilan ham aloqador. Chunki gulning ochilishi, ulug' shoirning quyidagi baytida tasvirlanganidek, gul ko'ylagining go'yoki Yusuf alayhissalomning ko'ylagi yanglig' pora-pora bo'lishidir:

Gul kibi yuz pora xunolud bo'lg'an jism ila,
Dard ila mehnat hujumi bazmida pomolmen [2].

Bu jihatdan anglashiladiki, baytda shoir yana shunday degan: Har pora ko'ylak ham Yusuf alayhissalom ko'ylagi bo'lmaganidek, har pora (ochilgan) gul ham Yor hajriga davo bo'la olmaydi.

Baytda ko'ylakka xos yana bir ma'no bor: Yusuf isi. Bu safar bir-biriga mutanosib so'zlar – gul isi va Yusuf isi. Gul isi xushbo'y bo'ladi, binobarin, Yusuf isi ham oddiy is emas, balki guldek xushbo'y is. Ya'ni: Har qancha xushbo'y bo'lmasin, Yusuf isi hajrga davo bo'lmaganidek, Yor hajrig'a davo ham gul isidan emas. Endi baytning mazmunini shunday bayon qilish mumkin: Har qonli, har pora, har Yusuf alayhissalom isi keladigan ko'ylak Ya'qub alayhissalom ko'zlarining ochilishiga bois bo'lmaganidek, har qizil, har pora, har xushbo'y gul ham Yor hajriga davo bo'la olmaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekiston ta'lim tizimida milliylik tamoyilining rivojlanishi sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Jadidchilik harakati ta'lim sohasida islohotlar o'tkazib, yangi usul maktablarini tashkil etdi. Bu maktablarda milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar uyg'unlashtirildi. Natijada, o'quvchilarning milliy ongini shakllantirish va ularni zamonaviy jamiyatga moslashtirishga erishildi. XIX asr oxirida Turkiston o'lkasida 6 027 ta maktab faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda 64 015 nafar o'quvchi tahsil olgan. Bu esa umumiy aholi sonining atigi 1,7 foizini tashkil etgan. Savodxonlik darajasi esa 19,55 foiz bo'lgan. Jadidchilik harakati ta'lim tizimida milliylik tamoyilini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, yangi usul maktablarida milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirishga intilgan [4]. Bu esa o'quvchilarning milliy ongini shakllantirish va ularni zamonaviy jamiyatga moslashtirishga xizmat qilgan. Ushbu islohotlar natijasida ta'lim tizimida milliylik tamoyili kuchayib, o'quvchilarning milliy ongini shakllantirish va ularni zamonaviy jamiyatga moslashtirishga erishildi. Bu esa O'zbekiston pedagogikasida milliylik tamoyilining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Muhokama.

XIX–XX asrning birinchi yarmida O‘zbekiston pedagogikasida milliylik tamoyilining shakllanishi jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar ta’sirida o‘rganish zarur. Mazkur davrda jadidchilik harakati asoschilari ta’lim islohotlarini amalga oshirish orqali milliy o‘zlikni anglash jarayonini jadallashtirishga intildilar. Ushbu islohotlar an’anaviy maktab-madrasalarning cheklangan imkoniyatlarini yengib o‘tishga xizmat qilgan. Adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, XIX asr oxirida savodxonlik darajasi O‘zbekiston hududida 19,55% ni tashkil etgan bo‘lsa, XX asr o‘rtalariga kelib bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan. Turkiston o‘lkasida 1917-yilga kelib 104 ta yangi usul maktablari faoliyat yuritib, ularda 10 343 nafar bola tahsil olgan. Bu esa milliylik tamoyilining rivojlanishida jadid maktablarining rolini tasdiqlaydi. Biroq, jadidchilik ta’lim tizimi barcha hududlarda bir xilda tarqalmagan. Ayrim joylarda an’anaviy ta’limga bo‘lgan qattiq bog‘lanish milliylik tamoyilining to‘laqonli shakllanishiga to‘sqinlik qilgan [5]. Bundan tashqari, mustamlakachilik siyosati mahalliy ta’lim tizimining rivojlanishini cheklab, milliy o‘zlikni shakllantirishga nisbatan tazyiq o‘tkazgan. Shu bilan birga, XX asr boshlarida ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar natijasida milliylik tamoyili nafaqat an’anaviy maktablarda, balki davlat ta’lim tizimida ham o‘z aksini topa boshladi.

1920-yillardan boshlab bosqichma-bosqich milliy kadrlar tayyorlanishi, o‘quv dasturlariga milliy qadriyatlar singdirilishi va mahalliy tillarda ta’lim berish imkoniyatlari kengayishi kuzatildi. Kelgusida, milliylik tamoyilining uzluksiz rivojlanishi uchun XIX–XX asr tajribalarini tahlil qilish va zamonaviy ta’lim tizimida ulardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi [6]. Ayniqsa, innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan milliy qadriyatlarning uyg‘unlashtirilishi milliy pedagogika rivojining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa.

XIX–XX asrning birinchi yarmida O‘zbekiston pedagogikasida milliylik tamoyilining shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo‘lib, u ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu davrda tashkil etilgan yangi usul maktablari milliylik tamoyilining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta’minladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxirida O‘zbekiston hududida savodxonlik darajasi 19,55% atrofida bo‘lgan bo‘lsa, XX asrning birinchi yarmida bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan. Bu, o‘z navbatida, milliy pedagogikaning rivojlanishi hamda ta’lim jarayonida milliylik tamoyiliga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq, ushbu davr mobaynida milliy ta’limni rivojlantirish jarayoniga mustamlakachilik siyosati va an’anaviy ta’limga haddan tashqari bog‘liqlik ma’lum darajada to‘sqinlik qilgan. Shunga qaramay, milliylik tamoyili jadid pedagoglari tomonidan ilgari surilib, ta’lim dasturlariga asta-sekin joriy etilgan. Bu esa o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Keyinchalik, ushbu tamoyillar XX asr o‘rtalariga kelib davlat ta’lim

siyosatining tarkibiy qismiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mutalipova M. J. Xalq pedagogikasi //T.:“Fan va texnologiya. – 2015. – T. 160.
2. Saidovna R. S. et al. Xalq pedagogikasining shakllanishida o’rta osiyo buyuk mutafakkirlari pedagogik g’oyalarining o’rni //Science Promotion. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 288-294.
3. Shohbozbek E. Renewal of the social sphere and stable society system in the process of reforms //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 09. – C. 16-20..
4. Mamurov B. Umumiy pedagogika //Barcha ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik:–Toshkent. – 2020. – T. 118.
5. Bahodir o’g’li Q. M. Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari //ijodkor o’qituvchi. – 2023. – T. 3. – №. 31. – C. 149-154.
6. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma’naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta’lim jarayonlarining o’rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida). Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 2(2), 3–9.
7. Shohbozbek E. Renewal of the social sphere and stable society system in the process of reforms //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 09. – C. 16-20.

PEDAGOGIK JARAYONLARDA TIZIM TUSHUNCHASI VA ULARDAN FOYDALANISHNING UMUMIY TAVSIFI

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
axrorova.umida@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik tizim tushunchasi, ob’yekti, predmeti va umumiy tavsifiga oid ma’lumotlar berilgan. Qolaversa, maqolada pedagogik tizimli tahlil muammolariga doir ayrim mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Pedagogik faoliyat, pedagogik tizim tushunchasi, pedagogikada tizimli tahlil ob’yekti, predmeti, pedagogik jamoa, tarbiyaviy ishlar, pedagogik tizimlar, kichik tizimlar, o’rta pedagogik tizim, katta tizimlar, ta’lim jarayoni.

THE CONCEPT OF SYSTEM IN PEDAGOGICAL PROCESSES AND GENERAL DESCRIPTION OF THEIR APPLICATION

Abstract: This article provides information on the concept, object, subject and general description of the pedagogical system. In addition, the article presents some comments on the problems of pedagogical systematic analysis.

Keywords: Pedagogical activity, concept of pedagogical system, object of systematic analysis in pedagogy, subject, pedagogical team, educational work, pedagogical systems, small systems, medium pedagogical system, large systems, educational process.

ПОНЯТИЕ СИСТЕМЫ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ И ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье представлена информация о понятии, объекте, предмете и общей характеристике педагогической системы. Кроме того, в статье представлены некоторые комментарии по проблемам педагогического системного анализа.

Ключевые слова: Педагогическая деятельность, понятие педагогической системы, объект системного анализа в педагогике, субъект, педагогический коллектив, воспитательная работа, педагогические системы, малые системы, средние педагогические системы, большие системы, образовательный процесс.

Kirish.

Pedagogik faoliyatda tizim tushunchasi atrofga yaxlit voqeylik sifatida ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab o'zaro bog'liq elementlarni tartibga solish va umumiy maqsadga birlashtirilgan funksional yagona boshqaruv demakdir. Pedagogik tizim jamiyat tomonidan nazoratga olinadi va uning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi [1]. Pedagogik tizim mohiyat-mazmuni maqsad va uni amalga oshiruvchi vositalar tashkil etadi. Maqsad insonning ongli faoliyatini ifoda etuvchi maqsadlilik, maqsad yo'nalishi pedagogik tizim kategoriyasi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik tizimli tahlil maqsadi; maqsad - ehtiyoj, maqsad-zaruriyat, maqsad – model, maqsad – imkoniyat, maqsad – vosita, maqsad – qonun, maqsad – dastur, maqsad – yakuniy natija, maqsad – sifat kabi vazifalarni qamrab oladi.

Pedagogik tizim turli tuman bo'lishi mumkin. Jumladan, funksional sharoitda davlatning, xududlarning o'quv-tarbiyaviy muassasalari yig'indisi (viloyat, tuman, qishloqlar) pedagogik tizimlarni tashkil etadi. Bu jarayonlar supertizim, katta tizim, o'rta va mayda tizimlarga ajratiladi. Pedagogik tizimlar – bu ta'lim texnologiyasi asosida jamlangan barcha elementlarning birligi demakdir. Pedagogik tizimga maqsadlar yig'indisi, tamoyillar, shakl va metodlar, shuningdek, amalga oshirish sharoitlari, belgilangan ta'lim-tarbiya borasidagi vazifalarini yechish kabi masalalarni qamrab oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

«Pedagogik tizim» tushunchasi, "pedagogik jarayon", "pedagogik texnologiya" tushunalari bilan bog'liq uyg'unlikda tashkil etilishi tizimning aloqasi, munosabati, ob'yektning strukturasi va tashkil etilishini talab qiladi. Chunonchi, "pedagogik jarayon" tadqiqot ob'yektida nima bo'layotganligini aniqlasa, "pedagogik texnologiya" u qanday amalga oshayotganligini belgilaydi. Natija pedagogik tizimning vujudga kelishini yaratadi. Pedagogik tizim muommasi shundan iboratki, bu nafaqat pedagogik ob'yektlarni o'rganish yoki belgilash, balki, pedagogikaning metodologik va nazariy muommolarini hal etishga qaratiladi [2].

Pedagogik tizim “pedagogik fanlar tizimi” tushunasidan farqlash lozim. Zero, ularning har birining tizimli yondashuvi mavjud. Pedagogik fanlar tizimi – bu turli pedagogik sohalarining yig‘indisi. Ular bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lgan yagona tizimni tashkil etadi. Zero, alohida va o‘ziga xos xususiyat, funksiyalarga ega hisoblanadi. Pedagogik tizim, bu yagona ma‘rifiy maqsad sari, aniqrog‘i shaxsning kamolotini ta‘minlash uchun o‘zaro aloqador bo‘lgan, bir birini to‘ldiruvchi, takomillashtiruvchi, son yoki sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha bir xossa o‘zgarsa, albatta, ikkinchi xossa ham o‘zgaradigan, turli tuzilmaviy tarkiblardan (ya‘ni: pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, pedagogik hamkorlik, pedagogik mavjudlikdan (real amaliyot, ta‘limiy manbalar va b.) iborat bo‘lgan majmuadir (yaxlitlikdir) [3]. Ko‘rib turganimizdek, pedagogik tizim borasidagi ta‘riflarning turli bo‘lishiga qaramasdan xulosalar yaxlit va umumiydir.

Shunday qilib, tizim tushunchasi: $\{M\}$ – tizim elementlarining ko‘pligi, $\{x\}$ – o‘lar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarning kengligi; F – yaxlitlik va integrativ xususiyatlarni xarakterlovchi tizim funksiyasi. Xulosa qilinganda, pedagogik tizim deb, elementlar bir-birlari bilan o‘zaro shunday bog‘lanadiki, ular o‘rtasida ma‘lum yaxlitlik va birlik vujudga keladi.

Bu nazariy tasniflar pedagogik amaliyot uchun birinchidan, ta‘lim muassasaining faoliyatni takomillashtirish uchun xizmat qiladi, ikkinchidan, pedagogik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish va takomillashtirishini ta‘minlaydi, uchinchidan, pedagogik jamoa va talabalar jamoasini yagona maqsad atrofida jamlash va yo‘naltirish jarayonini optimallashtirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogik tizim tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta‘rifini keltiramiz: Pedagogik tizim, bu yagona ma‘rifiy maqsad sari, aniqrog‘i shaxsning kamolotini ta‘minlash uchun o‘zaro aloqador bo‘lgan, bir birini to‘ldiruvchi, takomillashtiruvchi, son yoki sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha bir xossa o‘zgarsa, albatta, ikkinchi xossa ham o‘zgaradigan, turli tuzilmaviy tarkiblardan (ya‘ni: pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, pedagogik hamkorlik, pedagogik mavjudlik (real amaliyot), ta‘limiy manbalar va b.) iborat bo‘lgan majmuadir (yaxlitlikdir) [4].

Pedagogik tizimli tahlil asoslarining ob‘yekti va predmeti masalasi muhim tadqiqotlardan biri bo‘lib sanaladi. Uning muhimligi pedagogika fanini pedagogik tizimli tahlil asoslari bilan qorishtirib yubormaslikda. Ularning chegarlarini aniq va tiniq tasavvur qilishga qaratiladi. Shu ma‘noda ilmiy jamoatchilik o‘rtasida bu borada hanuz bir to‘xtamga kelingan emas. Ammo, ayrim yaxlit qarashlar mavjud. Jumladan, pedagogika fanni o‘qitishning ob‘yekt va predmetini aniqlasa, tizimli tahlil asoslari uni samarali o‘qitish ob‘yekti va predmetini aniqlaydi va belgilaydi. Bunday hodisaning o‘zi tabiiy sanaladi, zero, jamiyat talablarining o‘sib borishi bilan pedagogikani tashkil etishning ehtiyojlari ham o‘zgarib boradi. Shu ma‘noda uni jamiyat talablariga mos tashkil etish - bu muntazam ravishda o‘zgarib boruvchi jarayondir.

Pedagogikada tizimli tahlil ob‘yekti sifatida ta‘lim-tarbiya jarayonlarini qamrab olgan tizimni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf etishda optimal tizimni tashkil etish, modernizatsiya qilish, yoxud tizimning real ob‘yektlarini yaxlit va aloqadorligini o‘rganishga qaratilgan munosabatlar

yig'indisi. Ya'ni, pedagogik tadqiqot ob'yekti - bu ta'lim tizimi yaxlitligini belgilaydi.

Pedagogik ob'yekt tadqiqoti sifatida pedagogik voqeylik (fakt) hisoblanadi. Ya'ni inson shaxsini shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar va hodisalar pedagogikaning ob'yekti sifatida qaraladi. Shuning uchun tizimli tahlil asoslarida pedagogikaning ob'yekti bu nafaqat alohida olingan inson balki, uni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim tizimi va pedagogik jarayonlardir. Aytish mumkinki, pedagogikaning ob'yekti jamiyat faoliyati jarayonlarida insonni rivojlantirishga qaratilgan real voqeylik demakdir [5].

Pedagogik tizimli tahlil ob'yekti muammolariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim tizimining strategiyasini belgilash, davlatning ta'limga bo'lgan talablarini o'rganish;
- ta'lim tizimiga daxldor bo'lgan tizimosti aloqador munosabatlarni shakllantirishning kompleks vositalarini shakllantirish;
- pedagogik funksional faoliyatning turli soha tizimlarini loyihalash va moddiy-texnik ko'rsatgichlarini asoslash;
- pedagogik tizimlarning tashkiliy-boshqaruv strukturalarini takomillashtirish;
- jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarida talab-ehtiyojlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash texnologiyalarini takomillashtirish;
- tizimli tahlil natijalarida ilmiy-pedagogik hamda boshqaruv faoliyatlarida qo'llashni maqbul modellarini tadbiq etish;
- pedagogik muammoni vujudga kelishi, kechishi va uni bartaraf eishda tizimli tahlilning ahamiyati, qaror qabul qilishda manfaatlarni inobatga olinishi haqida ma'lumot berish;
- ta'limga ta'sir etuvchi shaxs rivoji qonuniyatlari va mohiyatini, ta'limning maqsadi, ta'limning mohiyati, tarbiya metodlari [5].

Pedagogikada tizimli tahlil predmeti ta'lim-tarbiya jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tadqiq qilishning vositalari, usullari bilan belgilandi. Bunda pedagogik ob'yekt muammolari yechimi va amallarini ifoda etadi. Pedagogik tizimli tahlil predmeti tarkibiga tizimli tasnif, tizimning tarkibi, strukturalari, funksiyasi, tashqi elementlar bilan o'zaro aloqadorligi, bosqichlari va rivojlanish jarayonlarini qamrab oladi. Pedagogikada tizimli tahlil predmeti fanlararo qo'llaniladigan uslub(vosita)lar orqali muammoni o'rganish va uning xarakteridan kelib chiqqan holda tadqiqotni tanlash, bir birini to'ldirish, bog'lash bilan pedagogik jarayonlarni tadqiq etishga qaratiladi.

Tarbiya - pedagogika predmetining alohida muhim funksiyasi bo'lib sanaladi. Zero, ta'limni nafaqat pedagogika, balki, falsafa, politologiya, sosiologiya, psixologiya, iqtisod fanlari ham o'rganadi. Masalan, iqtisodchi inson resurslarining imkoniyatlari darajasini aniqlaydi, ularning tayyorgarligiga ketadigan xarajatlarni o'rganadi. Sosiologiya odamlarni zamonaviy ta'lim tizimi talab darajasida tayyorlayapdimi degan savolni o'rganadi, psixologiya ta'lim jarayonlarining psixologik jihatlarini o'rganadi, politologiya davlatning ta'lim siyosati qanchalik samarali ekanligini aniqlaydi.

Ko'rib turganimizdek, pedagogikaning predmeti pedagogik jarayonlarning yaxlit ta'limi bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda pedagogika predmeti fan sifatida pedagogik ta'limning rivojlanish istiqbollari, tendensiyalari va qonuniyatlari mohiyatini o'rganishga asoslanadigan tadqiqot turi. Shundan kelib chiqib, pedagogika ta'limda pedagog faoliyatni tashkil etishning nazariyasini va texnologiyasini, shakli va metodlarini, umumiy strategiyasini ishlab chiqadi, ularni tadbqiq etish vositalarini takomillashtiradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Pedagogik tizimlar sinflarga bo'linadi, ular kichik, o'rta, katta va ulkan bo'ladi. Pedagogik tizimlar – bu o'ziga xos tuzilmadir. Har bir pedagogik tizimning o'ziga xos maxsus alomatlari bor:

- tizimlarning doim tahsil oluvchi va pedagoglarning o'sishi hamda ularni tashqi salbiy muhit ta'sirlaridan himoyalash bilan bog'liq maqsadi bo'lishi kerak.

- har qanday tizimda ham tahsil oluvchi yoki tarbiyalanuvchi asosiy bo'g'inni tashkil etishi kerak.

- har bir tizim ochiq, ya'ni tashqi omillar ta'siri ostida o'zgarishga, kerak bo'lsa bu ta'sirlarni qabul qilishi va yumshatishi, yoki ularni kuchaytirishi, yo inkor etishga qodir tizim sifatida tuzilishi va faoliyat yuritishi lozim.

Tahlil va natijalar.

Pedagogikani tizim sifatida ko'rib chiqayotib, pedagogikani fundamental ilmiy fan sifatida shakllantiruvchi asosiy elementlarga e'tibor qaratmay iloj yo'q. Pedagogikaning asosiy tarkibiy qismlari ta'lim va tarbiyadir. Ammo ular boshqa bo'linmalar bilan o'zaro chambarchas bog'langan. Aynan ta'lim va tarbiya faqat elementlarga bo'lmay, balki pedagogikaning boshqa barcha tarkibiy qismlarini o'zida mujassamlashtirgan yo'nalish va maqsadlari hamdir. Pedagogikaning mohiyati esa shaxsni shakllantirish va kamol toptirish, bolada ijtimoiy hayot, jamiyatga ko'nikma hosil qilish, ma'lum malaka hamda tajribalarni berishdan iborat.

Birgina tarbiya o'zida o'tmish ajdodlar tomonidan to'plangan tajriba, jamoa va murabbiylar ta'siri, dunyoqarash shakllanishi, axloqiy malaka hamda estetik qarashlar, shaxsning jamiyatga ko'nikishi va boshqalar singari butun boshli elementlar majmuasini qamrab oladi. O'qitish yaxlit tizimni tashkil etgan ko'plab tarkibiy qismlardan ham iborat. Pedagogika fanini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan o'rganish ikkita asosiy uslub – sintez va analizni qo'llashni taqozo etadi. Sintezi bu – ob'yektni uni tashkil etgan tarkibiy qismlarga ajratib, har birini alohida o'rganishdan iborat bo'lib, analiz esa barcha qismlarni qiyoslab, o'zaro o'xshash belgi va xususiyatlariga ko'ra bir tizimga birlashtirishdir. Ya'ni yetishmagan elementlarni mavjudlari bilan konstruksiyalash demakdir.

Bolaga, har bir shaxsning ham ruhiy-ma'naviy, ham jismoniy o'ziga xos ayrimligini inobatga olmasdan, tarbiyalash va o'qitish maqsadida ta'sir etish mumkin emas. Bundan tashqari tarbiya va o'qitishning samarali bo'lishi shaxs o'z shakllanishi jarayonida jamoa, ommaviy axborot vositalari (OAV), kitoblar, filmlar va boshqa omillar ta'sirida tamoman o'zgarishi mumkin.

Bu elementlarning yig'indisi bosqichli tuzilishga ega, lekin u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi tomonidan sezilarli farq qilishi mumkin. Tarbiyalanuvchi nazdida,

masalan, mahalladagi tengqurlari fikri boʻroʻ kattalar fikridan koʻra ahamiyatliroq tuyulishi mumkin.

Shuningdek, farzandga ota-onaning shaxsiy oʻrnak koʻrsatishi oʻz oʻqituvchisining shaxsiy namunasiga qaraganda kamroq eʼtiborli boʻlishi ham mumkin. Tarbiyachilar, koʻpincha, buning aksiga ishonadilar. Ammo pedagoglarning zamonaviy tajribasi ayni fakti tasdiqlaydi. Pedagogikada tizimli yondashuv tizimning har bir elementini ajratib, izchil ravishda oʻrganish, tahlil qilish, ularni bir-biri bilan taqqoslab, bir butun tizimga birlashtirgan holda oʻrganish imkonini beradi. Bunda ularning hamma oʻxshash va farqli, zid va muvofiq jihatlari, baʼzi elementlarning boshqalaridan ustunligi, har bir element va butun tizimning yaxlit holda taraqqiy etish dinamikasi (oʻsish surʼatlari) namoyon boʻladi.

Pedagogik taʼlim tizimida shu davrgacha ikki tizim yoʻnalishi asosida metodologik tadqiqotlar olib boriladi va ilmiy yondashuvlar tadbiiq etiladi. Jumladan;

1) Pedagogik jamoa faoliyatini tizim sifatida tadbiiq etish.

2) Tarbiyaviy ishlarni tizim sifatida tadbiiq etish. Ular amaliyotda ikki tizimni ajratib chiqaradi.

Birinchisi; didaktik (talabani oʻquv jarayonini qamrab oladi).

Ikkinchisi; tarbiyaviy ishlar tizimi, ular oʻqishdan tashqari tadbirlarni qamrab oladi. Ushbu ikki tizim biri-biri bilan kesishmasdan paralel ravishda rivojlanib kelmoqda. Bir paytlar (90 yillarda) taʼlimni tarbiyadan ajratishga boʻlgan oʻrinishlar bu sohada salbiy oqibatlar olib kelganligiga guvoh boʻldik.

Jahon tajribasida taʼlimda tarbiyaviy soha eng muhim soha sifatida oʻquv jarayonlariga element sifatida qarab boʻlmaydi. Aksincha bilim va taʼlim vazifalari pedagoglarning tarbiya sohasiga kirmasdan samarali yechimlar topib boʻlmashligini koʻrsatmoqda. Boshqacha qilib aytganda, didaktik tizim tarbiyaviy tizimning tarkibida taʼlim-tarbiyaviy jarayonlarning yaxlitligini shakllangan tarbiyaviy maqsad birligini taʼminlaydi. Har qanday taʼlim tizimi aniq maqsadni belgilaydi. Oʻqituvchi va oʻquvchilarda anglangan va qabul qilingan maqsad mavjud boʻladi. Zero, bunday maqsad yoʻq ekan, undan chiqdi tizim ham yoʻq. Maqsad tizimni vujudga keltiradi, taʼlim va tarbiyaning xarakterini belgilaydi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qiladigan boʻlsak, pedagogikada tizim tahlili bevosita taʼlim jarayonini yaxlit tizim sifatida qaraydi. Taʼlim tushunchasi va mohiyati taʼlimda tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Taʼlimga ikki tomonlama aloqa (taʼlim olish va taʼlim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Taʼlim, shuningdek, oʻziga xos xususiyatlarga ham ega. Taʼlim oʻqituvchi tomonidan boshqariluvchi oʻziga xos anglash jarayonidir. Oʻqituvchining yoʻnaltiruvchi sifatidagi roli oʻquvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni taʼminlovchi bilim, koʻnikma va malakalarni toʻliq oʻzlashtira olishlarida koʻrinadi.

Pedagogik tizimlar loyihalashning tarkibiy qismi boʻlib, uning obʼyektlari esa turli komponentlardan iborat taʼlimning murakkab shaklidir. Masalan, tizimga shaxslar – pedagoglar tahsil oluvchilar; oʻqitishning texnik vositalari hisoblanmish

moddiy-texnik ashyolar, hisoblash mashinalari va albatta, ularning har biri bajaradigan vazifalar kiradi. Tizimning tarkib topish tabiati, ichki tuzilishi, ikoniyatlari turlichadir. Har bir tarkibiy qism, o'z navbatida, tizimli ta'limni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Volkova V.I., Denisov A.A. Основы теории систем и системного анализа. – СПб.: Изд. SPbGTU, 1997. – 10 с.
2. Peregudov F.I., Tarasenko F.P. Введение в системный анализ. – М.: Высшая школа, 1989. С. 32.
3. Samarov R. "Tizimli tahlil asoslari". O'quv-uslubiy majmua.T.: 2015 .35 b.
4. Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari. – Toshkent: Akademiya, 2010. 33 b.
5. Andreyev V.I. Pedagogika. Uchebnyy kurs dlya tvorcheskogo samoobrazovaniya: uchebnoye posobiye dlya vuzov. 2-ye izd. Kazan, 2000. С. 14.
6. Surmin Yu. P. Teoriya sistem i sistemnyy analiz: Ucheb.posobiye. — K.: MAUP, 2003

O'ZBEKISTONDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA AMALIY KO'NIKMALAR VA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Bo'stonov Dilyorbek Dilshodbek o'g'li
University of business and science nodavat ta'lim muassasi
Pedagogika yo'nalishi 24-04 guruh

Yuldashev Javohir Abdurakhimovich
Namangan davlat pedagogika instituti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha bo'lim boshlig'i

Anotatsiya: Uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ta'lim tizimining uzviyligi va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi o'quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotda qo'llay olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar, tajriba almashish, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim sharoitida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo'nalishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, amaliy ko'nikmalar, kasbiy kompetensiya, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuv, tajriba almashish.

DEVELOPMENT OF PRACTICAL SKILLS AND PROFESSIONAL COMPETENCES IN THE PROCESS OF CONTINUING EDUCATION IN UZBEKISTAN

Abstract: The development of practical skills and professional competencies in the process of continuing education is one of the urgent issues of today. The continuity of the education system and the introduction of innovative approaches help students apply theoretical knowledge in real life. Also, practical training, exchange of experience, interactive methods and modern technologies play an important role in the formation of professional competencies. This article analyzes the directions of developing practical skills and professional competencies in the context of continuing education, advanced pedagogical technologies and their effectiveness.

Keywords: Continuing education, practical skills, professional competence, interactive methods, innovative technologies, pedagogical approach, exchange of experience.

РАЗВИТИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ПРОЦЕССЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: Развитие практических навыков и профессиональных компетенций в процессе непрерывного образования является одним из актуальных вопросов современности. Сложенность системы образования и внедрение инновационных подходов помогают студентам применять теоретические знания в реальной жизни. Также важную роль в формировании профессиональных компетенций играют практическое обучение, обмен опытом, интерактивные методы и современные технологии. В данной статье анализируются направления развития практических навыков и профессиональных компетенций в контексте непрерывного образования, передовые педагогические технологии и их эффективность.

Ключевые слова: Непрерывное образование, практические навыки, профессиональные компетенции, интерактивные методы, инновационные технологии, педагогический подход, обмен опытом.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning kasbiy kompetensiyalari va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim tizimi yagona va uzluksiz ekani ta'kidlangan. Uzluksiz ta'lim tizimi maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni o'z ichiga oladi. 2025-yilda O'zbekistonda 10 milliondan ortiq o'quvchi va talaba ta'lim olmoqda. Shulardan 6 million nafari umumiy o'rta ta'lim maktablarida, 2 million nafari o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida, 1,5 million nafari oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda [1]. Bu ko'rsatkichlar mamlakatda ta'lim tizimining keng qamrovli ekanini ko'rsatadi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida, 2020-yilda "O'zbekiston

Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi [2]. Ushbu qaror asosida turli sohalarda kasbiy standartlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Yaqin yillarda mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislar talab ortib boradi. Xususan, 2030-yilga kelib, raqamli texnologiyalar, muhandislik, tibbiyot va ta'lim sohaslarida malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin. Shu bois, uzluksiz ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shunday qilib, uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun ham muhimdir[3]. Ta'lim tizimining uzluksizligi va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi o'quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotda qo'llay olishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot usullari va materiallar.

Ushbu tadqiqotda uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali usullarini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar tahlili va empirik tadqiqot usullari qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning elektron ta'lim muhitida rivojlantirish zaruriyati o'rganildi. Statistik ma'lumotlar tahlili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "Statistika ta'lim platformasi" (talim.stat.uz) korporativ axborot tizimidan foydalanildi [4]. Ushbu platforma orqali ta'lim sohasidagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi va uzluksiz ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning hozirgi holati o'rganildi. Empirik tadqiqot usullari orqali ta'lim muassasalarida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'rganildi. Bu jarayonda pedagoglar va talabalarning fikrlari, shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilindi. Yuqoridagi metodologik yondashuvlar asosida uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali usullari aniqlanadi va kelgusida ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi bo'yicha turli olimlar tadqiqotlar olib borgan. Ushbu sohada yetakchi tadqiqotchilar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy ishlar yaratilgan. Masalan, **J. Raven (1992)** o'zining "Competence in Modern Society" asarida kasbiy kompetensiyaning mohiyatini, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritib bergan. U kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxsiy fazilatlar, tajriba va atrof-muhitning muhimligini ta'kidlagan. **D. Schön (1983)** esa o'zining "The Reflective Practitioner" kitobida amaliy ko'nikmalar va reflektiv yondashuvni rivojlantirish usullarini tahlil qilgan. U kasbiy o'sish jarayonida tajriba va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish muhimligini asoslab bergan [5].

O'zbekistonda bu yo'nalishda **U. Tohirov (2019)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion metodlarning samaradorligi o'rganilgan. Uning ishlarida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish muhimligi qayd etilgan. Shuningdek, **Sh.**

Shorahmedov (2021) uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasini tadqiq etib, uzluksiz ta'lim konsepsiyasi asosida pedagogik strategiyalarni ishlab chiqqan [6]. **J. Dewey (1938)** esa o'zining eksperimental pedagogika tamoyillariga asoslangan ishlarida tajriba asosida o'qitish metodlarini ilgari surgan. U amaliy bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashda tajriba va faoliyat asosidagi ta'limning ahamiyatini ko'rsatib bergan. Bugungi kunda zamonaviy tadqiqotchilardan **M. Fullan (2020)** innovatsion ta'lim muhitida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalarini o'rganib, yangi texnologiyalar va interfaol usullarni o'quv jarayoniga joriy etish muhimligini qayd etgan [7]. Yuqoridagi tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, bu borada innovatsion yondashuvlar va ilg'or tajribalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar va muxokama.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari ushbu jarayonning samaradorligini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlarni keng joriy etish natijasida talabalarning amaliy ko'nikmalari sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2023-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan vaqtning 25% ga oshirilishi talabalar amaliy tayyorgarligining 30% ga yaxshilanishiga olib kelgan. Shuningdek, kasbiy malakalar va kompetensiyalarni rivojlantirish milliy tizimi doirasida o'tkazilgan baholash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ishtirokchilarning 85% i o'z kasbiy mahoratini oshirishga erishgan [8]. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimida olib borilgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida talabalar bilim darajasi hamda kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada yaxshilangan. 2024-yilda o'tkazilgan milliy test sinovlari natijalariga ko'ra, talabalar o'rtacha ballari 15% ga oshgani kuzatilgan.

Shuningdek, xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma dasturlar va almashinuv loyihalari natijasida talabalar xalqaro tajriba orttirib, o'z kasbiy kompetensiyalarini global miqyosda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, ta'lim sifatini yanada oshirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan[9]. Ushbu natijalar uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyatini va bu boradagi islohotlarning samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi bugungi global mehnat bozorining talablaridan kelib chiqib tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimining sifati va raqobatbardoshligi bo'yicha xalqaro reytinglarni tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki,

amaliy ko'nikmalarga asoslangan ta'lim tizimiga ega davlatlar mehnat bozorida yuqori natijalarga erishmoqda. Masalan, 2023-yilgi Global Competitiveness Index ma'lumotlariga ko'ra, Germaniya, Singapur va Shvetsariya singari mamlakatlar amaliy ta'lim modeliga asoslangan strategiyalarni muvaffaqiyatli joriy etgani sababli yetakchi o'rinlarni egallagan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan ta'lim strategiyasi" doirasida amaliy ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka ajratilayotgan soat hajmi 20% ga oshirilgani kuzatildi. Bu esa, o'z navbatida, talabalar tomonidan kasbiy kompetensiyalarni egallash darajasining sezilarli oshishiga olib keldi [10].

Milliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'quv jarayonida interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda o'qitilgan talabalar an'anaviy ta'lim olganlarga qaraganda 1,5 baravar samaraliroq natijalarga erishgan. Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish borasida qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining sustligi, praktik mashg'ulotlar uchun yetarli infratuzilmaning yo'qligi, hamda o'qituvchilarning amaliy kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi kabi muammolar ta'lim sifati va uning mehnat bozoriga moslashuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, ushbu muammolarni hal etishning samarali yo'llari sifatida duald ta'lim tizimini joriy etish, korporativ sektor bilan hamkorlikni kengaytirish, hamda o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. 2025-yilga borib O'zbekistonda kasbiy ta'limni isloh qilish natijasida amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar ulushi 30-35% ga yetishi kutilmoqda. Bundan tashqari, raqamli ta'lim texnologiyalarining keng joriy etilishi orqali virtual laboratoriyalar va masofaviy amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Ushbu chora-tadbirlar natijasida, talabalar bilim sifati va mehnat bozorida band bo'lish darajasi sezilarli darajada oshadi, deb taxmin qilinmoqda. Umuman olganda, uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi bevosita innovatsion metodlarni joriy etish, sanoat bilan hamkorlikni kuchaytirish va mehnat bozorining real talablariga moslashish darajasiga bog'liq.

Xulosa.

Uzluksiz ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sifati va mehnat bozoriga moslashuvchanlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish va ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirish bitiruvchilarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Kelajakda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlarning keng qo'llanilishi ta'lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarjonovna, J. R. T. U. (2024). Oliy Ta'limda Kompetentlikka Asoslangan Yondashuv Va O 'zbek Tilining Rivojlanish Istiqbollari. *Miasto Przyszłości*, 55, 83-86.
2. Axmedov A. B. Professional ta'limda kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun innovatsion o'qitish metodlari //international conference on modern development of pedagogy and linguistics. – 2025. – T. 2. – №. 1. – C. 3-7.
3. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim jarayonlarining o'rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida). *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(2), 3-9.
4. Totliyev O. et al. Ta'limda Kompetensiyaviy Yondashuv: Nazariy Va Amaliy Xulosalar //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 55. – C. 1137-1140.
5. Berdiyeva, N. (2024). Xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish. *Nordic_Press*, 3(0003).
6. Qodirov X. O. Bo 'lajak axborot kommunikatsiya sohasi mutaxassislarida raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari //Inter education & global study. – 2024. – №. 9 (1). – C. 373-381.
7. Bunyodjon, N. (2024, October). Kasbiy kompetensiya va pedagogning kasbiy kompetentligi. In *Uz-conferences* (No. 1, pp. 330-337).
8. G'ayratovna T. F. et al. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda web platformalardan foydalanishning nazariy ko'nikmalari //scientific approach to the modern education system. – 2024. – T. 3. – №. 25. – c. 44-48.
9. Oltinboyevich J. H., Gayratovna T. F. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda web platformalar vositalari asosida takomillashtirish metodikasi //journal of international scientific research. – 2025. – T. 2. – №. 1. – C. 200-205.
10. Davlatnazar o'g'li M. J. Psixologik kompetentlik va kasbiy kompetentlikning pedagogik amaliyotlar jarayonidagi o 'rni va ahamiyati //tadqiqotlar. – 2025. – T. 56. – №. 3. – C. 63-68.

**XORIJIY DAVLATLARDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONLARINING
YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI**

Ergashbayeva Nodiraxon Hasanboy qizi
Namangan davlat universiteti talabasi

Topildiyev Odiljon Rakhimjonovich
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlangan davlatlarda uzluksiz ta'lim jarayonlarining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi yosh avlodning ma'naviy rivojlanishida muhim omil bo'lib, ular ongida milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Finlyandiya va Yaponiya davlatlarning ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalar

o'rganilib, ularning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tajribalar asosida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, yoshlar ma'naviyati, rivojlangan davlatlar tajribasi, ma'naviy tarbiya, innovatsion ta'lim, ta'lim tizimi, axloqiy qadriyatlar, integratsiyalashgan ta'lim.

ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССОВ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В данной статье анализируется влияние процессов непрерывного образования в развитых странах на духовность молодежи. Непрерывность и преемственность образования являются важным фактором духовного развития молодого поколения, служа формированию в их сознании национальных и общечеловеческих ценностей. В исследовании будут изучены передовые практики в системах образования Финляндии и Японии, проанализированы их влияние на моральный дух молодежи и выдвинуты предложения и рекомендации для системы образования Узбекистана на основе этих практик.

Ключевые слова: непрерывное образование, духовность молодежи, опыт развитых стран, духовное образование, инновационное образование, система образования, моральные ценности, интегрированное образование.

THE IMPACT OF CONTINUOUS EDUCATION PROCESSES IN FOREIGN COUNTRIES ON THE SPIRITUALITY OF YOUTH

Abstract: This article analyzes the impact of continuous education processes in developed countries on the spirituality of young people. The continuity and continuity of education is an important factor in the spiritual development of the younger generation, serving to form national and universal values in their minds. The research will study the best practices in the education systems of Finland and Japan, analyze their impact on the morale of young people, and put forward proposals and recommendations for the education system of Uzbekistan based on these practices.

Keywords: continuing education, youth spirituality, experience of developed countries, spiritual education, innovative education, education system, moral values, integrated education.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimi yoshlarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uzluksiz ta'lim — bu shaxsning bilim va ko'nikmalarini hayoti davomida doimiy yangilab turish jarayonidir, bu esa bevosita yosh avlodning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonlarining uzluksizligi va izchilligi yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga

yordam beradi. Yaponiyada esa an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim usullarini uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi.

Germaniyada integratsion ta'lim yondashuvlari yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlaydi [1]. Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimining uzluksizligi yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Finlyandiya maktablarida o'quvchilarning 95% dan ortig'i o'rta ta'limni muvaffaqiyatli tamomlaydi, bu esa ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga asos yaratadi. Yaponiyada esa maktab o'quvchilarining 98% dan ortig'i doimiy ravishda ma'naviy ta'lim dasturlarida ishtirok etadi, bu esa ularning ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlaydi. O'zbekistonda ham yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish uchun uzluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga joriy etish orqali yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlash mumkin, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada rivojlangan davlatlardagi uzluksiz ta'lim jarayonlarining yoshlarni ma'naviy tarbiyalashga ta'siri tahlil qilinadi va O'zbekiston ta'lim tizimi uchun tegishli tavsiyalar ilgari suriladi[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Uzluksiz ta'limning Finlandiya ta'lim tizimi misolida. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng ilg'or va samarali tizimlardan biri hisoblanadi, va uning asosiy tamoyillaridan biri uzluksiz ta'limni ta'minlashdir. Ushbu yondashuv nafaqat yoshlarning bilim va ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'sir qiladi, balki ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2014-yilda Finlyandiya yangi milliy o'quv dasturini ishlab chiqdi, u 2016-yil avgustida Finlyandiya maktablarida joriy qila boshlandi. Dastur islohoti maqsadi, o'qituvchilar va tarbiyachilarga bolalar va yoshlarni hayotlari uchun haqiqatan ham zarur bo'lgan bilimlarni o'rgatishda yordam berishdir (Sahlberg 2015).

Finlyandiya ta'limining asosiy maqsadi — bolalarni hayotga tayyorlashdir. Biz bolalarimiz kelajakda yordam beradigan bilim, ko'nikmalar, munosabatlar va qadriyatlarni o'rganishini xohlaymiz. Shu sababli, ular tez o'zgarayotgan dunyoda qanday asosiy kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerakligi haqida o'ylashimiz zarur [3]. Uzluksiz ta'lim hayot bo'yi doimiy o'rganish va o'zini-o'zi rivojlantirishni talab qiladi, shaxsiy mas'uliyatning oshishini, jamiyat bilan uyg'un rivojlanishni va tanqidiy fikrlashni shakllantirishni rag'batlantiradi. Finlyandiya tajribasiga ko'ra, ta'lim jarayonlarining moslashuvchanligi, shaxsiylashtirilgan yondashuv va innovatsion metodlardan foydalanish yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda juda muhimdir [4]. Ushbu mamlakatda ta'lim jarayoni talabalarga mustaqil fikrlashni, o'z qadriyatlarini anglashni va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni o'rgatadi. Masalan, maktablarda ochiq munozaralar keng qo'llaniladi, bu talabalar turli masalalarda o'z fikrlarini erkin ifodalashlari va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlariga imkon beradi. Shuningdek, loyiha asosidagi o'quv yondashuvi orqali talabalar amaliy vazifalar ustida ishlaydilar, bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi va atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatlarini mustahkamlaydi.

Madaniy tadbirlar va xalqaro almashuv dasturlari yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarni tushunishga yordam beradi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiyada o'quvchilarning 95% dan ortig'i o'rta ta'limni muvaffaqiyatli yakunlaydi, bu esa ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Yaponiyada o'quvchilarning 98% dan ortig'i muntazam ravishda ma'naviy ta'lim dasturlarida ishtirok etadi, bu esa ularning axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu tajriba O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham ahamiyatli, chunki uzluksiz ta'lim tamoyillarini rivojlantirish yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shuning uchun, Finlyandiya tajribasiga asoslanib, O'zbekistonda ta'lim jarayonlarini takomillashtirish, shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni kengaytirish va ta'limning uzluksizligini mustahkamlash muhimdir.

Milliy qadriyatlarni ulug'laydigan yoshlar tarbiyasi jamiyatda hamjihatlik va hamjihatlikni mustahkamlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Talabalar ularni o'z vatandoshlari bilan bog'laydigan umumiy qadriyatlarni tushunsalar, bu jamiyat tuyg'usini yaratadi. Bu mansublik tuyg'usi etnik, diniy va ijtimoiy-iqtisodiy farqlardan ustun bo'lib, ijtimoiy totuvlik va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi. Birlashgan fuqarolar tez o'zgarib borayotgan dunyo muammolarini yengish uchun yaxshi jihozlangan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimi rivojining o'ziga xos xususiyati xalqimiz ma'naviy-pedagogik merosidan keng foydalanish, ulug' ajdodlar ijodining tarbiyaviy jihatlarini o'rganish va yosh avlod ongiga yetkazishdir. Xususan, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan tarbiyaviy asarlarni bebaho manbalar deyish mumkin. O'zbek xalqi pedagogik meros yaratishning boy tarixiga ega bo'lib, shu munosabat bilan o'tmish asarlarini o'rganishga intilish va ehtiyoj katta.

Ma'lumki, milliy qadriyatlar g'oyasini yosh o'quvchilar ongi va qalbiga singdirish, tarixiy-pedagogik merosni jiddiy o'rganish, milliy qadriyatlarni haqidagi bilimlarni mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi kunda dolzar hisoblanadi. Ko'p yillik tarixiy tajriba shuni isbotlaydiki, xalq tarixi, uning madaniyati, urf-odatlar, an'analar va hayot tarzini bilmasdan turib, yoshlar o'z-o'zini anglay olmaydi. Talabalar jamiyatni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yangilashning eng muhim sub'ektlari hisoblanadi. Ular jamiyatda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarda muhim o'rin tutadi, ularga ma'lum ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz kelajagi yoshlar salohiyatini har tomonlama rivojlantirish, uni yuksaltirish bilan bevosita bog'liq ekanini alohida ta'kidlaydi. O'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, jismoniy kuch va imkoniyatlarida namoyon bo'ladigan ma'naviy-intellektual fazilatlarini shakllantirish, Vatan ravnaqi yo'lidagi g'amxo'rlik bugungi kunning ustuvor vazifalaridandir [2].

Milliy qadriyatlar ko'pincha fuqarolik mas'uliyati va axloqiy xulq-atvorni ta'kidlaydi. Yoshlarni demokratik jarayonlarda faol ishtirok etish, qonun ustuvorligini e'zozlash, axloqiy me'yorlarga rioya etish muhimligini o'rgatish mas'uliyatli va faol fuqarolarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu shaxslar shaxsiy manfaatdan ko'ra umumiy manfaatlar uchun intilib, jamiyatga ijobiy hissa qo'shish ehtimoli ko'proq. Atrof-muhit muammolari bilan ajralib turadigan davrda yoshlarda atrof-muhitni muhofaza qilish tuyg'usini shakllantirishda milliy qadriyatlar ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Ko'pgina davlatlar barqaror amaliyotlar va tabiatni muhofaza qilish harakatlarining muhimligini o'zlarining shaxsiyatlarining bir qismi sifatida tan olishadi. Ushbu qadriyatlarni ta'limga integratsiya qilish yosh ongni sayyoramizning ekologik ongli va mas'uliyatli homiylari bo'lishga undaydi. Milliy qadriyatlarni ta'kidlash bilan birga, global fuqarolikni targ'ib qiluvchi muvozanatni saqlash juda muhimdir. Ta'lim yoshlarni o'zaro bog'langan dunyoda harakat qilish uchun ko'nikma va bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Milliy qadriyatlar global kontekstda shakllantirilsa, umuminsoniylik oldidagi mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadi, xalqaro maydonda hamkorlik va tushunishni rivojlantiradi.

Hozirgi davr o'qituvchilaridan o'z milliy o'zligidan g'urur tuyg'usini singdirish va dunyoqarashini keng qamrovli, inklyuziv shakllantirish o'rtasidagi to'g'ri muvozanatni ta'minlash o'quv dasturini puxta ishlab chiqish va pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Bundan tashqari, ta'lim ko'r-ko'rona muvofiqlikni emas, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ta'minlash uchun singdirish xavfini ehtiyotkorlik bilan boshqarish kerak. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari ta'lim

tajribasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlari ularni milliy qadriyatlarni samarali targ'ib qilish vositalari bilan jihozlashga qaratilishi kerak. Ochiq muloqot, tanqidiy fikrlash va hurmatli muhokamani rag'batlantiradigan muhitni yaratish turli xillikni o'zlashtirgan holda o'z milliy o'ziga xosligini qadrlay oladigan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar.

Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab -quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir... Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Albatta, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning o'sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o'z ajdodlaridan yuqoriroq darajaga ko'tarilmog'i darkor. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda zamonaviy meditsina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har qaysi oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko'rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklar ta'minlashi borasida o'zining mas'ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim.

Milliy tarbiyada milliy g'oyaga, milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri - katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o'tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadilar, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o'tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g'ururlanish tuyg'ulari singdiriladi.

Umuman olganda, yoshlarning etnik qiyofasi millatning bugungi milliy tarbiyasi, mentaliteti, madaniyatining o'zaro dialektik munosabati vositasida shakllanadi. Ma'naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z

mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Markaziy Osiyoda yashab, ijod qilgan qomusiy olimlar, buyuk ajdodlarimiz, XIX asr va XX asr mutafakkirlari va pedagoglarining ta'lim-tarbiya xususida aytgan nazariy fikrlari, pedagogik nazariyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zamonaviy pedagogikada ulardan foydalanish o'z samarasini beradi.

O'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan ma'naviy merosini yaratib, insoniyatning ko'plab avlodlarini insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, mardlik, odoblik kabi umuminsoniy qadriyatlar va yaxshi fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda. Ayniqsa, xalq tomonidan yaratilgan qomusiy ahamiyatga ega bo'lgan «Pandnoma»lar, xalq og'zaki ijodining turli janrlarida yaratilgan, xalqimiz yuragiga yaqin bo'lgan buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Amir Temur, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Sa'diy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi o'nlab buyuk shoir va mutafakkirlar qoldirgan nodir va durdona asarlarida ko'p e'tibor berilayapti.

Bu mutafakkirlarning, maktab va oilada bolani xushxulq, axloqiy va har tomonlama kamol topgan qilib tarbiyalash haqidagi qarashlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga, ilmni puxta egallashlariga alohida e'tibor bilan qarab, mehnat bilan topilgan boylik baxt keltirishini, ilimli kishi xor bo'lmasligini aytib o'tadilar. Buyuk mutafakkirlar o'zlarining ijodlarida o'quvchi-yoshlarni odobli bo'lishga, halol mehnat qilishga, ota-onaga mehribon bo'lishga, halol mehnat bilan yashashga da'vat etadilar. Abu Ali ibn Sino o'zining pedagogik qarashlarida jamoadan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan bolaning baxtsiz bo'lib qolishi, inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordirligini ta'kidlaydi. Al-Farobiy fikricha: «Insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy yo'nalishga erishuvi inson va jamoaning o'z qo'lidadir»[3].

Tabiiy boshlang'ich tarbiya ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki u inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash qobiliyati va kasb-hunarga muhtojdir. Milliy maktablarimizda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarni yuqorida ko'rsatilganlardek qilib tarbiyalash uchun avlod-ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiy-madaniy merosimizni keng va har tomonlama o'rganishimiz, tarbiyaviy soatlar o'tish jarayonida maktab o'quvchilarini ulardan bahramand etishimiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, buyuk Sharq mutafakkirlarining ming yillar davomida yaratgan merosi Sharq xalqlarining psixologiyasi, turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, odob-axloq me'yorlari, tamoyillari, an'analari asosida moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklarini, milliy ta'lim tizimi, milliy til va adabiyotni o'z ichiga olgan. Shu munosabat bilan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlar ongi va qalbiga yetkazish o'qituvchilarning asosiy vazifasidir.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlarimiz o'tmish yodgorligi emas, balki

barkamol va farovon kelajak sari yoʻlni yorituvchi chiroqdir. Ushbu anʼanalarni oʻz ichiga olgan taʼlim yoshlarga ularning madaniy oʻziga xosligini belgilaydigan qadriyatlarga asoslangan holda zamonaviy dunyoning murakkabliklarida harakat qilish imkoniyatini beradi. Anʼanalarni asrab-avaylash va moslashtirish, jamiyatda hamjihatlik tuygʻusini tarbiyalash, masʼuliyatli va bagʻrikeng fuqarolarni tarbiyalash orqali taʼlim insoniyatning global rivojlanishiga ijobiy hissa qoʻshgan holda oʻz merosining boyligini qadrlaydigan avlodni shakllantirishning qudratli vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. А. П. Астахова. Минск: Современная школа, 2010. - 900 с.
2. Дилова Н.Ф. (2018). Буюк аждодларимизнинг таълимотларида мужассамлашган уқитувчи билан уқувчилар ҳамкорлигининг педагогик хусусиятлари. Замонавий таълим. №3, 63-68 б.
3. Дилова Н.Г. (2013). Требования к учителю по организации сотрудничества учащихся начальных классов в учебном процессе. Актуальные проблемы современной науки. № 4 (72). С. 55-57.
4. Okhunov, R. Z., Rustamova, R. P., Rasulova, M. I., Ismailova, A. M., & Parmanova, N. A. (2022). Improving the Safety of Working Conditions for Teachers and Employees of Higher Education Institutions. *resmilitaris*, 12(3), 3770-3779.
5. Рустамова, Р. (2022). The role of national and universal moral culture in family upbringing. *Общество и инновации*, 3(6/S), 58-61.
6. Туленов Ж., Туленова К. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: 2014.
7. [Elektron manba]. <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-pedagogicheskoy-tolerantnosti-v-sisteme-professionalno-vazhnyh-kachestv>

OLIY TA'LIMDA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI) O'QITISHDA KREATIV VA INNOVATSION FIKRLASH: TA'LIMDA YANGI YONDASHUVLAR

Kodirov Alijon Abdumannonovich

University of Business and Science

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası, o'qituvchi

alijonkodirop64@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy taʼlim tizimida xorijiy til, xususan ingliz tilini oʻqitishda kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, taʼlimdagi yangi yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida xorijiy til oʻqitish anʼanaviy metodlardan zamonaviy, talaba markazli yondashuvlarga oʻtayotgani kuzatilmoqda. Ushbu maqolada kommunikativ yondashuv, CLIL, TBL, Flipped Classroom, gamifikatsiya kabi metodlar misolida kreativ va innovatsion fikrlashni shakllantirish yoʻllari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalar orqali oʻqituvchining zamonaviy kompetensiyalari va talabaning faol ishtirokini taʼminlash masalalari yoritiladi.

Kalit soʻzlar: Xorijiy til, Ingliz tili, Kreativ fikrlash, Innovatsion yondashuv, Oliy taʼlim, CLIL, Flipped Classroom, Gamifikatsiya, Kommunikativ metod, Raqamli texnologiya, Talaba markazli taʼlim, Interaktiv oʻqitish.

КРЕАТИВНОЕ И ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА (АНГЛИЙСКОГО) В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье анализируется развитие креативного и инновационного мышления в преподавании иностранного языка, в частности английского, в системе высшего образования, а также важность новых подходов в образовании. В сегодняшнюю эпоху глобализации и цифровой трансформации наблюдается переход от традиционных методов преподавания иностранных языков к современным, ориентированным на студента подходам. В данной статье рассматриваются способы формирования креативного и инновационного мышления с использованием таких методов, как коммуникативный подход, CLIL, TBL, Flipped Classroom, геймификация. Также освещаются вопросы обеспечения современных компетенций преподавателя и активного участия студентов посредством цифровых технологий и интерактивных платформ.

Ключевые слова: Иностранный язык, английский язык, креативное мышление, инновационный подход, высшее образование, CLIL, Flipped Classroom, геймификация, коммуникативный метод, цифровые технологии, ориентированное на студента образование, интерактивное обучение.

CREATIVE AND INNOVATIVE THINKING IN FOREIGN LANGUAGE (ENGLISH) TEACHING IN HIGHER EDUCATION: NEW APPROACHES IN EDUCATION

Annotation: This article analyzes the development of creative and innovative thinking in teaching a foreign language, in particular English, in the higher education system, as well as the importance of new approaches in education. In today's era of globalization and digital transformation, it is observed that foreign language teaching is moving from traditional methods to modern, student-centered approaches. This article considers ways to form creative and innovative thinking using methods such as the communicative approach, CLIL, TBL, Flipped Classroom, gamification. It also highlights the issues of ensuring the teacher's modern competencies and active student participation through digital technologies and interactive platforms.

Key words: Foreign language, English, Creative thinking, Innovative approach, Higher education, CLIL, Flipped Classroom, Gamification, Communicative method, Digital technology, Student-centered education, Interactive teaching.

Kirish.

Bugungi kunda globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji va xalqaro aloqalarning jadallashuvi sharoitida xorijiy til, ayniqsa ingliz tilini puxta

o'zlashtirish har bir mutaxassis uchun muhim raqobatbardosh ko'nikmaga aylanmoqda. Oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish nafaqat bilim berish, balki zamonaviy kommunikatsion, madaniyatlararo va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

XXI asr ta'limi endilikda passiv bilim olishdan faol o'rganishga, ya'ni talabani ta'lim jarayonining markaziga qo'yishga asoslanadi [1]. Bu esa o'z navbatida kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirishni talab etadi. Kreativ fikrlash orqali talabalar muammolarga noodatiy yondashuv bilan yechim topishni, mustaqil qaror qabul qilishni, o'z fikrini erkin ifoda etishni o'rganadilar. Innovatsion fikrlash esa mavjud uslublarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni samarali tatbiq etish va yangilik yaratish bilan bog'liqdir.

Hozirgi davrda ta'limda CLIL (Content and Language Integrated Learning), TBL (Task-Based Learning), Flipped Classroom, gamifikatsiya, kommunikativ yondashuv kabi metodlar keng qo'llanilmoqda. Ular ingliz tilini nafaqat predmet sifatida o'rganish, balki real hayotda, ijtimoiy va kasbiy muhitda erkin muloqot vositasi sifatida qo'llashga yo'naltirilgan. Bunday yondashuvlar, ayniqsa, talabalarning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim platformalari, mobil ilovalar va multimedaviy vositalarning jadal kirib kelishi ta'lim jarayonini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu vositalar o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro muloqotni faollashtirib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada aynan shu jihatlar – ya'ni xorijiy til o'qitish jarayonida kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda xorijiy tajribaning o'rni tahlil qilinadi[4]. Maqola O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ingliz tilini zamonaviy metodlar asosida o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili.

Oliy ta'limda xorijiy til, xususan ingliz tilini o'qitishda samaradorlikni oshirish masalasi bugungi kunda xalqaro ilmiy tadqiqotlarning markazida turibdi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishda kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirish talaba faoliyatining markazga qo'yilishini, mustaqil va tanqidiy tafakkurga asoslangan yondashuvlarni talab qiladi. Quyida ushbu masala bo'yicha asosiy manbalar tahlil qilinadi.

Harmer (2015) o'zining "The Practice of English Language Teaching" asarida ingliz tilini o'qitishdagi asosiy metodologik yondashuvlarni tahlil qiladi. U kommunikativ metodni til o'rgatishdagi eng samarali yondashuv sifatida e'tirof etadi. Bu usulda til grammatika yoki tarjimadan iborat bo'lmay, balki muloqot vositasi sifatida o'rgatiladi.

Richards va Rodgers (2014) tomonidan ishlab chiqilgan "Approaches and Methods in Language Teaching" asarida esa CLIL, TPR, TBL, Direct Method kabi

uslublar asosida til o'rganishning turli strategiyalari yoritiladi. Ushbu metodlar o'qitish jarayonida talabalarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishni ko'zlaydi.

Brown (2007) "Teaching by Principles" asarida o'quvchilarda ijodiy fikrni shakllantirish uchun interaktiv, holatli o'qitish, aqliy hujumlar, loyihaviy yondashuv kabi metodlarni tavsiya qiladi. Unga ko'ra, kreativ fikrlash sharoitida talabalar o'z mustaqil fikrlarini erkin ifoda etish, yangicha yechimlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bahodirova N. (2022) o'zining "Innovatsion texnologiyalar asosida til o'qitish metodikasi" nomli ishida esa innovatsion metodlarning (gamifikatsiya, mobil ilovalar, onlayn platformalar) amaliy qo'llanilishiga urg'u beradi. Muallif fikricha, raqamli vositalar orqali o'qituvchining roli fasilitatorga aylanadi.

Amandjanovna I.D. (2022, 2023) o'z maqolalarida zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalari, raqamli platformalar, gamifikatsiyalashgan o'quv muhitlarining ahamiyatini asoslab beradi. Ayniqsa, ChatGPT, Grammarly, Kahoot kabi texnologik vositalarning til o'rganishga ta'siri tahlil qilinadi. Ularning fikricha, bunday vositalar orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'limni samarali tashkil qilish mumkin.

Kodirov A. (2023) "Methods for Developing Students' Linguistic Competence" asarida talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beradi. U, shuningdek, talabalarni real hayotga yaqin kontekstda til o'rganishga yo'naltirish lozimligini ta'kidlaydi.

CLIL metodikasi bo'yicha Finlyandiya tajribasi (Coyle, Hood & Marsh, 2010) alohida e'tiborga molik. Ushbu modelda til va mazmun birgalikda o'rgatiladi, bu esa tilga real ehtiyoj tug'diradi.

Janubiy Koreya va Niderlandiya ta'lim tizimlarida esa raqamli o'quv muhit, mobil ilovalar, AR/VR texnologiyalari va immersive learning elementlari keng qo'llaniladi. Bu mamlakatlarda ingliz tili darslari o'yinlashtirilgan interaktiv muhitda o'tiladi, bu esa tilni "yashab" o'rganishga imkon beradi.

Bu adabiyotlar xorijiy til o'qitishda kreativ va innovatsion fikrlashni shakllantirish uchun kuchli ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola sifatli tahliliy uslub asosida yozilgan bo'lib, mavjud ilmiy manbalar, xorijiy tajriba va pedagogik amaliyotga tayangan. Qiyosiy metod orqali an'anaviy va zamonaviy metodlar o'rtasidagi farqlar aniqlangan, holatli tahlil (case study) sifatida Finlyandiya, Janubiy Koreya va Niderlandiya ta'lim tizimlari tajribasi ko'rib chiqilgan[5]. Shuningdek, raqamli texnologiyalar (Zoom, Moodle, ChatGPT, Grammarly) va interaktiv vositalarning o'quv jarayoniga ta'siri baholangan.

Tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ va innovatsion fikrlashni shakllantirishga oid mavjud yondashuvlarni aniqlash, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda takomillashtirish yo'llarini tavsiya etishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatli (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) yondashuvlarning uyg'unligiga asoslangan bo'lib, nazariy, empirik va taqqoslov tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama.

Kreativ fikrlash talabani mustaqil, original fikr ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirsa, innovatsion fikrlash esa bu fikrlarni real hayotda zamonaviy texnologiyalar yordamida qo'llashga yordam beradi. Bu ikki kompetensiya zamonaviy o'qituvchining asosiy ko'nikmalari sifatida qaraladi.

Yangi metodlar: CLIL, TBL, Flipped Classroom

- **CLIL** – tilni fanga integratsiyalash orqali akademik tilni rivojlantiradi.
- **TBL** – amaliy topshiriqlar orqali kommunikativ ko'nikmalarni oshiradi.
- **Flipped Classroom** – dars vaqtini amaliy mashg'ulotlarga ajratish orqali interaktivlikni oshiradi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish

Quizlet, Kahoot, Duolingo, ChatGPT kabi vositalar darsni vizual, qiziqarli va shaxsga moslashtirilgan qilish imkonini beradi. Ular o'quvchilarda motivatsiya, takrorlash tezligi va mustaqil o'rganish madaniyatini rivojlantiradi.

Xorijiy tajriba

- **Finlyandiya** – CLIL modelini chuqur joriy qilgan.
 - **Janubiy Koreya** – raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektga tayangan.
 - **Niderlandiya** – immersive learning orqali ingliz tilida muhit yaratgan.
- Takliflar
- Har bir darsga kamida bitta innovatsion metod joriy etish
 - O'qituvchilarni raqamli savodxonlikka o'rgatish
 - O'quvchilarda mustaqil ijodkorlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar (debate, storytelling, role-play)ni ko'paytirish[3].

Xulosa.

Oliy ta'limda ingliz tilini o'qitishda kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirish – talabalarni nafaqat tilga, balki muloqotga, muammoga tanqidiy yondashishga, axborotni tahlil qilishga va zamonaviy texnologiyalarni mustaqil qo'llashga o'rgatadi. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini, balki talabalar raqobatbardoshligini ham oshiradi. Yangi metodlar va texnologiyalarni uzluksiz tatbiq etish orqali O'zbekiston oliy ta'limi jahon standartlariga moslashib boradi.

Maqolada ko'rib chiqilgan kommunikativ metod, CLIL (fan va tilni integratsiyalashgan o'qitish), TBL (vazifaga asoslangan ta'lim), gamifikatsiya, Flipped Classroom kabi yondashuvlar aynan talabalarni dars jarayonining markaziga qo'yish, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish, tilni real vaziyatlarda qo'llashga tayyorlash imkonini beradi. Bunda til faqat grammatika yoki lug'at yodlash emas, balki fikr ifoda etish, muloqot qilish va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar – mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun'iy intellekt vositalari (masalan, ChatGPT, Deepseek) – o'qituvchi va talaba uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu vositalar orqali ta'lim jarayoni nafaqat soddalashadi, balki shaxsga moslashtirilgan, interaktiv va multimodal tarzda olib boriladi.

Oliy ta'limda ingliz tilini o'qitishda ushbu yondashuvlar tatbiq etilishi, nafaqat til o'rgatish, balki talabalarni erkin fikrlovchi, ijodkor, texnologik savodxon shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, xorijiy til o'qituvchilari zamonaviy metodlar va vositalarni chuqur o'zlashtirib, ularni o'z amaliyotida faol qo'llashi bugungi ta'lim islohotlarining eng muhim talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2909-son qarori. “2017–2021 yillarda xorijiy tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish.”
2. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Longman.
5. Bahodirova, N. (2022). Innovatsion texnologiyalar asosida til o'qitish metodikasi. Toshkent.
6. Amandjanovna, I. D. (2022). Modern Mechanisms of Developing and Controlling Students' Knowledge in Teaching English. Online Scientific Journal of Innovation in Social Sciences, 2(6), 19-23.
7. Amandjanovna, D. I. (2023). Pedagogical Aspects Of Professional Speaking Competence Improvement Of Students. Quality Of Teacher Education Under Modern Challenges, 1(1), 514-521.
8. Kodirov, A. (2023). Methods for Developing Students' Linguistic Competence Methods for Developing Students' Linguistic Competence. Science and Education, 1(8).

KELAJAKDAGI AYOL MUSIQA O'QITUVCHILARINING OILA VA JAMIYATDAGI GENDER TENGLIGI MUAMMOLARI

Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna
O'zbekiston tumani 23-Bolalar musiqa va san'at
maktabi o'qituvchisi.

mamajonovadildoraxon5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistondagi kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilarining oila va jamiyatdagi gender tengligi muammolarini o'rganadi. Mustaqillikdan keyin amalga oshirilgan huquqiy islohotlar va CEDAW kabi xalqaro konvensiyalar ta'siriga qaramay, an'anaviy gender rollari va patriarxal normalar ayollarning kasbiy intilishlariga to'sqinlik qilmoqda. Farg'ona davlat universiteti talabalaridan olingan so'rov natijalari gender tengsizligining davom etayotganini tasdiqlaydi va huquqiy, madaniy o'zgarishlarning zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilari, oila rollari, jamiyat kutishlari, ta'lim islohotlari, huquqiy asos

ПРОБЛЕМЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА БУДУЩИХ ЖЕНЩИН-ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ МУЗЫКИ В СЕМЬЕ И ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: Данная статья изучает проблемы гендерного равенства будущих женщин-преподавателей музыки в Узбекистане в контексте семьи и общества. Несмотря на правовые реформы, реализованные после обретения независимости, и влияние международных конвенций, таких как Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (CEDAW), традиционные гендерные роли и патриархальные нормы продолжают препятствовать профессиональным стремлениям женщин. Результаты опроса среди студентов Ферганского государственного университета подтверждают наличие гендерного неравенства и подчеркивают необходимость правовых и культурных изменений.

Ключевые слова: гендерное равенство, будущие женщины-преподаватели музыки, семейные роли, общественные ожидания, реформы в образовании, правовая база.

CHALLENGES OF GENDER EQUALITY FOR FUTURE FEMALE MUSIC TEACHERS IN FAMILY AND SOCIETY

Abstract: This article explores the challenges of gender equality faced by future female music teachers within the context of family and society in Uzbekistan. Despite legal reforms implemented since independence and the influence of international conventions such as CEDAW, traditional gender roles and patriarchal norms continue to hinder women's professional aspirations. A survey conducted among students of Fergana State University confirms the persistence of gender inequality and highlights the urgent need for legal and cultural change.

Keywords: Gender equality, future female music teachers, family roles, societal expectations, education reforms, legal framework

Kirish.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ayollarning jamiyatda teng huquqli bo'lishi va ularning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir qancha demokratik islohotlar amalga oshirildi. Milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ayollarga nisbatan barcha kamsitish turlarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyasi" (CEDAW) orqali ayollarning huquqlari himoya qilinmoqda [1]. Shunga qaramay, gender tengsizligi jamiyatda saqlanib qolmoqda va bu muammo kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida katta to'siq bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada ayol musiqa o'qituvchilarining oila va jamiyatdagi gender tengligi muammolari tahlil qilinadi va bu borada huquqiy, madaniy va iqtisodiy omillar ko'rib chiqiladi [2].

O'zbekiston jamiyatida ko'p asrlik patriarxal an'analar kuchli bo'lib, bu qarashlar hanuzgacha ayollarning kasbiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatmoqda [3]. Ayniqsa, musiqa ta'limi sohasida faoliyat yuritayotgan ayollar bu an'analardan kelib chiqadigan cheklovlarni boshdan kechirmoqda. Ayollar ko'pincha o'z oilalaridagi an'anaviy gender rollariga rioya qilishga majbur bo'lishadi, bu esa

ularning kasbiy intilishlarini amalga oshirishda jiddiy to'siqdir. So'rovlar shuni ko'rsatadiki, kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilari o'z oila va kasbiy majburiyatlarini birlashtirishda murakkab muammolarga duch kelmoqda. Farg'ona davlat universitetining Musiqa ta'limi va madaniyat kafedrası magistratura talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'plab ayollar jamiyatdagi an'anaviy qarashlar sababli o'z kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarolmayapti.

Ayol musiqa o'qituvchilari ko'pincha o'zlarining kasbiy hayoti va uy-ro'zg'or majburiyatlari o'rtasida muvozanat saqlashga majbur bo'ladilar [6]. Patriarxal jamiyatlarda, ayollardan ko'proq uy ishlariga va farzand tarbiyasiga vaqt ajratishlari kutiladi, bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga va ijodiy salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [7]. Shahar va qishloq joylarida yashayotgan ayollar uchun bu muammolar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Xususan, qishloq joylarda ayollar moliyaviy jihatdan oilalariga ko'proq bog'liq bo'lib qoladilar, bu esa ularning kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Shunday qilib, kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilari o'z kasbiy intilishlarini amalga oshirishda patriarxal normalar va oila ichidagi gender tengsizligi bilan yuzma-yuz keladilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Ta'lim sohasida gender tengligi jamiyatning inklyuziv va barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, musiqa ta'limi sohasida ayol o'qituvchilar milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda katta rol o'ynaydilar. Ayol o'qituvchilarning musiqa san'ati orqali yosh avlodga ta'lim berishi, ularni milliy qadriyatlar va san'atga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, ayollar kasbiy o'sishda erkaklarnikidan kam bo'lmagan imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Gender tengsizligi bu jarayonga to'sqinlik qilgan taqdirda, ta'lim sohasidagi umumiy rivojlanish ham salbiy ta'sir ko'radi.

O'zbekiston gender tengligini ta'minlash bo'yicha bir qancha yuridik islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, gender tengligi bo'yicha Milliy komissiyaning tashkil etilishi, mehnat qonunchiligida gender diskriminatsiyaga qarshi qoidalar qabul qilinishi, va homiladorlik ta'tillari huquqi bilan bog'liq o'zgarishlar ayollarning jamiyatda erkin rivojlanishiga imkon bermoqda. Ushbu qonunlar va siyosatlarning maqsadi ayollarni kasbiy hayotda faol ishtirok etishga rag'batlantirishdir. Shunga qaramay, bu islohotlarning to'liq amalga oshirilishi va jamiyatdagi an'anaviy qarashlarni o'zgartirish jarayoni uzoq vaqt talab qiladi.

Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya kabi davlatlar gender tengligini ta'minlashda muvaffaqiyat qozongan mamlakatlar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu davlatlar teng ish haqi, umumiy ota-onalik ta'tillari va ayollarning jamiyatdagi faol ishtirokini rag'batlantiruvchi siyosatlar orqali gender tengligiga erishgan. O'zbekistonda ham ushbu davlatlarning tajribasini o'rganish va moslashtirish orqali ayollarning kasbiy va ijtimoiy hayotda teng huquqlarini ta'minlash yo'lida sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, O'zbekistonda gender tengligini to'liq qaror toptirish uchun huquqiy o'zgarishlar bilan birga, jamiyatdagi madaniy me'yorlarni o'zgartirish ham

zarur.

Kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida gender tengligi muhim ahamiyat kasb etadi. Patriarxal an'analar va jamiyatdagi gender rollari ularning kasbiy o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun, gender tengligini ta'minlash uchun huquqiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar zarur. Ayollar o'z salohiyatlarini to'liq amalga oshira olishi uchun nafaqat qonuniy himoya, balki jamiyatdagi madaniy o'zgarishlar ham talab qilinadi. Gender tengligi faqat yuridik islohotlar bilan emas, balki an'anaviy qarashlarning o'zgarishi orqali ham mustahkamlanishi mumkin. Ayol musiqa o'qituvchilari jamiyatning madaniy boyligini saqlashda va yangi pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ularga kasbiy faoliyatda to'liq erkinlik va qo'llab-quvvatlash berilishi zarur.

Muhokama.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ayollarning jamiyatda teng huquqli bo'lishi va ularning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir qancha demokratik islohotlar amalga oshirildi. Milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ayollarga nisbatan barcha kamsitish turlarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyasi" (CEDAW) orqali ayollarning huquqlari himoya qilinmoqda. Shunga qaramay, gender tengsizligi jamiyatda saqlanib qolmoqda va bu muammo kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida katta to'siq bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada ayol musiqa o'qituvchilarining oila va jamiyatdagi gender tengligi muammolari tahlil qilinadi va bu borada huquqiy, madaniy va iqtisodiy omillar ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston jamiyatida ko'p asrlik patriarxal an'analar kuchli bo'lib, bu qarashlar hanuzgacha ayollarning kasbiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, musiqa ta'limi sohasida faoliyat yuritayotgan ayollar bu an'analardan kelib chiqadigan cheklovlarni boshdan kechirmoqda. Ayollar ko'pincha o'z oilalaridagi an'anaviy gender rollariga rioya qilishga majbur bo'lishadi, bu esa ularning kasbiy intilishlarini amalga oshirishda jiddiy to'siqdir. So'rovlar shuni ko'rsatadiki, kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilari o'z oila va kasbiy majburiyatlarini birlashtirishda murakkab muammolarga duch kelmoqda. Farg'ona davlat universitetining Musiqa ta'limi va madaniyat kafedrası magistratura talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'plab ayollar jamiyatdagi an'anaviy qarashlar sababli o'z kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarolmayapti.

Natija va nazariya.

Ayol musiqa o'qituvchilari ko'pincha o'zlarining kasbiy hayoti va uy-ro'zg'or majburiyatlari o'rtasida muvozanat saqlashga majbur bo'ladilar. Patriarxal jamiyatlarda, ayollardan ko'proq uy ishlariga va farzand tarbiyasiga vaqt ajratishlari kutiladi, bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga va ijodiy salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shahar va qishloq joylarida yashayotgan ayollar uchun bu muammolar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Xususan, qishloq joylarda ayollar moliyaviy jihatdan oilalariga ko'proq bog'liq bo'lib

qoladilar, bu esa ularning kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Shunday qilib, kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilari o'z kasbiy intilishlarini amalga oshirishda patriarxal normalar va oila ichidagi gender tengsizligi bilan yuzma-yuz keladilar.

Ta'lim sohasida gender tengligi jamiyatning inklyuziv va barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, musiqa ta'limi sohasida ayol o'qituvchilar milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda katta rol o'ynaydilar. Ayol o'qituvchilarning musiqa san'ati orqali yosh avlodga ta'lim berishi, ularni milliy qadriyatlar va san'atga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, ayollar kasbiy o'sishda erkaklarnikidan kam bo'lmagan imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Gender tengsizligi bu jarayonga to'sqinlik qilgan taqdirda, ta'lim sohasidagi umumiy rivojlanish ham salbiy ta'sir ko'radi.

O'zbekiston gender tengligini ta'minlash bo'yicha bir qancha yuridik islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, gender tengligi bo'yicha Milliy komissiyaning tashkil etilishi, mehnat qonunchiligida gender diskriminatsiyaga qarshi qoidalar qabul qilinishi, va homiladorlik ta'tillari huquqi bilan bog'liq o'zgarishlar ayollarning jamiyatda erkin rivojlanishiga imkon bermoqda. Ushbu qonunlar va siyosatlarning maqsadi ayollarni kasbiy hayotda faol ishtirok etishga rag'batlantirishdir. Shunga qaramay, bu islohotlarning to'liq amalga oshirilishi va jamiyatdagi an'anaviy qarashlarni o'zgartirish jarayoni uzoq vaqt talab qiladi.

Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya kabi davlatlar gender tengligini ta'minlashda muvaffaqiyat qozongan mamlakatlar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu davlatlar teng ish haqi, umumiy ota-onalik ta'tillari va ayollarning jamiyatdagi faol ishtirokini rag'batlantiruvchi siyosatlar orqali gender tengligiga erishgan. O'zbekistonda ham ushbu davlatlarning tajribasini o'rganish va moslashtirish orqali ayollarning kasbiy va ijtimoiy hayotda teng huquqlarini ta'minlash yo'lida sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, O'zbekistonda gender tengligini to'liq qaror toptirish uchun huquqiy o'zgarishlar bilan birga, jamiyatdagi madaniy me'yorlarni o'zgartirish ham zarur.

Xulosa.

Kelajakdagi ayol musiqa o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida gender tengligi muhim ahamiyat kasb etadi. Patriarxal an'analar va jamiyatdagi gender rollari ularning kasbiy o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun, gender tengligini ta'minlash uchun huquqiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar zarur. Ayollar o'z salohiyatlarini to'liq amalga oshira olishi uchun nafaqat qonuniy himoya, balki jamiyatdagi madaniy o'zgarishlar ham talab qilinadi. Gender tengligi faqat yuridik islohotlar bilan emas, balki an'anaviy qarashlarning o'zgarishi orqali ham mustahkamlanishi mumkin. Ayol musiqa o'qituvchilari jamiyatning madaniy boyligini saqlashda va yangi pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ularga kasbiy faoliyatda to'liq erkinlik va qo'llab-quvvatlash berilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi (yangi tahriri) – Gender tengligini ta'minlash bo'yicha qoidalar va islohotlar.
2. O'zbekiston Respublikasi “Ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolati to'g'risida”gi qonuni.
3. CEDAW – Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (BMT).
4. Deyvis, E. (2020). Gender inequality and social reforms in education. Routledge.
5. Berdialiev, Sh. (2022). “O'zbekiston ayollari: jamiyatda gender tengligini ta'minlashdagi huquqiy asosla”. O'zbekiston Respublikasi Huquqiy va Ijtimoiy Tahlillar Markazi*.
6. UNESCO. (2020). Global education monitoring report 2020: Inclusion and education: All means all. Paris: UNESCO Publishing.
7. Skarstad, A. (2021). Gender in Education: A Critical Review. Cambridge University Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi – Ayollar mehnati va jamiyatda gender tengligini ta'minlash bo'yicha statistika.

INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNI YARATISH.

Mo'minova Shoxistaxon G'ulomjon qizi
University of Business and Science
Maktabgacha-Boshlang'ich ta'lim va
Jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchisi
[**shohistamominova60@gmail.com**](mailto:shohistamominova60@gmail.com)

Annotatsiya: Ona tili ta'limida o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni uzviylik va uzluksizlik hamda izchillik, shu bilan birga, aloqadorlik asosida rivojlantirish va bunda ta'lim beruvchining mahorati, fani yuzasidan egallagan bilimlari, orttirgan tajribasi alohida ahamiyatga egaligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, nutqiy kompetensiya, uzviylik va uzluksizlik, izchillik, aloqadorlik, mahorat, bilim.

СОЗДАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.

Аннотация: Высказаны мнения о развитии речевых компетенций учащихся при обучении родному языку на основе непрерывности и преемственности, и в то же время на основе общения, также, умения и знания учителя, приобретенных в области науки и полученный опыт имеют особое значение.

Ключевые слова: Речь, речевая компетентность, непрерывность и преемственность, связность, умение, знание.

CREATING PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR FORMING STUDENTS' SPEAKING COMPETENCES BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH.

Annotation: Opinions were expressed about the development of students' speech competences in the education of the mother tongue on the basis of coherence and continuity, and at the same time, on the basis of communication, and in this, the teacher's skills, knowledge acquired in the field of science, and experience gained are of special importance.

Key words: Speech, speaking competence, coherence and continuity, consistency, relevance, skill, knowledge.

Kirish.

Ma'lumki, dunyo miqyosida ta'lim oluvchilarning samarali faoliyatga erishishining innovatsion mexanizmlari hamda ularning nutqiy kompetentligini, muloqot madaniyatini rivojlantirishga asoslangan yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarbdir. Ona tili o'qitish bo'yicha ta'lim jarayonida o'qitishga motivatsion yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratish hamda ularda muloqot qilishning samarali usullarini qo'llash va o'quvchilarda nutqiy malaka hamda kompetensiyalarni rivojlantirish asosiy masaladir. YUNESKO tomonidan belgilangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanishning aniq maqsadlari doirasida ta'limga oid dasturlarni takomillashtirish, ularning ochiqqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish, ular nutqini o'stirish, ijodiy salohiyatini, dunyoqarashini kengaytirish, yangi o'qitish usullarini amaliyotga tatbiq etish, ta'lim resurslarini modernizatsiyalashga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirda dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o'quvchilarning kompetensiyaviy bilimlarini tizimli rivojlantirish, kasbga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularni muloqot qila olish faoliyatiga samarali tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik kompetentligining yuqori darajasini ta'minlaydigan yondashuvlar, texnologiyalar va interfaol usullarni takomillashtirishga urg'u berilmoqda. Albatta, bunday yondashuvlarning samarasi muloqot madaniyatining rivojlanganligida namoyon bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida ona tili ta'limini yangi bosqichga – ona tilining uzluksizligini ta'minlash bosqichiga ko'tarish o'quvchilarda imloviy-uslubiy savodxonlikni o'stirish, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va shu asosda og'zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni ta'minlashda aks etadi. Mavzuning dolzarbligi ham aynan shundadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining murakkab, o'ziga xos, shu bilan birga, mustaqil va majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi hamda yosh avlod ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi davr boshlang'ich ta'lim

yoʻnalishi mutaxassislari oldiga ijtimoiy hayotning zaruriy talablariga javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasini qoʻygan ekan, bu jarayonning asosiy oʻzagini ona tili va oʻqish mashgʻulotlari tashkil etishi ayni haqiqat, yaʼni oʻquvchi oʻz fikrini bayon qilish uchun oʻqish darsini, uni yozma shaklda ifoda etish uchun ona tilini bilishi shart.

Oʻqish va ona tili darslari oʻquvchilarning fikrlash darajasini oʻstirishda, bilim va koʻnikmalarini shakllantirishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq allomalari ham mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd etganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy-nazariy tomoni lugʻatlarda, darslik, oʻquv va metodik qoʻllanmalarda izoh berilib, atroflicha yoritilgan. Jumladan, Forobiy qanday taʼlim berish va taʼlim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday soʻrash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, yaʼni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilm ekanligini alohida taʼkidlaydi. Ikkinchi ilm grammatikadir. Uchinchi ilm mantiqdir. U maʼlum xulosalarni olish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni oʻrgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima toʻgʻri va nima notoʻgʻri ekanligi haqida hukm chiqaramiz”.

Boshlangʻich taʼlimda ona tili va oʻqish savodxonligi fani mazmunida asosiy eʼtibor nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, ushbu lingvistik bilimlar vositasida oʻquvchilarning kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida ogʻzaki va yozma erkin muloqot yurita olishlari nazarda tutiladi.

Kompetensiya nima? Kompetensiya (lotincha soʻz boʻlib, “erishaman”, “toʻgʻri kelaman” maʼnolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qoʻyish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bogʻliq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir.

Kompetensiyaga berilgan aksariyat taʼriflar kasbiy taʼlim, kasbiy faoliyat bilan bogʻliqlikda bayon etilgan. Jumladan, ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlik oʻta murakkab, koʻp qismli, koʻpgina fanlar uchun mushtarak boʻlgan tushunchalar boʻlib, uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga koʻra, ham maʼno, mantiq mundarijasi jihatidan turli xil. Atamaning mohiyati “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda [2].

“Kompetentlik” esa mutaxassisning maʼlumoti, koʻnikmasi, qobiliyati va tajribasini oʻz ichiga oluvchi keng qamrovli tushuncha boʻlib, mutaxassisning maʼlum bir ish turini bajarish qobiliyati kompetensiya tushunchasi bilan ifodalanadi. Aslida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari oʻzaro bogʻliq boʻlsa-da, muayyan farqli jihatlarga ham ega. Kompetensiya bilimlarning umumiyliigi va ularning odamlarda mavjudligini anglatasa, kompetentlik bilimlarni ish jarayonida qoʻllay olish darajasiga nisbatan ishlatiladi. Kompetensiya darajasi mutaxassisdan

bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Inglizcha “competence” tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ni yoritishga xizmat qiladi.

Muhokama.

So'nggi paytlarda ta'lim natijalarini “ta'lim”, “tarbiya”, “umumiy madaniyat” kabi tushunchalardan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga almashtirish, shu orqali olimlar va mutaxassislarni oliy va o'rta maktablarda kompetentlik yondashuvi asosida ta'lim jarayonini qayta tashkil etishga chaqirmoqda, ya'ni barcha fanlarni o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv tatbiq etilmoqda [1]. Negaki, zamonaviy ta'limda o'quvchilarga fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka berishning o'zi yetarli emas. Qolaversa, hosil qilingan bilim, ko'nikma, malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llash malakasini shakllantirib berish kerakligi bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Natija va nazariya.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab bo'lmaydi. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

R.A.Yo'ldoshev, L.R.Mirjalolovalarning fikricha, “Nutqiy kompetensiya deganda bilim → nutqiy birlik → ko'nikma → malaka chizig'idagi ishlar

mahsuli tushuniladi. Bu yerdagi bilim nutqda bexato yoki xato qo'llanadigan, shuningdek, o'quvchilar uchun yangi til hodisasi bilan bog'lanadi, asosiy e'tibor, ayni shu til hodisasini amalda to'g'ri qo'llash ustidagi ishlarga qaratilib, uni anglash, o'zlashtirish, nutqda qo'llash jarayonini ifoda etadi; dastlabki ko'nikma asta-sekin malakaga aylana boradi"[3]. Ilmiy, metodik adabiyotlar va tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, ushbu atamani quyidagicha izohladik: nutqiy kompetensiyani rivojlantirish – bu ona tili darslari jarayonida o'quvchining o'z nutqida leksik, grammatik, so'z yasalishi, sintaktik, uslubiy me'yorlarga amal qilishi, tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozishni mukammal o'rganishi natijasida hosil bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarning nutqiy vaziyatlarda o'rinli va amaliy qo'llay olish layoqatidir. Ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga subyektiv munosabat bildirish, turli nutqiy jarayonlarda o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lish, og'zaki va yozma nutqi rivojlanishining yuksak darajasi takomilidir.

Nutqiy kompetensiya:

maqsad va kontekstdan kelib chiqqan holda o'z fikrini yetkazish uchun og'zaki muloqotga kirishadi; maqsad va kontekstdan kelib chiqqan holda o'z fikrini yetkazish uchun yozma matn yaratadi;

turli uslubdagi matnlarni ifodali o'qiydi, mazmunini anglaydi va qayta tushuntirib beradi;

notanish matnni ovoz chiqarib, belgilangan tezlikda o'qiydi;

audiomatnni tinglab, videotasvir va rasmlarni ko'rib tushunadi, o'z munosabatini og'zaki hamda yozma shakllarda ifodalab beradi;

asar va ijodkor shaxsi haqida o'zining mustaqil fikrini adabiy talaffuz va imlo me'yorlariga rioya qilgan holda bayon qiladi;

matnning umumiy mavzusini belgilaydi, matnga sarlavha qo'yadi;

matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettiradi;

matnni mazmuniy qismlarga ajratadi va reja tuzadi;

turli janrdagi matnlar mazmunini tushunadi, ulardan namunalarni yoddan aytib beradi, asar sujetini hayot bilan taqqoslaydi;

turli janrdagi adabiyotlarni mutolaa qilib, undagi g'oya va obrazlarga og'zaki hamda yozma shakllarda munosabat bildiradi;

asar mutolaasidan zavqlana olish darajasida tilning ifoda imkoniyatlarini anglay oladi va his-tuyg'ularini bayon qiladi;

ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushunadi, o'z munosabatini bildiradi.

Xulosa.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga

oshirishga xizmat qiladi.

1. Abdurasulova U. Kompetentlikni shakllantirishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik // Я русский бы выучил... . Материалы международной научно-практической конференции. – Наманган, 2018. – Б. 22 – 24.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 176 b.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 219 b.
4. Xasanov A.A. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik ta'lim, 2011. – № 5. – B. 16 – 19.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT YO'NALISHLARI MAGISTR TALABALARIDA PEDAGOGIK TOLERANTLIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Narzullayev Doniyor Shuxrat o'g'li

University of Business and Science

Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrasida

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

neidjr1996@gmail.com

UDK: 372.126:796:371.3

Annotatsiya: Jamiyatimiz va ta'limdagi zamonaviy tendentsiyalar professor- o'qituvchilar jamoasining pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish muammolariga e'tiborini kuchaytirmoqda. Tolerantlik shaxsning ham, butun jamiyatning ham yuksak ma'naviy va intellektual rivojlanishi belgisi hisoblanadi. B. G. Gershunskiyning fikricha, insoniy munosabatlarda bag'rikenglikni rivojlantirish XXI asrda ta'limning eng muhim strategik vazifasidir. Biroq ta'lim tizimining bag'rikenglikni targ'ib qiluvchi muassasa sifatidagi roli bugungi kunda yetarlicha o'rganilmagan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, tolerantlik, pedagogik tolerantlik, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sport, magistratura talabalari, pedagogik faoliyat, kompetensiya.

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ МАГИСТРАНТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: Современные тенденции в нашем обществе и образовании усиливают внимание педагогических работников к проблемам гуманизации педагогического процесса. Толерантность является признаком высокого духовного и интеллектуального развития как отдельной личности, так и общества в целом. По мнению Б.Г. Гершунского, развитие толерантности в человеческих отношениях является важнейшей стратегической задачей

образования в XXI веке. Однако роль системы образования как института, способствующего формированию толерантности, на сегодняшний день изучена недостаточно.

Ключевые слова: Высшее образование, толерантность, педагогическая толерантность, физическое воспитание, физическая культура, спорт, магистранты, педагогическая деятельность, компетентность.

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TOLERANCE THINKING AMONG MASTER'S STUDENTS OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: Modern trends in our society and education are increasing the attention of the teaching staff to the problems of humanizing the pedagogical process. Tolerance is a sign of high spiritual and intellectual development of both the individual and society as a whole. According to B. G. Gershunsky, the development of tolerance in human relations is the most important strategic task of education in the 21st century. However, the role of the education system as an institution promoting tolerance has not been sufficiently studied today.

Keywords: Higher education, tolerance, pedagogical tolerance, physical education, physical culture, sports, master's students, pedagogical activity, competence.

Kirish.

V. F. Komogorov ta'limdagi bag'rikenglik muammosining dolzarbligining uchta sababini belgilaydi. Birinchisi, jamiyatni demokratlashtirish jarayonida an'anaviy sovet pedagogikasi asosan ma'muriy-buyruqbozlik bo'lib, o'zining ulkan ijobiy tajribasiga qaramay, mustaqil qarorlar qabul qilishga intiluvchi erkin shaxsni shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy talabni endi qondira olmaydi. Ikkinchi sabab - jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvi va globallashtirish jarayonlarining kuchayishi va unga fuqarolarining faol kirishi. Tarbiyadagi bag'rikenglik muammosining dolzarbligining uchinchi sababi, fikrimizcha, shaxsiy xususiyat sifatida bag'rikenglik ijtimoiylashuv jarayonida o'z-o'zidan shakllanib bo'lmaydi. Bu ob'ektiv voqelik shartlari ko'proq darajada murosasizlikning shakllanishiga yordam berishi bilan izohlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Mamlakatimizda magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish, ularda pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni qaror toptirish pedagogika sohasining muhim yo'nalishi sifatida buyuk qomusiy va pedagog olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabilarning ilmiy meroslari manba bo'lib xizmat qildi [1].

Uzluksiz ta'limda, jumladan, magistratura talabalarida tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning milliy modeli G.E.Kushakova, Yu.O.Xoliqov, S.S.Samadova, N.R.Gafurova, G.S.Rahimova tomonidan tadqiq etilgan[2].

Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leontev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safayev, E.G'oziyev kabilarning ilmiy tadqiqotlari,

monografiya va o'quv qo'llanmalarida tolerantlik tafakkur rivojining psixologik va metodik jihatlarini yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari pedagog va psixolog olimlaridan A.G.Asmolov, R.R.Valitova, A.A.Guseynov, O.B.Nurligayanova, N.E.Bogdanov, G.U.Soldatova, E.M. Adjieva, V.V.Makaeva, Z.G.Apresyan, Y.P.Povarenkov, L.M.Bratchenkolarining tadqiqotlari bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning yaxlit-mazmunli, ijtimoiy-madaniy, o'quv-bilish, axborot olish, kommunikativ, qadriyatli-etnik, integrativ, moslashuvchanlik jihatlarini va talabalarda umumiy tolerantlikni shakllantirish muammolariga bag'ishlangan.

Pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishda xorij olimlaridan G. Auernheimer, H Barkowski, M. Bennet, R.Carbines, D.John, A.Sana, B.Soraya, G.Hofstede kabilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; diagnostik (so'rov, anketa, kuzatish, suhbat, intervyu), prognostik (ekspert bahosi, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik-statistika usullari (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama.

Jismoniy madaniyat magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishga doir samaradorligini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya tizimidagi pedagogik-psixologik xususiyatlar va omillari aniqlashtirilgan;

“pedagogik tafakkur”, “tolerantlik tafakkuri”, “pedagogik tolerantlik tafakkuri”, “modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati hamda pedagogik tolerantlik tafakkurining tarkibiy qismlari (qadriyatli-motivatsion, refleksiv-baholovchi, faoliyatga doir, kognitiv) mualliflik yondashuvi asosida pedagogik talqin etilgan;

talabalarda pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishga doir mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishga doir takliflar asosida “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanining o'quv-uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan.

Xulosa va takliflar:

1. “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fani mazmuniga pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishga oid o'quv materiallarini tanlash va taqdimot jarayonida pedagogik muloqot etikasi va estetikasiga oid materiallardan samarali foydalanish metodologik asos sifatida belgilanishi lozim.

2. “Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirish” nomli metodik qo'llanma yaratish maqsadga muvofiq.

3. Magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirishda OTM,

sport sohasida xalqaro tashkilotlarning ilmiy-texnik hamkorligi asosida Davlat dasturini yaratish, uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

4. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Pedagogik mahorat fanlari mazmuniga magistratura talabalarida pedagogik tolerantlik tafakkurni rivojlantirishga oid o'quv materiallarini kengroq singdirish lozim.

Tolerantlikning kasbiy pedagogik faoliyatda namoyon bo'lishini aniqlash uchun bir qator tadqiqotchilar pedagogik tolerantlik tushunchasini kiritganlar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagi tadqiqot vazifalari shakllantirildi:

- pedagogik tolerantlik haqidagi nazariy g'oyalarni o'rganish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogik tolerantlikning nazariy modelini yaratish. Vazifalar tasniflash tahlili, munosabatlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va modellashtirish usullaridan foydalangan holda hal qilindi.

Shu yerda savol paydo bo'ladi: shaxsiy bag'rikenglik kasbiy bag'rikenglikni belgilaydimi yoki aksincha, o'qituvchilarning guruh bag'rikengligi qanday shakllanadi?

Shunday qilib, biz hozirda pedagogik bag'rikenglik mohiyatini aniq tushunganimizcha yo'q, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Dastlabki pozitsiyalardagi farqlarga qaramay, pedagogik tolerantlikni pedagogika universitetlari talabalarini kasbiy tayyorlash jarayonida yoki ish tajribasiga ega bo'lgan magistrlar uchun qo'shimcha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim orqali rivojlantirish zarur deb hisoblaydilar. So'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida bag'rikenglik tadqiqoti yo'nalishlari kengaydi. Tolerantlik tushunchasi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda stress omillariga tolerantlik sifatida ishlatiladi; stressga qarshilik sifatida; tananing dinamik va statik mexanik ta'sirlarga chidamliligi sifatida ham qaralgan.

Sport atamalarining izohli lug'atida bag'rikenglik turli xil fikrlarga, ta'sirlarga va noqulay omillarga nisbatan chidamlilikda, shu jumladan raqobat kurashi bilan bog'liq bo'lgan chidamlilikda namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyat sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'rif oldingi tadqiqotlarda topilgan bag'rikenglik talqinini kengaytiradi.

T.Yu.Fadeyeva, turli ixtisoslik va malakadagi sportchilarning shaxsiyati va musobaqaga tayyorgarligini baholashni o'rganar ekan, sportchining bag'rikenglik xususiyatini taqdim etdi. Bu hissiy jihatdan barqaror odam, psixologik moslashuvchanlikni namoyon qiladi, nevrotizmning past darajasiga ega va psixologik zo'riqishni boshdan kechirmaydi. U to'satdan va boshqarib bo'lmaydigan kayfiyat o'zgarishiga yoki ko'tarilishga moyil emas. U xotirjam va ishonchli[3].

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bag'rikenglik bo'yicha tadqiqotlarning yana bir yo'nalishi jismoniy tarbiya tizimining o'quvchilarda bag'rikenglik va jismoniy tarbiya o'qituvchilarida bag'rikenglikni rivojlantirish imkoniyatlari bilan bog'liq.

Magistratura talabalar o'rtasida jismoniy madaniyatning ta'lim, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy sohalaridagi ahamiyati va roli bo'yicha so'rov o'tkazildi.

Universitet talabalari shakllanishining jismoniy madaniyatining xavfli sohalari aniqlandi: jismoniy madaniyat darslariga borishga qiziqishning pastligi; bo'lajak mehnat funktsiyalari va harakatlarini samarali amalga oshirish, optimal salomatlikka erishish uchun jismoniy tarbiya va sport zarurligini etarli darajada tushunmaslik; talabalarning ehtiyojlarini hisobga olmasdan, universitetda jismoniy madaniyatni o'qitish mazmunini standartlashtirish va ularni har tomonlama barkamol rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Universitet talabalarining jismoniy madaniyatini shakllantirish bo'yicha shartli ko'rsatmalar asoslab berilgan. Birinchi yo'riqnoma - oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning ijtimoiy-madaniy maqsadga muvofiqligi va qadriyat me'yori - jismoniy madaniyatni talabalarining umumiy madaniyatining asosi sifatida ko'rib chiqish, ularning jismoniy va ma'naviy, biologik va ijtimoiy, psixologik va harakat tarkibiy qismlarining bir xil ahamiyatga ega bo'lgan tartibga soluvchi uyg'unligini belgilaydi. Ikkinchi shartli yo'riqnoma - jismoniy tarbiya va sport jarayonida yumshoq ko'nikmalar, malakali ko'nikmalar va qattiq ko'nikmalarni rivojlantirishning bir-birini to'ldirishi - jismoniy madaniyatni o'quvchilar hayoti va ularning atrofidagi dunyoda kasbiy o'zini o'zi belgilash, mehnat bozoriga kirishda talab va raqobatbardoshlik ko'rsatkichi, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyat garovi sifatida hisobga olishni aks ettiradi. Uchinchi shartli yo'riqnoma - oliy ta'lim muassasasida jismoniy madaniyatni o'qitishda aralash ta'lim modelini qo'llash - jismoniy madaniyatni ijodiy integratsiya kontekstida jismoniy madaniyatni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga interaktiv to'liq jalb qilishning asosi sifatida ko'rib chiqishni belgilaydi.

Bugungi kunda pedagogika fanida antropologik yondashuv, ya'ni inson omiliga e'tibor qaratish haqidagi ilmiy yondashuvlar muhim o'rin egallamoqda. Shu tariqa, milliy mansublik va milliylikning ijtimoiy-madaniy tushuncha bilan aloqadorligi professor- o'quvchilarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash masalasini tadqiq etishni taqozo etadi.

Oliy ta'limda o'qitiladigan hamma predmetlarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: fan asoslasidan saboq beradigan o'quv predmetlari (kimyo, biologiya, fizika, matematika, tarix, ona tili); estetik tarbiya berishga qaratilgan o'quv predmetlari (tasviriy san'at, musiqa, ashula); amaliy faoliyatni o'rgatadigan o'quv predmetlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi, tasviriy san'at). Fan asoslarini o'rgatuvchi predmetlarda magistr talabalarga asosan ushbu sohaga oid bilimlar bayon etiladi. Tarbiyaviy yo'nalishdagi predmetlar magistr talabalarda nafosat va go'zallik, jismoniy garmonik rivojlanishni tarkib toptiradi. Faoliyatni o'rgatish predmetlari jismoniy chiniqish, mehnat qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy hodisa, birlashtiruvchi kuchga aylanib, kuchli davlat va sog'lom jamiyatning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shmoqda. Avvallari o'qituvchilarni tayyorlashning asosiy maqsadi uning texnologik jihatdan o'sishi bo'lgan bo'lsa, endilikda bu maqsad shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda va bu o'z-o'zini tashkil qilish, rivojlantirish va shaxsiy tajribani umumlashtirish kabi faoliyat turlari

natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda “pedagogik tolerantlik” pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasi, individual qobiliyatlari va tajribasi bilan belgilanadigan kategoriya sifatida ko‘riladi.

Sport faoliyati har qanday holatda ham natijalar uchun kurashishni talab etadi. Sportchilar doimiy raqobatda bo‘lishi, “g‘alabaga bo‘lgan motivatsiya va mag‘lubiyatga nisbatan qo‘rquv” (N.E.Stambulova), “natijani qo‘lga kiritishga bo‘lgan intilish” (A.A.Rean) ko‘pincha axloqiy tarbiyani shakllantirishga ijobiy yoki salbiy ta‘sir qiladi. Shu sababli ham sport faoliyati ijobiy axloqiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish bilan birgai, shaxsning psixosomatik va psixovegetativ deformatsiya (buzilishi)ga olib kelishi kizatiladi. Shu bois, oquvchi va sportchilarda tolerantlik madaniyati, eng yaxshi insoniy fazilatlar: adolat, mehr-oqibat, hamdardlik, hushmuomalalikni tarbiyalash jismoniy tarbiya oqituvchisida pedagogik tolerantlikning rivojlanganlik darajasi bilan baxolanadi.

Jismoniy tarbiya magistr talabalarda aqliy faollikni shakllantiradi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, boshqa xalqlarning milliy qadriyatlari, madaniyatini hurmat qilish, har doim boshqa millat vakillariga ko‘maklashishga tayyor bo‘lish, xayrixohlik, boshqa xalqlar vakillari bilan muloqotda e‘tiborli bo‘lish singari insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Bunday fazilatlarsiz ijtimoiy faol shaxsni shakllantirib bo‘lmaydi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi pedagogik faoliyati davomida magistr talabalarining fanga bo‘lgan munosabati, o‘zaro munosabatlari, shuningdek ta‘limiy maqsadga erishish ushuni amalga oshirayotgan ishlarning sifati va samaradorligi, magistr talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari hamda tashkil etilayotgan darslarning sifati va ta‘lim oluvchilarning yosh xususiyatlari to‘g‘risida yetarli ma‘lumotlarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh psixologiyasining bir qator muammolarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Inson psixik xususiyatlari va xulq-atvori rivojlanishining organizm va muhitga bog‘liqligi muammosi.

2. Insonning rivojlanishiga stixiyali ta‘lim va tashkil etilgan ta‘limning ta‘siri muammosi.

3. Layoqat va qobiliyatlarning o‘zaro munosabati muammosi.

Bir tomondan psixik rivojlanish organizmga, ya‘ni inson organizmining anatomik-fiziologik tuzilishiga bog‘liq.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini va uning metodik mahoratini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyalarini rivojlantirish masalalari (Q.T.Olimov), o‘qituvchining jamiyatdagi yetuk o‘rni va ta‘lim-tarbiya tizimida yetakchilik qobiliyati va uning murabbiylik vazifalari (E.K.Belozeptsov), bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ta‘lim vositalaridan samarali foydalanishga doir tayyorgapligi (Y.I.Vasileva), o‘qituvchilarni kasbiy mahoratini takomillashtirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash (A.A.Deynika) singari bir qator dolzarb masalalar tadqiq etilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, tolerantlik zamonaviy jamiyatda shaxs tarbiyasining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi ko‘pmillatlik va ko‘pmadaniyatlik sharoitida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish esa dolzarb masallardan biridir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida insonparvarlik, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, ularda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari va imkoniyatlarini takomillashtirish, o'quv materiallarini tanlashda madaniyat bilan uyg'unlikdagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya magistr talabasining o'z tug'ilib o'sgan xonadon, qishloq, yurt, tarixini mukammal bilishi, urf-odatlarini, qadriyatlarini to'g'risida boy ma'lumotga ega bo'lishi boshqa madaniyat vakillari bilan uchrashganda, muloqotga kirishganda ijobiy natijalarga olib kelishi uchun xizmat qiladi. O'z madaniyatini avaylab asragan, qadriga yetgan kishi o'zga madaniyatni ham qadriga yetadi. Bu esa, o'z navbatida, madaniyatlararo muloqot jarayonida umumiy tasavvurlarga kelishni taminlaydi va muloqot jarayonida vujudga keladigan to'siqlarning oldini olishda qo'l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 31-60.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Абэлян В.Х. Социально-педагогические аспекты становления культуры межнациональных отношений субъектов образовательного процесса. Автореф. дисс. ...канд. пед. наук / В.Х.Абэлян. – Майкоп, 1998. – 23 с.
4. Петрицкий В.А. Толерантность – универсальный этический принцип // Известия СП лесотехнической академии. Спб.: Изд-во «Астрель» 1993. – С. 139-151.
5. Stambulova, N. (2015). Athletes' transitions into, within, and out of elite sports. In Sport Scientific Approach for Enhancement of Athletic Performance; Proceedings of the 2015 KNSU International Conference (pp. 82-90). Seoul, South Korea: KNSU.
6. Шамхалова Б.А. Педагогическая толерантность: учебно-методический комплекс. – Махачкала, 2013. – 228 с.
7. Thomas A. (1993): Psychologie interkulturellen Lernens und Handelns. In ders. (Ed.): Kulturvergleichende Psychologie. Eine Einfuhrung. Gottingen: Hogrefe, 337-424.

6-7 YOSHLI BOLALARNI KOGNITIV KO'NIKMALARINI RAQAMLI TEXNALOGIYA ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Nuritdinova Shaxnoza Komoliddinovna
University of Bussines and Science
Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 6-7 yoshli bolalarning ongi tafakkuri va xotirasi va uni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida so'z yuritiladi. Chet el olimlari qanday ishlar olib borganliklari va qanday natijalarga erishganliklari haqida ma'lumotga ega bo'la olasiz. Va bundan tashqari raqamli texnologiyalarga asoslangan qanday dastur, ilova, platformalar yaratilganli haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kognitiv, tamoyil, rivojlanish, psixologik, xarakter, muhit, idrok, xotira, tafakkur, ong, texnologiya, intellect, integratsiya.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

Аннотация. В данной статье рассматриваются мышление и память детей 6-7 лет и способы их развития. Вы можете получить информацию о том, какие работы проводили зарубежные ученые и каких результатов они добились. А также предоставляется информация о том, какие программы, приложения, платформы на основе цифровых технологий созданы.

Ключевые слова: Когнитивный, принцип, развитие, психологический, характер, среда, восприятие, память, мышление, сознание, технология, интеллект, интеграция.

METHODOLOGY FOR FORMING COGNITIVE SKILLS OF 6-7 YEAR- OLD CHILDREN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGY.

Abstract. This article discusses the thinking and memory of children aged 6-7 and how to develop them. You can get information about what work foreign scientists have done and what results they have achieved. And in addition, information is provided about what programs, applications, platforms based on digital technologies have been created.

Keywords: Cognitive, principle, development, psychological, character, environment, perception, memory, thinking, consciousness, technology, intellect, integration.

Kirish.

Kognitiv jarayonlar — bu bolalarning atrof-muhitni anglash va bilish imkoniyatlarini shakllantiruvchi jarayonlardir. Bunga diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi psixologik jarayonlar kiradi. O'quv motivlari esa, tarbiyalanuvchi shaxsni bilim olishga undovchi va rag'batlantiruvchi ichki va tashqi omillar majmuasi sifatida tushuniladi. Shaxsning kognitiv rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi motivlar va usullarning tadqiqi pedagogika hamda psixologiya sohalarida katta

ahamiyatga ega. Ta'limda faollik tamoyilini amalga oshirish ma'lum ahamiyatga ega, chunki ta'lim va rivojlanish tabiatan faoliyatga asoslangan bo'lib, 6-7 yoshlilarni o'rganish, rivojlantirish va tarbiyalash natijasi psixologik faoliyat bog'liq.

O'quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish muammosini hal qilishning asosiy muammosi o'spirinlarining bilim olishini faollashtirishdir. Uning alohida ahamiyati shundaki, o'qitish aks ettiruvchi o'zgartiruvchi faoliyat bo'lib, nafaqat o'quv materialini idrok etishga, balki o'quvchining kognitiv faoliyatning o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan. Faoliyatning o'zgaruvchan xarakteri doimo sub'ektning faoliyati bilan bog'liq. O'quv jarayoni samaradorligini oshirish muammosini hal qilish o'spirinlarda kognitiv tizimni faollashtirishning amaliyotda sinab ko'rilgan sharoitlari va vositalarini ilmiy tushunishni talab qiladi. Kognitiv faoliyat - bu o'quv faoliyatiga, bilimlarni egallashga, faoliyatga qiziqish.

Kognitiv faoliyatning paydo bo'lishi, birinchi navbatda, bolaning rivojlanish darajasiga, uning tajribasiga, bilimiga, qiziqish uyg'otadigan materialni taqdim etish usuliga bog'liq. Kognitiv faoliyatni ta'lim jarayonidagi eng muhim omillardan biri sifatida e'tirof etish kerak, uning ta'siri ham yorqin va quvnoq o'quv muhitini yaratishga, ham tarbiyalanuvchilarning kognitiv faolligining intensivligiga shubhasizdir. Kognitiv (lotincha: cognitio „idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili“) — xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar tizimi (shaxsning). Ushbu tizimga asoslanib, maqsadlar qo'yiladi va ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilish kerakligi haqida qarorlar qabul qilinadi, kognitiv dissonansdan qochishga harakat qiladi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, interfaol va masofaviy o'qitish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, Learning Management Systems (LMS), sun'iy intellekt (AI) ilovalari va virtual o'quv muhitlari (VLE) yordamida o'qitish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday texnologiyalar talabalar va o'qituvchilarning akademik faoliyatini interaktiv va samarali qiladi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu strategiya ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va ta'lim sifatini monitoring qilishni nazarda tutadi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki ta'lim jarayonida ham bu kabi texnologiyalarni qo'llash davomida bir qancha muammolar mavjud. Bular orasida texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va raqamli bo'linish muammosi mavjud. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish orqali shaxsiylashtirilgan o'qitish imkoniyatlari yaratilmoqda

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Bu mavzuda ko'plab jahon hamda O'rta Osiyo olimlari ilmiy faoliyatlar olib borganlar. Misol sifatida esa: Jean Piaget (1896–1980) – Shveysariyalik psixolog. Bu olim o'zining “The Origins of Intelligence in Children”, “The Psychology of the Child” asarida “Kognitiv rivojlanish bosqichma-bosqich sodir bo'ladi”- deb

ta'kidlaganlar. Va 4 bosqichli modelni taklif qilgan:

- Sensor-motor bosqich (0–2 yosh).
- Preoperatsional bosqich (2–7 yosh).
- Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh).
- Formal operatsiyalar bosqichi (12 yoshdan boshlab).

Zamonaviy pedagogika lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, E.S.Rapatsevichning ta'kidlashicha, kognitiv faollik - bu tarbiyalanuvchi shaxsining mulki bo'lib, u faoliyat mazmuni va jarayoniga ijobiy munosabatda, bilim va faoliyat usullarini maqbul vaqtda samarali o'zlashtirishda, ma'naviy va irodaviy kuchlarni safarbar qilishda namoyon bo'ladi. tarbiyaviy va kognitiv maqsadga erishish [1].

Howard Gardner – Zamonaviy amerikalik olim bo'lib uning asosiy g'oyasi bu “Ko'p tomonlama intellekt nazariyasi” (Multiple Intelligences Theory) hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra “Aql-idrok faqat mantiqiy fikrlash bilan cheklanmaydi, balki musiqa, kinestetik, ijtimoiy, tabiiyistik, va boshqa jihatlar ham muhim”- deb ta'kidlaganlar [2].

Muhabbat Mirazimova. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalarini o'rgangan. Uning tadqiqotlari raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligini ko'rsatadi. Bundan tashqari bir nechta telekanallar mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

1. **Aqlvoy:** Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan o'zbek bolalar telekanali bo'lib, 2021-yilda Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan tashkil etilgan. Kanaldagi "Bilimdon" va "Quvnoqvoy" kabi dasturlar orqali bolalarga raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim beriladi

2. **Bolajon:** O'zbekiston milliy telekanali bo'lib, 2013-yilda tashkil etilgan. Pandemiya davrida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun masofaviy ta'lim dasturlari efirga uzatilgan.

Tadqiqot metadalogiyasi.

Albatta 6-7 yoshli bolalarni kognitiv rivojlanishlarini turli hil usullar bilan rivojlantirish yoki ko'nikma hosil qilish mumkin. Quyida bunday usullardan bir nechtasiga misollar keltirilgan.

1.Mantiqiy o'yinlar:

Domino, LEGO, “Kim ko'proq eslaydi?”, Shashka, Pazzllar. Bu turdagi o'yinlar didaktik o'yinlar hisoblanadi va ular maqsadga yo'nalganli va natijaga tez va samarali erishishni ta'minlaydi.

2. **Esda tut va takrorla** o'yini – bir necha so'z ketma-ket aytiladi, bola eslab takrorlaydi. Bu o'yinlar bolalarni diqqarini jamlashga va faoliyat jarayoniga qiziqishlari ortib boradi.

Interaktiv o'yinlar orqali o'qitish: Bu usul orqali kompyuter, planshet yoki interaktiv doskada ishlaydigan o'yinlar orqali bola muammo hal qilish, tartiblash, eslab qolish kabi kognitiv faoliyatlarga jalb etiladi. Va bu metod uchun maxsus namunaviy dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib: *ABC Kids, Khan Academy Kids, Busy Shapes.*

Multimedia vositalari (video, animatsiya, audiokitoblar) bu usulda esa rang-barang va harakatlanuvchi vizual kontent orqali axborotni osonroq tushunish va eslab qolish imkonini beradi.

1. Eshitish va ko‘rish orqali o‘rganish (audiovizual o‘rganish)ni qo‘llab-quvvatlaydi

2. Til rivojlanishi va xotira ustida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Har bir metod bolaning yoshiga mos tanlanishi zarur. Raqamli texnologiyalarni **an‘anaviy ta‘lim usullari bilan uyg‘unlashtirish** eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Onlayn platformalarda test va mashqlar. Bunday platformalarda bolalar test va vazifalarni bajarish orqali mantiqiy fikrlash, muammo hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Va natijada mustaqil fikrlashga undaydi. Javoblar orqali o‘z-o‘zini tahlil qilish imkonini beradi.

Moslashtirilgan o‘rganish (adaptive learning). Bola bilim darajasiga qarab o‘quv material avtomatik tarzda moslashtiriladi. Har bir bola individual sur‘atda rivojlanadi. Ortga qaytish, mustahkamlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Tahlil va natijalar.

Yuqoridagi metodlarimizni ta‘lim jarayonida qo‘llash orqali quyidagicha natijalarga erishildi:

1. **Kognitiv (aql-zakovat) rivojlanishning jadallashishi.**

2. Bolalarda **xotira, diqqat, tafakkur, mantiqiy fikrlash** va muammo hal qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada o‘sadi.

3. Bolalar murakkab fikrlash faoliyatlarini yoshiga nisbatan erta egallaydi.

Ijodkorlik va mustaqil fikrlashning o‘sishi bo‘lib natijada Raqamli hikoya tuzish, vizual topshiriqlar, AR/VR tajribalar bolalarda **tasavvur, ijodiy fikr** va kashfiyotchilik ruhini kuchaytiradi. Innovatsion tafakkurga ega, yangilikka ochiq, muammoga ijodiy yondasha oladigan bolalar yetishadi.

Ta‘limga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyaning oshishi natijasida raqamli o‘yinlar va animatsiyalar orqali ta‘lim jarayoni **quvnoq va jalb etuvchi** tus oladi. Va bundan tashqari Bolalar rag‘bat olishni boshlaydi va bilimni “majburiyat” emas, balki **qiziqarli faoliyat** deb his qiladi. Yuqoridagi usullar yordamida kognitiv faoliyatning uch darajasi - takrorlash, talqin qilish, ijodiylikdir.

1. Takrorlash - muayyan bilimlar, materiallar, aqliy harakatlarning esga tushirilishi va o‘zlashtirilishiga imkon beradigan jarayon. Takrorlash matndagi so‘zlarning ma‘nosiga qarab ular o‘rtasida fikriy aloqalar o‘rnatish, narsa va hodisalar mohiyati ichidan yangi munosabatlarni ochish, u yoki bu faoliyat usullarini inson tomonidan faollashtirish vositasi hisoblanadi.

2. Talqin qilish — muayyan bilimlar, materiallar, aqliy harakatlarning maqsadlarga yonaltirilib, keng jamoatchilikka yetkazish, atrof-muhit, ob‘ektlar va vaziyatlardan kelib chiqib berilgan materialni ommaga yetkazish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Ijodkorlik — insonning ijodiy qarorlar qabul qilish, tushunish va tubdan yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati. Kundalik hayotda ijodkorlik o‘zini zukkolik maqsadlarga erishish, atrof-muhit, ob‘ektlar va vaziyatlardan g‘ayrioddiy tarzda

foydalanib, umidsiz bo‘lib tuyulgan vaziyatdan chiqish yo‘lini topish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Keng ma’noda, muammoni maxsus bo‘lmagan vositalar yoki resurslar bilan aniq va mohirona hal qilish. Bu, shuningdek, muammolarga jasur, nostandart yechimlar qobiliyatini ham anglatadi.

Bolalar uchun sog‘lom muhitni tashkil etish ham aslida ularning kognitiv rivojlanishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [5].

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda 6-7 yoshli bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi, zamonaviy texnologiyallardan foydalanish zamon talabi hisoblanadi. Sababi shuki: bunday metodlar orqali vaqt, sifat, samaradorlik ko‘yfitsenti yuqoriga ko‘tariladi. Bundan tashqari esa yosh avlodlarimizni jahonning rivojlangan davlatlari ta’lim sifatida faoliyat jarayonlarini tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Govor T. Darsning tarbiyaviy “dozasi”.- M., 2005 y 70 b.
2. Howard Gardner Multiple Intelligences Theory. 1983-yil.
3. Lev Vygotsky — «Mind in Society» (1978).
4. Katherine Nelson — «Language in Cognitive Development» (1998).
5. John Medina — «Brain Rules for Baby.
6. Z.T. Nishanova — «Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi» 2006-yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNING BILISH JARAYONI BILAN BOG’LIQ PEDAGOGIK MUAMMOLAR

*Odilova Barchinoy Donyorbek qizi,
University of Business and Science
“Maktabgacha-boshlang’ich ta’lim va
jismoniy tarbiya” kafedrası stajor-o’qituvchisi
barchinoymeliboyeva46@gmail.com.*

*To’xtasinova Farida Davlatali qizi
University of Business and Science
“Maktabgacha-boshlang’ich ta’lim va
jismoniy tarbiya” kafedrası stajor-o’qituvchisi
Ferede.lady@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limning boshlang’ich bo‘g‘ini bo‘lmish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuzaga keladigan bolalarning anglashi, tushunishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni yangicha texnologiyalar, metodlar orqali bartaraf etish haqida tajriba sinov natijalari haqida so‘z yuritilgan. Bu maqsadda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidan o‘rganilib o‘zimizning ta’lim tizimimizga milliyashtirilgan holda tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Bolajonlardagi rang-tasvir, chama-taxmin, matematik hisob kitob, predmetlar va

ularning elementlari, og'irlik o'lchov birliklari va ko'plab bilimlarni qisqa, oson va tushunarli tarzda singdirishga va bu maqsadda integratsiyalshgan ta'limni joriy etishga qaratilgan. Bugungi kunda ta'limda inkluziv ta'limga muxtoj bo'lgan bolalar uchun ham mashg'ulotlar aro integratsiyani qo'llab yuqori natijalarga erishilsa bo'ladi.

Keywords: Technology, preschool education, cognitive processes, integration, innovation, interactive, game, experiment, complex, STEAM, PIZA, socialization, differentiation, inclusive, trend, competence, professional education, method, principle, multimedia, methodology

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПОЗНАВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются результаты экспериментальной апробации новых технологий и методов по устранению проблем, связанных с восприятием и пониманием детей в дошкольных образовательных организациях, которые являются начальной ступенью образования. Для этого целесообразно изучить образовательные системы развитых стран и применить их к нашей образовательной системе в национализированном ключе. Она направлена на то, чтобы привить детям цветовой образ, приближение, математический счет, предметы и их элементы, единицы веса и многие другие знания в краткой, доступной и понятной форме и внедрить для этой цели интегрированное образование. Сегодня даже для детей, которым необходимо инклюзивное образование в образовании, можно добиться высоких результатов, используя интеграцию между классами.

Ключевые слова: Технология, дошкольное образование, когнитивные процессы, интеграция, инновация, интерактив, игра, эксперимент, комплекс, STEAM, PIZA, социализация, дифференциация, инклюзивный, тенденция, компетентность, профессиональное образование, метод, принцип, мультимедиа, методология

PEDAGOGICAL PROBLEMS RELATED TO THE COGNITIVE PROCESS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION.

Annotation: This article discusses the results of experimental testing of new technologies and methods to eliminate problems related to the perception and understanding of children in preschool educational organizations, which are the initial stage of education. For this purpose, it is appropriate to study the educational systems of developed countries and apply them to our educational system in a nationalized manner. It aims to instill in children color-imagery, approximation, mathematical calculation, objects and their elements, units of weight and many other knowledge in a short, easy and understandable way and to introduce integrated education for this purpose. Today, even for children who need inclusive education in education, high results can be achieved by using integration between classes.

Keywords: Technology, preschool education, cognitive processes,

integration, innovation, interactive, game, experiment, complex, STEAM, PIZA, socialization, differentiation, inclusive, trend, competence, professional education, method, principle, multimedia, methodology

Kirish.

Bugungi zamon shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ertamiz egalari bo'lmish yoshlarni sezgirlikka va xushyorlikka chorlash davr talabidir. Har bir davlat tinchligi, farovonligi, iqtisodiy yuksalishi, rivojlanishi barchasining tag zamiri ilm-fanga borib taqaladi. Shu o'rinda aytib o'tishim zo'ir-ki barcha davlatni xoh u iqtisodiy tomondan xoh ilm-fan tomondan yoki harbiy tomondan rivojlanganligi mamlakatning mustaxkamligi borib ilmga va yana ilmga borib taqaladi. Misol o'rnida shuni aytib o'tishim jo'ir-ki bugungi kunda iqtisodiy va ilm fan jihatdan yevropa davlatlari orasida rivojlanayotgan Germaniya davlati bungaa yaqqol misol bo'la oladi. Hom-ashyo jihatdan qashshoq bo'lgan ushbu davlat barcha e'tiborini ilm-fanga qarata anashu zaif tomonini ham bartaraf eta oldi. Ya'ni-ki ilm –fanni rivojlantirish orqali mamlakatni iqtisodiy, harbiy va tibbiyot sohasini rivojlantira oldi. Demakki, barcha sohalarining tag-zamirida ilm va yana ilm borligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xususan davlatimizda ham bir necha bor ta'lim sohasida inqilob yuz bergan. Muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov 1997 -yil yurtimiz tarixida ulkan burulishni amalga oshirganlar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Muhtaram birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning shunday gaplari bizga bugungi kungi yoshlarimizga yuksak turtki bo'la oladi. "Islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun uning manfaatlari uchun xizmat qilmog'i kerak"- deb bejizga aytmaganlar [1]. Bugungi kunda ta'lim jarayonida bir qator pedagogik muammolar uchraydi. Xususan, bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanmaganligi yoxud, tayanch kompetensiyalari bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Bolalardagi bilish jarayoni pastligi yoki rivojlanmaganligi bu ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inidan boshlanadi albatta.

Hammamizga ma'lumki Maktabgacha ta'lim sohasi ta'limning boshlang'ich asosi hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida bolajonlarning bilish jarayonlari bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun turli hil metodlar va texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Tarbiyalanuvchilardagi bilish jarayoni bu dunyoni anglash va tassavur etishdir. Va bilish jarayonlari bilan bog'liq har qanday jarayon yosh guruhlarida turlichadir. Bunga sabab turli yosh guruhlariga bilish jarayoni bilan bog'liq turlicha rivojlanish me'yorlari qo'yilgan.

Kichik guruh (3-4 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun ko'plikni taqqoslash, predmetlarni tayyorlangan materiallarini ajratish (qog'ozdan, yog'ochdan, temirdan).

O'rta guruh (4-5 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun geometric buyumllarni o'xshash shakllar bilan taqqoslaydi va topa oladi, sonning miqdoriy tarkibini aytadi, tartib bilan sanaydi.

Katta guruh (5-6 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi, balandligi, bo'yicha taqqoslaydi.

Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) tarbiyalanuvchilari uchun 10 gacha qo'shish

ayirishga doir sodda matematik masalalarni son va $+$, $-$, $=$ belgilardan foydalanib yechadi, 20 gacha bo'lgan sonlar doirasida ba'zi matematik amallarni bajaradi.

Yuqoridagi bilish jarayonini rivojlanishidagi kichik sohalar bo'lib, bilish jarayoni normal rivojlangan bolalar uchun. Biz zamonaviy yoshlar bu muammolarni yechish uchun ta'lim sohasiga yangi inovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq etmog'imiz darkor.

Adabiyotlar taxlili va metadalogiyasi

Ta'lim jarayonidagi bolalarning bilish jarayoni bilan bog'liq pedagogik muammolar ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Bir qator tadqiqotchilarimizdan Rahimqulova Maftuna Abduhakim qizi dunyo ta'lim sohasidagi yangicha rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta'lim tizimidagi bolalarning tayanch kompetensiyalarini va bilish jarayonlari muammolarini bartaraf etishda inovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan [1]. Jumladan, YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilab qo'yilgan bolalarda erkin-ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Jahon tajribalari maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM texnologiyasi asosida o'qitishni joriy etish va bu esa ta'lim tizimini differsiyalashni taqazo etmoqda. Ta'limning keyingi boshlang'ich professional ta'lim bosqichlarida esa PIZA xalqaro baholash andozalariga mos ravishda bolalarga ta'lim berishni talab etadi [1].

Pedagogika sohasida yuqori natijalarga erishgan chex olimi Yan Amon Komenskiy ham ta'lim tizimiga bir qancha tushunchalarni olib kirgan, pedagogik muammolarni yechish yo'llarini ishlab chiqqan. Uning ta'kidlashicha "bolalar huddiki tabiatga o'xshaydi, unib o'sadi, sezgi organlari orqali esa borliqni anglaydi, bilish jarayoni rivojlanadi"- deb ta'kidlagan. Komenskiy bolani yosh davrlariga bo'lib chiqqan va bunda tabiiylik prinsipiga rioya qilgan. Bolalar yoshini 4 guruhga bo'lgan. Har bir yosh guruhida esa bolalar turlicha rivojlanishlarini ham ta'kidlab o'tgan. Tug'ulgandan to 6 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning sezgi organlarining rivojlanishi tabiatni his eta olishi, bilish orqali dunyo bilan tanishitirishga katta ahamiyat bergan.

Bundan tashqari Adolf Disterveg ham o'zining bir qancha nazariyalari bilan ta'limni samaradorligini oshirishga ko'plab hissa qo'shgan. Adolf Disterveg asosan aqliy tarbiyaga va bu tarbiyani boshlang'ich maktablarda egallamoq samarali ekanligiga urg'u bergan. Uning fikricha boshlang'ich maktabda bolalarni aqliy kuch va qobiliyatlarini o'stirishga asosiy e'tibor berish kerakligini ta'kidagan. Buning uchun u boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni o'rganillayotgan materialni o'zlashtirish va tushunish ustida mustaqil ish olib bora olishi kerakligini aytib o'tadi. Va u o'rganillayotgan harqanday narsani ongli o'zlashtirishga urg'u bergan.

Maqolada olib borilgan tadqiqotning metadalogiyasi asosan inovatsion yondashuv va texnologiyalarga asoslangan. Tadqiqotda bir nechta usul va texnologiya qo'llangan.

1. Kuzatish metodi. STEAM texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalardagi bilish jarayoni bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Bu metod bolalardagi bilish jarayonlarini rivojlantirishga va bor muammolarni bartaraf

etish orqali dunyoni, o'rganillayotgan predmetlarni yanada kengroq o'rganishga yordam beradi. Va bundan tashqari rivojlangan mamlakatlar qatori ta'limni sifatli tashkil etishga yordam beradi. Ushbu metod Amerikaning Massachusetts Unstitutida kurslar shaklida ishlab chiqilgan bo'lib, bu o'quv yurtining shiori, „Aql va qo'l“ hisoblanadi [1].

2. O'yin metod-bu metod bolajonlarni jismoniy, aqliy, ruhiy, estetik, ijtimoiy, badiiy rivojlanishlariga yordam beradi. Bolajonlarni faoliyatlarga va dars jarayonlariga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi [1].

3. Integratsiya metodi-bu metod orqali tarbiyachi mashg'ulotdan ko'zlangan natijaga oson va samarali erisha oladi. Bu metod orqali mashg'ulot jarayonida AKT, multimediya, musiqa vositalaridan foydalanib bolajonlarni qiziqishlarini va bolalardagi ong osti anglash va tushunishlarini osonlashtiradi [1].

4. Eksperimental –tajriba metodi. Bilish jarayonini rivojlantirishga va mavzud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tajriba sinovdan o'tkazildi. Sinov natijalari shuni ko'rsatadiki yangi interfaol metodlar ta'limning hartomonlama samaradorligini ta'minlaydi [2].

Natijalar.

Tadqiqot davomida qo'llangan metadalogiya asosida olingan natijalar o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonidagi inovatsion metodlar ta'lim oluvchilarda quyidagi natijalarni ko'rsatdi.

1. Bilish jarayonining yaxshilanishi. Bunda bolajonlarni tabiat hodisalarini anglashi, predmetlarni fazoga nisbatan joylashuvi, rangi, belgi-xususiyatiga ko'ra farqlash, geometrik shakllar, buyumlarni predmetlarga ajratish bilan bog'liq bilimlarni egallashlari osonlashdi.

2. Inovatsion metodning samaradorligi. Eksperiment davomida videolar, akt, va multimediya maxsulotlari yordamida bolajonlar o'zlarini o'zlarini bajargan ishlariga qarab baholay olish ko'nikmalari shakllandi.

3. Bolajonlarda refleksiya va tanqidiy tahlil qilishning rivojlanishi. Bolajonlar o'zlarini bajargan ishni tanqidiy baholashni o'rgandilar. Bolajonlar bu metod orqali o'zlarini uchun yangicha baholash usulini o'rgandilar.

4. Bolalarning faoliyatga bo'lgan qiziqishlari yanada ortdi. Yangi interfaol va inovatsion metodlar orqali bolajonlarni tanqidiy tahlil, o'z o'zlarini to'g'ri baholash va bilimlarni oson o'zlashtirishlariga erishildi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi-ki ta'lim jarayoniga yangi usullarni olib kirish va bu usullarni ommalashtirish bolajonlarni rivojlangan mamlakatlar bilan teng holda raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlari uchun zamin yaratadi. Ya'ni bolajonlar ta'lim tarbiya jarayonida o'zlashtirishlarini oson va samarali usullaridan foydalangan holda to'g'ri tanqidiy va tahliliy fikrlay olishlariga olib keldi. Ayniqsa bilishi jarayonidagi muammolarni bartaraf etish yoki bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish ikkitomonlama manfaatli hisoblanadi. Yuqoridagi metodlar orqali turli yosh guruhlarida mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim muammolar oldindan bartaraf etilishiga erishish imkoniyati bo'ladi.

Bundan tashqari pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan bunday metodlar

bolajonlarni kompleks rivojlanishlariga o'zining foydasini qo'shmay qo'ymaydi. Shu bilan birga amaliyotda qo'llaniladigan bunday metodlar bolalardagi qiziqishni uyg'otadi va bu o'z navbatida mashg'ulotlarda faol ishtrok etishlarini, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Bunday yangicha metodlar nafaqat tarbiyalanuvchilardagi muammo va kamchiliklarni yoki ularning ta'lim olish samaradorligini oshirish uchun balki, tarbiyachilarning ham o'z ustida ishlashga va rivojlangan mamlakatlar pedagog kadrlari bilan raqobatbardosh bo'lishlarini kafolatlaydi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilib olishimiz mumkinki, bolajonlardagi bilish jarayonlariga bog'liq bo'lgan pedagogik muammolar va ularni bartaraf etish muhim hisoblanadi. Bolalardagi bu muammolar pedagogik jarayonga o'zining salbiy ta'sirini korsatadi. O'z o'rnida bu esa davlat siyosati darajasidagi yechimini topishi kerak bo'lgan muammolardan biridir. Bilish jarayonini rivojlantirish bolajonlarga barcha mashg'ulotlarni (matematika, nutqo'stirish, tasviriy faoliyat, musiqa, mashg'ulotlarini xareografiya,) ham oson o'zlashtirishlarida yordam beradi. Zamonaviy metodlar bolalarning ta'limjarayonlaridagi samaralilikni ta'minlabgina qolmasdan balki bor yoki yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Xususan ta'lim jarayonidagi STEAM texnologiyasi bugungi kunda jadal rivojlanayotgan metodlardan hisoblanadi. Bu texnologiyaning asosiy g'oyasi bu nazariy bilim nechog'lik muhim hisoblansa amaliyot ham bundan mustasno emasligidadir. Tarbiyalanuvchilar o'rganish jarayonida bilimlarga tez ega bo'ladilar va shu paytning o'zida amaliyotda ham bajara oladilar. Qisqa qilib aytganimizda pedagogik muammolarni bartaraf etish uchun biz avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlashimiz va bu ta'lim tashkilotida integratsiyalshgan ta'limni joriy etishimiz kerak. Integratsiyalashgan ta'limga yaqqol misol bu STEAM dir. Matematika, muhandislik, san'at, injinering sohalari ilm asosida birlashib bolalardagi bilish jarayonlarini rivojlantiradi, muammolarni bartaraf eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi
2. ILK QADAM o'quv dasturi. Toshkent.2022- yil
3. Umumiy pedagogika A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov Toshkent 2018.
3. Davlat talablari. Toshkent 2018
4. Rayimqulova Maftuna Abduhakim qizi „Bolalardagi bilish jarayonini rivojlantirishda erkin tarbiya texnologiyasidan foydallanish metodikasi” dissertatsiyasi. Toshkent-2023
5. I. Hakimova, S. Xasanova “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” majmua. Andijon-2019.

6. D. Xidoyatova “Maktabgacha pedagogika” majmua. Toshkent -2018.

7. F. Qodirova, Sh. Toshpo’latova, N. Qayumova, M. A’zamova “Maktabgacha pedagogika” darslik. “Tafakkur” nashriyoti Toshkent-2019.

XORIJIY DAVLATLARDA UZLUKSIZ TA’LIM JARAYONLARINING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

Tursunov E'zozbek Erkinboy o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-bosqich magistranti

ezzbektursunov1998@gmail.com

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

University of Business and Science

Ijtimoiy fanlar kafedra mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlangan davlatlarda uzluksiz ta’lim jarayonlarining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi yosh avlodning ma’naviy rivojlanishida muhim omil bo’lib, ular ongida milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Finlyandiya va Yaponiya davlatlarning ta’lim tizimidagi ilg’or tajribalar o’rganilib, ularning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tajribalar asosida O’zbekiston ta’lim tizimi uchun taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so’zlar: uzluksiz ta’lim, yoshlar ma’naviyati, rivojlangan davlatlar tajribasi, ma’naviy tarbiya, innovatsion ta’lim, ta’lim tizimi, axloqiy qadriyatlar, integratsiyalashgan ta’lim.

ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССОВ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В данной статье анализируется влияние процессов непрерывного образования в развитых странах на духовность молодежи. Целостность и непрерывность образования являются важным фактором в духовном развитии подрастающего поколения, способствуют формированию в их сознании национальных и общечеловеческих ценностей. В ходе исследования изучен передовой опыт Финляндии и Японии в сфере образования, а также проанализировано его влияние на духовность молодежи. На основе этих практик выдвигаются предложения и рекомендации для системы образования Узбекистана.

Ключевые слова: непрерывное образование, духовность молодежи, опыт развитых стран, духовное воспитание, инновационное образование, система образования, нравственные ценности, интегрированное образование.

THE IMPACT OF CONTINUOUS EDUCATION PROCESSES IN FOREIGN COUNTRIES ON THE MORAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Annotation: This article analyzes the impact of continuous education processes in developed countries on the spiritual development of youth. The

continuity and consistency of education play a crucial role in the moral growth of the younger generation, contributing to the formation of national and universal values in their consciousness. During the research, advanced educational practices in Finland and Japan are studied, and their influence on the moral outlook of young people is examined. Based on these experiences, proposals and recommendations are presented for improving the education system in Uzbekistan.

Keywords: Continuous education, youth spirituality, experience of developed countries, moral upbringing, innovative education, education system, ethical values, integrated education.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimi yoshlarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uzluksiz ta'lim — bu shaxsning bilim va ko'nikmalarini hayoti davomida doimiy yangilab turish jarayonidir, bu esa bevosita yosh avlodning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonlarining uzluksizligi va izchilligi yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Yaponiyada esa an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim usullarini uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi. Germaniyada integratsion ta'lim yondashuvlari yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlaydi [1]. Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimining uzluksizligi yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Finlyandiya maktablarida o'quvchilarning 95% dan ortig'i o'rta ta'limni muvaffaqiyatli tamomlaydi, bu esa ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga asos yaratadi. Yaponiyada esa maktab o'quvchilarining 98% dan ortig'i doimiy ravishda ma'naviy ta'lim dasturlarida ishtirok etadi, bu esa ularning ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlaydi. O'zbekistonda ham yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish uchun uzluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga joriy etish orqali yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlash mumkin, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada rivojlangan davlatlardagi uzluksiz ta'lim jarayonlarining yoshlarni ma'naviy tarbiyalashga ta'siri tahlil qilinadi va O'zbekiston ta'lim tizimi uchun tegishli tavsiyalar ilgari suriladi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Uzluksiz ta'limning Finlandiya ta'lim tizimi misolida. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng ilg'or va samarali tizimlardan biri hisoblanadi, va uning asosiy tamoyillaridan biri uzluksiz ta'limni ta'minlashdir. Ushbu yondashuv nafaqat yoshlarning bilim va ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'sir qiladi, balki ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2014-yilda Finlyandiya yangi milliy o'quv dasturini ishlab chiqdi, u 2016-yil avgustida Finlyandiya maktablarida joriy qila boshlandi. Dastur islohoti maqsadi, o'qituvchilar va tarbiyachilarga bolalar va yoshlarni hayotlari uchun haqiqatan ham zarur bo'lgan

bilimlarni o'rgatishda yordam berishdir (Sahlberg 2015). Finlyandiya ta'limining asosiy maqsadi — bolalarni hayotga tayyorlashdir. Biz bolalarimiz kelajakda yordam beradigan bilim, ko'nikmalar, munosabatlar va qadriyatlarni o'rganishini xohlaymiz. Shu sababli, ular tez o'zgarayotgan dunyoda qanday asosiy kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerakligi haqida o'ylashimiz zarur [3]. Uzlüksiz ta'lim hayot bo'yidoimiy o'rganish va o'zini-o'zi rivojlantirishni talab qiladi, shaxsiy mas'uliyatning oshishini, jamiyat bilan uyg'un rivojlanishni va tanqidiy fikrlashni shakllantirishni rag'batlantiradi. Finlyandiya tajribasiga ko'ra, ta'lim jarayonlarining moslashuvchanligi, shaxsiylashtirilgan yondashuv va innovatsion metodlardan foydalanish yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda juda muhimdir [4].

Muhokama

Ushbu mamlakatda ta'lim jarayoni talabalarga mustaqil fikrlashni, o'z qadriyatlarini anglashni va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni o'rgatadi. Masalan, maktablarda ochiq munozaralar keng qo'llaniladi, bu talabalar turli masalalarda o'z fikrlarini erkin ifodalashlari va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlariga imkon beradi. Shuningdek, loyiha asosidagi o'quv yondashuvi orqali talabalar amaliy vazifalar ustida ishlaydilar, bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi va atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatlarini mustahkamlaydi. Madaniy tadbirlar va xalqaro almashuv dasturlari yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarni tushunishga yordam beradi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiya o'quvchilarning 95% dan ortig'i o'rta ta'limni muvaffaqiyatli yakunlaydi, bu esa ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Yaponiyada o'quvchilarning 98% dan ortig'i muntazam ravishda ma'naviy ta'lim dasturlarida ishtirok etadi, bu esa ularning axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu tajriba O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham ahamiyatli, chunki uzluksiz ta'lim tamoyillarini rivojlantirish yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shuning uchun, Finlyandiya tajribasiga asoslanib, O'zbekistonda ta'lim jarayonlarini takomillashtirish, shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni kengaytirish va ta'limning uzluksizligini mustahkamlash muhimdir.

Natija va nazariya.

Yaponiya ta'lim tizimi va uzluksiz ta'limning huquqiy asoslari. Yaponiya ta'lim tizimi, uzluksiz ta'lim tamoyillariga asoslanib, yoshlarning bilim va ko'nikmalari bilan birga ularning ma'naviy va axloqiy qadriyatlariga ham katta e'tibor qaratadi. Ushbu tizimda ta'lim jarayoni butunlay yondashiladi va uzluksiz rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib, faqat akademik bilimlar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy mas'uliyat, hurmat va mehnat kabi qadriyatlarni ham o'rgatish maqsad qilinadi. Yaponiyada ta'lim tizimi hayot bo'yirivojlanishni ta'minlaydi. Ta'lim faqat boshlang'ich va o'rta maktablarga qadar emas, balki oliy ta'lim, kasbiy ta'lim va hayot bo'yita'lim imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Yaponiya "Shingaku" (yangi ta'lim metodlari) tushunchasini joriy qilgan bo'lib, bu yoshlarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga qaratilgan [5]. Ushbu tushuncha orqali ta'lim metodlari ishlab chiqilib, ular yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Yaponiyada yoshlar nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy mas'uliyatni, jamiyatga xizmat qilishni va mehnatning ahamiyatini ham o'rganadilar.

Bu yondashuv yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, axloq, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar maktablarda o'rgatiladi, boshqalarni hurmat qilish, jamiyatdagi o'rnini tushunish va mas'uliyatli shaxslarni shakllantirish ta'minlanadi. Yaponiyada amaliy faoliyatlar, ijtimoiy loyihalar va ochiq muhokamalar keng tarqalgan.

Talabalar guruhlarda ishlash, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish va o'zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirishni o'rganadilar. Ushbu jarayonlar nafaqat akademik bilimlarni olishga, balki yoshlarning ma'naviy mas'uliyatini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi. Shunday qilib, Yaponiya hayot bo'yi ta'lim va yoshlar ma'naviy qadriyatlarini yuksaltirishga qaratilgan yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Yaponiyaning ta'lim tizimi nafaqat bilim uzatishga, balki yoshlarning ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uning muvaffaqiyati O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim bir namunadir. Yaponiya tajribasini o'rganish va milliy ta'lim tizimida qo'llash, O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashga hissa qo'shishi mumkin [6].

Yaponiya ta'lim tizimi hayot bo'yi ta'limni ta'minlashga qaratilgan bir qancha muhim qonun va qarorlar bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunlar ta'lim jarayonini turli bosqichlarda yaxshilashga va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. 1947-yilda qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonun Yaponiya ta'lim tizimining asosiy tamoyillarini belgilovchi hujjat bo'lib, barcha darajadagi o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishni va ularning shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirishni maqsad qiladi. Ushbu qonunda ta'lim yoshlar uchun uzluksiz taqdim etilishi kerakligi ko'rsatilgan. 1958-yilda qabul qilingan O'rta ta'lim to'g'risidagi qonun o'rta ta'limni universal qilish, barcha yosh guruhlari uchun o'rta maktablarga qatnashish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Ushbu qonun o'rta ta'limning uzluksiz rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va yoshlar orasida ijtimoiy va akademik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. 1965-yilda qabul qilingan Oliy ta'lim to'g'risidagi qonun oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu qonunda universitetlar va boshqa oliy ta'lim muassasalarida ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va hayot bo'yi ta'lim tizimini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatlar rivojlantirilgan. 2006-yilda Yaponiyaning hukumat tomonidan qabul qilingan **"Ta'limni rivojlantirish rejasi"** yoshlarning bilim darajasini oshirish va ularning ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlarini boyitishga qaratilgan. Ushbu reja hayot bo'yi ta'limni ta'minlashni va uzluksiz ta'limga e'tibor qaratishni maqsad qilgan. Shuningdek, 2000-yilda **"Gakkou Seisaku" (Maktab siyosati)** farmoni qabul qilingan bo'lib, bu ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi o'quv dasturlari va o'qitish metodlarini joriy etishni maqsad qilgan. Ushbu farmon talabalarning ilmiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini kuchaytirishga yordam beradi. Yaponiyada qabul qilingan bu qonunlar va qarorlar barcha ta'lim bosqichlarida uzluksiz ta'limni rivojlantirishni ta'minlaydi va nafaqat akademik, balki ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishga ham hissa qo'shadi. Bu yondashuvlar

Yaponiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatini ta'minlab, ijtimoiy mas'uliyatli, ma'naviy rivojlangan va ta'limli shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi [7].

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim tashkil etish bo'yicha qilingan ishlar. O'zbekiston ta'lim tizimida uzluksiz ta'limni tashkil etishga qaratilgan bir qator muhim qarorlar va normativ hujjatlar qabul qilindi. Ushbu qarorlar va hujjatlar ta'lim tizimining barcha bosqichlarida uzluksiz rivojlanishni ta'minlashga va yoshlar orasida bilim, ijtimoiy mas'uliyat hamda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda ta'lim tizimini yaxshilashga qaratilgan asosiy hujjat bu **"Ta'lim to'g'risidagi qonun"** bo'lib, u 2020-yilda qabul qilingan [8]. Ushbu qonun ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni zamonaviy bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlash hamda ularning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratadi. Ta'limning barcha bosqichlarida uzluksiz rivojlanish tamoyiliga maxsus ahamiyat berilgan. Shuningdek, 2016-yilda qabul qilingan **"Yoshlar siyosati to'g'risidagi qonun"** yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga, ularga ta'lim tizimida teng imkoniyatlar yaratishga va ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan [9]. Ushbu qonun yoshlarni jamoat ishlarida faol ishtirok etishga tayyorlash va ularni ma'naviy jihatdan boyitish maqsadlarini belgilaydi. 2021-yilda qabul qilingan **"Ta'lim tizimini rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasi"** ta'lim tizimining barcha bosqichlarini bir-biriga bog'lab, yoshlarning bilimini yanada mustahkamlashga qaratilgan [10].

Ushbu strategiya ta'lim jarayonlarini samarali va tizimli ravishda rivojlantirish hamda yoshlarni zamonaviy dunyo talablariga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi. 2020-yilda qabul qilingan **"Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish to'g'risidagi qaror"** oliy ta'lim tizimida uzluksiz ta'limni ta'minlash uchun zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etishni nazarda tutadi [11]. Bu qaror yoshlarning ilmiy va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularga kengroq imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Shuningdek, 2017-yilda qabul qilingan **"Kasbiy ta'limni rivojlantirish dasturi"** kasbiy ta'lim tizimida uzluksiz ta'limni rivojlantirishga, yoshlarni zamonaviy kasb-hunar ko'nikmalariga o'rgatish va ularga amaliy bilimlar berish maqsadida ishlab chiqilgan. Ta'lim tizimidagi barcha islohotlar nafaqat yuqori malakali shaxslarni shakllantirish, balki ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashga ham qaratilgan. Bu jarayon jamiyatning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Mazkur masala bo'yicha o'zbek olimlaridan biri Ulug'bek Innoyatov o'zining "Yangi O'zbekistonda uzluksiz ta'lim" asarida "Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egalashga ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori malakali kadrlar tayorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurdir" deya takidlaganidan ham sezishimiz mumkinki, bungungin golabalashayotgan jamiyatda yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish uchun nafaqat o'quvchilarni saviyasini oshirish balki, pedagoglarning ham malakasini oshirish dolzarb masaladir [12].

Xulosa.

Tadqiqot davomida Finlyandiya va Yaponiya ta'lim tizimlaridagi ilg'or tajribalar o'rganilib, ularning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri tahlil qilindi. Ushbu

mamlakatlarning uzluksiz ta'lim tamoyillari va ma'naviy-axloqiy ta'limga oid yondashuvlari yoshlarni faqat bilim, balki ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlar bilan ham tarbiyalashda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentining O. R. O 'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to 'g 'risida //08.10. 2019 yildagi PF-5847-son Farmoni. – 2019.
2. Prezidentining O. R. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida //PQ-2909-son qarori. – 2017.
3. Shavkat o'g'li S. B. Variativ ta'limni joriy etishda finlandiya tajribasi va ta'limi //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1289-1296.
4. Dautova B. E. Rivojlangan davlatlarda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanish tarixi //scholar. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 231-238.
5. Mushtariy O., Odiljon P. Boshlang 'ich ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar //qo 'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – С. 640-644.
6. To'rayev R. N., Abilov S. X. Professional ta'lim tizimida finlandiya tajribasini qo 'llash afzalliklari //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 4 SPECIAL. – С. 139-142.
7. Nodirov J. M., Shodmanov Q. O. Professional ta'lim muassaslarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid xorijiy mamlakatlar tajribalarining qiyosiy tahlili (yaponiya misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 313-321.
8. Umarbek o'g'li O. K. et al. Yaponiya ta'lim tizimi //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 3. – С. 34-38.
9. Abloqulovich A. A. Yaponiya ta'limi tarixining bosqichlari //tadqiqotlar. Uz. – 2024. – Т. 38. – №. 2. – С. 49-54.
10. Abduxoliq M., Aziza A. Ta'lim to 'g 'risidagi qonun va uning isloh qilinishi //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – Т. 44. – №. 8. – С. 150-155.
11. Marxabo S. Yoshlar siyosatini amalga oshirishda ijtimoiy ish //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 18. – №. 1. – С. 159-163.
12. Ulug'bek Inoyatov. Yangi O'zbekistonda uzluksiz ta'lim//Yangi asravlodi.-2024.-176 bet

ILK O'SPRINLIK DAVRIDAGI BOLALARNING MUSTAQIL HAYOTGA BO'LGAN QARASHLARI

Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li
University of Business and Science o'qituvchisi
turamovmuhammadzohid@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari borasida, shuningdek, maqolada ilk o'spirinlik davrining muammolari, bu davrdagi aqliy va emotsional rivojlanish, shaxs xususiyatlari yoritiladi. Ularning ong va dunyoqarashining shakllanishi, ilk o'spirinlik yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish ko'nikma-malakalarini rivojlantirish masalalariga to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: O'spirin, aql-zakovat, ma'naviy-psixologik qiyofa, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, uyatchanlik, kamtarlik emotsional xislatlar xushchakchaklik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, estetik his, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

VIEWS OF EARLY ADOLESCENTS ON INDEPENDENT LIFE

Annotation: This article explores the psychological characteristics of early adolescence, as well as the issues typical of this stage. It highlights aspects of intellectual and emotional development, personality traits, and the formation of consciousness and worldview. The article also focuses on working with early adolescents by considering their age and psychological features and developing skills for resolving problematic situations.

Keywords: Adolescent, intelligence, spiritual-psychological image, diligence, honesty, shyness, modesty, emotional traits, cheerfulness, vitality, sense of humor, sensitivity to novelty, aesthetic perception, self-confidence, optimism, and others.

ВЗГЛЯДЫ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА НА САМОСТОЯТЕЛЬНУЮ ЖИЗНЬ

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности раннего подросткового возраста, а также проблемы, возникающие в этот период. Освещаются вопросы умственного и эмоционального развития, особенности личности, формирование сознания и мировоззрения подростков. Особое внимание уделяется работе с детьми раннего подросткового возраста с учётом их возрастных и психологических особенностей, развитию навыков решения проблемных ситуаций.

Ключевые слова: Подросток, интеллект, духовно-психологический облик, трудолюбие, правдивость, застенчивость, скромность, эмоциональные качества, жизнерадостность, бодрость, чувство юмора, стремление к новизне, эстетическое восприятие, уверенность в себе, оптимизм и другие.

Kirish.

Ilk o'spirinlik davri "kamolot bo'sag'asi" deb ta'riflanadi. Bu kamolot

bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi. Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o'spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda. 15-16 yoshdan 23 yoshgacha bo'lmog'da. Bunda ilk o'spirinlik 15-18 yosh, o'spirinlik 18-23 yoshdagi yigit va qizlarni o'z ichiga oladi. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa omillar ijtimoiy sharoitlarga bogliqdir. Ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo'lganlardir. O'spirinlik — bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma'naviy sifatleri tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o'qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta'sir ko'rsatadi [1].

Ilk o'spirinning o'z-o'zini anglashi o'smirning o'z-o'zini anglashidan shu jihatlari bilan farqlanadi. Xuddi ana shu narsa ilk o'spirinni o'zining psixik hayotiga, o'z shaxsining sifatlariga, o'z qobiliyatlariga chuqur qiziqish uyg'otadi, xuddi shuning uchun ham o'z xatti-harakatlariga nazar tashlash, o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji paydo bo'ladi. Agar o'smirning tushunchasida sezgir kishi hamisha boshqalarga yordam ko'rsatsa, ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilar esa bunda an'cha nozik tafsilotlarning ham farqiga boradilar, ular sezgirlik — ayniqsa qanday yordam zarurligini his qila bilish va u ana shu yordamni ustalik bilan kishini xafa qilmasdan, ko'rsata olishdan iborat deb hisoblaydilar

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Respublikamiz psixologlari tomonidan ilk o'spirinlar shaxsining psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlagan qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Jumladan, M.G. Davletshin rahbarligida M.T. Isakova tomonidan o'tkazilgan «Yuqori sinf o'quvchilari xarakter xislatlarining shakllanishida milliy an'analarning ta'siri» mavzusida ilmiy izlanish olib borilgan. Tadqiqotda o'zbek etnik guruhiga xos bo'lgan yuqori sinf o'quvchilari xarakter xislatlari-ning etnopsixologik xususiyatlari, ya'ni Vatanga muhabbat, kat-talarga hurmat, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, uyatchanlik, kamtarlik kabi xislatlarning shakllanishiga milliy an'analarning ta'siri o'rganilgan.

Shunday tadqiqotlar sirasiga A. Jabborov rahbarligida o'tkazilgan O.U.Avlayevning tayanch-harakat a'zolari buzilgan ilk o'spirinlarning shaxs xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotini keltirish mumkin. Tadqiqot natijasida muallif quyidagilarni aniqlagan: tayanch-harakat a'zolari buzilgan kontingentlar shaxsining motivatsiyalari mazkur yoshdagi sog'lom tengdoshlari singari bir xildagi munosabatni namoyon qilganiga qaramay ularning imkoniyatlari

shaxslilik pozitsiyasidan cheklanib qoladi. Ichki motiv, bilish motivi, musobaqalashuv motivlaridagi natijalar nisbiy ma'noda tenglikni ifodalasada, ammo ularning o'zini o'zi hurmatlashi sog'lom tengdoshlariga qaraganda ancha past ko'rsatkichli motiv darajasini namoyon etadi [2].

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ta'lim psixologiyasi va uning xususiyatlari haqida tahlil olib borildi.

Muhokama va natijalar.

Ilk o'spirinlik davrida o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. Ularni o'z-o'zini tarbiyalash borasida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o'g'il bolalar — qahramonlik, yaxshi ota, tadbirkor, o'qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilmdagi obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va boshqalarni ideal deb biladilar. O'zaro munosabat va emotsional hayot o'z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o'spirinning o'zi hal qila olmaydi. Bu masalani o'spirinning ota-onasi, o'z tengqurlari, o'qituvchilar ishtirokida ularning qo'llab-quvvatlashida hal qilishi mumkin.

Kelajakka intilish ilk o'spirinlarning psixologik xususiyati hisoblanadi. Ilk o'spirinlik davrida shaxs rivojlanishining muhim omili hayotiy rejalar qurish. hayotiy istiqbollarni anglash hisoblanadi. Hayotiy reja keng tushuncha bo'lib, shaxsiy o'z-o'zini belgilashning barcha sohasini qamrab oladi. Kelajakka hayotiy rejalar qurish, kasbiy o'z-o'zini belgilash — o'spirinlik davridagi markaziy psixologik yangilikdir [3].

O'spirinlarda qadriyatlar shakllanadi, dunyoga umumlashtirilgan qarashlar tizimi sifatida dunyoqarash shakllanadi, hayotga anglangan umumlashgan munosabat inson hayotining mazmuni shakllanadi.

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxs xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklariga munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan mas'uliyatsiz yondashadilar. Bu davr o'spirinning axloqan o'z-o'zini anglashi va barqaror «Men» obrazining shakllanishi, shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bu anglash oddiygina o'sishdan iborat bo'lib qolmasdan, u sifat jihatdan o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi, bu hoi o'z shaxsi-ning ma'naviy-psixologik xususiyatlarini konkret hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtayi nazaridan anglash va ularga baho berish ehtiyoji bilan bog'langandir [4].

Xulosa.

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Ilk o'spirinlarning kayfiyati o'smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo'ladi. Doimo hissiyot vujudga keltiradigan shaxsiy muhim munosabatlar doirasining kengayishi oliy hislarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Axloqiy norma va tamoyillarning ma'lum tizimini o'zlashtirish jamiyat va boshqa

odamlar oldida mas'uliyat hissi, hamdardlik qobiliyati, do'stlik va muhabbat ehtiyoji, o'rtoqlik hissi va axloqiy-siyosiy hislar kabi yuksak axloqiy hislarga aylanadi. Ilk o'spirin tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarining buzilishi unda aybdorlik hissini vujudga keltiradi. Shu bilan birga unda estetik hislar doirasi ham kengayadi.

Ilk o'spirinlarda intellektning rivojlanishi bilan birga hazil-mutoyiba hissining ham rivojlanishini ta'kidlash joiz. Intellektual va praksis hislar ham sezilarli rivojlanadi. Sodda bolalarcha qiziquvchanlik tafakkur jarayonidan ongli zavqlanish, qiyinchiliklarni yengishdan quvonish, ijodga ongli intilish va boshqalarga aylanadi. Shunga ko'ra har kim qobiliyatiga yarasha kasbhunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan bo'ladi.

O'spirinlar u yoki bu kasbni o'z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat'iylik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi irodaviy xislatlarga ega bo'lishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o'rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'spirinlar aqliy rivojlanishida tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron-bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni to'g'ri rejalashtirish mumkin emas. O'spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo'lsagina, u o'z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko'ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi. Hozirgi yigit va qizlarni 30—40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning umumiy saviyalari naqadar o'sganligini ko'rish mumkin. O'spirinlarning intellektual qiziqishlari doirasi keng va ko'p qirralidir. O'spirinlarning qiziqishlari aksariyat hollarda o'zi tanlagan kasb va yo'nalish, shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangandir. O'spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog'onaga ko'tarila boshlaydi. Bu esa o'spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009..
2. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. — Buxoro, 2007.
3. Bojavich L.I. Shaxsiyat va uning bolalalik davrida shakllanishi M, 1968-yil
4. Turamov, M. (2025). Ta'lim tizimida gender barqarorlikni oshirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari. Research and Implementation, 3(4), 20–24. Retrieved from <https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/1363>



MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TALIM O'RTASIDA MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI

Xusanova Gulzira Qo'shoqboy qizi
University of Business and Science
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 24_41 guruh

Ismoilov Temurbek Islomovich
Namangan davlat pedagogika instituti proffessori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini izchil rivojlantirishda uzluksiz ta'lim tizimining ahamiyati yoritilib, ushbu jarayonda pedagogik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda oilaviy tarbiyaning o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonida ma'naviy qadriyatlarni singdirishning samarali usullari va metodlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy tarbiya, uzluksiz ta'lim, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, axloqiy tarbiya, pedagogik uzviylik, ta'lim texnologiyalari, oilaviy tarbiya.

МЕЖПРЕМСТВЕННАЯ СВЯЗЬ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МЕЖДУ ДОШКОЛЬНЫМИ И НАЧАЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения преемственности духовно-нравственного воспитания между дошкольным и начальным образованием. Освещается значение непрерывной системы образования в последовательном развитии духовно-нравственного воспитания детей, анализируются педагогические подходы, современные образовательные технологии, а также роль семейного воспитания в этом процессе. Кроме того, предлагаются эффективные методы и приёмы внедрения духовных ценностей в процессе перехода от дошкольного к начальному образованию.

Ключевые слова: духовное воспитание, непрерывное образование, дошкольное образование, начальное образование, нравственное воспитание, педагогическая преемственность, образовательные технологии, семейное воспитание.

CONTINUITY OF MORAL EDUCATION BETWEEN PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION

Annotation: This article analyzes the issues related to ensuring the continuity of moral education between preschool and primary education. It highlights the importance of a continuous education system in the consistent development of children's moral and ethical upbringing, and examines the role of pedagogical approaches, modern educational technologies, and family upbringing in this process. Furthermore, effective methods and techniques for instilling moral

values during the transition from preschool to primary education are proposed.

Keywords: Moral education, continuous education, preschool education, primary education, ethical upbringing, pedagogical continuity, educational technologies, family upbringing.

Kirish.

Ma'naviy tarbiya inson shaxsining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib, uning axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim tizimining ilk bosqichlari — maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim — bolalarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. Ushbu bosqichlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi [1]. 2020-yil holatiga ko'ra, mamlakatimizda 7 104 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritmoqda, shundan 5 604 tasi davlat muassasalari, 63 tasi idoraviy va 1 437 tasi nodavlat tashkilotlardir. Bu esa maktabgacha ta'limning keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir [2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu uzviylik bolalarning maktabga tayyorgarligini oshiradi va ularning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishiga zamin yaratadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyani rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida, ijtimoiy-ma'naviy muhit yaxshilanib, bu boradagi muammolar sezilarli darajada kamaygan. Ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash orqali bolalarning axloqiy fazilatlarini, milliy qadriyatlarga hurmati va ijtimoiy mas'uliyati rivojlanadi [3]. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatimizning barqaror taraqqiyoti va kelajak avlodning barkamol shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga yo'naltirildi. 2017-yil 20-aprelda Prezidentning PQ-2909-sonli qarori bilan oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari belgilandi [4].

Ushbu qaror ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va ta'limning barcha bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida 2017-2022-yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar natijasida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi ikki barobarga oshdi [5]. Bu esa bolalarning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini oshirishga xizmat qilmoqda. 2023-yilda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyatiga oid jami 20 ta qonunchilik hujjati, jumladan, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Bu hujjatlar ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu islohotlar natijasida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish orqali jamiyatimizning ma‘naviy salohiyatini yuksaltirish maqsad qilinmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasida ma‘naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash masalasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Safarova M.Sh. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma‘naviy tarbiya asosida shaxs sifatida shakllantirishning ahamiyati ta‘kidlanadi. Asqarova O., Qoraboeva Z. va Samidjonova M. esa maktabgacha ta‘lim metodologiyasiga oid o‘quv qo‘llanmada ilmiy tadqiqot metodologiyasi va zamonaviy yondashuvlar haqida ma‘lumot beradi[6]. Shuningdek, "Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida pedagogika, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim" nomli to‘plamda yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbusning qabul qilinishi haqida so‘z yuritiladi. Biroq, ushbu tadqiqotlarda maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlashning aniq mexanizmlari va metodologik asoslari yetarlicha yoritilmagan.

Metotologik qism.

Ushbu tadqiqot metodologik asos sifatida tizimli, komparativ, empirik va statistik tahlil yondashuvlariga tayangan holda olib borildi. Tizimli yondashuv ta‘lim jarayonini yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini berib, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni tahlil qilishga xizmat qildi. Komparativ tahlil metodidan foydalangan holda, turli mamlakatlarning tajribasi o‘rganilib, uzviylikni ta‘minlash bo‘yicha samarali usullar aniqlashga harakat qilindi [7]. Empirik tadqiqot doirasida maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim muassasalarida kuzatuvlar o‘tkazilib, pedagog va ota-onalar bilan suhbatlar tashkil etildi hamda mavjud amaliy holatni o‘rganish uchun real ma‘lumotlar yig‘ildi.

Statistik tahlil asosida O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta‘lim bilan qamrab olish darajasi, ta‘lim muassasalari soni va ularning faoliyati o‘rganildi [8]. Xususan, 2020-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda 7 104 ta maktabgacha ta‘lim tashkilotlari mavjud bo‘lib, ularning 5 604 tasi davlat muassasalari, 63 tasi idoraviy va 1 437 tasi nodavlat tashkilotlar hisoblanadi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasida ma‘naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash dolzarb masala ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 33 942 taga yetkazilgan bo‘lib, bu 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasini 74 foizga, 6 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik ko‘rsatkichini esa 93 foizga oshirish imkonini bergan. Ushbu raqamlar ta‘limning uzluksizligi va ma‘naviy tarbiyaning davomiyligini ta‘minlash uchun qulay shart-sharoit yaratilayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida 71 ta yangi muassasa tashkil etilib,

ular jami 7 100 o‘rin bilan ta‘minlandi. Bundan tashqari, oilaviy shakldagi nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 4 402 taga yetib, ularda 116 998 bola ta‘lim olmoqda. Bu esa ta‘lim sektorida xususiy tashabbuslarning ortib borayotganini hamda sifatli ta‘lim xizmatlarini kengaytirish imkoniyatini oshirayotganini anglatadi.

Ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta‘lim muassasalarining boshlang‘ich ta‘lim bilan integratsiyasini chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi. Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash bolalarning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, bu boradagi samarali strategiyalar xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilmoqda. Masalan, Finlyandiya, Yaponiya va Germaniya tajribalarida maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasida uzviylikni ta‘minlash uchun maxsus metodik dasturlar joriy qilingan bo‘lib, bu bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham bu borada huquqiy asoslar mustahkamlanib, “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, unda ta‘lim jarayonining uzluksizligi va sifatini ta‘minlash asosiy tamoyillardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu natijalar maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Kelajakda ta‘lim sifati va uzviyligini oshirish maqsadida maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasida yagona metodik tizim yaratish, pedagoglarni yangi usullar asosida tayyorlash va ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Muhokama.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasida ma‘naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bolalarning ilk yoshlaridan boshlab shakllanadigan ma‘naviy qadriyatlar ularning kelgusidagi shaxsiy va ijtimoiy hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, ta‘lim jarayonida uzluksizlik va uzviylikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi ushbu sohada huquqiy asoslarni mustahkamladi. Mazkur qonun maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasidagi statistika ma‘lumotlarining hisobi yuritilishini hamda tahlil qilinishini ta‘minlashni nazarda tutadi. Bu esa ta‘lim jarayonining uzluksizligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlashda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi va mahorati muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi va mahoratini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ta‘lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning akademik yutuqlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, Finlyandiya, Yaponiya va Germaniya kabi mamlakatlarda maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasida

uzviylikni ta'minlash uchun maxsus metodik dasturlar joriy qilingan bo'lib, bu bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi ushbu sohada huquqiy asoslarni mustahkamladi. Mazkur qonun maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi statistika ma'lumotlarining hisobi yuritilishini hamda tahlil qilinishini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa.

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarning shaxsiy va axloqiy rivojlanishi uzluksiz ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirilgan ma'naviy qadriyatlar ularning ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajriba va O'zbekiston ta'lim islohotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning malakasini oshirish, o'quv dasturlarini uzviylashtirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish ushbu jarayonni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsiyasini yanada takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish bilan birga, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun intellektual va ma'naviy negiz yaratishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xurshidaxon A., Ikromjonovna J. S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni atrof-muhitni asrab-avaylash va g'amxo'rlik ko'rsatishga o'rgatish // qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – C. 551-553.
2. Ikromjonovna, J. S., & Moxira, T. (2024). Boshlang'ich Hamda Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari Ta'lim-Tarbiya Jarayonida Multimedia Texnologiyasidan Foydalanish. University Research Base, 256-260.
3. Shohbozbek, E. (2024). Renewal of the social sphere and stable society system in the process of reforms. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(09), 16-20.
4. Akbarovna, I. S. (2024). Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogikaning ahamiyati. World of science, 7(8), 8-13.
5. Razzoqova, M. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari: maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari. Nordic_Press, 2(0002).
6. Muhsinjonovich, M. M., & Hoshimjonovna, F. A. (2024). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq o'yinlari texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos texnikasi. University Research Base, 325-329.
7. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim jarayonlarining o'rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida). Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(2), 3-9.

8. Taxiroyva, S. Z. (2024). Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish: metodika, zamonaviy yondashuvlar. Modern educational system and innovative teaching solutions, 1(4), 1284-1288.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY TARBIYA

*G'opporov Elyorbek Otabekovich
Namangan davlat universiteti dotsenti*

*Xolmirzayeva Madinaxon Muxriddin qizi
University of Business and Science
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 23-59-guruh*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiyani shakllantirish masalasi yoritilgan. Maqolada milliy qadriyatlarning bolalar ma'naviyatini rivojlantirishdagi o'rni, tarbiya jarayonida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi hamda ta'lim-tarbiyada oilaviy va jamiyatning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarga milliy madaniyat, urf-odat va an'analarni singdirish orqali ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, innovatsion yondashuv, an'anaviy tarbiya, madaniy meros, urf-odatlar, ma'naviy-axloqiy rivojlanish.

ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье освещается вопрос формирования духовного воспитания на основе национальных ценностей в дошкольных образовательных учреждениях. В статье анализируется роль национальных ценностей в развитии духовности детей, гармоничное сочетание традиционных и инновационных подходов в процессе воспитания, а также роль семьи и общества в образовательно-воспитательной деятельности. Кроме того, рассматриваются возможности обеспечения духовно-нравственного развития детей посредством приобщения к национальной культуре, обычаям и традициям.

Ключевые слова: Дошкольное образование, национальные ценности, духовное воспитание, инновационный подход, традиционное воспитание, культурное наследие, обычаи, духовно-нравственное развитие.

SPIRITUAL EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: This article explores the formation of spiritual education based on national values in preschool educational institutions. It highlights the role of national values in developing children's spirituality, the integration of traditional and

innovative approaches in the educational process, and the significance of both family and community in upbringing. The paper also examines the opportunities for fostering children's spiritual and moral development through the transmission of national culture, customs, and traditions.

Keywords: Preschool education, national values, spiritual education, innovative approach, traditional upbringing, cultural heritage, customs, spiritual and moral development.

Kirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki globallashuv jarayonida milliy o'zlikni saqlash, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim omildir[1]. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, ularni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi, uning mazmuni va vazifalari aniq belgilab qo'yilgan[2]. Shuningdek, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida bolalarning sifatli ta'lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish masalalari ko'zda tutilgan [3]. Milliy qadriyatlar millatning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar, an'analar, tili bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular tarixiy jarayonlar davomida o'z o'rniga ega. Shu bois, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish, ularning ongli faoliyati, bilim saviyasi, e'tiqodi, tarixiy tajribalarga, an'analarga, udumlar va urf-odatlarga munosabati darajasida tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega [4]. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Bunday yondashuv bolalarda ona-yurtiga muhabbat, uni himoya qilish, asrab-avaylash kabi tuyg'ularni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida tarbiya olish bolalarning kelajakda jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga zamin yaratadi [5]. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi sohada tub o'zgarishlarga zamin yaratdi. 2019-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni 2019-2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi" maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2017-yilda bu ko'rsatkich 27,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 67 foizga yetdi [6]. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida

nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari soni ortdi. 2019-yilda O'zbekistonda 7 104 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan bo'lsa, shundan 1 437 tasi (21 foiz) nodavlat tashkilotlar edi [7]. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, UNICEF va Jahon banki bilan hamkorlikda kichik yoshdagi bolalarning erta rivojlanish sohasiga kirishni tezlashtirish va sifatini oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi. Biroq, amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, tizimda hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud [8]. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, kadrlar malakasini oshirish kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ushbu muammolarni bartaraf etishga, maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Xususan, zamonaviy maktabgacha ta'limda bolalarda milliy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari chuqur tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda milliy qadriyatlarning bolalar ma'naviyatini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan. Boshqa bir tadqiqotda maktab va maktabgacha ta'limda milliy tarbiya va qadriyatlarning integratsiyasi o'rganilib, ularning axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi roli yoritilgan [9]. Shuningdek, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarni zamonaviy texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasiga singdirish masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish usul va vositalari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bu boradagi tadqiqotlar milliy qadriyatlarning bolalar xulq-atvorini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish bo'yicha O'zbekistonda bir qator olimlar va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Masalan, R.Y. Safarova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish yo'llari" mavzusida tadqiqot olib brogan [10]. Shuningdek, boshqa tadqiqotchilar ham maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlarni singdirishning mazmuni va amaliy ahamiyatini o'rganib, bu borada ilmiy ishlar yaratganlar. Bu kabi ilmiy izlanishlar milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish jarayonini ilmiy asosda o'rganish maqsadida turli metodlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va statistik hisobotlar tahlil qilinib, milliy qadriyatlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati aniqlashtirildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari va ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar tashkil etilib, ularning milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish borasidagi qarashlari va amaliy tajribalari o'rganildi. Tadqiqot doirasida

maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoni bevosita kuzatilib, bolalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish metodlari va vositalari tahlil qilindi. Ushbu kuzatishlar orqali milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiyaning bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri aniqlandi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar belgilandi. Metodologik yondashuv doirasida eksperimental tadqiqot ham o'tkazilib, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Natijalar tahlili asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni singdirishning eng samarali usullari tavsiya qilindi. Ushbu tadqiqot metodlari kompleks ravishda qo'llanilib, mavzuga oid chuqur ilmiy tahlil amalga oshirildi.

Natijalar.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu yondashuv bolalarning axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Milliy qadriyatlar bolalarning vatanparvarlik, hurmat, mehr-oqibat, odob-axloq qoidalariga rioya qilish kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar va tarbiyachilar milliy qadriyatlarni bolalarga yetkazishda asosiy rolni o'ynaydi. Ularning bu boradagi bilim va malakalari ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar asosida tuzilgan ta'lim dasturlari bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu dasturlar yordamida tarbiyalangan bolalarda milliy o'zlikni anglash, o'z madaniyati va urf-odatlariga hurmat bilan yondashish hissi shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuvga asoslangan ta'lim dasturlaridan foydalanish orqali bolalar shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning natijalari sezilarli darajada samarali bo'lmoqda. Biroq, bu borada yanada keng qamrovli tadqiqotlar olib borish hamda milliy tarbiya metodikalarini takomillashtirish talab etiladi. Globalizatsiya sharoitida milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati yanada ortib borayotganligi sababli, kelgusida bu sohada yangi innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilishi va joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, pedagoglarning malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish istiqboldagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Muhokama

Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish masalasi zamonaviy pedagogika fanida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar bolalarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish bolalarning madaniy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ularning kelajakda jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Biroq, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishda ba'zi

muammolar ham mavjud. Xususan, zamonaviy texnologiyalar va globallashtirish jarayonlari bolalarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, tarbiyachilar va ota-onalar milliy qadriyatlarni zamonaviy usullar bilan bolalarga yetkazish yo'llarini izlashlari lozim.

Kelajakda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning ahamiyati yanada ortishi kutilmoqda. Chunki globallashtirish jarayonida milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berishning yangi usul va vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Umuman olganda, milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berish bolalarning axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar bolalarda vatanparvarlik, hurmat, mehr-oqibat, o'z madaniyatiga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim muhitida bu qadriyatlarni samarali singdirish uchun innovatsion pedagogik usullar va texnologiyalardan foydalanish zarur. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilarning bu boradagi faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya berishning dolzarbligi ortib borishi kutilmoqda, bu esa ta'lim tizimida uzluksiz takomillashtirish va yangi metodologik yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aziza, E., & Shohbozbek, E. (2025). O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida madaniy meros va an'anaviy tarbiyaning o'rni. *Global Science Review*, 3(1), 375-384.
2. Muslima, O., & Shohbozbek, E. (2025). O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning innovatsion usullari. *Global Science Review*, 3(1), 339-347.
3. Shohbozbek, E. (2025, March). Maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni singdirish va uzluksiz ta'limga bog'liqlik. In *international scientific research conference* (Vol. 3, No. 32, pp. 88-95).
4. Shohbozbek, E. (2025). Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. *Innovative developments and research in education*, 4(37), 225-230.
5. Shohbozbek, E. (2025). Maktabgacha ta'lim muassasalarida oilaviy ma'naviy tarbiyaning ahamiyati. *Innovative developments and research in education*, 4(37), 243-247.
6. Shohbozbek, E. (2025, March). Yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini shakllantirishda maktabgacha ta'limning o'rni. In *international scientific research conference* (Vol. 3, No. 32, pp. 76-81).



7. Shohbozbek, E. (2025). Maktabgacha ta'limda ma'naviy tarbiya va uning yoshlar ongiga ta'siri. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(50), 325-330.

8. Shohbozbek, E. (2025). Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya va uzluksiz ta'lim uzviyligi. Innovation in the modern education system, 6(50), 307-313.

19.00.00-Psixologiya fanlari.**SHAXS XARAKTER AKSENTUATSIYASI TIPLARI VA UNING
PSIXOPROFILAKTIKASI***Jurayev Xaydarjon Odilboyevich**University of Business and Science**Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi**haydarbekjurayev@gmail.com**ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsda o'smirlik yosh davrida yuzaga keladigan xarakteridagi salbiy jixatlarni namoyon bo'lishi uning xarakteridagi aksentuatsiyani ta'siri natijasida namoyon bo'lishini psixologik jixatdan psixoprofilaktika qilishning nazariy jixatdan tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Xarakter aksentuatsiyasi, shizoitniy tip, xolerik temperamenti, senzitiv davr, eksteremal vaziyatlar, profilaktikani provensiya va intervensiyasi.

**ТИПЫ АКЦЕНТУАЦИИ ХАРАКТЕРА ЛИЧНОСТИ И ИХ
ПСИХОПРОФИЛАКТИКА**

Аннотация: В данной статье рассматривается теоретическое обоснование психопрофилактики как проявления негативных аспектов характера, возникающих у личности в подростковом возрасте, как следствие влияния акцентуации на ее характер.

Ключевые слова: акцентуация характера, шизоидный тип, холерический темперамент, сенситивный период, экстремальные ситуации, провокация и вмешательство в профилактику.

**TYPES OF PERSONAL CHARACTER ACCENTUATION AND ITS
PSYCHOPROPHYLAIXIS**

Annotation: this article is a theoretical study of psychoprophylaxis from psychological humor, in which a person manifests negative traits in his character that occur in adolescence as a result of the influence of accentuation in his character.

Keywords: character accentuation, schizoid type, choleric temperament, sensitive period, extraterrestrial situations, provenance and intervention of prophylaxis

Kirish.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-psixologik omillarning keskin o'zgaruvi sharoitida shaxsning psixologik holati, xususan, xarakterining aksentuatsiyalashgan tomonlarini chuqur o'rganish dolzarb masalaga aylanmoqda. Har bir insonning o'ziga xos psixik xususiyatlari bo'lib, ular muayyan sharoitda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatlarning ba'zilarida xarakter aksentuatsiyasi ya'ni xarakter chizgilarining haddan tashqari kuchayishi kuzatiladi. Ushbu holat me'yordan chekinish darajasiga yetmasa-da, muayyan ijtimoiy muhitda shaxsning moslashuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'rganilgan muammo o'smirlardagi xarakterning o'zgaruvchanligi va ulrda yuzaga keladigan turli xildagi deviant xulq-atvor shakllari yuzaga kelishi va ularning namoyon bo'lishi haqida ko'plab olimlar o'z ishlarining olib borishgan bo'lib, "Акцентуации личности как фактор психической адаптации студентов вуза" Тюряпина Ирина Владимировна Санкт-Петербург 2016, Психология характера Учебное пособие Марина Валерьевна Шамардина, Ирина Александровна Ральникова, Елена Анатольевна Петухова Барнаул 2020, Deviant xulq-atvor psixologiyasi I.M.Xakimova O'quv qo'lanma Toshkent 2014. Biz o'rganilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlarni nazariy ko'rib chiqdik, tadqiqotning uslubiy asoslarini aniqladik. Maxsus adabiyotlarni o'rganish jarayonida biz o'smirlarda yuzaga keladigan aksentuatsiya tiplari va ulrni faoliyat davomida qandas yuzaga kelishi va undagi psixologik himoya ongsiz va ong o'rtasidagi va turli xil hissiy munosabatlar o'rtasidagi qaramaqarshiliklar doirasida xatti-harakatlarning buzilishining oldini olishga qaratilgan normal mexanizm sifatida ta'riflangan degan xulosaga keldik [2].

Tadqiqot metodologiyasi.

Psixologik adabiyotlarda aksentuatsiya tushunchasi ilk bor nemis psixiatri K. Leonhard tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, keyinchalik rus olimi A.E. Lichko tomonidan yanada chuqurlashtirildi. Bu hodisa ayniqsa o'smirlik va yoshlik davrida kuchli ifodalanadi va shaxs rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu jarayonni o'z vaqtida aniqlash, to'g'ri psixologik yondashuvni tanlash hamda profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega, xarakter aksentuatsiyasi turlarini tahlil qilish, ularning asosiy psixologik xususiyatlarini aniqlash va ushbu holatlarning profilaktikasiga oid ilmiy yondashuvlarni bayon etishdan iborat [1].

Psixologiyada "aksentuatsiya" atamasi muayyan xarakter chizgilarining haddan tashqari kuchayishi, yaqqol ifodalanishi, biroq bu holat patologiya darajasiga yetmaganini anglatadi. Aksentuatsiyalangan xarakterga ega shaxslar, odatda, normal psixik rivojlanishga ega bo'lishsa-da, muayyan hayotiy vaziyatlarda ularning ayrim xarakter chizgilari haddan tashqari kuchayib, moslashuvchanlik va ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bu tushuncha ilk bor XX asrda nemis psixiatri K. Leonhard tomonidan taklif qilingan. U shaxs psixologiyasida ayrim xarakter chizgilarining haddan tashqari kuchayishini tahlil qilib, bunday holatlarni normal rivojlanish chegarasidagi o'ziga xos holat deb hisoblagan. Leonhard aksentuatsiyaning 10 turini ajratgan bo'lsa, keyinchalik rus psixiatri A.E. Lichko ushbu tasnifni chuqurlashtirib, ayniqsa o'smirlik davridagi aksentuatsiyalarga alohida e'tibor qaratgan. Lichkoga ko'ra, aksentuatsiya bu shaxsning normal rivojlanishidan chetga chiqish bo'lib, u muayyan sharoitda yaqqol namoyon bo'ladi, biroq boshqa holatlarda butunlay yo'qolib ketadi [3]. Demak, bu holatni to'laqonli psixik buzilish deb bo'lmaydi, lekin u shaxs rivoji uchun xavf tug'diruvchi omil sifatida qaraladi. Aksentuatsiyaning shaxsda namoyon bo'lishi bunday jarayon shaxsda ba'zi belgilarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Ular odatda barqaror bo‘ladi, ya’ni doimiy saqlanadi;
- Ijtimoiy muhitga bog‘liq holda kuchayishi yoki susayishi mumkin;
- Stressli yoki muammoli vaziyatlarda kuchli ifodalanadi;
- Ayrim hollarda nevrotik buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Shaxsda yuzaga keladigan xarakter aksentuatsiyasi bu shaxsning ayrim xarakter chizgilarining haddan tashqari kuchaygan shakli bo‘lib, u ijtimoiy moslashuvga, shaxslararo munosabatlarga va umumiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bunday holatlarni erta bosqichda aniqlash va ular bilan ishlash dolzarb masalalardan hisoblanadi [5].

Tahlil va natijalar

Xarakter aksentuatsiyasi inson shaxsiyatining turli jihatlarida kuchaygan chizgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir tip ma’lum psixologik xususiyatlarga, his-tuyg‘ular, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlardagi farqlarga ega. A.E. Lichko tomonidan ishlab chiqilgan tasnif o‘smirlar va yoshlarda ko‘proq kuzatiladigan 10–12 ta asosiy aksentuatsiya tipini o‘z ichiga oladi.

1. Gipertimik tip- faol, quvnoq, tashabbuskor va optimistik kayfiyatga ega bo‘ladi. Ular doimo harakatda bo‘lib, yangi tanishuvlar, sarguzashtlarga moyil. Shu bilan birga, tartibsizlik, sabrsizlik va intizomsizlik bilan ajralib turadi.

2. Distimik tip- Bunday shaxslar tortinchoq, mulohazali va jiddiy bo‘ladi. Ko‘pincha kayfiyati past, hayotga pessimistik nazar bilan qaraydi. Yolg‘izlikni xush ko‘radi va kamdan-kam ijtimoiy faol bo‘ladi.

3. Affektiv-labil tip - Ular tez-tez kayfiyat o‘zgarishiga uchraydi: bir payt quvnoq bo‘lsa, ikkinchi payt tushkun holatga tushadi. Kayfiyat tashqi omillarga kuchli bog‘liq. Ular sezgir, rahmdil va mehribon bo‘lishadi.

4. Emotiv tip- Emotiv shaxslar chuqur his-tuyg‘ularga ega, boshqalarning dardiga hamdardlik bildiradi. Bunday insonlar odatda halol, sadoqatli, g‘amxo‘r bo‘lishadi, lekin juda ko‘p ichki iztiroblarni boshdan kechiradilar.

5. Demonstrativ tip- Bu tip vakillari diqqat markazida bo‘lishni xush ko‘radi. Ular o‘zlarini ko‘rsatishga, maqtovg‘a intiladi, dramatizatsiya qilishga moyil. Ba’zida haqiqatni bezab ko‘rsatadi yoki to‘qima hikoyalar bilan chiqishadi.

6. Pedantik tip- Pedantiklar tartib-intizomni, aniqlikni va har bir ishda mukammallikni xush ko‘radi. Har qanday beqarorlik, kutilmagan vaziyat ularni xavotirga soladi. Ular ishchan, mas’uliyatli, ammo injiq va rasmiy bo‘lishi mumkin.

7. Tashvishli (anxioz) tip- Ular o‘ziga ishonchsiz, xavotirga moyil va qo‘rqoq bo‘ladi. Odatda, uyalchang, passiv, yangi muhitga moslashishda qiynaladi. Bunday shaxslar boshqalarning fikrini haddan tashqari inobatga oladi.

8. Sikloid tip- Sikloid shaxslar davriy ravishda gipertimik va distimik fazalarga kiradi. Bir davrda ular faol va quvnoq bo‘lsa, boshqa davrda tushkun va sustkash bo‘lishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, o‘smirlik davrida yaqqolroq kuzatiladi.

9. Affektiv-eksplziv (epileptoid) tip- Bunday shaxslar tajovuzkorlik, jizzakilik va boshqalarga nisbatan nazoratchanlik bilan ajralib turadi. Ular ko‘pincha rasmiyatchi, o‘ziga qattiq talabchan va biroz zo‘ravon bo‘lishi mumkin.

10. Ekstravert va introvert tiplari- Ekstravertlar tashqi dunyoga ochiq, ijtimoiy faol bo‘lsa, introvertlar esa ichki dunyosiga sho‘ng‘igan, kamgap va

mustaqil fikrli bo'ladi. Ularning bir-biriga zid xususiyatlari aksentuatsiya shaklida ham ifodalanishi mumkin [2].

Ushbu tiplar har bir insonda turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zilarida bir necha tipning elementlari aralash holda mavjud bo'ladi. Aksentuatsiya tiplari shaxsning ijtimoiy moslashuvi, qaror qabul qilish jarayoni va stressga bo'lgan chidamliligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xarakter aksentuatsiyasining namoyon bo'lishi shaxsning yoshiga, hayotiy tajribasiga, ijtimoiy muhitiga va biologik omillariga bevosita bog'liq. Ayniqsa, o'smirlik davri - aksentuatsiya belgilarining kuchayib borishi uchun eng sezgir va xavfli bosqich hisoblanadi. Bu davrda insonda jismoniy, emotsional va ijtimoiy jihatdan jadal o'zgarishlar sodir bo'ladi. Xarakter aksentuatsiyasi o'smirlik yosh davrida quydagicha namoyon bo'ladi [4].

- Bu davrda identifikatsiya jarayoni faollashadi, ya'ni o'smir o'z "men"ini izlaydi va jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qiladi;
- Gormonal o'zgarishlar psixik beqarorlikni kuchaytiradi;
- O'smirlar o'ziga ishonchsizlik, haddan ortiq sezgirlik, mustaqillikka intilish va ziddiyatlilik bilan ajralib turadi;
- Shu sababli, o'smirlik davrida aksentuatsiyaning gipertimik, demonstrativ, affektiv-labil va sikloid tiplari tez-tez uchraydi.

O'smir o'z xarakteridagi kuchaygan chizgilarni do'stlar, oila a'zolari va atrofdagilarga bo'lgan munosabatda ochiq namoyon eta boshlaydi. Bunday vaqtda noto'g'ri ijtimoiy muhit, nazoratning yo'qligi yoki bosim bilan yondashuv salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli psixologlar ushbu davrda o'smirlar bilan nozik, tushunishga asoslangan va qo'llab-quvvatlovchi munosabatni tavsiya etad [5].

Bu davrda ko'pchilikda aksentuatsiya belgilarining kuchi biroz susayadi yoki shaxsning ijtimoiy tajribasi ortib, ular moslashuvchan shaklga o'tadi; Biroq ayrim holatlarda kuchli emotsional zarbalar, stress, ijtimoiy bosim yoki noto'g'ri hayot tarzi aksentuatsiya belgilarini kuchaytirib yuboradi; Shuning uchun bu bosqichda ham shaxsiy rivojlanish, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy moslashuv va professional faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etadi.

Xarakter aksentuatsiya namoyon bo'lishida erkaklar va ayollar o'rtasida ham farqlar mavjud: Masalan, gipertimik, epileptoid tiplarga erkaklarda ko'proq moyillik kuzatiladi; Emotiv, affektiv-labil va tashvishli tiplarga esa ayollarda ko'proq uchraydi; Bu farqlar nafaqat biologik, balki ijtimoiy rollar va tarbiya tizimi bilan ham bog'liq [4].

Yoshga bog'liq xususiyatlarni hisobga olgan holda shaxsga individual yondashuvni tanlash, aksentuatsiya kuchayishini erta aniqlash va mos profilaktika choralarini ko'rish shaxs rivoji uchun juda muhimdir.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, xarakter aksentuatsiyasining profilaktikasi bu nafaqat psixologning vazifasi, balki oila, maktab va jamiyatning hamkorlikda olib borishi zarur bo'lgan uzviy jarayondir. Har bir shaxsning individualligini tushunish va uni

to'g'ri yo'naltirish orqali sog'lom psixik rivojlanishga erishish mumkin. Shaxs xarakter aksentuatsiyasi bu normal rivojlanish doirasida bo'lsa-da, ayrim xarakter chizgilarining haddan ortiq kuchaygan holati sifatida tavsiflanadi. U insonning hissiy holati, ijtimoiy moslashuvi, qaror qabul qilish va shaxslararo munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xarakter aksentuatsiyasi o'z vaqtida aniqlanib, unga to'g'ri psixologik yondashuv tanlanmasa, u shaxsning ruhiy holatiga, ijtimoiy moslashuviga va hatto psixik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, aksentuatsiyani erta bosqichda aniqlash va oldini olish profilaktik ishlarning muhim tarkibiy qismidir.

1. Erta aniqlash va diagnostika - Shaxsning xarakter aksentuatsiyasini aniqlash uchun maxsus psixologik testlar va so'rovnomalardan foydalaniladi: A.E. Lichkoning "O'smirlar uchun xarakter aksentuatsiyasi aniqlovchi test'i"; K. Leonhard va Shmishek testlari; Psixologik suhbat va kuzatuvlar orqali aniqlash [2], Erta aniqlash orqali shaxsga nisbatan individual yondashuvni ishlab chiqish va salbiy holatlarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik mumkin.

2. Oila muhitidagi psixoprofilaktika - Oila shaxsning xarakteri shakllanishidagi asosiy omil. Shu sababli, oiladagi muvozanatli, qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy muhit aksentuatsiya kuchayishini oldini oladi; Ota-onalarga psixologik maslahat berish, tarbiya uslublarini qayta ko'rib chiqish va bolani individual qabul qilish muhimdir; Haddan tashqari talabchanlik, tazyiq yoki e'tiborsizlik kabi holatlar salbiy aksentuatsiyani kuchaytiradi.

3. Maktab va ta'lim muassasalari doirasida profilaktika- O'qituvchilar o'quvchilarning xarakteriga qarab individual yondashuvni shakllantirishlari zarur; Psixologik treninglar, sinf jamoasi bilan ishlash va shaxsiy rivojlanish mashg'ulotlari o'tkazish samarali vosita hisoblanadi; O'quvchilar orasida ijtimoiylashuvga yo'naltirilgan loyihalar (debatlar, klub faoliyatlari, ijtimoiy tashabbuslar) aksentuatsiyani ijobiy kanalga yo'naltiradi.

4. Individual psixokorreksiya va maslahat - Aksentuatsiya kuchli ifodalangan shaxslarga psixokorreksiya mashg'ulotlari o'tkazilishi zarur; Shaxsga o'zining kuchli va zaif tomonlarini tan olish, emotsiyalarni boshqarish, stressga chidamlilikni oshirish bo'yicha ko'nikmalar beriladi; Zarurat tug'ilganda psixoterapiya yoki psixiatrik maslahat ko'rsatilishi mumkin (agar aksentuatsiya patologik holatlarga o'tsa).

5. Ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizim- Shaxsning o'zini anglashiga, ijtimoiy rolini shakllantirishga yordam beradigan muhit yaratish muhim; Masalan: mentorlik tizimi, psixologik maslahat markazlari, yoshlar klublari, ijtimoiy xizmatlar [5].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksentuatsiya ayniqsa o'smirlar davrida kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu esa psixologlar, pedagoglar va ota-onalardan shaxsga nisbatan individual yondashuv, sabr, e'tibor va tushunishni talab qiladi. To'g'ri tashxis va samarali psixoprofilaktika vositalari yordamida bu holatning salbiy oqibatlarini kamaytirish, hatto ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Shaxsning ijtimoiy muhitda o'zini namoyon qilishi, moslashuvchanligi va psixik barqarorligini ta'minlash uchun xarakter aksentuatsiyasini erta aniqlash va unga



nisbatan mos yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Леонгард К. «Акцентуированные личности». — М., 1989.
2. Личко А.Е. «Психопатии и акцентуации характера у подростков». СПб., 2001.
3. Абдукаримов А. «Психология асослари». Тошкент: O‘zbekiston, 2016.
4. Салимов С. «Рухий тараққиёт ва ёш психологияси». Тошкент, 2020.
5. Исмадова Г. «Инсон психологияси». —Тошкент: Fan, 2019.
6. Интернет манбалар: www.psychologytoday.com, www.ziynet.uz



UBS Ilmiy Axborotnomasi Научный Вестник UBS UBS Scientific Bulletin

2025/1-son

Jurnalda maqolalarni terish 20-iyunda boshlandi.
25-iyun kuni bosishga ruxsat berildi.
Qog'oz bichimi A4. Adadi 10 ta nusxa.
Baxosi shartnoma asosida

**Tahririyat manzili: Namangan shaxri,
Beshkapa ko'chasi, 111-uy.**
Тел: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 e- mail: info@ubsu.uz

Jurnal rasmiy sayti
journal.ubsu.uz/index.php/main/index